O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti

**NAZAROV Bahodir Nuritdinovich**

# Islom agiografiyasi tizimida maqomotning o‘rni va uning badiiy-uslubiy xususiyatlari
(Bahouddin Naqshband maqomotlari asosida)

Toshkent - 2007

Annotatsiya

Mas'ul muharrir:
Muharrir:
Taqrizchilar:

UDK
BK Sveta opa

© Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti, 2007

# MUQADDIMA

O‘zbekistonda tarixiy qadriyatlarni, madaniy-ma’naviy merosni tiklash, ularni har tomonlama, chuqur o‘rganib, ilmiy umumlashmalar qilish va ta’lim-tarbiyada ulardan unumli foydalanish ishiga katta ahamiyat berilmoqda. Prezidentimiz I.A. Karimov o‘zining «O‘zbekiston buyuk kelajak sari» nomli asarida ijtimoiy va ma’naviy sohada amalga oshirilishi shart bo‘lgan vazifalarni ta’kidlab, ularning asosiylari «...ma’naviyat va axloqiylikni qayta tiklash, xalqlarning madaniy merosiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta’mirlash, qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni, adabiyot va san’atni bilish hamda ko‘paytirish»dan iborat ekanligini uqtirdi [33:7].

Vaholanki, mustaqillikkacha xalqimiz bu imkoniyatdan bebahra bo‘lib, o‘z merosimizni haqqoniy va xolisona o‘rganishga yo‘l qo‘yilmas edi. Ayniqsa, xalq badiiy tafakkuriga singib ketgan diniy-adabiy asarlar (agiografik adabiyot) deyarli o‘rganilmay kelindi. Holbuki, O‘rta Osiyoda islom dini tarqalishi bilan arab, fors va turkiy tillarda bitilgan turli janr hamda uslubdagi ulkan bir adabiyot vujudga keldi. Bu adabiyotning katta qismi tasavvuf g‘oyalarini ifodalovchi doston, qissa, hikoya, rivoyat, g‘azal, ruboiy, qasidalardan iboratdir.

Qur’oni karim mazmuni, hadislar g‘oyasi shoir va yozuvchilar ijodiga ta’sir ko‘rsatib kelgani aniq. Payg‘ambarlar, sahobalar, valiylar hayotidan hikoya qiluvchi o‘nlab turli asarlar mavjud.

«Qissai Rabg‘uziy», «Qissas ulanbiyo», «Me’rojnoma», «Qissai Karbalo», «Ravzat ushshuhado» kabi asarlarning nasriy va nazmiy variantlari xalqimiz orasida keng tarqalgan bo‘lib, asrlar davomida o‘qib kelingan. Ayniqsa, turli darajadagi shayxlar, valiylar va so‘fiylar haqida yozilgan asarlar agiografik adabiyotning katta qismini tashkil etadi. Mashhur so‘fiylardan Robia Adaviya, Mansur Xalloj, Boyazid Bistomiy, Ibrohim Adham, Abduqodir Giloniyga bag‘ishlangan xilma-xil asarlar qo‘lyozma fondlarimizdan joy olgan. Fondlarda Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror kabi valiylarning hayoti va faoliyatidan hikoya qiladigan tarixiy-badiiy asarlarning ham o‘nlab nusxalari saqlanmoqda. Birgina Naqshband hazratlari va naqshbandiya tariqati vakillariga bag‘ishlangan asarlarning soni yuzdan ortiqdir. Bundan tashqari, XVII–XIX asrlarda yashab o‘tgan Boborahim Mashrab,

Bobotoj Sanoiy, Tolibxo‘ja, Nishotiy, So‘fiy Ollohyor, Fuzuliy, Mirzo Bedil, Xislat eshon, Huvaydo, Haziniy singari iste’dodli adiblarning lirik va epik asarlari ham borki, bular xalqimiz badiiy ijodining ulkan xazinasidir.

Bu asarlarni o‘rganish orqali, birinchidan, agiografik adabiyotning o‘ziga xos jihatlari, Movarounnahrda musulmon agiografiyasining taraqqiyoti, ildizlari, xususiyatlari aniqlanadi. Ikkinchidan, Markaziy Osiyodagi tasavvuf tarixi va so‘fiyona adabiyotning shakllanish jarayoni, janrlari hamda turlari, g‘oyaviy yo‘nalishlaridan voqif bo‘lamiz. Uchinchidan, shu orqali O‘rta Osiyo xalqlarining ma’naviy-falsafiy tafakkuri qanday kechganiga shohid bo‘lamiz, tasavvufning axloqiy-ta’limiy usullari, bu oqim shayxlarining hayoti, faoliyati, ta’limoti bilan tanishamiz.

Shuni alohida qayd etish kerakki, tasavvuf shayxlarining o‘zi xalq onggida, tasavvurida nafaqat real shaxs, balki badiiy obraz sifatida muhrlanib qolgan. Odamlar ularni rivoyat va afsonalar qahramoni, aniqrog‘i favqulodda afsonaviy shaxslar deb tasavvur etib kelgan. Ular haqidagi manoqib va maqomotlarni katta qiziqish bilan mutolaa qilgan. Demak, agiografik adabiyot – o‘ziga xos adabiyot, u bir tomondan, muayyan tarixiy shaxs bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, qadimgi asotirlarda aks ettirilgan personajlar holatini eslatuvchi xislatlarni ifodalab keladi.

Musulmon agiografiyasi - jahon agiografik adabiyotining bir qismi bo‘lishi bilan bir qatorda, bu turdagi asarlar tasavvuf adabiyotining ham tarkibiy qismidir.

Tasavvuf adabiyotini ham bir necha qismga bo‘lish mumkin. Chunonchi, prof.Najmiddin Komilovning fikricha, bu turdagi adabiyotni unga yuklatilgan vazifalar nuqtai nazaridan dastlab ikki qismga ajratish mumkin [35:161].

Ularning birinchisi «tasavvuf ta’limotini bayon etgan, so‘fiyona istilohlar bilan fikr yuritadigan asarlardir. Ularni tasavvuf darsliklari sifatida qabul qilsa bo‘ladi». Chunki bunday asarlar mualliflarining maqsadi so‘fiyona tushunchalarni nazm yo‘sinida tushuntirib berish bo‘lgan. Buni orifona adabiyot ham deyishadi. Ikkinchisi ishqiy-sarguzasht dostonlar, lirik asarlar (g‘azal, ruboiy) kabi tasavvuf g‘oyalarini kuylagan, bu g‘oya ularni obrazlar, tamsil-timsollar orqali tasvirlab bergan asarlar. Bunday asarlar adabiyotshunoslikda oshiqona adabiyot deb yuritiladi.

Ammo so‘fiyona adabiyotga birinchi bo‘lib qo‘l urgan professor Ye.E. Bertels bu adabiyotga xos xususiyatlardan biri pand-nasihat ekanligini ta’kidlab, darvesh axloqi masalasi hamma vaqt uning diqqat markazida turgan, deydi [95:63] va shunga asosan so‘fiyona axloqiy dostonlarning bir nechtasini tahlil qiladi. Albatta, so‘fiyona adabiyotning o‘z mavzui bo‘lishidan tashqari o‘z tasviriy uslubi, ramziy tili ham shakllangan. So‘fiyona istilohlar, ma’nolarni bilmagan oddiy kitobxon bu adabiyotning ko‘p g‘oyalarini yetarli idrok etolmasligi yoki boshqacha tarzda tushunishi ham mumkin. Shu bois ham bu asarlarni sharhlash, maxsus lug‘atlar tuzib ilova qilish asrlar davomida rasm bo‘lib qolgan edi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, so‘fiyona adabiyot haqida yozgan olimlar aksar hollarda she’riy asarlarni, ya’ni tasavvuf she’riyatini nazarda tutadilar. Holbuki, nasrda ham kattagina so‘fiyona adabiyot yaratilgan. Bunga nasriy qissalar, hikoyatlar, naqllar, maqomotlar, tazkiralar, taboqotlar, manoqib va holot kabi janrlarda yozilgan asarlarni kiritishimiz mumkin. Bu asarlarning paydo bo‘lish tarixi, rivoji, adabiy-badiiy xususiyatlari, ahamiyati, obrazlar tizimi, tili hali o‘rganilgan emas.

Umuman olganda, tasavvufning o‘zini o‘rganishga endigina kirishildi desak xato bo‘lmas. Chunki sho‘rolar davrida olimlarimiz Ye.E. Bertels, V.Yu. Zohidov, A.Hayitmetov ishlarida, «O‘zbek adabiyoti tarixi» nomli besh tomlik tadqiqotda naqshbandiya ta’limoti, Navoiy ijodiga bu ta’limotning ta’siri borligi haqida gapirilgan bo‘lsada, lekin islom diniga hamda tasavvufga umumiy qarash salbiy bo‘lganligi uchun bu soha keng va batafsil tadqiq etilmay qoldi.

XX asr 80-yillarining oxirida va ayniqsa, O‘zbekiston mustaqil bo‘lganidan keyin bu sohani o‘rganishga e’tibor qaratildi hamda diqqatga loyiq bir qancha ishlar nashr etildi.[1]

---

[1] Ѓойиблар хайлидан ёнган чироқлар. – Т., 1994; Зоҳидов П. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд. Меъморий хазина. – Т., 1993; Султон И. Баҳоуддин Нақшбанд абадияти. – Т., 1993; Ҳомидхон Исломий. Ипор ҳиди ила туѓилган ориф Баҳоуддин Нақшбанд. – Т., 1993; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 1996; Березиков Е. (Насафий) Ҳазрати Баҳоуддин Нақшбандий. – Т., 1993; Олим С. Нақшбанд ва Навоий. – Т., 1996; Хожа Баҳоуддин ҳақиқати. – Т., 1996; Ишқ, Ошиқ, Маъшуқ. – Т., 1992; Салим С. Дилда ёр. – Т., 1997; Салим С. Баҳоуддин Нақшбанд ёки етти пир. – Т., 1996; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991;

Tasavvufga oid ishlarning aksariyati hozircha ushbu ta'limotning mohiyati va tarixda tutgan o'rni, badiiy ijodga ta'sirini xalqqa tushuntirishga qaratilgan. Olimlarimiz Markaziy Osiyoda shakllangan tariqatlar, ularning faoliyati, siyosiy-ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, tarixiy ahamiyatini yoritishga e'tibor qilmoqdalar. Shuning uchun bo'lsa kerak, tasavvufni o'rgangan olimlar orasida adabiyotshunoslar va tarixchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Ayniqsa, Bahouddin Naqshband va uning Navoiy ijodiga ta'siri, shuningdek Ahmad Yassaviy hikmatlarini o'rganish bo'yicha yaxshi yutuqlar qo'lga kiritildi, deb o'ylayman.

Biroq bizdagi agiografik adabiyot, jumladan tasavvuf adabiyotining ko'p qatlamlari, yozma yodgorliklar, she'riy va nasriy manbalar o'rganilmay kelinmoqda. Ular o'z tadqiqotchilarini kutayapti. Shu kabi O'rta Osiyoda keng tarqalgan shayxlar, komil pirlar hayotiga bag'ishlangan maqomotlar ham tarixiy nuqtai nazardan bir qadar o'rganilgan bo'lsa-da[1], adabiy asar sifatida maxsus tadqiq etilmay kelinmoqda. Birgina Bahouddin Naqshband haqidagi maqomotlarni shu nuqtai nazardan tahlil etish qimmatli ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Petrushevskiy, O.D. Chexovich, B.A. Axmedov, M.A. Abduraimov kabi mashhur sharqshunos olimlar agiografiyalardan o'z tadqiqotlarida keng foydalanganlar[2].

1994 yilda R.A. Tillaboyev «XV–XVI asrlar O'rta Osiyo agiografik asarlari tarixiy manba sifatida» (Naqshbandiya tariqatiga mansub agiografik asarlar) mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Bu olim ham agiografiyalarni tarixiy manba sifatida tadqiq va tahlil qilgan. Ushbu dissertatsiyani yozishda olim naqshbandiya tariqatiga

---

Идрис Шоҳ Наќшбандий тариќати. – Т., 1993; Дўстќораев Б. Яссавий ким эди? – Т., 1994; Бобохонов Ш., Мансур А. Наќшбандия тариќатига оид ќўлёзмалар фихристи. – Т., 1993; Авлиёлар султони Туронлик валийлар. – Т., 1966; Абул Муҳсин Муҳаммад Боќир. Баҳоуддин Балогардон. – Т., 1993; Валихўжаев Б. Хожа Ахрор тарихи. – Т., 1995.

[1] Тиллабоев Р. XV–XVI асрлар Ўрта Осиё агиографик асарлари тарихий манба сифатида (Наќшбандия тариќатига мансуб агиографик асарлар). Автореф.док.дисс. – Т., 1994.

[2] Вяткин В.Л. Из биографии Ходжи Ахрара. ТВ, 1904, №147; Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч.т.II. ч.2. – Т., 1964; Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии ХУ– ХУШ в.в. – Т., 1985.

oid o‘ndan ortiq maqomot va manoqiblarni tadqiqot doirasiga jalb qilgan.

Tasavvuf adabiyotini, uning bashariyat tarixi va tafakkuriga ko‘rsatgan ta’sirini o‘rganmay turib O‘rta asrlar sharq tarixi va adabiyoti haqida to‘liq tasavvur hosil qilish qiyin.

Tasavvuf adabiyotini o‘rganish shu jihati bilan muhimki, u o‘rta asrlarda jamiyatning barcha qatlamlariga o‘z ta’sirini o‘tkazgan va ularning tafakkur tarzi, dunyoqarashi shakllanishiga bevosita ta’sir qilgan.[2] O‘sha davrlarda yashab, ijod qilgan aksariyat ijodkorlarning asarlari tasavvuf ta’limoti bilan sug‘orilganligi aniq ravshandir.

O‘rta asrlarda yaratilgan, fors tilida nasr va nazmda yozilgan yuzlab agiografik asarlar so‘fiyona adabiyotning shu turiga kiradi. Bu turdagi asarlarni so‘fiyona adabiyot jumlasiga kiritishimizga asosiy sabab, ularda muayyan tariqatga asos solgan shayxlar, pirlar, valiylar yoxud ularning ta’limoti va amaliyotini davom ettirgan mashoyixlarning barchaga ibratli hayoti, faoliyati, kashfu karomatlari, bashoratlari va shu bilan birga ularga xos bo‘lgan havoriq odatlar haqida hikoya qilinganligidir.

Agiografik adabiyotning boshqa turdagi adabiyotlardan farqli o‘laroq o‘ziga xos xislatlari borki, ularni rus olimasi N.Yu. Chalisova quyidagicha ta’riflaydi: «...agiografiyalar (jitiya svyatix) ularda avliyoning biografiyasiga oid elementlar mavjudligi tufayli tarixiy (asarlar)dir, axloqiy masalalarga to‘g‘ri javoblarning namoyish etilishi nuqtai nazaridan ular nazariy asarlardir va janr nuqtai nazaridan yondashilganda badiiy nasr (namunalari) bo‘lganligi hamda dindorlarga chuqur emotsional ta’sir ko‘rsatishi tufayli poetik (asarlar)dir». [182:140]

Ushbu fikrlardan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, agiografik asarlarga ham tarixiy, ham nazariy manbaa sifatida va nihoyat badiiy nasr namunasi sifatida yondashish hamda ulardan muayyan maqsadlar uchun foydalanish mumkin.

XX asrning boshlaridan to shu paytga qadar g‘arb va sharq olimlari agiografiyalardan, asosan, tarixiy manba va tasavvuf shayxlarin-

---

[2] Шу ўринда Е.Э. Бертельснинг ќуйидаги сўзлари катта аҳамият касб этади: «Сўфиёна адабиётни ўрганмасдан Ўрта асрлар мусулмон шарќидаги маданий ҳаёт ҳаќида аниќ тасаввур ҳосил ќилиш мумкин эмас» (Бертельс Е.Э. Суф. и суф. лит. – М., 1965. – С. 54).

ing biografiyasini tiklash uchun muhim manba sifatida foydalanganlar.

Bu sohada R. Nikolson, L. Massinon, D. Arberri, X. Ritter, Ye.E. Bertelslarning agiografiya janriga mansub asarlar haqidagi tadqiqotlari diqqatga sazovordir.[1]

Bundan tashqari V.V. Bartold, V.P. Vyatkin, P.P. Ivanov, agiografik asarlardan manba sifatida foydalangan (bular quyidagilardir: Abul Muhsin Muhammad Boqirning «Maqomoti Bahouddin Naqshband», Muhammad Qozi ibn Burhonnning «Maqomoti xoja Ubaydulloh Axror», asari va boshqa shu kabi). Shu bilan bir qatorda agiografik asarlarni adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan O‘rta asrlarda fors tilida yaratilgan adabiy nasr namunasi sifatida o‘rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Chunki N.Yu. Chalisovaning agiografik asarlarning badiiy nasr namunasi ekanligi haqida yuqorida ta’kidlangan fikrini V.O. Klyuchevskiyning quyidagi so‘zlari ham tasdiqlaydi: «Agiografiya tarixiy xabarlar (istoricheskie povestvovanie) emas, balki muayyan qolipga (shablonga) ega bo‘lgan adabiy janrdir» [141:84].

Mana shu fikrlardan kelib chiqqan holda o‘rta asrlarda fors tilida nasr va nazmda yozilgan yuzlab maqomotlarni nasrda yozilgan forsiy sufiyona adabiyot tizimidagi o‘rnini adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilish, ularning badiiy-uslubiy xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘rta asrlarda fors tilida yaratilgan agiografik asarlar adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan hanuz tahlil qilinmagan edi. Muallifning 1996 yildagi «Ali Muhammad Muxlisning «Holnoma» asari – XVI–XVII asr dariyzabon nasr namunasi» nomli dissertatsiyasi bu sohada amalga oshirilgan dastlabki qadam bo‘ldi[2]. Muallif mazkur dissertatsiyada

---

[1] PK Tadhkiratul- Avliya of Shaykh Faridud-Din Attar Ed. by R.A.Nicholson. PtI.L.1905; Muslim Sains and Mistics. Episodes from the Tadhkirat al-awliya by Farid al-Ali Attar. Tranl by A.J.rberry Chicaga. 1966. Ritter H. Studian Zur Ceschichte der Islamischen Fromigkeit Hasan al-Barry. Di.Xxi.1937; Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – M., 1965.

[2] Назаров Б.Н. Али Муҳаммад Мухлиснинг «Ҳолнома» асари XVI–XVII аср дарийзабон насрининг намунаси. Филол.фан.номзод.дисс. – Т., 1996.

XVI–XVII asrlarda bugungi Afg‘oniston hududida yashab ijod qilgan, «ro‘shoniya» tariqatiga asos solgan shayx Boyazid Ansoriyning hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi, uning muxlisi va muridi Ali Muhammad Muxlis qalamiga mansub «Holnoma» asarining janrini aniqlash, uning kompozision qurilishi, badiiy-uslubiy xususiyatlarini tahlil qilishga harakat qilgan.

Umuman olganda xristian va buddizm agiografiyasini o‘rganish sohasida ancha tadqiqotlar amalga oshirildi.

XIX asrning 70-yillarida rus tarixchisi V.O. Klyuchevskiy (1841–1911) XII–XVII asrlarga mansub «jitiya»(agiografiya)larni o‘rganib rus agiografiyasi taraqqiyoti tasvirini, haqiqiy tarixiy voqealar va so‘nggi qatlamlarning mutanosibligini aniqlashga hamda tanqidiy jihatdan o‘rganishga imkon beruvchi matnlarning ilmiy-tanqidiy usullarini ishlab chiqdi.[1]

So‘ngra u o‘zining bir qator ilmiy izlanishlari natijasida «jitiya»lar o‘rta asr madaniyati, siyosiy tarixi va tafakkur tarzini tavsiflovchi manba ekanligini isbotlab berdi.

V.L. Vyatkin, N.G. Maliskiy, A.A. Semenov, N.I. Veselovskiy kabi sharqshunoslarning bu sohadagi izlanishlari ham diqqatga sazovordir.[2]

Naqshbandiya tariqatiga oid agiografiyalarni tadqiq qilish natijasida V.L. Vyatkin birinchilar qatori Shayx Xoja Axrorga Samarqand, Toshkent, Farg‘onada qirq yildan oshiqroq muddat davomida o‘zaro jangu jadallarning oldini olishga muvaffaq bo‘lgan davlat va din arbobi sifatida katta baho beradi. N.G. Malliskiy uning Temuriy sultonlarga ko‘rsatgan ta’sir doirasi kengligini ochib berdi. Bu tadqiqot islom agiorafiyasi maqomot janrining badiiy xususiyati tahliliga bag‘ishlangan birinchi tadqiqotdir.

---

[1] Ключевский В.О. Древнерусские жития святых как исторический источник. – М., 1889.

[2] Маллацкий Н.Г. Ташкент (исторический очерк) «Известия Ташкентской городской думы». 1915, №2: Семенов А.А. Бухарский шейх Баха-уд-дин (1318–1389) - Восточный сборник в честь Н.И. Веселовского. – М., 1914 (ТВЛИВЯ вып.ХТ.Ш) Рассказ шугнанских исмаилитов о бухарском шейхе «Баха-уддине. ЭВОРАО, – Т.: ХХП, 1915; Веселовский Н.И. Памятник Ходжи Ахрара в Самарканде // «Восточные заметки». Сб.ст.СПБ, 1895.

Maqomotlarning islom agiografiyasi tizimida tutgan o‘rnini, omillarini aniqlash va tahlil qilish ularning mustaqil janr sifatida vujudga kelishida namoyon bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlarini, forstojik adabiyotining nasriy janrlari tizimida tutgan o‘rni va ahamiyatini, maqomotnavislik maktabining vujudga kelishi va taraqqiyoti tendensiyalarini, maqomot mualliflarining badiiy shakl, badiiy uslub sohalaridagi izlanishlarini, maqomotlarning obrazlar tizimini, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, shakli va ichki tuzilishidagi o‘ziga xoslikni, yangilanish unsurlarini, an’anaviylik masalalarini o‘rganish, umumlashtirish va shu asosda maqomot janrining shakllanish tarixi hamda o‘ziga xos badiiy-uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish ushbu tadqiqot ishiga maqsad kilib olindi.

Bahouddin Naqshband maqomotlari ushbu tadqiqotning ob’ekti bo‘lib, bu janrning vujudga kelishidagi asosiy omillarni, ta’rifini, musulmon agiografiyasi tizimidagi o‘rni, mundarijasi, mazmuni va mohiyatini, kompozision qurilishi, asar qahramonlari, uning o‘ziga xos badiiy-uslubiy xususiyatlarini, ularda qo‘llanilgan badiiy til vositalari va san’atlarni, har bir maqomot muallifining o‘ziga xos badiiy-uslubiy mahoratini tahlil qilish hamda yoritish ishimizning asosiy maqsad va vazifalarini belgilab berdi.

Ushbu ishning oldiga qo‘yilgan bosh vazifalardan biri Xojagon Naqshbandiya tariqati asoschisi, valiy – shayx Hazrati Xoja Bahouddin Naqshbandga bag‘ishlangan maqomotlarning, umuman, islom agiografiyasi tarkibidagi, xususan mazkur tariqat shayxlari maqomotlari orasidagi o‘rnini belgilash, ularga fors tilidagi badiiy nasr namunasi sifatida yondashib, badiiy-uslubiy xususiyatlarini tahlil qilishdan iboratdir.

# I BOB

## Islom agiografiyasi va so‘fiyona nasriy adabiyot janrlari

### 1.1. Islom agiografiyasining tasnifi va tasavvuf adabiyotiga ta’siri

Tasavvuf (sufiyona) adabiyoti haqida fikr yuritar ekanmiz, bu adabiyotning vujudga kelishi dastavval arab va fors tillarida buyuk bir she’riyatning vujudga kelishi bilan boshlanganligining guvohi bo‘lamiz.

Sharqshunoslardan Krimskiy, Nikolson, Arberri, Ye. Bertels, o‘zbek olimlari V. Zohidov, A. Hayitmetov, N. Komilov, I. Haqqulov O. Usmonov, S. Olimov va boshqa tadqiqotchilar tasavvuf adabiyotining shakllanishi tarixi, xususiyatlari, g‘oyaviy mazmuni haqida fikr bildirishgan.[1]

«VIII–XI asrlarda, - deb yozadi N. Komilov, - Robiya Adaviya, Mansur Halloj kabi ulug‘ so‘fiylar ijodi bilan boshlangan so‘fiyona ash’or X–XII asrlarga kelib ulkan bir adabiyotga aylandi, o‘ziga xos obrazlar, timsollar olami, alohida ramzlar, uslub va usullar shakllandi» [35:61].

So‘fiyona she’riyatning oldiga qo‘yilgan vazifalar, ularning turlari, tasvir mavzui, ulardagi obrazlar, timsollar, buyuk so‘fiy shoirlar haqida yetarli darajada tadqiqotlar olib borilgan. Tasavvuf adabiyoti haqida yozilgan aksariyat tadqiqotlarda so‘fiyona she’riyat, tasavvuf falsafasi yoritilgan she’riy asarlar tahlil qilinadi. Masalan, atoqli sharqshunos olim Ye.E. Bertels ko‘proq so‘fiyona mazmunli dostonlar va ularning mualliflari, dostonlardagi didaktik mazmun ustida fikr yuritadi.[2] Chunonchi, Attorning منطق الطير «Mantiq ut-tayr», Sanoiyning حقيقت الحقايق «Haqiqat ul-haqoyiq», سير العباد «Sayr ul-ibod» dostonlari, Navoiyning لسان الطير «Lison ut-tayr» dostonining so‘fiyona obrazlari, g‘oyasi tekshirilgan. Biroq Ye.E. Bertels nasriy so‘fiyona adabiyotni tekshirgan emas. Aslini olganda, albatta, tasavvufiy adabiyot - falsafiy

---

[1] Адабиётлар рўйхатига ҳаралсин.

[2] Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М., 1961.

adabiyotdir. Shu nuqtai nazardan N. Komilov irfoniy asarlarni ikki qismga ajratadi [35:161].

Birinchi qismga u tasavvuf ta'limotini bayon etuvchi, so'fiyona istilohlar bilan fikr yuritadigan asarlarni kiritadi. Chunonchi, Abulmajid Sanoiyning حقيقت الحقايق «Haqiqat ul-haqoyiq», Mahmud Shabistariyning گلشن راز «Gulshani roz», Jomiyningشرح رباعی «Sharhi ruboiy»si, Bedilning محيط اعظم «Muhiti a'zam» nomli asarlari bunga misol bo'la oladi.

Ushbu asarlarni tasavvuf darsliklari sifatida qabul qilsa bo'ladi. Chunki mazkur mualliflar ushbu ta'limotni nazm orqali tushuntirishni maqsad qilib olganlar, deydi N. Komilov.

Ikkinchi qism adabiyotga tasavvuf g'oyalari insoniy kechinma va hayajonlar, badiiy timsol va tamsillar orqali tasvirlanib, talqin qilingan asarlar kiritiladi. Masalan, Abulmajid Sanoiyning سير العباد «Sayr ul-'ibod», Fariduddin Attorning الاهينامه «Ilohiynoma», بلبلنامه «Bulbulnoma», Jaloliddin Rumiyning مثنوی معنوی «Masnaviy ma'naviy», Navoiyning حيرت الابرار «Hayrat ul-abror», لسان الطير «Lison ut-tayr» asarlari bunga misol bo'la oladi. Bu asarlardan tashqari sof ilohiy ishqni tasvirlovchi yuzlab g'azallar, ruboiylar, «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», «Vomiq va Uzro» kabi dostonlar ham bor. Bular endi orifona adabiyot emas, balki oshiqona she'riyatdir.[1]

Aslida so'fiyona adabiyot Sharq adabiyotining umum kontekstida olib qaralganda uni o'ziga xos bir adabiy yo'nalish (raviya) deb olish mumkin. Bu yo'nalish xilma-xil janrlarni qamrab olgan. Bu janrlaring aksariyati ilgaridan mavjud bo'lgan adabiy shakllardir. Ya'ni, yuqorida aytilganiday, qadimdan mavjud bo'lgan ruboiy, qit'a, g'azal, tarje'band, muxammas, masnaviy, doston, qissa, hikoya

---

[1] Умуман тасаввуф шеъриятини, айникса ғазалларни орифона, ошиқона деб тасниф этиш Эрон, Туркия, Покистон ва Ҳиндистон олимлари томонидан анча олдин амалга оширилган. Ишқ-муҳаббатни куйлаган шеъриятни эса Алишер Навоий уч қисмга, яъни: 1) омма англайдиган муҳаббат адабиёти, 2) илоҳий ишқни мажозий (дунёвий) восита билан тасвирловчи адабиёт ва 3) бевосита илоҳий ишқни (ишқи ҳақиқий) куйловчи адабиётга бўлганини биламиз.

va hokazo. Tasavvuf bu janrlarga yangi mazmun va ruh bag‘ishladi, ilgarigi adabiy usullarga ramziy (yashirin) ma’nolar yuklandi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ilgari sof dunyoviy bo‘lgan dostonlar ham so‘fiy shoirlar ijodida so‘fiyona ma’noga ega bo‘ldi. Masalan, «Yusuf va Zulayho», «Vomiq va Uzro», «Farhod va Shirin», «Bahrom va Gulandom» va boshqa shu kabi asarlar.

Shu tariqa, tasavvuf g‘oyalari nasriy asarlar mazmunini ham qamrab ola boshladi. Bunda endi ikki xil holatni ko‘ramiz: birinchisi ilgaridan davom etgan nasriy asarlarga so‘fiyona g‘oyalarni singdirish, ularni shu ruhda qayta ishlab chiqish; ikkinchisi - tasavvuf g‘oyalari targ‘iboti ehtiyoji bilan paydo bo‘lgan yangi nasriy tarixiy-adabiy shakllardir.

So‘fiyona adabiyotning ana shu turi hanuz tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolib kelmoqda va bu turdagi adabiyot hanuz keng ma’noda ilmiy taomilga olib kirilmagan. Tariqat shayxlari, pirlar, mashoyixlar, avliyolarning hayoti va faoliyati haqida, ulardan sodir bo‘lgan kashfu karomatlar va bashoratlar, ularga xos bo‘lgan havoriq odatlar va xislatlar haqidagi, ularning murshidlari va muridlari haqidagi ma’lumotlarga boy bo‘lgan agiografik asarlar ana shunday tasavvuf taraqqiyotining o‘zi tug‘dirgan adabiyotdir. Bularning aksariyati nasriy yo‘lda yoki nasr-nazm usulida yozilgan asarlar hisoblanadi. Agiografik adabiyot, umuman, jahonda keng tarqalgan bo‘lib, u asosan diniy g‘oyalarni omma orasiga yoyish, nabiylar va valiylar hayotini bo‘rttirib tasvirlash orqali xalq mehr-muhabbatini qozonishga mo‘ljallangan. Shunga binoan, dunyodagi uchta katta din – buddaviylik, nasroniylik va islomning o‘ziga xos agiografik adabiyoti tarkib topgan hamda rivojlangan. Ayni vaqtda shuni ham ta’kidlash kerakki, agiografik asarlarda ushbu dinlar tarqalgan o‘lkalardagi xalqlarning milliy-etnik xususiyatlari ham aks etgan, ya’ni, fors agiografiyasining arab agiografiyasidan, turkiy tildagi agiografiyalarning fors agiografiyasidan farqi bor.

Islomiy agiografiya Muhammad alayhissalomning hayoti, faoliyati va harbiy yurishlari haqidagi xabarlar jamlangan «Mamlakatlarning zabt etilishi haqidagi kitob», «Harbiy safarlar kitobi» kabi arab tilida yozilgan asarlardan boshlanadi. F. Rouzentalning fikricha, VIII asrlardayoq bunyodga kelgan islom lashkarlarining mamlakatlarni zabt etish tarixi hamda Muhammad (s.a.v) va uning izdoshlarin-

ing faoliyati bilan bog‘liq voqealarni aks ettirgan ko‘plab kitoblarda agiografik adabiyotga xos bo‘lgan elementlar mavjud [173:11].

Agiografiya so‘zi yunoncha «agios» - avliyo va «grafiya» - yozaman so‘zlaridan yasalgan bo‘lib, agiografik asarlar payg‘ambarlar, avliyolar, shayxlar, pirlar, yirik ruhoniylar hayoti va faoliyati haqida hikoya qiladi. Rus adabiyotshunosligida «jitiynaya literatura» degan istiloh mavjud. U aynan agiografiyani anglatadi va ilmiy manbalarda ham bu ikki istiloh barobar suratda, teng ma’noli istiloh sifatida qo‘llaniladi.

Demak, agiografik asar, avvalo, muayyan tarixiy shaxs hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi asardir. Ammo bu tarixiy shaxs oddiy odam bo‘lmasdan, o‘zida avliyolik sifatlarini mujassamlashtirgan u yoki bu dinga e’tiqod qilgan valiysiyrat shaxsdir.

Agiografik adabiyot diniy dunyoqarashlarni o‘zida aks ettirgani holda, uni faqatgina diniy-mazhabiy adabiyot sifatida emas, balki badiiy adabiyot namunasi sifatida ham tadqiq etmoq lozim. Zero, bunday asarlarda tarixiy voqealar quruq bayon etilmaydi, balki badiiy-tasviriy vositalari orqali gavdalantirib beriladi (bu haqda keyingi sahifalarda keng to‘xtalib o‘tamiz). Bundan tashqari «Avesto», «Injil», «Tavrot», «Qur’on» kabi muqaddas diniy kitoblarning badiiy jihatdan shakllangan yuqori saviyadagi asarlar ekanligi ilm olamida tasdiqlangan, ya’ni diniy adabiyotlarning o‘zi badiiylikdan xoli emas. Agiografik asarlar tarixiy shaxs hayoti va faoliyatida ro‘y bergan tarixiy voqealar shohidi tarafidan ularga badiiy ishlov berish natijasida dunyoga kelgandir. Bu janrga mansub asarlar shu jihatlari bilan ham sof memuar va biografik asarlardan farqlanib turadi. Shu yerda rus olimi V.O. Klyuchevskiyning mazkur janrga mansub asarlar haqidagi quyidagi fikrini keltirish o‘rinlidir. Uning ta’biricha: «Raznisa mejdu jitiem svyatogo i biografiey» ta je, kotoraya suщestvuet mejdu ikonoy i portretom» [141:88].

Umuman olganda esa memuar (esdalik) asarlar orasida ham badiiy nasr namunasi bo‘lganlari bor. Chunonchi, بابرنامه «Boburnoma» (Bobur), بدايع الوقايع «Badoe’ ul-vaqoe’» (Vosifiy), نوادر الوقايع «Navodir ul-vaqoe’» (Donish) bunga misoldir.

Dunyoda keng tarqalgan uchta asosiy din - xristianlik, buddaviylik va islomning mavjudligi sababli adabiyotshunoslikda ham agiografik adabiyot shartli ravishda uchga bo‘lingan. Ularning

biri «Xristian agiografiyasi», ikkinchisi «Buddaviy agiografiya», uchinchisi «Musulmon agiografiyasi»dir.

Xristian agiografiyasi adabiyotshunoslikda musulmon agiografiyasiga nisbatan ko‘proq o‘rganilgan.[1] Mazkur tadqiqotlardan kelib chiqadigan qisqacha xulosa shuki, xristian agiografiyasi badiiy-tablig‘otiy adabiyot shaklida Rimda II–III asrlarda paydo bo‘lgan va xristian dinining tarqalishi bilan bog‘liq holda vujudga kelgan.

Agiografik asarlarga xos bo‘lgan umumiy xususiyat – ularda yaratilgan anbiyo va avliyo obrazida o‘rta asr kishilarining ideali – xudojo‘y va donishmand inson obrazini shakllantirishdan iboratdir.

Musulmon agiografiyasida ham xristian va buddaviy agiografiyada bo‘lganidek, orzudagi (ideal) inson, ma’naviy kamolot cho‘qqisini zabt etish sari intilgan inson obrazi tasvirlanadi.

Agiografik asarlar nafaqat tarixiy manba sifatida, balki adabiyot tarixi, u yoki bu xalq adabiyotida nasriy janrlarning shakllanishi va rivojlanishini o‘rganishda ham muhim manba vazifasini o‘taydi. Shunga ko‘ra, bu asarlarni tarixiy-adabiy yoki aniqroq qilib, diniy-tarixiy-adabiy asarlar sirasiga kiritish mumkin. Bunda tarixiy haqiqat va adabiy to‘qima, rivoyat va hikoyat qo‘shilib ketgan bo‘ladi.

Musulmon sharqi xalqlari adabiyotida badiiy adabiyot janri bo‘lmish agiografiya adabiyotining shakllanishi va rivojlanishi uch davrga bo‘linadi.

Birinchi davr VIII–IX asrni qamrab oladi. Bu davr agiografiyasining asosiy xususiyati shuki, bunda hikoya qilinayotgan voqealar qamrab olingan davrga nisbatan yaqindir. Ko‘p hollarda mazkur voqealarning ba’zi ishtirokchilari va ularning avlodlari hali hayot bo‘ladilar, ya’ni tarixiylik saqlangan bo‘ladi.

Ikkinchi davr X asrdan boshlanib, XII asrning birinchi yarmini qamrab oladi. Bu davr musulmon agiografiyasida, birinchidan, turli tilda asarlar yaratila boshladi, ikkinchidan, tarixiylik xususiyatidan

---

[1] Барсунов Н. Источники русской агиографии. – М., 1982; Валькер К. Жития, агиография святого Теория, Вилпер Р.Ю. Возникновение христианской литературы. – М., 1946; Гудзий Н.К. Житие Эваакума, им самим написанные и др. соч. – М., 1960; Дмитриев Л.А. Житийные повести русского Севера, как памятники литературы XIII–XVIII вв. – Л., 1973; Древнерусские жития святых как истор.и.соч. – М., 1989; Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. – Л., 1971.

ko‘ra badiiy to‘qima va rivoyatchilik xususiyati, ya’ni ideallashtirishga e’tibor kuchaydi. Shu davrga kelib arab, fors, turkiy tilidagi قصص الانبيا «Qissasul anbiyo», سيرة الانبيا «Sirat ul-anbiyo» kabi valiylar, sahobalarga bag‘ishlangan turli asarlar ko‘paydi.

Uchinchi davr XIII–XV asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu davrlarda musulmon dunyosi mo‘g‘ul bosqinchilari zulmini boshidan kechirdi va asta-sekin bu zulmdan ozod bo‘lib, madaniy hayot jonlandi, natijada agiografik adabiyotga ham yangidan ehtiyoj paydo bo‘lib, o‘tgan asrlarda yashagan shayxlar va avliyolarning hayoti haqida hikoya qiluvchi asarlar ko‘paydi.

Musulmon agiografiyasi deganda biz o‘rta asrlarda yashab ijod qilgan avliyolar, shayxlar va pirlarning hayoti hamda faoliyati haqida hikoya qiluvchi, arab, fors va turkiy tillarda yozilgan سيره «sira», قصص «qissa», طبقات «tabaqot», مقامات «maqomot», مناقب «manoqib»lar bilan bir qatorda ba’zi «tazkira»larni ham nazarda tutamiz. Mazkur janrlarda yaratilgan badiiy asarlar adabiyotshunoslikda hanuz kam o‘rganilgan sohalardan hisoblanadi. Bugungi kunga qadar sharqshunoslikda agiografik asarlar asosan tarixiy manba sifatida tadqiq qilingan, xolos.[1] Holbuki, bu asarlar sharq xalqlari badiiy tafakkurida o‘z izini qoldirdi, o‘ziga xos adabiyot sifatida rivojlanib, xalq ijodiyotidan oziqlandi va ko‘plab adiblar ijodiga ta’sir o‘tkazdi.

Musulmon agiografiyasining yetti asrlik tadrijiy taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, mazkur janr takomili jarayonida unda dastlab mavjud bo‘lgan arab afsonalari va real tarixiy faktlardan uzoqlashish ro‘y berib, badiiy xayolot unsuri, mo‘’jizakorlik xususiyati kuchaya borgan [173:31].

Yana bir ta’kidlab o‘tish lozim bo‘lgan fikr shundan iboratki, o‘rta asrlarda nasrda yaratilgan asarlar, xususan, tarixnavislik yodgorliklari o‘ziga xos xususiyatga egadir. Ularda «... tarixiy material bilan bir qatorda mualliflar o‘z asarlariga badiiylik baxsh etib, she’rlar va afsonalarni kiritganlar va o‘rta asrlarda keng qo‘llanilgan qofiyalangan prozadan - saj’dan foydalanganlar. O‘rta asrlarda yozilgan xronika asarlari voqelikning fotosurati bo‘lib qolmasdan, ularda muarrixlar tomonidan yaratilgan muayyan tarixiy shaxslarning

[1] Юқорида номлари зикр этиб ўтилган ўнлаб тадқиқотлар фикримизни тасдиқлайди.

obrazlari aksariyat hollarda originaldan uzoqlashgan bo‘lib, mifologiya va folklor elementlari bilan bezatilgan» [165:3].

Bu fikr aksariyat sharqshunoslar tomonidan qayd etilgan [163:32], ammo shuni qayd etish kerakki, mazkur qarash sharq mutafakkirlari tomonidan xiyla oldin qayd etilgan edi.

F. Rouzental O‘rta asrlar tarixnavisligiga alohida ahamiyat berib, bu janrni an’anaviy tarzda, nazm kabi ilmiy bo‘lmagan asarlar kategoriyasiga kiritadi [173:32]. Mazkur qarash ham xiyla ilgari Sharq olimlari tomonidan bayon etilgan edi. Chunonchi, Abunasr Forobiy va Ibn Xaldun bunga e’tibor qaratganlar va fanlar tasnifida bu xususiyatni hisobga olganlar. Forobiyning fikricha, biografiya (Axbor an-Nos) va tarix (Axbor al-Umam) ilmlarning shunday tipiga mansubki, ular o‘quvchiga lazzat baxsh etib, ko‘ngilni ochadi [2:38]. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, o‘rta asrlarda yaratilgan tarixnavislikka oid asarlar badiiy asar namunasi sifatida ham olib o‘rganilishi kerak. Ular bir-birlari bilan uzviy bog‘liqlikda va o‘zaro ta’sirlanib rivojlangan. Shuning uchun o‘rta asrlarda yaratilgan u yoki bu asarni tadqiq etishda mazkur fikrni nazarda tutish lozim. Yuqorida qayd etganimizdek, agiografik asarlarda ham bu xususiyat bor. Biroq baribir agiografik adabiyotning alohida ajralib turuvchi belgisi mavjud: unda tarixiylik va badiiylik mo‘’jizaviylik bilan, diniy e’tiqod g‘oyasi bilan omuxta holda ko‘zga tashlanadi.

L.I. Sottievning fikricha, musulmon agiografiyasi VII asrda dastlab arab adabiyotida vujudga kelgan. Ularning aksariyati islom dinining asoschisi Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) va uning izdoshlari, xalifalar haqida hikoya qiluvchi asarlar bo‘lgan. U sof arab agiografik adabiyotiga o‘rta asr arab adabiyotida sira (tarjimai hol) deb atalgan asarlarni kiritish kerak deb yozadi [173:7].

Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar siralari dastlabki musulmon agiografiyasining namunalaridir. Ibn Ishoq va Ibn Hishomning «Sirat an-nabi» asari musulmon agiografik adabiyotining qadimgi namunalaridan bo‘lib, keyingi davrlarda yaratilgan agiografik asarlar uchun namuna (model) vazifasini ado etgan [173:32].

Islom dinining forsiyzabon va turkiyzabon o‘lkalarda, xususan, Xurosonda tarqalishi natijasida Muhammad payg‘ambarning hayoti va faoliyati haqidagi siralarning forsiy va turkiy tillarga tarjima qilinishi oqibatida bu o‘lka xalqlari adabiyotida ham agiografik janr shakllana boshlagan, desak xato bo‘lmas.

Ammo bu o‘rinda yana bir faktni qayd etish o‘rinli deb hisoblaymiz. Ma’lumki, islom tarqatilguncha Eron va Turonda zardushtiy dini hukmron edi. Zardusht hayoti va boshqa ruhoniylar, shuningdek Budda hayotiga oid asarlar tarqalgani ham ma’lum. Ya’ni, bizning bobolar juda qadimdan boshlab agiografik adabiyot bilan tanish bo‘lgan.

Xuddi xristian dinidagidek, islom dinini kengroq tarqatish maqsadida islom dini hamda unga xos odob va axloq g‘oyalarini tashviq va targ‘ib qilishga keng yo‘l ochilgan, natijada boshqa adabiy turlar qatorida agiografiya janrlari - sira, qisas, tabaqot, manoqib, maqomot kabi janrlarining shakllanishi va taraqqiyotiga e’tibor kuchaydi. Shunday qilib, islom agiografiyasi asosan sira, qisas (qissa), tabaqot, tazkira, manoqib, holot, maqomot janrlari ko‘rinishida rivojlanib keldi.

## 1.2. So‘fiyona agiografik adabiyot janrlariga xos xususiyatlar

Yuqorida zikr etilgan fikrlardan kelib chiqib musulmon agiografiyasi janrlari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, dastlabki agiografik asar سيرة النبى «Sirat an-nabi»dir [173:42]. Janr nomini anglatuvchi سيرة «sira» istilohi (ko‘plik shakli سير siyar) – yo‘l, hayot tarzi kabi ma’nolarni anglatadi. Sira – musulmon tarixnavisligining payg‘ambar Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi alohida janridir. Bu so‘z payg‘ambarning hayoti haqidagi asar janrini anglatuvchi istiloh sifatida birinchi marotaba Ibn Hishom (vafoti 834 y.) tarafidan Ibn Ishoqning (704–767 y.) Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyati haqidagi asarini tahrir qilish jarayonida ishlatilgan «ya’ni, bu kitob Alloh rasulining hayoti bayonidir» deb qayd qilingan [173:58].

Ba’zi bir ma’lumotlarda Rasulullohning hayoti haqidagi hikoyalarni nomlash uchun «sira» so‘zining ko‘plik shakli «siyar» ishlatilgan (aksariyat hollarda المغازى «mag‘ozi» – so‘zi bilan birgalikda ishlatilgan). Siralar islom shariati qonun-qoidalarini, Muhammad alayhissalomning sunnatlarini saqlash, islomning haq din ekanligini kishilar ongiga singdirish, shuningdek, islom lashkarlarining qahramonliklarini madh etish, ularning yurishlarini rag‘batlantirish maqsadida yozilgan va keng tarqatilgan. Albatta, Muhammad alayhissa-

lomning siralari u kishining hayoti va faoliyati bilan bog‘liq voqea-hodisalarning aniq, ob’ektiv tasvirini bermaydi. Ularda Payg‘ambar haqidagi hikoyalar qayta ishlangan bo‘lib, sezilarli darajada o‘zgartirilgan. Ya’ni qo‘shimchalar, mubolag‘alar bilan to‘ldirilgan, badiiylashtirilgan. Siralarda rasululloh shaxsiyati afsonaviy agiografik xarakterga ega bo‘lib qolgan. U ishtirok etgan tarixiy voqealar afsonaviy bo‘yoqlar bilan bezatilib, muayyan yo‘naltirilgan diniy g‘oya shaklida bayon qilingan.

Arab tilidagi Muhammad alayhissalom siralari VIII asrga kelib to‘la shakllangan. Shuni ham aytish kerakki, mualliflar Payg‘ambar hadislaridan unumli foydalanganlar. Zotan, hadislarning ko‘p qismi (اخبار «axbor») kichik-kichik hikoyatlar shaklida ekanligini ham eslatib o‘tmoq kerak.

Ibn Ishoq tarafidan yozilgan sira aniq tizimga ega va uch qismdan tashkil topgan: المبتدا «Al-mubtado» - qadimgi payg‘ambarlar tarixi; «Al-mab’as» – hijriy birinchi yilga qadar bo‘lgan tarix; المغازى «al-mag‘ozi» – Muhammad alayhissalomning harbiy yurishlari va vafotigacha bo‘lgan voqealar bayoni. Al-Vakid (747–823) qalamiga mansub sira bilan Ibn Ishoq yozgan sira birgalikda ulardan so‘ng bu janrda yaratilgan asarlar uchun asosiy manba vazifasini o‘tagan va bu janr taraqqiyotida hal qiluvchi rol o‘ynagan [173:79].

«Sira» so‘zi tarixiy va afsonaviy qahramonlar haqida yozilgan سيرة انتر «Sirat Antar», سيرة بيبرس «Sirat Baybars» kabi arab xalq romanlari janrini ham anglatadi [134.208]. Ko‘rinib turibdiki, sira bilan qissas قصص (qissa) orasida yaqinlik bor. Payg‘ambarlar hayotiga oid asarlar bizda aynan قصص الانبيا «Qissasul anbiyo» nomi bilan mashhur. Zotan قصه «qissa» ham arabcha so‘z bo‘lib, ma’nosi hikoya, novelladir. «Qissas» yoki «qissa» bizda nafaqat diniy adabiyotlarga, balki dunyoviy adabiyotga nisbatan ham qo‘llaniladi. Chunonchi, «Qissai shoh Bahrom», «Qissai Majnun», «Qissai Zufunun» kabi. Bunda «qissa» ruscha povest ma’nosida qo‘llanilganini ko‘ramiz.

Diniy-agiografik adabiyotda ham hajman ancha katta bo‘lgan asarlar «qissa» deyilgan. قصه يوسف «Qissai Yusuf», قصه يعقوب «Qissai Ya’qub», قصه ابراهم عليه السلام «Qissai Ibrohim alayhissalom» kabi asarlar muayyan syujetga ega bo‘lib, asarning voqealari qizg‘in kurashlar ichida kechadi, o‘ziga xos salbiy va ijobiy kuchlar orasida

to‘qnashuvlar, iztirob va qiynoqlar yuz beradi. Oxir-oqibatda esa yovuz niyatli kuchlar yengilib, payg‘ambarlar g‘alaba qiladi.

Masalan, Qur’onda احسن القصص «Ahsan ul-qisas» («Qissalarning eng go‘zali») deb nomlangan Hazrat Yusuf qissasi ajoyib sarguzashtlarga boy yaxlit bir badiiy asardir. Yusufning tush ko‘rishidan boshlab, uning qiynoq va xo‘rliklarga duchor qilinishi, otasidan judo bo‘lishi, qul qilib sotilishi va oqibatda xudo bergan aqlu zakovati, nabiylarga xos karomatgo‘yligi bilan zindondan qutulib, Misr podshosining vaziri bo‘lishi, tuhmatlardan qutulishi va otasini, inilarini ko‘rib, ularga yordam berishi – bularning hammasi bir kompozision tizim bilan qiziqarli qilib hikoya qilinadi. Maqsad Allohga sadoqati hech bir holatda va qiynoqda ham, uqubatda ham buzilmaydigan payg‘ambarzodaning timsolini yaratish edi. Yusuf sadoqat va soflik, yuksak fazilat va husnu jamol ramzi bo‘lib keyin so‘fiyona adabiyot qahramoniga ham aylanadi.

Nasriy so‘fiyona adabiyotda قصه ابراهيم ادهم «Qissai Ibrohim Adham», قصه بابا روشن «Qissai Bobo Ravshan», قصه ديوانه مشرب «Qissai devona Mashrab» kabi asarlar ham bor. Bu tipdagi asarlarning aksariyati nasr-nazm usulida yozilgan bo‘lib, mashhur so‘fiylarning hayoti tasvirlangan.

Shuni ham aytish kerakki, bu qissalarga «xalq kitoblari»ning, ya’ni omiyona tasavvuf adabiyotining ta’siri bor. Ularning uslubi, ohangi, mazmuni ham shuni tasdiqlaydi.

Agar biz sira bilan qissalarni o‘zaro solishtirsak, siralarda jangnomalik xususiyati ustun ekanligini ko‘ramiz. Boshqacha aytganda, arab adabiyotida bu janr dastlab qahramonlik eposlari sifatida mashhur bo‘lgan. Keyinchalik agiografik adabiyot vakillari sirani diniy adabiyotga olib kirganda diniy jihoddagi qahramonlik bilan payg‘ambarlarga xos mo‘’jizakorlikni qo‘shib tasvirlaganlar. Ya’ni, ilohiy qudrat, ma’naviy-mafkuraviy kurash bilan harbiy hiyla va qudrat birga ifodalanadi.

Qissalarda esa siradan farqli o‘laroq, sof ilohiylik va mo‘’jiza-karomat tasviri asosiy o‘rinni egallaydi. Harbiy yurish va qahramonlik g‘oyasi yo‘q, zero, qahramonlik dunyoga, moddiy olamga xos ish. So‘fiyning qahramonligi bor. Ammo bu moddiy maqsaddagi qahramonlik emas, balki ma’naviy yuksalish, ma’naviy

jihod yo‘lidagi qahramonlikdir. Ibrohim Adham, Mansur Xalloj, Boborahim Mashrab qahramonligi ana shunday ma’naviyat yo‘lida qurbon bo‘lish qahramonligidir.

«Qissasul anbiyo»larda ham asosan payg‘ambarlarning tavhid g‘oyasi g‘alabasi uchun olib borgan sa’y harakatlari tasvirlanadi. Rabg‘uziyning «Qisasi Rabg‘uziy» asari ana shunday badiiy yodgorlikdir. Uning ikkinchi qismi butunlay Muhammadga (s.a.v.) bag‘ishlangan. Ammo unda jangu jadal tasviri uchramaydi. Asarda payg‘ambar siyrati tasvirlangan. Shunday qilib, forsiy va turkiy adabiyotda sira emas, balki qissaslar keng tarqalgan ekan.

Sira, siyar va qissaslardan tashqari طبقات tabaqot ham agiografiya janrlaridan biri hisoblanadi. «Tabaqot» arabcha «tabaqa» so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, qatlam, tabaqa, avlod ma’nolarini anglatadi. Muayyan bir davrda yashagan shaxslarning tarjimai holi shu ma’noda tabaqot bir-birining o‘rnini egallagan kishilar avlodlari haqidagi asar bo‘lib, shajaraga o‘xshab ketadi [134:85]. Farqi shuki, shajarada faqat shaxsning nomi va kunyasi, maqom-martabasi berilsa, tabaqotda batafsil ma’lumot keltiriladi, tarixiy rivoyatlar qo‘shilgan bo‘ladi.

Arab tarixnavisligida tabaqot biografik janrning bir shoxchasini anglatib, unda ma’lumotlar xronologik tartibda, tabaqalar bo‘yicha (ya’ni, shaxsning din olamidagi mavqei-martabasi, payg‘ambarga yaqinligi, eng avvalgi shaxsdan keyingi shaxslarga qadar) tartibga solib beriladi. Masalan, Muhammad alayhissalomning sahobalaridan tortib ularning shogirdlarigacha o‘zaro bog‘langan odamlarning ta’rif-tavsifi bayon qilinadi.

Tabaqot janrida yozilgan asarlar dastlab hadis ilmi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan edi. Ularga isnod (sanad-dalil) zanjirlarining to‘g‘ri ekanligini aniqlashga xizmat qiluvchi manba deb qaralgan.

Bizgacha yetib kelgan tabaqot janrida yozilgan dastlabki asarlardan biri Ibn Sa’d (784–847) qalamiga mansub كتاب الطبقات الكبير «Kitab at-tabaqot al-kabir» («Katta tabaqalar kitobi») bo‘lib, unda 4250 nafar shaxsning (ashoblardan boshlab) biografiyasi jamlangan [134:86].

Islomning ibtidoiy davrida tabaqotlar faqihlar va muhaddislarga bag‘ishlangan. Ammo keyinchalik ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti natijasida turli toifaga mansub shaxslarning, chunonchi shoirlar, adiblar, vazirlar, tabiblar, donishmandlar, so‘fiylar va hokazolarning biografiyalari to‘plami ham tabaqotda o‘z aksini topdi. Ibn Sa’d ibn

Manining «Kitab at-tabaqot al-kabir» asarining sof agiografik asar bo‘lganligini nemis olimi Brokelman ham tasdiqlagan [134:86].

Tabaqot janri keyinchalik biografiya janriga aylangan bo‘lishiga qaramay, avvalda u agiografiya janriga mansub bo‘lgan va unda payg‘ambar, uning sahobalari, shahid bo‘lgan dindorlarning hayoti va faoliyati bayon qilingan edi.

Shu yerda bir nuqtani eslatib o‘tmoqchimiz. So‘fiylarni tarixiy davriga qarab tabaqalarga ajratish ham rasm bo‘lgan edi. Chunonchi Abdurahmon as-Sulamiyning طبقات الصوفيه «Tabaqot as-so‘fiya» («So‘fiylar tabaqalari») nomli asari bunga misoldir. Abdulloh Ansoriy ham so‘fiylarni tabaqalarga ajratib silsila tuzgan.[1] Bu prinsipni Jomiy va Navoiy ham saqlaydilar. Chunonchi, Alisher Navoiy «Nasoiym ul-muhabbat» asarida so‘fiylarning har biri qaysi tabaqaga mansub ekanliklarini qayd etib o‘tgan. Misol uchun:

*Zunnun Misriy - avvalqi tabaqadandir;*
*Ibrohim Adham - avvalqi tabaqadandir;*
*Boyazid Bistomiy - avvalqi tabaqadandir;*
*Sayyid ut-toifa Junayd Bag‘dodiy - ikkinchi tabaqadandir.*
*Husayn Mansur Xalloj - uchinchi tabaqadandir;*
*Abu Bakr Shibliy - to‘rtinchi tabaqadandir;*
*Abu Usmon Mag‘ribiy - beshinchi tabaqadandir va hokazo.*

Ko‘rinib turibdiki, Navoiy dastlabki so‘fiylarni 5 tabaqaga ajratib ko‘rsatadi [43:79].

Demak, «tabaqot» tushunchasi so‘fiyona adabiyotda ham qo‘llaniladi. Bu, albatta, birinchidan tasavvuf shayxlari, valiylarning payg‘ambar choriyorlar, sahobalarga e’tiqodi va ruhi, martabasi bilan yaqinligini ta’kidlash, ikkinchidan, so‘fiylarning o‘zining ham tarixan yashagan davri, martabasiga nisbatan o‘zaro farqlanishini ta’kidlab ko‘rsatish edi. Ibrohim Adham, Uvays Qaraniy, Zunnun Misriy ham davr, ham mavqei bilan tasavvufda eng yuqori darajada turadilar, shu bois bular avvalgi tabaqaga kiritilgan. Tabaqotlardan tashqari so‘fiyona

---

[1] Абдуллоҳ Ансорийнинг ҳам «Табақот ас-суфия» номли асар ёзгани ҳақида маълумотлар бор. Улар орасида рус олимаси Н.Ю. Чалисованинг фикри диққатга сазовордир. Унинг ёзишича Абдуллоҳ Ансорийнинг бизга етиб келмаган «Табақот ас-суфия» асари бўлган ва эҳтимол Фаридуддин Аттор ўзининг «Тазкират ул-авлиё» сини ёзишдан олдин бу асарни кўрган.

agiografik adabiyot tizimida tazkira janrida yozilgan bir qator asarlar ham mavjud.

B. Valixo‘jaev «O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi» monografiyasida tazkiralarni «adabiyotshunoslik va adabiy tanqidning bevosita janrlari» jumlasiga kiritadi va tazkiraga quyidagicha ta’rif beradi»: Tazkira arabcha «zikr» so‘zidan tuzilgan bo‘lib, esdalik daftar ma’nosini anglatadi. Shu jihatdan olib qaraganda, tazkira ma’lum davrda bo‘lib o‘tgan yoki muallifning boshidan kechirgan hodisa-voqealarni hamda mashhur shaxslar hayoti haqidagi ma’lumotlarni qayd qiluvchi asardir» [14:20]. Tazkira hayotning turli tuman sohalarini qamrab olishi nuqtai nazaridan uni keng va tor ma’noda tushunish mumkin. Keng ma’nodagi tazkira – tarix, falsafa, san’atning turli sohalariga bag‘ishlangan bo‘ladi. Farididdin Attorning تذكرة الاوليا «Tazkirat al-avliyo», G‘ulom Muhammad Dehlaviyning تذكره خوشنويسان «Tazkirai xushnavison», Sadr Ziyoning تذكره حمقا «Tazkirai Xumaqo» kabi asarlari ana shunday keng ma’nodagi tazkiralardir.

Mazkur muallifning «keng ma’nodagi tazkiralar» tushunchasiga biroz aniqlik kiritishga harakat qilamiz.

Masalan, «Tazkirat al-avliyo» agiografiya janriga mansub tazkira. Chunki u avliyolar hayoti haqida hikoya qiladi. Uning muallifi Farididdin Attor (1141–1228 yillar). Bu majmua 72 ta dastlabki tasavvuf shayxlari va 20 ta keyingi davrdagi so‘fiylar tarjimai holini qamrab olgan. Unda materiallar muayyan xronologiyaga amal qilinmagan holda joylashtirilgan. R. Nikolson ushbu asar nashrining muqaddimasida zikr etib o‘tganidek, asarda tarixiy muntazamlik saqlangan emas [195:61].

Attor ko‘proq shayxlarning mashhurligi darajasiga qarab, ular haqidagi rivoyat va naqllarni guruhlashtirib, birin-ketin bayon etadi.

R. Nikolsonning fikricha, «Tazkirat ul-avliyo»ning uslubi umuman olganda an’anaviy fors nazmi va nasriga xos metaforalardan holidir. Bu o‘ziga xos uslubda yozilgan asar.

Mirzo Muhammad Qazviniy bu asarning muqaddimasida ta’kidlab o‘tishicha, bu asar (ya’ni, «Tazkirat ul-avliyo» – B.N.) yangi fors tilidagi badiiy nasrning eng birinchi namunalaridan biri va agiografiya janridagi yorqin namunadir. «Tazkirat ul-avliyo»ning uslubiga nisbatan «soddalik» va «shirinlik» sifatlarini tatbiq qilish (berish) mumkin. Buning sababi shundaki, bu turdagi asarlar zimma-

siga yuklatilgan vazifa xalqni to‘g‘ri yo‘lga boshlash va unga ilm berishdan iboratdir. Bu vazifani bajarish uchun uslubning murakkabligi orqali yetishish amri maholdir [191:141].

«Tazkirat ul-avliyo»ning tuzilishi haqida shuni aytish kerakki, bu asar muqaddima bilan boshlanadi. Keyin har bir valiyga alohida bob ajratilib, uning qisqa ta’rifi (manoqib) keltiriladi, keyin biografik ma’lumot beriladi, shundan so‘ng uning to‘g‘risidagi rivoyat, naqllar bayon etiladi. Ora-orada valiyning so‘zlari, fikrlari ham keltiriladi. Ma’lumki, shoirlar, olimlar, davlat arboblarining tarjimai hollarini o‘z ichiga olgan ko‘plab tazkiralar ham mavjuddir. Shu jihatdan olib qaraganda, tazkira ham dunyoviy adabiyotning, ham agiografik adabiyotning, ham tarixiy asarlarning mushtarak janridir, desak xato bo‘lmaydi. Masalan, Jomiyning نفحات الانس «Nafahot ul-uns» va Navoiyning نسائم المحبة «Nasoyim ul-muhabbat» asarlarini tazkiralar sirasiga kiritish mumkin. Ammo mualliflar o‘z asarlarini hech bir janrga kiritmaganlar, zero, bu asarlarda tazkira, tabaqot, manoqib xususiyatlari jamlangan. Umuman olganda, tazkira ko‘proq dunyoviy adabiyotga xos bo‘lib qolgan, so‘fiyona adabiyotda u keng tarqalmagan.

Lekin so‘fiyona nasriy adabiyotda, ayniqsa yirik shayxlar hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan asarlarda manoqib, maqomot, holot so‘zlari tez-tez uchrab turadi. Bular an’anaviy shakl olgan so‘fiyona asar sifatida taomilga kirib qolgan.

مناقب «Manoqib», حالات «Holot» («manoqib» so‘zi lug‘atlarda ta’rif-tavsifni, holot esa ahvol, xarakterli xislatlarni anglatadi) o‘z zamonasining shoir va yozuvchilari haqidagi risolaga o‘xshash asarlardan sanaladi. Manoqib va holotlar odatda biror-bir mashhur adib vafotidan so‘ng yozilib, ularda mazkur shaxsning hayoti, ijodiy faoliyati, shaxsiy fazilatlari yoritiladi. Manoqib va holotlarga shoir, adibning tarjimai holi hamda ijodi haqida ma’lumot keltirilishi bilan birga uning shaxsiyati, zamondoshlari bilan munosabati, ijtimoiy faoliyatiga doir hikoya va rivoyatlar kiritiladi. Natijada manoqib va holotlarda ilmiy va ijodiy dalillar badiiylik bilan qorishib ketib, ular o‘z zamonasi nasrining namunasiga aylangan. Bunday manoqib, holotlardan Xondamirning Alisher Navoiyga bag‘ishlagan مكارم الاخلاق

«Makorim ul-axloq», Navoiyning Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlagan خمسه المتحيرين «Xamsat ul-mutaxayyirin», حالات پهلوان محمد «Holoti Pahlavon Muhammad», حالات سيد حسن اردشير «Holoti Sayid Hasan Ardasher» nomli asarlarini eslatish mumkin. Bu asarlarda esdalik-memuar xususiyati aks etgan bo‘ladi, ular ko‘proq hozirgi davrdagi badiiy ocherklarga o‘xshab ketadi. Ya’ni, ularda mualliflar o‘zlariga yaqin atoqli shaxslarning adabiy qiyofasini yaratganlar.

Biroq shunga qaramasdan, manoqib, holotlarda ham so‘fiyona adabiyot belgilari mavjud. Diqqat qilinsa, Jomiy, Navoiy, Sayid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammad ham favqulodda xislatli odamlar bo‘lgan. Masalan, Navoiy piri Jomiy va Sayid Hasanning darveshlik tabiati, karomatlari, ibratli xislatlarini ochishga harakat qilgan.

Shuning uchun bo‘lsa kerak, keyingi asrlarda yaratilgan manoqiblarning aksariyati tasavvuf vakillari (shayxlar) hayotiga bag‘ishlangan bo‘lib, مناقب خواجه بهاالدين نقشبند «Manoqibi Xoja Bahouddin Naqshband» (Saloh ibn Muborak al-Buxoriy), مناقب مولانا لطف الله «Manoqibi Mavlono Lutfullo» (Mavlono Mir Muhammad al-Mudotiy ) shular jumlasidandir.

Yuqorida batafsil zikr etilgan agiografiya janriga mansub asarlardan tashqari yana bir turkum asarlar mavjudki, ular maqomotlardir. Maqomotlar xususida quyida mufassal ma’lumot berishga harakat qilamiz. Chunki tadqiqotimiz oldida turgan asosiy vazifa Maqomotlarning so‘fiyona badiiy adabiyotda tutgan o‘ziga xos o‘rnini o‘rganishdan iboratdir. Ammo bu o‘rinda shuni ta’kidlashni lozim topdikki, «maqomot» atamasi bilan «manoqib» atamasi orasida yaqinlik mavjud. Shu bois ayrim mualliflar o‘z asarlarini goh manoqib, goh maqomot deb nomlaganlar yoxud bu ikki nomni birga qo‘llaganlar. Masalan, Saloh ibn Muborak o‘z asarini مناقب حضرت نقشبند «Manoqibi hazrati Naqshband» deb, asar nomi yoniga yana مقامات خواجه بزرگ «Maqomoti Xojai buzurg» so‘zlarini ham qo‘shib qo‘yadi. Bu ikki istiloh orasida ma’no o‘xshashligi bilan birga farq ham bor: manoqib shayxning tariqati, sifatlarini ulug‘lashni maqsad etsa, maqomot o‘sish, ko‘tarilishni bildiradi.

## Bahouddin Naqshband maqomotlari tariqat ta’limotini o‘rganish manbai

### 1.3. Maqomotning boshqa agiografik asarlardan farqli jihatlari

Maqomot o‘rta asrlarda ko‘plab yaratilgan sira, tabaqot, manoqib holot kabi agiografik asarlar sirasiga kiruvchi janrlardan biridir.

O‘rta asrlarda Xuroson va Movarounnahrda yashab ijod qilgan aksariyat avliyolar, shayxlarning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan maqomotlar fors-tojik tilida yaratilgan. Bizgacha yetib kelgan مقامات خواجه کعب الاخبار «Maqomoti Xoja Ka’bul Axbor», مقامات عبد القادر گیلانی «Maqomoti Shayx Abdulqodir Giloniy», مقامات شیخ الشیوح یوسف همدانی«Maqomoti Shayxul shuyux Yusuf Hamadoniy», مقامات میر کلال «Maqomoti Mir Kulol», مقامات شاه نقشبند «Maqomoti Shohi Naqshband»,
مقامات بهاالدین نقشبند «Maqomoti Bahouddin Naqshband», مقامات حضرت خواخه بزرگ «Maqomoti Hazrati Xojai Buzurg» kabi o‘nlab asarlarni misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Bu turdagi asarlar forsiyzabon xalqlar adabiyotida nasriy janrlarning rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shishi bilan bir qatorda, o‘ziga xos bir badiiy uslubning yuzaga kelishi, badiiy tafakkur va estetik qarashning shakllanishi va rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi.

Eronlik adabiyotshunos olim Doktor Zabihullo Safoning qalamiga mansub olti jildlik «Eron adabiyoti tarixi» tadqiqotini mutolaa qilganda, «maqomot» haqida quyidagicha ta’riflarni uchratamiz.

Dastlab shu narsa ma’lum bo‘ladiki, muallif «maqomot»lar haqida so‘z yuritganda Qozi Hamiduddin Umar bin Muhammad Balhiyning «Maqomot» asarini tilga oladi (hijriy VI asr). Uning yozishicha, bu fors tilidagi birinchi maqomot bo‘lib, u arab adiblari Badiuzzamon Hamadoniy va Haririy maqomotlariga taqlid qilib yozilgan asar bo‘lib, 24 ta maqoma va xotimadan iborat» [234:652].

Doktor Zabihullo Safo qo‘shimcha qilib yana shunday yozadi: «Bu davrda (hijriy VIII asr) yozilgan tasavvuf shayxlari maqomotlari haqidagi kitoblar Muhammad bin Munavvarning اسرار التوحيد «Asror-at-tavhid», Abu Abdurahmon Muhammad bin Husayn as-Sulamiy an-Niysaburiyning مقامات الصوفيه So‘fiylar maqomoti», Xujviriyning كشف المحجوب «Kashf al-mahjub», Shayx Attorning تزكرة الاوليا «Tazkirat ul-avliyo» asarlari bo‘lib, ulardan so‘fiylarning tarbiyasi, odobi va odatlari haqida ko‘pgina ma’lumotlarni topish mumkin» [237:654].

Doktor Muhammad Muinning mashhur «Fors tilining izohli lug‘ati»da «maqomot» so‘zining birlik shakli bo‘lgan «maqoma» so‘zining ma’nosi quyidagicha izohlanadi: «Maqoma - badiiy san’atlarga boy, she’rlar va maqollar bilan bezatilgan ilmiy nasrda yozilgan adabiy maqoladir» [237:456]. Badiiy maqomotlar sirasiga misol tariqasida arab tilidagi Haririy maqomotlarini va fors tilidagi Hamidiy maqomotlarini keltiradi[1] [237:456].

Avval «maqomot» so‘zi qanday ma’nolarga ega ekanligini aniqlab olishga harakat qilamiz. Chunonchi, G‘iyos ul-lug‘ot»da o‘qiymiz:

«Maqomot» – martabalar, qoidalar va hikoyalarni bildiruvchi kitob. Maqomot arabcha maqomning ko‘pligi bo‘lib, o‘rin joy, martaba, darajani bildiradi [232:621].

Demak, biror kishi haqidagi maqomot o‘sha kishining hayotda tutgan o‘rni, olib borgan ishlari, martaba va darajalarini ifodalaydi.

Maqom yoki maqomot insonning ma’naviy yuksalishi, so‘fiylik zinalaridan balandlab ko‘tarilishi, ya’ni kamolotini ham anglatadi. So‘fiylar ushbu so‘zni ko‘pincha ana shu ma’noda qo‘llaganlar. Solikning ruhiy-ma’naviy safari, egallagan darajalari maqomlar sifatida belgilangan.

---

[1] Маќома (кўплиги «маќомот») уддабурон, енгил кишилар ҳаќида араб тилида яратилган кичик ҳажмдаги ҳикоялардир. Агиография жанрида форс тилида яратилган маќомотлар юќорида зикр этилган маќомалардан ўзининг мазмуни, ҳажми, композицияси, ќурилиши, тасвирий воситалари, объекти ва бадиий услубий жиҳатлари билан тубдан фарќ ќилади. Бу икки сўзнинг бир ўзақдан ясалганигина уларни бир-бирига яќинлаштиради.

Tasavvufshunos olim N. Komilovning ta'kidlashicha, «Tariqat va uning maqomotlari, ma'lumotlarga qaraganda, birinchi marta Zunnun Misriy (796–861) tomonidan bayon etilgan» ekan [35:59].

Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarida «Zunnun Misriyni faqat «karomat bilan sitoyish» qilish kifoya emas, chunki uning «Ilgida maqom va hol suxra erdi», ya'ni maqom va hol ilmi Zunnun qo'lida o'yinchoqday gap edi», – deydi Abdullo Ansoriy [43:60].

Abu Nasr Sarroj tariqatning quyidagi maqomlarini qayd qilgan: 1. Tavba. 2. Vara'. 3. Zuhd. 4. Faqr. 5. Sabr. 6. Xavf. 7. Rajo. 8. Tavakkul. 9. Rizo.[1]

Yuqorida keltirilgan izohlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, «Maqom» so'zining («maqomot»ning ham) bir necha ma'nosi bor ekan: birinchidan, u har qanday odamning martaba-darajasi, ikkinchidan tariqatda so'fiy qozonadigan ma'naviy daraja-bosqichlar, uchinchidan, arab nasrining bir janri va to'rtinchidan, tasavvuf adabiyotining alohida janrini bildiradi. «Hamidiy maqomot»lari haqida ma'lumot berilganda aynan o'rta asr arab adabiyotida mavjud bo'lgan «maqoma» janrida yozilgan asar nazarda tutiladi. Zero, maqoma janri arablarda juda rivojlangan, bu nasriy hikoyaning o'ziga xos turidir. Maqomalar aksar uddaburon, ayyor kishilar haqidagi hikoyalardir [58:13].

Muin ham o'z lug'atidagi «maqoma»ga berilgan izohda Haririy va Hamidiy maqomalarini misol tariqasida keltiradi. Ammo unda «ilmiy nasrda yozilgan badiiy maqola» haqida ham gap boradiki, aftidan muallif bunda maqomaning alohida ko'rinishini nazarda tutgan.

Mazkur ta'riflar va izohlar orasida «so'fiylar maqomotlari» iborasi bizning diqqatimizni o'ziga jalb qiladi. Chunki tasavvuf shayxlarining hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi, fors tilida bitilgan, ammo, fikrimizcha, asosan o'rta asrlarda Movarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan agiografik asarlar mavjud bo'lib, ayni o'sha so'fiylar maqomotlari jumlasiga kiradi. Fikrimizga dalil sifatida bir necha maqomotlarni keltiramiz. Chunonchi, bular Saloh ibn Mubo-

---

[1] Тариқат мақомлари ва ҳол мартабалари проф. Н. Комиловнинг «Тасаввуф» китобида жуда тўлиқ ва тушунарли тарзда берилган. Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 1996. 55-62-б.

rak al-Buxoriyning (XVI asr) «Maqomoti Hazrat Xoja Naqshband», Shahobiddin ibn binti Amir Hamza ibn Amir Kulolning «Maqomoti Sayid Amir Kulol» (XVI asr), Mavlono Kamoliddin Abdulvose' al-Nizomiyning «Maqomoti Mavlaviy Jomiy» (XVI asr), Xoja Abdulhaqning «Maqomoti Xoja Ahror» (XV asr) kabi bir qator maqomotlar shular jumlasidandir.

Maqomotlarning, xususan, Bahouddin Naqshband maqomotlarining benazir qiymati shundan iboratki, biz mana shu asarlar orqali Hazrat Xoja Bahouddin Naqshbandning hayoti va faoliyati haqida to'la-to'kis ma'lumotga ega bo'lamiz. Aks holda, biz ul zotning siymosi haqida mavhum bir tasavvurga ega bo'lardik.

Yuqorida maqom va uning ko'plik shakli bo'lgan maqomot so'zlarining lug'aviy ma'nolari haqida qisqacha ma'lumot berdik. Bir tarafdan maqom so'zining lug'aviy manosi joy, martaba bo'lishi barobarida tasavvufda bu so'z o'ziga xos ma'no kasb etganligining guvohi bo'lamiz.

Tasavvuf nuqtai nazaridan tariqatda solik o'zining riyozati evaziga egallashi mumkin bo'lgan martabalar مقام maqom deyilib, Allohning inoyati bilan hosil qilinadigan martabalar حال hol deyiladi[1] [235:52].

Aslida xojagon-naqshbandiya tariqati shayxlari haqidagi maqomotlar xususida fikr bildiradigan bo'lsak, unda maqomotlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, naqshbandiya tariqati ta'limotida Abdulloh Ansoriyning «Manozil us-soyirin» asarida talqin qilinganidek maqom va hol martabalari birga qaralgan.

Abdulloh Ansoriyning yozishicha «Haq yo'liga kirgan soliklar turfa holatlarda bo'ladilar va har bir holatning o'z sayri, bu sayrning boshlanish (ibtido) jarayoni va tugashi (intihosi) bo'ladi» [36:54].

---

[1] Бу икки атама тариқат йўлига қадам қўйган йўловчи – соликнинг маънавий камолот сари интилишида унга хос бўлиши мумкин бўлган руҳий икки ҳолатни англатадиган атамалардир. Қушарийнинг (ваф.1072 й.) «Рисолат фит-тасаввуф асарида «ҳол» – соликнинг сулукдаги сайрида Аллоҳнинг марҳамати, «Мақом» соликнинг чеккан риёзати натижасида эгаллаган мартабасидир», деб шарҳланади. Н. Комиловнинг «Тасаввуф» китобининг биринчи жилдида ҳол мартабалари ҳақида батафсил маълумот олиш мумкин.

Hazrat Bahouddin Naqshband maqomotlarida mazkur fikrni tasdiqlovchi so‘zlarni topamiz.

نقل کردند که یك روز در صحبت حضرت خواجه ما مذکور شد که سلطان العارفین قدس الله سره میفرمودند که رونده این راه هرچند روز آخرین قدم او باولین قدم ماخواهد رسید یعنی حضرت خواجه قدس الله روحه از سرغیرت فرمودند حرام باد صحبت حق سبحانه و تعالی آنکس را که اول قدم او برآخر قدم بایزید نباشد فرمودند ما انتها را در ابتداء درج میکنیم.

«Naql qilishlaricha, bir kuni Xojamizning suhbatlarida Sulton ul-Orifinning [Boyazid Bistomiy – B.N.]: «Bu yo‘lda yuruvchi (solik) qanchalik yurmasin, uning so‘nggi qadami (maqomi) bizning birinchi qadamimiz ustida bo‘ladi», degan so‘zlari naql qilinibdi. Xojamiz g‘ayrat yuzasidan: «Birinchi qadami Boyazidning oxirgi qadami ustida bo‘lmagan kishiga Haq subhonahuning suhbati harom bo‘lsin!» degan edilar va ular, biz intihoni ibtidoda tugallaymiz» degan edilar»[1] [1.1.23].

Mazkur naqlda hikoya qilingan suhbatdan shunday xulosa chiqarish mumkin: منازل السایرین «Manozil us-soyirin» muallifi tariqat manzillarini 10 ta holatdan iborat bo‘lishi va bu holatlarning birinchisini ibtido (boshlanish) va nihoiy o‘ninchisini intiho (yakun) deb nomlaydi.

Bahouddin Naqshband Hazratlari «biz intihoni ibtidoda tugallaymiz» deganlarida Naqshbandiya tariqati maqomot - manzillarining Abdulloh Ansoriy ta’rifiga mosligini ko‘ramiz.

«Bahouddin Naqshband maqomotlari»dagi naqllar va hikoyatlardan yuqoridagi fikrimizni tasdiqlovchi ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin.

حضرت خواجه ما میفرمودند که از حضرت سلطان العارفین منقول است که میفرمودند در مقام سیر در صفت انبیا علیهم السلام سیر میکردم به بارگاه محمد

---

[1] Бу ерда ва бошқа саҳифаларда мавжуд уч рақамдан иборат кўрсаткич асл манбаларга ишорадир. Биринчи рақам манба кўрсаткичи, иккинчи рақам манбалар рўйхатидаги тартиб кўрсаткичи, учинчи рақам саҳифа кўрсаткичидир.

مصطفی صلی الله علیه وسلم رسیدم خواستم که در صفت آنحضرت صلی الله علیه و سلم سیر کنم دست در پیشانی من نهادند خواجه ما قدس الله سره العزیز میفرمودند که چون من بان مقام رسیدم بعنایت حضرت الهی گستاخی نکردم و سرنیاز و تسلیم برآ ستان عزت و احترام آنحضرت صلی الله علیه و سلم نهادم.

«Naql qilishlaricha, Hazrati Xojamiz aytgan ekanlar»: Sulton ul-Orifindan (Boyazid Bistomiy) naql qilishlaricha, ular shunday degan ekanlar: «Sayr maqomiga yetganimda payg‘ambarlar hammasiga hamda o‘z payg‘ambarimizga salavotu salomlar bo‘lsin, sifati bilan sayr qilardim. Shunda Mustafo, unga salavotu salomlar bo‘lsin, bor-gohlariga yetdim va ularning sifatiga kirib, sayr qilmoqchi bo‘ldim. Ul zot qo‘llarini mening peshonamga qo‘ydilar». Bizning Xojamiz, qad-dasallohu sirrahu-l-aziz, dedilar: «Men o‘sha maqomga yetganimda Alloh inoyati bilan gustohlik qilmadim. Xojatmandlik hamda iltijoning boshini Onhazratning izzat va ehtirom ostonalariga quydim» [1.2.26].

Yana bir misol:

میفرمودند که در اوایل جذبات شبی در نزدیك مزار مرداخون بودم درویش محمد زاهد با من بود تکیه کرده بود در آن حال روح من از قالب بیرون آمد و گردان گردان بطرف آسمان رفت همین صفت آسمان اول سیر کرد و از آنجا باسمان دوم و سیوم و چهارم رفت باز گردان گردان روی زمین آمد و در قالب من در آمد و از این احوال من محمد زاهد هیچ خبر نداشت.

«Naql qilishlaricha, Hazrati Xojamiz aytgan ekanlar: «Jazba yuz berishining avvallarida bir tunda Mardoxun mozorida edim. Men bilan darvesh Muhammad Zohid ham birga bo‘lib, menga suyanib olgan edi. Shu asnoda ruhim tanamdan chiqib, aylana-aylana osmon tomonga chiqib ketdi. Shu tariqa birinchi osmonni sayr qildi, undan ikkinchi osmonga, uchinchi osmonga, so‘ng to‘rtinchi osmonga o‘tdi. Keyin aylana-aylana yana yerga tushdi va tanamga kirdi. Men-ing bu ahvolimdan Muhammad Zohidning aslo xabari yo‘q edi» [1.4.31].

Ushbu naqllarda Hazrat Bahouddin Naqshband ruhlarining sayri bayon qilingan. Mazkur naqllarda ruhiy holatlardagi o‘zgarishlar o‘z aksini top-

gan. Ruhning osmonlardagi sayri va har bir osmon kimlarning maqomi ekanligi haqida quyiroqda mufassalroq to‘xtaymiz.

Tasavvuf ta’limotini tushunishda va tushuntirishda biz ajdodlarimizning olam, uning yaratilishi, unda jism va ruhlarning joylashtirilishi kabi tushunchalariga tayanishimizga to‘g‘ri keladi. Aks holda biz ularning na dunyoqarashini tushuna olamiz, na boshqalarga tushuntira olamiz. Shu bilan bir qatorda naqshbandiya tariqati shayxlari haqida yozilgan maqomotlarda shayxlarning egallagan maqomi, tabiati va ruhiyatida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar qanday mezonlar bilan o‘lchanganligini anglab olishimiz mushkul bo‘ladi.

Tasavvuf nazariyotchilari solikning ruhiy-ma’naviy kamolotini «sayr» yoki «safar» so‘zlari bilan tushuntirganlar. Tariqat safari deganda aksar ruhiy safar tushuniladi.

Ruh safarlari nima va nima uchun ruh safar qiladi, degan savol tug‘ilishi muqarrar.

Bu savolga javobni XIII asrda yashab ijod qilgan yurtdoshimiz Azizuddin Nasafiyning «Zubdat ul-xaqoiq» («Xaqiqatlar qaymog‘i») asaridan topamiz. Nasafiy mazkur asarida mutafakkirlarni uch guruhga bo‘lib tasniflaydi:

1. Shariat ahli.
2. Hikmat ahli.
3. Vahdat ahli.

Mazkur uch toifaning ruh va maqomlari haqidagi fikrlarini keltiradi.

Mazkur asarda ruh va uning darajalari haqida fikr yuritilganda Alloh taolo ruhlar olami - «malakut» olamini[1] to‘qqiz darajadan iborat qilib yaratgani haqida aytiladi. Ular quyidagicha nomlanadi:

1. Anbiyolar hotami ruhi
2. Ululazm payg‘ambarlar ruhi
3. Mursal payg‘ambarlar ruhi
4. Anbiyolar ruhi
5. Avliyolar ruhi
6. Oriflar
7. Zohidlar ruhi
8. Obidlar ruhi

---

[1] Малакут олами – моддий бўлмаган объектлар олами

9. Mo‘minlar ruhi.

Qudratli Alloh moddiy dunyo – mulk olamini[1] yaratar ekan, uni ham to‘qqiz darajadan iborat qilib yaratadi. 1. Arshi a’lo. 2. Kursi. 3. Yettinchi osmon. 4. Oltinchi osmon. 5. Beshinchi osmon. 6. To‘rtinchi osmon. 7. Uchinchi osmon. 8. Ikkinchi osmon. 9. Birinchi osmon. Undan so‘ng ruhlarning va jismlarning har bir darajasi bir-birida o‘z joyini – maqomini topadi. Ya’ni, arsh – anbiyolar xotami ruhining maqomi va makoni. Kursi – ululazm payg‘ambarlar[2] ruhlarining maqomi va makoni. Yettinchi osmon – mursal payg‘ambarlar[3] ruhlarining maqomi va makoni. Oltinchi osmon – anbiyolar[4] ruhlarining maqomi va makoni. Beshinchi osmon – avliyolar ruhlarining maqomi va makoni, To‘rtinchi osmon – Ma’rifat ahli (orif) ruhlarining maqomi va makoni. Uchinchi osmon – zohidlar ruhlarining maqomi va makoni. Ikkinchi osmon – obidlar ruhlarining maqomi va makoni. Birinchi osmon – mo‘minlar ruhlarining maqomi va makonidir [235:62-63].

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ruhiy safar haqida fikr yuritar ekanmiz, bu safar qay tarzda amalga oshishi haqida mazkur asarga tayangan holda ma’lumot berishga harakat qilamiz. Bu o‘rinda islom dinida mavjud bo‘lgan me’roj tushunchasi va hodisasiga diqqatni qaratamiz.

Arab tilida عرج «araja» fe’lidan yasalgan «uruj» va «me’roj» so‘zlari mavjud. «Araja» fe’li yuksalish degan ma’noni anglatadi. Bu yuksalish ruhiy-ma’naviy yuksalishdir [235:577]. Me’roj va uruj so‘zlari bir o‘zakdan yasalgan bo‘lib «yuksalish», «ko‘tarilish» degan ma’nolarni anglatadi.

Azizuddin Nasafiy yozadi:

انبیا و اولیا را پیش از مرگ طبیعی مرگ دیگری هست از جهت آنکه ایشان به موت ارا دمی پیش از مرگ طبیعی میرند وآ نچه دیگران بعدا ز موت طبیعی خواهند

---

[1] Мулк олами - моддий макон, жисмларнинг ħис ќилиниши орќали англашиладиган ва рўёбга чиќќан имкониятлар (потенциал) дунёси.

[2] Улулазм пайґамбарлар - еттита асосий пайґамбарлар: Одам, Нуħ, Иброħим, Мусо, Довуд, Муħаммад алайħиссаломдир.

[3] Инсониятга илоħий муќаддас китобларни етказган пайґамбарлар: Ёќуб, Юсуф, Аюб Муħаммад алайħиссаломлар.

[4] Анбиёлар – барча бошќа пайґамбарлар.

دید ایشان پیش از موت طبیعی خواهند دید واحوال بعدا ز مرگ ایشان را معاینه شده از جهت آنکه حجاب آدمیان جسم است چون روح از جسم بیرون آمد هیچ چیز حجاب او نمی شود عروج انبیا بدو نوع است شاید که بروح باشد بی جسم و شاید که بروح و جسم باشد عروج اولیا یك نوع است بروح است و بی جسم...

Payg‘ambarlar va avliyolar tabiiy vafotlariga qadar ruhiy va ma’naviy yuksalishni boshdan kechiradilar. Chunki ular tabiiy o‘limlariga qadar o‘ladilar, shu sababli boshqalar tabiiy o‘limlaridan so‘ng ko‘radigan narsalarni ular tabiiy o‘limlariga qadar ko‘radilar va ularga o‘limdan so‘ng paydo bo‘ladigan holat hayotlik chog‘larida ayon bo‘ladi. Odamlar uchun tana hijob bo‘lgani tufayli ularning ruhi tanadan chiqqach, unga hech narsa parda bo‘lolmaydi.

Payg‘ambarlarning yuksalishi ikki xil bo‘ladi: birinchisi – tanasi bilan birga yuksalish, ikkinchisi – faqatgina ruhiy yuksalishdir. Ammo tana ham ruh bilan birgalikda uruj qilishi mumkin [42:4].

Avliyolarning yuksalishi faqatgina bir xil bo‘ladi, ya’ni ularning ruhi tanasiz uruj qilishi mumkin.

Tasavvuf ahlining bunday yuksalishdan ko‘zlagan maqsadi shundan iboratki, solikning ruhi uning sog‘lik va bedorlik holatida tanadan chiqib, uning o‘limidan so‘ng bo‘ladigan holatlar unga u tiriklik paytida ochilsin, u jannatni va do‘zaxni ko‘rsin va u yerdagilarning ahvolidan xabar topsin va bo‘lgan narsalarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rsin, ilm ul-yaqindan ayn ul-yaqin[1] darajasiga ko‘chsin [235:577].

Har bir solikning ruhi tanaga qaytib kirgach, uning xotirasida o‘zi yetishgan va ko‘rgan daraja va narsalar saqlanib qoladi.

---

[1] Булар тасаввуф аҳли нуқтаи назаридан тайин қилинган уч хил билим босқичларини англатувчи истилоҳлардир: 1. Илм ул-яқин – билим орқали ишониш. Бу босқичга китобий, таҳсилий билим орқали эришилади. Айн ул-яқин - тўлиқ илм тажриба қилиб ишониш. Бунга солик ўзининг бевосита иштирокидаги тажрибавий билим орқали етишади. Ҳақкул яқин - ҳақиқий ишонч. Бунга солик ўзи тажриба воситасига айланиб, ҳосил қилган билими эвазига муваффақ бўлади. Бу ҳақдаги маълумотни Е.Э. Бертельснинг «Суфизм и суфийская литература» (М.1965.стр.39), Н. Комиловнинг «Тасаввуф». – Т., 1996. 39-б. С. Жаъфар Сажжонийнинг «Фарҳанги Луғат ва истилиҳот ва таъбироти ирфоний», Теҳрон, 1991 йил, асарларидан олиш мумкин.

Ba'zilarning ruhi osmonlarda bir necha soat qolib (sayr qilib), yana tanaga qaytishi mumkin. Boshqalarning ruhi uzoqrok – o'n kun (osmonlarda) sayr qilishi mumkin [191:49].

Maqomotlardan olingan yuqoridagi parchalarda Hazrati Bahouddin Naqshband, Boyazid Bistomiyning ruhiy safarlari haqida ma'lumot berilganligi bu fikrlarni tasdiqlashi mumkin.

Valiylar va shayxlarning maqomotlarida ularning ruhiy-ma'naviy yuksalishlari aks ettirilganda maqomot mualliflari aynan mazkur tushunchalarga tayanganliklari yuqorida bayon qilingan fikrlardan ayon bo'ladi.

Endi maqomot janrida yozilgan asarlarning hajmi haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, biz tanishib chiqqan maqomotlar o'zining hajmi nuqtai nazaridan turlicha bo'lib chiqdi. Chunonchi, Abdul G'afur Lo'riy qalamiga mansub «Maqomoti Abdurahmon Jomiy» (912 h.y.) 64 varaqdan, Muhammad Qozi bin Burhoniddin bin Xo'ja Muhammad Rizo ta'lif qilgan «Maqomoti Xoja Ubaydulloh Ahror» (921 h.y.) 92 varaqdan iborat ekan. Shahobiddin ibn binti Amir Hamza Amir Kulol tarafidan yaratilgan «Maqomoti Sayid Amir Kulol» (722 h.y.) 75 varaq, Saloh ibn Muborak al-Buxoriy qalamiga mansub «Maqomoti Hazrat Xoja Naqshband» (964h.y.) 175 varaq. Xo'ja Abdulhaq yaratgan «Maqomoti Xoja Ahror (895 y.) 119 varaqni va Mavlono mir Muhammad al-muftiy Toshkandiy qalamiga mansub «Maqomoti Mavlono Lutfullo» (XVI asr) asari esa 234 varaqni tashkil etadi.

Mazkur maqomotlar va ularning hajmini batafsil zikr etishdan maqsadimiz shuki, yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, Maqomotlar 4 varaqdan 200-300 varaqqacha bo'lgan hajmda yozilgan ekan.

Fikrimizcha, kichik hajmda yaratilgan maqomotlarda asosan u yoki bu valiy shayxning tarjimai holi qisqa va lo'nda tarzda hikoya qilingan bo'lsa, katta hajmdagi asarlarda kitobxonlar yoki buyurtmachilarning talabi inobatga olinib, shayxlar hayoti batafsil berilgan, karomatlari, so'zlari sharhlangan, rivoyat va hikoyatlar ketma-ket joylashtirilgan. Shu bilan birga shayxlarning silsila va shajaralari ta'rifini berish, tariqatning o'ziga to'xtalish, maktublar, bahs-munozaralarga, she'riy parchalarga o'rin ajratish, Qur'on oyatlari va Payg'ambar hadislarini keltirib, ularni so'fiyona ma'noda sharhlash, qadimgi mashoyixlar so'zlariga suyanish ham asar hajmining kengayishiga sabab bo'lgan.

Maqomotlar aniq bir maqsadni ko‘zlab, biron bir tarixiy yoxud ilmiy ehtiyoj yoki talab asosida yozilgan bo‘lishi mumkin. Hajman katta bo‘lgan maqomotlarda valiy yoki pirning tarjimai holidan tashqari mazkur avliyoning hayoti va faoliyati, tariqati, silsilasi, karomatlari, muridlari haqidagi ma’lumotlar ham batafsil ifoda etilgan.

U yoki bu maqomot hajmini aniqlaydigan omillardan yana biri ularni yozgan mualliflarning tarixnavislik va yozuvchilik mahoratlarining turli darajada ekanligi ham bo‘lishi mumkin. Chunki mavjud tarixiy va biografik ma’lumotlar asosida kengaytirilgan asar yaratish uchun badiiy iste’dod bo‘lishi talab qilinadi, albatta.

Shubhasiz, Bahouddin Naqshband kabi ulug‘ zotlarning siymosini karomat va xislatlari ta’rifi bilan tasvirlab, o‘quvchilar ko‘z o‘ngida namoyon qilgan mualliflarning adiblik mahorati juda baland. Ammo shunga qaramay, biz maqomotlar haqida gapirganda ularga sof va to‘laqonli badiiy asarlarga qaraganday munosabatda bo‘lmoqchi emasmiz. Yuqorida qayd etganimizdek, bunday asarlarda tarixiylik, diniy-g‘ayrioddiylik va badiiylik xususiyatlari jamlangan. Bunday asarlar hatto qissalardan ham farq qiladi. Chunki qissada bir kishi, bitta bosh qahramonning sarguzashti hikoya qilinadi, ya’ni yagona davom etuvchi voqealar tizmasi (syujet) mavjud. Maqomotda esa maqsad boshqa. Maqomotlar shayxlar hayoti bilan bog‘liq voqealar bilan chegaralanmay, ularning avval murid sifatida pirga xizmat qilishi, keyin pir sifatidagi faoliyati, qisqasi tariqatga kirishi, kamol topishi va yangi tariqat uchun kurashini ko‘rsatishni maqsad qilib olganlar. Shu bois barcha badiiy vositalar (rivoyat, she’riy parcha, maqol-matal, hikmatli so‘z va hokazo) aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Asarda shayxning inson sifatidagi faoliyati, ba’zan turmush tarzi ham, ta’limoti, amaliy ishlari ham, horiqulodda karomatlari ham birga namoyon bo‘ladi. Shu bois bu ishda biz «tur», «janr» so‘zlarini maqomotga nisbatan nisbiy ma’noda qo‘lladik va maqomotlarning o‘zini tahlil qilayotganda ham ularning badiiy-uslubiy xususiyatlariga diqqat qilishni niyat etdik. Zero, ularni sof bir badiiy asar sifatida olib qarash xato bo‘lar edi. Shu ma’noda aytish kerakki, badiiy janrlarga berilgan ta’riflar, qoidalar, talablarni ham to‘liq ravishda maqomotga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi.

Biz, asosan, bu tipdagi asarlarning tuzilishi, ichki bog‘lanishlari, badiiy qatlamlari va uslubiyatini imkon qadar qarab chiqib, ilmiy tahlil etishga intildik.

Shu jihatdan olib qaraganda, maqomotlarning badiiy xususiyati ularning «janr» sifatidagi shaklu shamoyilini aniqlashdan boshlansa yomon bo‘lmaydi. Maqomot o‘rta asrlar adabiyoti va tarixnavisligi mahsuli deb qaraladigan bo‘lsa, unda o‘sha davr badiiy normalari talabi qay darajada aks etgan? Boshqa so‘fiyona adabiyot turlari (doston, g‘azal, qissa, hikoya) ichida maqomotning o‘rni va farqlari nimada?

Bizningcha, ushbu mavzularda o‘rta asrlarda yaratilgan va bugungi kunda takrorlanmaydigan, mumtoz adabiyot sirasiga kiradigan, ma’naviyatimizning muhim manbalari bo‘lishiga qaramay, shu davrga qadar turli sabablarga ko‘ra ilmiy taomilga kiritilmagan mazkur asarlar xususida gap ketganda ularning tuzilishi va adabiy tur yoki janr sifatidagi belgilarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu fikrlar XIV–XVI asrlarda fors tilida yaratilgan naqshbandiya tariqatiga mansub maqomotlarga bevosita taalluqlidir. Maqomotlarning fors tilidagi so‘fiyona adabiyotning o‘ziga xos bir janri (turi) sifatida, mazkur adabiyot taraqqiyotida tutgan o‘rni, badiiy qimmati shu choqqacha na Eronda, na O‘zbekistonda va na g‘arb mamlakatlarida adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq va tahlil qilinmagan.

Aslini olib qaraganda maqomotlar o‘rta asr fors-tojik mumtoz adabiyotida keng tarqalgan nasriy janrdir. Yuqorida nomlari zikr etib o‘tilgan ko‘plab maqomotlarning mavjudligi fikrimizga dalil bo‘la oladi.

Maqomot janrida yozilgan asarlarda tasavvufning biror tariqatiga mansub bo‘lgan muayyan davrda yashab, faoliyat ko‘rsatgan, muayyan avliyo va shayxlarning – komil insonlarning g‘ayri oddiy xislatlari, barchaga barobar ibratli hayoti va faoliyati haqida hikoya qilingan. Barcha agiografik asarlar kabi maqomotlar ham faqat mashoyixu avliyolarning biografiyalari aks ettirilgan asarlar emas, albatta. Ularda muayyan valiy, shayx, pirning hayoti tasvirlanib, afsonaviylik, apologetika (madhiya) va belletristikaga ko‘proq ahamiyat berilgan. Shu sababli maqomotlarda afsonalar, tushlar, voqealar, mo‘’jizalar ko‘plab uchraydi. Bularning barchasi maqomotlarda o‘rta

asr musulmon xalqlari tasavvuridagi armoniy inson – komil inson obrazini shakllantirishga xizmat qilgan.

Maqomotlar o‘ziga xos kompozision qurilishi, obrazliligi va badiiy uslubi bilan ajralib turadi. (Bu haqda kelgusi bobda to‘xtalamiz)

Maqomotlarning umumiy maqsadi o‘xshash bo‘lishiga qaramasdan turli mualliflar turli jihatlarga e’tibor berib, o‘quvchiga ta’sir etishga intilgan. Ba’zilari davrni xarakterlashga ko‘proq e’tibor bergan bo‘lsa, boshqalari asarning bosh qahramoni – avliyo, shayxning ma’naviy-etik qarashlarini ochib berish bilan birga, ularga xos bo‘lgan g‘ayrioddiy xislatlar va qudratlarni tavsiflab, armoniy inson siymosini yaratishga harakat qilgan. Bundan tashqari maqomotlar so‘fiyona adabiyot bo‘lganligi tufayli aksariyat mualliflar shayxlar hayotini tasvirlash jarayonida muayyan shayx targ‘ib qilgan tasavvuf ta’limotining falsafiy jihatlarini ochib berishga ham intilgan.

Maqomot janri qachon va qaerda vujudga kelganliigi haqida aniq bir fikr bildirish qiyin. Bu haqda hozircha manbalardan ma’lumot topolmadik. Rus olimi D.S.Lixachevning janrlarning dunyoga kelishi haqidagi quyidagi fikri bizga bu sohada yordam beradi. Uning yozishicha «... aksariyat hollarda yangi janrlar folklor bilan adabiyot, kesimida vujudga keladi. Yangi janrlar dastlab og‘zaki shaklda shakllanib, so‘ngra adabiyotda o‘z o‘rnini topishi ham mumkin» [147:57].

Olimning ushbu xulosasidan kelib chiqib, XII asrlarda aksariyat tasavvuf tariqatlari shakllanib bo‘lganini, ularga asos solgan valiylar, shayxlarning hayoti va faoliyati, kashfu karomatlari, bashoratlari, g‘ayrioddiy xislatlari haqidagi tarixiy material bilan bir qatorda afsona, rivoyat, hikoyatlar xalq orasida, avvalo tariqat a’zolari orasida, og‘izdan-og‘izga ko‘chib yurganligi va buning natijasida maqomotlar dunyoga kelishiga asos solingan degan xulosaga kelish mumkin. Chunki o‘tmishda yashab o‘tgan shayxlarning xotirasini abadiylashtirish uchun ularning axloq-odobi, karomatlari haqida avvalo u yoki bu shayxni yaxshi bilgan, uning suhbatlaridan bahramand bo‘lgan shaxslar o‘z xotiralari va keyinchalik o‘sha davrda mavjud bo‘lgan manbalarga asoslangan holda maqomotlar yozganlar. Aksariyat hollarda bunday asarlarni yozish ba’zi kishilar tomonidan biron bir shaxsga,

tariqat a'zosi, tariqat axloqu-odobi, falsafasi bilan yaxshi tanish bo'lgan kishiga iltimos qilish orqali yozilgan.[1]

Bu fikrni shu narsa ham tasdiqlaydiki, bir qancha maqomotlarda bir-biriga o'xshash hikoyat va rivoyatlar bor. Ya'ni «sayyor» rivoyatlar aynan xalq orasidan olinganligi yoki avval xalq ichida tarqatilib, keyinchalik kitobga yozilgani ma'lum bo'ladi.

Aksariyat maqomotlar avliyolar vafotidan bir necha asr keyin yozilgan. Fikrimizcha, buning sababi shundan iboratki, ular hayot paytlarida odamlar ularning kashfu karomatlarini o'z ko'zlari bilan ko'rganlar, ularning haqiqiy avliyo ekanliklariga ishonch hosil qilganlar. Vafotlaridan so'ng bu rivoyatlarni ularning muridlari bir-birlariga yoki o'zga odamlarga og'zaki tarzda hikoya qilganlar. Keyinchalik yillar o'tishi bilan bu ma'lumotlar esdan chiqa boshlagach, tariqat muridlari ularni ixlos bilan qayta yiqqanlar, rivoyat va naqllarni ham jamlab, muayyan tartib asosida kitob yaratganlar. Shubhasiz, bunday asarlarning mualliflari adabiy qobiliyati ko'ringan shaxs hisoblangan. Asarni o'qimishli, ta'sirchan qilib yozish shart bo'lgan. Va, bora-bora maqomotlar yozish o'ziga xos bir an'anaga aylangan. Bu yerda maqomotlar va payg'ambarimiz haqidagi siralarning yozilish sabablari va maqsadlari orasidagi o'xshashlik mavjudligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Demakki, siranavislik va maqomotnavislikda an'anaviylik mavjuddir. Bundan tashqari siralar maqomotlar uchun andoza, namuna vazifasini o'taganligi ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bu kabi o'xshashliklarni ishimizning ikkinchi bobida ko'rsatishga harakat qilganmiz.

Maqomotlar o'z syujeti va kompozision qurilishi, obrazliligi va uslubi nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi. Ba'zi mualliflar davrni xarakterlashga ko'proq ahamiyat bergan bo'lsa boshqalari tarixiy voqealarni batafsil hikoya qilsalar, yana boshqalari asarning bosh qahramoni – avliyo, shayx, murshidning ma'naviy-estetik qarashlarini ochib berish bilan birga, ularga xos bo'lgan g'ayrioddiy xislatlarni tavsiflab,

---

[1] Бу фикримизни ҳар бир мақомотнинг кириш қисмида муаллифлар тарафидан зикр этилган асарнинг ёзилиши сабаблари ҳақидаги маълумотлар тасдиқлаши мумкин. Уларда аксарият ҳолларда мақомотлар тариқат аъзолари ёхуд бирорта амалдорнинг илтимосига биноан ёзилганлиги қайд этилади.

armoniy inson siymosini yaratishga ko‘proq etibor berganlariga guvoh bo‘lamiz.

O‘rta Osiyodagi musulmonchilik dini tarixidan ayonki, Movarounnahr va Xurosonda yashagan ziyoli odamlarning bir qismi aniq ilmlar-»ulumi mutadovala»ni (dunyoviy ilmlarni) egallab bo‘lganlaridan so‘ng odatda «ilmi hol»ni (ilohiy ilmi)ni o‘rganishga kirishar, birorta murshidga (pirga) qo‘l berib, murid bo‘lar va sulukka kirar edilar.

XIV asrdan keyin O‘rta Osiyoda mashhur bo‘lgan suluk Xoja Bahouddin Muhammad asos solgan naqshbandiya suluki (tariqati) edi.

Tarix, tazkira, tasavvuf haqida yozilgan asarlarda Hazrati Xojaga bag‘ishlangan bob, fasllarni uchratamiz. Jomiyning «Nafahot ul-uns», Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarlarida Hazrati Xoja Bahouddin Naqshbandga maxsus boblar bag‘ishlangan. Hazrati Xoja va boshqa avliyo-mashoyixlarga bag‘ishlangan alohida maqomot kitoblari va risolalar ham bizgacha yetib kelgan.[1]

Maqomotlarda shayx, valiy, piri komillarning hayoti, suluki (tariqati), qilgan ishlari, aytgan so‘zlari, ko‘rsatgan karomatlari, aytgan basho-ratlari, ularning pirlari (ustozlari), xalifalari (o‘rinbosarlari), sahobalari (safdoshlari) va muridlari haqida hikoya qilinadi. Biz shunday maqomotlardan Hazrati Xojaning muxlislaridan biri Muhammad Boqir ibn Muhammad Alining qalamiga mansub «Maqomoti Xoja Naqshband», Xoja Muhammad Porso qalamiga mansub «Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband» va Saloh bin Muborak al-Buxoriyning «Maqomoti Bahouddin Naqshband» kabi asarlarni ushbu tadqiqotimizga manba sifatida tanlab oldik. Biz ko‘rib chiqqan barcha maqomotlar asosan muqaddima, uch bob va xotimadan iborat. Ularda Bahouddin Naqshband tug‘ilganidan to vafotlarigacha bo‘lgan voqealar bayon qilingan.

Maqomotlar to‘laqonli badiiy asar namunalari bo‘lmasa-da, ular ilmiy, tarixiy asarlarga nisbatan badiiylashgan, badiiy so‘z vositasida, badiiy tasvir san’atlaridan foydalanilgan holda, badiiy obrazlar yaratilgan asarlardir. Ular agiografik asarlar sirasiga kiritilgani holda, badiiy so‘z san’atining, badiiy tafakkurning mahsuli sifatida badiiy

---

[1] Бу борада Ш. Бобохонов ва А. Мансур тарафидан тайёрланган «Наќшбандия тариќатига оид ќўлёзмалар фихристи» да етарли маълумотлар олиш мумкин.

nasr, badiiy adabiyotning rivojlanishida muhim bir bosqichni tashkil etilganligiga shubha bo‘lmasligi kerak.

Maqomotlar so‘fiyona bo‘rttirishlar ruhida yozilgan asarlardir, Ularda tasvirlangan kishilar g‘ayrioddiy xislatlar sohibi, g‘ayri-tabiiy qudratlar sohibi, ularning amallari siru asrorga burkangan, so‘zlari ramziy ma’nolarni anglatadi. Ularda hikoya qilingan har bir voqeaning tagida ko‘pgina yashirin ma’nolar mavjud, sirli so‘zlar, ramzlar ham ko‘pgina berilgan. Bu ramz va ma’nolarni ochmoq uchun maxsus «kalitlar», ya’ni sharhlar lozim. Shu sababli bo‘lsa kerak, ularni muqaddas, ilohiy so‘zlar deb ataydilar. Albatta, shuni ta’kidlab o‘tish joizki, - deb yozadi S.S. Buxoriy va I. Subhoniy, - G‘arb adabiyotida novella janrining, risarlik (javonmardlik) asarlarning paydo bo‘lishida Sharq maqomotlari ulkan ta’sir ko‘rsatgan. Shuning uchun G‘arb adabiyotidagi memuar, avtobiografik asarlarning paydo bo‘lishda ham maqomotlarning ta’siri beqiyos». Bu fikrlar ham ilmda o‘z isbotini topgan bo‘lmasa-da, e’tiborga loyiqdir.

Har bir adabiy janr singari maqomot ham o‘ziga xos taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan. Hajman kichik bo‘lgan dastlabki maqomotlarda u yoki bu valiy, shayxning qisqacha biografiyasi voqea-hodisalarning xronologik tartibda joylashtirilishi orqali aks ettirilgan. So‘ngra zamon, o‘quvchi-muxlislar, muridlar talabi va ehtiyojini qanoatlantira oladigan, katta hajmli, quruq biografik ma’lumotlar bayonidan farqli o‘laroq hikoyat, rivoyat, naqllar, tamsillar, maqol, matallar va she’riy parchalar bilan boyitilgan, Qur’oni Karim oyatlari, nabaviy va qudsiy hadislar, payg‘ambarimiz siralaridan iqtiboslar, ilgari yashab o‘tgan mashoyixlar hayotidan olingan ibratli lavhalar vositasida badiiy ishlov berilgan maqomotlar vujudga keldi. Keyinchalik mualliflar badiiy so‘z san’atining turli vositalaridan unumli foydalanishlari natijasida nafaqat u yoki bu tariqat a’zolarining diqqatiga molik bo‘lgan, balki keng kitobxonlar ommasi uchun ham estetik zavq bag‘ishlashga qodir bo‘lgan asarlar yaratdilar. Bunday asarlar asrlar osha bizning davrimizgacha yetib kelib, bugungi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Ularda shayxlar timsolida aks ettirilgan komil insonlar siymosi, ularga xos bo‘lgan barcha oliy va armoniy insoniy xislatlar bugungi kunda ham barcha uchun namuna bo‘la oladi.

Maqomot janrining qonuniyatlari haqida gapiradigan bo‘lsak, ular milliy madaniyatning konkret tarixiy sharoiti, voqelikning mualliflar ko‘zi bilan aks ettirilishi hamda maqomotnavisning badiiy mahorati va

iste'dodi bilan bog'liqdir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, diqqatga molik ma'lumot shundan iboratki, agiografiyaning sira, tabaqot, tazkira, manoqib kabi turli ko'rinishdagi turlari orasida maqomotlar o'rta asrlarda asosan Movarounnahrdagina yozilgan bo'lib, ular naqshbandiya tariqati shayxlariga bag'ishlangandir. O'sha davrda Xuroson va Hindistonda fors tilida yaratilgan agiografik asarlar «Tabaqot as-so'fiya», «Tarojim as-so'fiya» kabi nomlar bilan atalgan bo'lib «maqomot» nomi ishlatilmagan. Ularda «maqomot» so'zi tariqatdagi ruhiy-ma'naviy kamolot bosqichlarini anglatadigan istiloh sifatidagina qo'llanilgan. Buxoro va Samarqandda yozilgan agiografik asarlar esa aksincha, asosan maqomot nomi bilan atalgan. Ba'zida esa ular boshqa nom bilan atalsa-da, maqomot ekanligi qo'shimcha ravishda albatta izohlangan. Masalan: Saloh bin Muborak qalamiga mansub «Anis ut-tolibin va uddat us-solikin» asari yoxud «Maqomoti Hazrat Xoja Bahouddin» deb atalgan.

Birorta janrga bir yo'la mufassal va mukammal ta'rif berish murakkab vazifadir. Chunki har bir janr kabi maqomot ham rivojlanib borgan. Shuning uchun janrga ta'rif berilganda uning barcha jihatlarini qamrab olish mumkin emas deb o'ylaymiz. Chunki «Janrni aniq chegaralab, belgilab qo'yish uning imkoniyatlarini, qirralarini, ma'lum darajada cheklab qo'yadi va janr xususiyatlarini kambag'allashtirishga olib keladi» [6:66].

Avval kichik hajmda, so'ngra yuzlab saxifalarda bitilgan maqomotlar yaratilishi davrlar, asrlar o'tishi bilan bu turdagi asarlar o'z tarixida muayyan taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tganligidan dalolat beradi. Dastlab mavjud bo'lgan uzuq-yuluq og'zaki va yozma ma'lumotlarni bir tizimga tizish, ularni xronologik tartibda joylashtirish va badiiy bayon uslubidan foydalanib obraz yaratish orqali o'zida badiiy asarlarga xos xususiyatlarni aks ettirgan agiografik asarlar ham yaratilganligi ma'lum (masalan, «Holnomai Boyazid Ansoriy» ).

Yangi adabiyot – yangi qahramon bilan paydo bo'ladi, deydi nemis olimi I. Bexer. Shu fikrni biroz o'zgartirgan holda aytish mumkinki, yangi janrni yangi mazmun yaratadi. Shu bilan birga, qahramon ham [6:111].

Fors tilida avliyolarning hayoti va faoliyati haqida, ularning kashfu karomatlari va xavoriq odatlari haqida hikoya qiluvchi agiografik asarlar orasida Fariduddin Attorning (1141\1228\29) «Tazkirat ul-avliyo» asari dastlabki agiografik asarlardan hisoblanadi. Rus olimasi N.Yu. Chalisovaning yozishicha, bu asar XII asr oxiri XIII asr boshlarida yozilgan [195:141].

R. Nikolson tarafidan nashr qilingan «Tazkirat ul-avliyo»ning kirish qismida eronlik olim Mirza Muhammad Qazviyning yozishicha, «bu asar (T.A.) yangi fors tilidagi badiiy nasrning eng birinchi namunalaridan biri va agiografiya janrida fors tilida yozilgan uchinchi asardir».

Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarining muqaddima qismida ushbu asarni yozishda Attorning «Tazkirat ul-avliyo» asaridan foydalanganligi haqida ma'lumot beradi.

«...Tangri taolo tavfiqi birla bu ulug' ishga ilik urdum va bu azim amrg'a qalam surdum va Hazrati Shayx Fariduddin Attor bitgan «Tazkirat ul-avliyo»din ba'zi kibori mashoyixkim, «Nafahot ul-uns»g'a doxil bo'lmaydur erdi, har qaysisini munosib maqomda doxil qildim» [41:66]. Shuni ham aytish kerakki, «Tazkirat ul-avliyo» bir necha marta turkiy tilga tarjima qilingan. Jumladan, XIX asr oxirda u Xorazmda o'zbek tiliga ko'chirilgan bo'lsa, istiqlol davrida esa Mirzo Kenjabek tarjimasida bosilib chiqdi.

Fariduddin Attorning «Tazkirat ul-avliyo», Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns minal xazarot ul-quds», Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarlari mashoyix va avliyolarning hayoti hamda faoliyati haqida xabar beruvchi agiografik janrga mansub asarlardir.

Fariduddin Attorning «Tazkirat ul-avliyo»sida 72 nafar dastlabki shayxlarning biografiyasi va 20dan ortiq keyingi davrlarga mansub so'fiylarning hayoti va faoliyati haqida hikoya qilinadi.

Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns» nomli kitobida 664 shayxu so'fiyning nomi zikr etiladi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, dastlabki agiografiya janriga mansub bo'lgan tazkiralarda, tabaqotlarda, o'nlab, yuzlab shayxu so'fiylarning hayoti, faoliyati, a'molu af'oli, muomilotu riyozoti haqida ma'lumotlar jamlangan bo'lsa, keyinchalik mashhur va ma'ruf shayx valiylar xotirasini abadiylashtirish, ularning barchaga barobar ibratli hayot tarzini avlodlarga yetkazish, ulardan sodir bo'lgan kashfu karomatlardan xabardor qilish maqsadida shayxu valiylar hayoti haqida mufassal pand-nasihat uslubida yozilgan, ma'lumotlar jamlangan, o'quvchi va tinglovchilarga zavqu shavq baxsh etadigan saviyada yozilgan agiografik asarlarning maqomot turi yozila boshlagan.

Maqomotlar forsiy agiografiya janri taraqqiyoti va takomilining (tabaqot, tazkira, manoqib janrlaridan keyin) yuqori darajasi mahsuli-

dir deyishimiz mumkin. Chunki maqomotlar o‘zining mavzusi, mazmuni, maqsadi keng qamrovliligi, badiiyligi nuqtai nazaridan boshqa agiografik asarlardan yuqori turadi. Ularda tazkira va tabaqotlardan farqli o‘laroq, bir nechta shayx valiyning o‘rniga bitta shayxning hayoti, faoliyati mufassal tasvirlangan. Maqomotlar tarkibiga kiritilgan o‘nlab, yuzlab rivoyatlar, she’riy parchalar asarning bosh qahramoni - komil inson, komil pir, komil shayx obrazini shakllantirishga, tasvirlashga bo‘ysundirilgan va muayyan mavzu nuqtai nazaridan maqomotlarning tarkibiy qismlarida joylashtirilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maqomotlarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iboratdir:

1. Ular nasr va nazmda yozilgan, ko‘plab Qur’on oyatlari va hadislarni o‘z ichiga oladi hamda ularning mazmuni barchaga tushunarli tilga o‘girilib, sharhlanadi.

2. Maqomotlarda bayon etilayotgan nazariy materialni dalillash uchun ko‘plab hikoyat, rivoyat, naqllar keltiriladiki, ular nazariy masalalarning misollar vositasida xotirada saqlanib qolinishiga imkoniyat beradi.

3. Maqomotlar sodda, ravon tilda yozilishiga qaramay, ularda tasavvufiy istilohlar tez-tez uchraydi.

4. Maqomotlarda nazmning roli shundan iboratki, u avval nasrda bayon etilgan fikr-mulohazalarni qisqa va lo‘nda shaklda bayt, misra, masnaviy, ruboiy shakllarida yakunlaydi, ya’ni ulardan kelib chiqadigan xulosalar qissadan hissa shaklida qayd etiladi.

5. Umuman so‘fiyona adabiyotga xos bo‘lgan o‘git ohangi, pandu nasihat uslubi maqomotlarda o‘z aksini yaqqolroq va ravshanroq topadi.

Bu o‘rinda yana bir fikrni bayon etishni lozim topdik. Biz ishimizda so‘fiyona nasriy adabiyot janrlarini agiografik adabiyot namunalari sifatida olib qaradik. Ammo shuni ham nazarda tutish lozimki, so‘fiyona asarlarda garchi agiografik asarlarning mushtarak xususiyatlari (sirlilik, mo‘’jizakorlik, afsonaviylik, g‘ayrioddiylik kabi) aks etsa-da, shu bilan birga so‘fiyona asarlarning o‘ziga xos tomonlari ham bor. Bular jumlasiga asar markazida turgan shayxning silsilasini aniqlash, uning tariqati yo‘nalishini ishoralar bilan sezdirish, uning hikmatlarini bayon etish, uning muridga ta’sir etish vositalari va usullarini yoritish, uning badiiy ijodidan namuna

keltirish, uning xalqqa munosabatini ko‘rsatib o‘tish kabilarni kiritish mumkin.

Shunisi aniqki, manoqib va maqomotlar ayni tariqatni ulug‘lash, rivojlantirish va targ‘ib etish uchun yozilgan. Shayx obrazi esa hamma vaqt ibrat va namuna qilib ko‘rsatilgan. Shu ma’noda maqomotlar milliy adabiyot namunasi, o‘ziga xos adabiy-uslubiy xususiyatga ega bo‘lgan tarixiy-adabiy yodgorlik deb qaralishi lozim.

## 1.4. Naqshbandiya tariqatiga oid maqomotlar manbalarining tahlili

Bizda avliyolar va shayxlar haqida yozilgan adabiyot - agiografiyalar ko‘plab saqlanib qolgan. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida ham naqshbandiya tariqati shayxlari haqidagi agiografik adabiyot namunalari anchagina bor. Ular orasida o‘ta qimmatli va original asarlar ham mavjud. Bular Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Alining مقامات بهاء الدين نقشبند «Maqomoti Bahouddin Naqshband» (XIV asr), Xoja Abu al-Haq qalamiga mansub مقامات خواجه عبيد الله احرار «Maqomoti Xoja Ubaydulloh Ahror» (XV asr), Ali ibn Husayn al-Voiz al-Koshifiyning رشحات عين الحياة «Rashahot ayn al-hayot», Abdurahmon Jomiyning نفحات الانس من حضرات القدس «Nafahot al-uns min hazarot al-quds» (XV asr), Alisher Navoiyning نسائم المحبة «Nasoyim ul-muhabbat», Muhammad Hoshim ibn Muhammad Qosim al-Badaxshining نسيمه القدس من حدايق الانس «Nasimat al-quds min hadoyiq al - uns» (X1V asr) Xoja Abul Baqoning جامع المقامات محدوم اعزمى كاسانى «Jome’ al-maqomoti Mahdumi A’zami Kosoniy» (XVI asr), Mavlono Mir Muhammad al-Muftiy at-Toshkandiyning مناقب مولانا لطف الله چوستى «Manoqibi Mavlono Lutfulloh Chustiy» (XV1 asr), Saloh ibn Muborak al-Buxoriyning انيس الطالبين و عدة السالكين «Anis ut-tolibin va uddat us-solikiyn» («Toliblar oshnosi va solihlar rahnamosi») (X1V asr), boshqacha nomi مناقب خواجه بهاالدين نقشبند «Manoqibi Xoja Baxouddin Naqshband» (X1V asr), Xoja Muhammad Porsoning مقامات خواخه بهاالدين نقشبند «Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband», مقامات خواجه علاالدين عطار «Maqomoti Xoja Alouddin Attor», Mavlono Kamoliddin Abdul Vose’ an-Nizomiyning مقامات مولوى جامى «Maqomoti Mavlaviy Jomiy» va boshqalardir.

Bularning barchasi naqshbandiya tariqati shayxlariga bag‘ishlangan asarlardir.

Yuqorida zikr etilgan asarlarning birinchisi Abul Muhsin Muhammad Boqir qalamiga mansub «Maqomoti Bahouddin Naqshband» yoki «Maqomoti Hazrati Xojai Buzurg» asaridir. Muallifning to‘liq ismi Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali va taxallusi Siddiqiydir. Uning nasabi birinchi xalifa Abu Bakr Siddiqqa borib yetadi. Bu asar naqshbandiya suluki asoschisi Bahouddin Naqshbandning hayoti, faoliyati, qilgan ishlari, aytgan so‘zlari va karomatlari haqidagi yirik asar bo‘lib, 804/1401 yilda yozilgan. Bu asar haqidagi dastlabki xabar Xoja Muhammad Porsoning «Risolai Qudsiya» asarida berilgan va unda jumladan shunday deyiladi: «Bu tush bayonining qissasi va boshqa ajoyib hollar hamda g‘aroyib karomatlar Hazrati Eshon maqomotlariga kiritildi, aziz do‘stlardan va xolis ashoblardan ba’zisi ...ularni to‘plash va yozishga qasd qilgan, inshoolloh, u mukammal holda itmomiga yetgay va bu maqomotning zikri bilan do‘stlar va ahboblarning qulog‘i va tillari munavvar va muattar bo‘lg‘ay» [1.4.3a].[1]

Bu asar muqaddima va to‘rt qismdan (maqsaddan) tashkil topgan.

Muqaddima Bahouddin Naqshbandning tavallud topishlari va Hazrati Xojai Buzurg, quddisa sirrahuning silsilalari nisbati masalalariga bag‘ishlangan.

Birinchi maqsad – Hazrati Xojamiz, quddisa sirrahuning boshlang‘ich hollari bayonida.

Ikkinchi maqsad – Hazrati Xojamizning suluk yo‘li, darveshlik sifati, ahvol va axloqlari bayonida hamda sharif majlisda, ularning muborak og‘izlaridan chiqqan nozik so‘zlar va mo‘’jaz kalomlar zikrida.

Uchinchi maqsad - Valoyat dengizi mavj urgan paytda har xil joyda zuhurga kelgan karomat va g‘ayritabiiy holatlar bayonida.

Mazkur asar 1267/1851 yilda xattot - Muhammad Ma’sum Kotib tomonidan ko‘chirilgan. Bu asarning nusxalari O‘R FAning Sharq-

---

[1] Бу асар 1993 йилда шарқшунос олим Маҳмудхон Ҳасанхон Маҳмуд ўғли тарафидан ўзбек тилига таржима қилинган ва «Баҳоуддин Балогардон» номи билан нашр қилинган. Биз ўз ишимизда баъзи лавҳаларнинг таржимасини ушбу китобдан иқтибос қилиб олдик.

shunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida 1.9519, 2.1901/11 raqamlari ostida saqlanmoqda. U nasta’liq xatida yozilgan.

Shayx Bahouddin Naqshbandning hayoti, faoliyati, kashfu karomatlariga bag‘ishlangan yana bir asar «Anis ut-tolibiyn va uddat us-solikiyn»dir («Toliblar oshnosi va soliklar rahnamosi»). Ushbu asarning muallifi Saloh bin Muborak al-Buxoriy bo‘lib, asar Shayx Bahouddin Naqshbandning hayotlik chog‘ida yozila boshlagan. U paytda Saloh bin Muborak Shayx Bahouddinning xalifasi Shayx Alouddin Attor (802/1400) huzurida edi. Bu asarning jami 27 ta nusxasi mavjud bo‘lib qo‘lyozma nusxalari Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo‘limi kutubxonasida (1,62,250), Londonda (Ye-Ni,1,1022,185) va O‘z FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida (1,2520/1; 2.8288 va hokazo) saqlanmoqda. Mavjud nusxalarning ba’zilari asarning to‘liq nusxasi (828; 9№98/1, 11.7146/1; 14.3915, 16.4486; 18.12075) va qolganlari esa qisqartirilgan nusxalaridir. 8288 raqamli nusxaning titul varag‘ida «Maqomoti Hazrat Xoja Naqshband» deb yozib qo‘yilgan. Bu asar «Maqomoti Hazrati Xojai Naqshband» nomi bilan ham yuritiladi. Asar debocha va 4 qismdan (maqolot) tashkil topgan. Ular quyidagicha nomlanadi:

1. «Dar ta’rifi valiy va valoyat» («Valiy va valoyat ta’rifi»);
2. «Dar sharhi ibtidoi ahvoli Xoja (Bahouddin Naqshband) va zikri silsilayi Xojagon» («Xoja Bahouddin Naqshbandning ibtido holi sharhi va Xojagon silsilasining zikri»).
3. «Dar bayoni sifati ahvol va axloqi Hazrati Xojai mo» («Hazrat Xojamizning ahvoli sifati va axloqi bayoni»);
4. «Dar zikri soyiri karomot va zuhurot va maqomot va ahvol va osore, ki az Hazrati Xojai mo zuhur yoft» («Hazrat Xojamizdan sodir bo‘lgan boshqa karomatlar, maqomotlar, ahvollar va asarlar zikri»).

Bu asar xattot Shoh Husayn ibn Isomuddin al-Buxoriy qo‘li bilan go‘zal nasta’liq xatida yozilgan. Uning ta’kidlashicha, bu nusxa (1.2520/1) Abdurahmon Jomiy dastxatidan Marvda ko‘chirilgan. Ko‘chirilgan vaqti 964/1557 yil. U asarning to‘liq nusxasi bo‘lib (2.№8288) 1001/1592 yilda ko‘chirilgan), 175 varaqdan iborat.

Xoja Ahror valiyning hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi agiografik asarlardan biri Muhammad Qozi ibn Burhoniddin ibn Xoja Muhammad Rizo tarafidan ta’lif qilingan «Maqomoti Xoja Ubaydulloh Ahror»dir.Bu asar O‘R FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 1.8737/1raqami ostida saqlanmoqda.

Asar muallifi Muhammad Rizo 921/1515 yilda vafot etgan.

Bu asarda naqshbandiya tariqatining yirik shayxlaridan biri toshkentlik Xoja Ubaydulloh Ahrorning hayoti va faoliyati, kashfu-karomatlari, shuningdek boshqa mashhur shayxlarning so‘zlaridan naqllar joy olgan. Asar nasta’liq xatida bitilgan, 92 varaqdan iborat.

Ushbu maqomot «naql qilishlaricha» kabi kirish so‘zlari bilan boshlanadigan, voqea-hodisa ishtirokchisi va yoki naql qilinayotgan hikoyaning noqilining nomi zikr etilganidan so‘ng boshlanadigan qisqa shakldagi hikoyat-naqllar tarzida yozilgan. Maqomotda yuzdan ortiq naqllar mavjud.

Xoja Ubaydulloh Ahrorga bag‘ishlangan yana bir «maqomot» mavjud bo‘lib, bu Ubaydulloh Ahrorning nabirasi Xoja Abdul Haqq tarafidan yozilgan (XVI) «Maqomoti Xoja Ahror»dir. Bu asarda Xoja Ubaydulloh Ahrorning hayoti, faoliyati va nasihatu vasiyatlari batafsil bayon qilingan.

«Maqomoti Xoja Ahror» ham naqllardan tashkil topgan hamda ularda Muhammad Ali Termiziy, Sahl ibn Abdulloh Tustariy, Muhyi ad-Din ibn al-Arabi, Faxriddin Roziy va boshqa bir qator mashhur so‘fiylar haqida ham hikoya qilinadi.

Asar xattot Mir Abdulloh Samarqandiy tarafidan nasta’liq xatida ko‘chirilgan bo‘lib, 119 varaqdan iborat. Bu asar O‘R FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida 3735/11 raqami ostida saqlanmoqda.

Xoja Ubaydulloh Ahror hayoti va faoliyati haqida kengroq hamda mufassalroq ma’lumotlar jamlangan agiografik asar Faxriddin Ali ibn Husayn al-Voiz al-Koshifiy (868/1463 - 939/1532) as-Safiy taxallusi bilan mashhur kishi qalamiga mansub bo‘lgan «Rashahot ayn al-hayot»dir («Hayot chashmasidan tomchilar»). «Rashahot ayn al-hayot» O‘R FA Sharqshunoslik instituti fondida 1.1788 raqami ostida saqlanmoqda.

Naqshbandiya tariqatining ta’sir jo‘g‘rofiyasi juda keng bo‘lgan, u Xitoyning Chansu viloyatidan Qozongacha va Hindistondan Turkiyagacha tarqalgan. Bu tariqatning ta’sir doirasi XVI asrda Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonni zabt etishi hisobiga kengaydi. Tarixdan Zahiriddin Muhammad Bobur Xoja Ahrorning muridi bo‘lganligi ayondir. Shu tufayli o‘sha davrlardan boshlab Hindistonda boshqa so‘fiyona adabiyotlar qatorida «Rashahot»ning nusxalari ham ko‘paya bordi. Laxor va Panjob universitetlari kutubxonalarida «Ra-

shahot»ning 978/1570-71 va 1006/1579 yillarda ko‘chirib yozilgan ro‘yxatlari mavjud.[1]

Bulardan tashqari «Rashahot» litografiya usulida Laknau (1890y., 1897, 1905y) va Kanpurda (1911, 1912 y) chop etilgan.

Bu asarning ko‘plab tillarga tarjima qilinganligi va unga sharhlar yozilganligi uning naqadar mashhur ekanligidan dalolat beradi. «Rashahot» arab tiliga hindistonlik so‘fiy Tojiddin ibn Zakariyo ibn Sulton al-Abtali al-Umavi al-Usmon al-Hindi al-Hanafi an-Naqshbandiy tarafidan 1029/1620 yilda tarjima qilingan.[2]

Bu asar 1885 yilda Qozonda turk tiliga ham tarjima qilingan.[3]

O‘zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida «Rashahot ayn al-hayot»ning yigirmadan ortiq nusxasi mavjud. Bu asarda naqshbandiya tariqati mashoyixlarining xususiyatlari, fe’lu atvorlari, ta’rifu tavsiflari hamda fazlu fazoillari naql va hikoyalar orqali yoritilgan.

Mazkur fondda 1.1788 inv. raqamli ostida saqlanayotgan nusxa chiroyli nasx xatida bitilgan, 977/1569 yilda ko‘chirilgan va 331 varaqdan iboratdir.

Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns minal hazarot ul-quds» («Muqaddas dargohdan esuvchi do‘stlik shabbodalari») kitobida VIII–XV asrlar mobaynida yashab o‘tgan islom olami tasavvuf shayxlarining tarjimai hollari, ijodiy faoliyatlaridan namunalar berilgan. Bu asar bir necha marta fors tilidan turk-o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Ular ichida Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» nomli tarjimasi o‘zining badiiyligi va qo‘shimcha muhim ma’lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi. Unda 608 shayxning tarjimai holi berilgan. Ularning birinchisi tobeinlardan So‘fiyon Savriyning (vaf. 161/777 y.) zamondoshi shoshlik Abu Hoshim So‘fiydir (vaf.150/767). Asar oxirida 34 nafar so‘fiy ayol haqidagi ma’lumotlar ham o‘rin olgan.

O‘R FA Sharqshunoslik instituti fondida bu asarning 60 dan ortiq nusxalari mavjud. Ular orasida eng qadimiysi muallif vafotidan uch yil keyin, ya’ni 901/1495 yilda xattot Abdujalil ibn Muhammad at-Tabodugoniy tarafidan ko‘chirilgan nusxadir. U mazkur fondda

---

[1] Stry G/A/ persian litereture a bio-bibliografical survey vol? 1. Pt.2. 1953. P.966.

[2] Арабский каталог. Т. 11. с. 72.2 изд. Каир. стр. 202..

[3] СВ1, Инст.Востоковедения .АН.РУ.Х1 т.

1№4409 inv.raqami ostida saqlanmoqda va nasta'liq xatida yozilgan bo'lib, 324 varaqdan iborat.

Yuqorida zikr etilganidek, Alisher Navoiy (vaf. 906/1501) Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns minal hazarot ul-quds» kitobini o'zbek tiliga tarjima qilgan va uni «Nasoimul muhabbat min shamoiyim ul-futuvva» (Mardlikning muattar bo'ylaridan taraluvchi muhabbatning mayin shabadalari) deb nomlagan. Alisher Navoiy bu asarni umrining oxirlarida yozib tugatgan. Navoiy Jomiy asarini tarjima qilish bilangina chegaralanib qolmay, balki Jomiy matnini qisqartirib, unga o'zidan talaygina qo'shimchalar kiritgan. Unda Fariduddin Attorning «Tazkirat ul-avliyo» sidagi Jomiy asariga kirmay qolgan bir qancha shayxlarning tarjimai hollari, shuningdek ba'zi hind mashoyixlari va Xoja Ahmad Yassaviydan to o'z davrigacha o'tgan turk shayxlari to'g'risida qiziqarli va muhim ma'lumotlar bor. Asar Jomiy va uning ba'zi shogirdlari haqidagi kerakli ma'lumotlar bilan yakunlangan. O'R FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida bu asarning 5 nusxasi 1.5420; 2.1828, 3.3415, 4.8514/11, 5.857 inv. raqamlari ostida saqlanmoqda. Qo'lyozma nasta'liq xatida taxminan XVIII asrda ko'chirilgan, 239 varaqdan iborat.

Jomiy va Navoiy asarlarida xojagon silsilasi vakillariga keng o'rin berilgan.

Xoja Ubaydulloh Ahror tarafidan yozilgan «Fuqarot ul-orifin» («Ma'rifat ahli hayotidan lavhalar») nomli asar ham tasavvuf ahli hayoti va faoliyati, tariqat usullari haqida bayon qiluvchi asardir. Unda Xojagon tariqati tomonidan rivojlantirilgan va ishlab chiqilgan hamda Bahouddin Naqshbandning ma'naviy kamolot bosqichlari usullariga sharhlar berilgan. Xufiya zikrning nazariy asoslari va amaliy tomonlari haqida batafsil tushuntirishlar berilgan. Ushbu qo'lyozma O'R FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 1.507/11, 2.503/X111, 3.2967/11, 4.84/5 raqamlari ostida saqlanadi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 1.1354 raqami ostida saqlanayotgan Mavlono Kamoliddin Abdulvose' an-Nizomiy valadi Jaloliddin Mutahharal-Boxarziy tarafidan yozilgan «Maqomoti mavlaviy Jomiy» ham agiografik asarlar sirasiga kiradi. Asar muallifi Abdurahmon Jomiyning hayot tarzi va sermahsul faoliyatini yoritgan. Unda Jomiyning bu asar qo'lyozmalari bilan shaxsan tanishib chiqqanligi ham qayd qilingan. Ko'pchilik Jomiyni XV asr ikkinchi yarmi Hirot adabiyotining yirik

namoyandasi va shoiri deb bilsa, muallif uni asosan, Hirot naqshbandiya tariqatining piri murshidi sifatida talqin etadi hamda uning atrofida barcha diniy, g‘oyaviy va siyosiy hayot jo‘sh urganligini ta’riflaydi. Jomiyning hayot yo‘lini ta’riflar ekan, muallif uning ko‘pdan-ko‘p diniy va ilmiy bahslari, tasavvuf bobidagi nazariy va amaliy faoliyati, uning Xoja Ahror va Sulton Husayn Bayqaro bilan kechgan bevosita muloqotlari xususida alohida to‘xtalib o‘tadi. Jomiyning Samarqandga kelib Xoja Ahror uyida bo‘lishi, Xoja Ahrorning Hirotga borganda Jomiyning uyida to‘xtashi (51a-bet) va Jomiyning Bag‘dod, Karbalo, Najaf, Makka va Tabrizga safarlari to‘g‘risidagi ma’lumot alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari muallif «Maqomot»da Jomiy asarlarining ro‘yxatini ham bergan (126 bet). Bu «Maqomot» Jomiyga bag‘ishlab yozilgan marsiya bilan tugaydi. Bu qo‘lyozma nasta’liq xatida bitilgan, 149 varaqni tashkil etadi.

Mavlono Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan yana bir Maqomot Abdulg‘afur Lo‘riy (vaf. 912/1506 y.) tarafidan yozilgan «Maqomoti Abdurahmon Jomiy»dir. Muallif bu kitobni o‘z ustozi Jomiyning «Nafahot ul-uns» asariga ilova sifatida yozgan.

O‘zbekiston FAning Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida mazkur asarning 6 ta nusxasi saqlanmoqda. Ular orasida 1.2305/1 inv. raqami ostida saqlanayotgan nusxa asarning to‘liq va yaxshi nusxasidir. U taxminan XV asrga tegishli nusxa bo‘lib, xati nasta’liq, 41 varaqdan iborat.

Naqshbandiya tariqati shayxlari, xususan, Bahouddin Naqshband Hazratlarining hayoti va faoliyati haqida ma’lumot beruvchi asarlardan biri «Manoqibi Mavlono Lutfulloh»dir. «Manoqibi Mavlono Lutfulloh» O‘R FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 5785 inv. raqami ostida saqlanmoqda. Bu asar muallifi Mavlono Mir Muhammad al-Muftiy Toshkandiy (XVI asr) bo‘lib, u o‘z asarida Farg‘onaning Axsikent qishlog‘idan chiqqan mashoyixlardan Lutfulloh ibn Fatxullohning tarjimai holini bayon etadi. Mazkur asar 2 qismdan iborat. Uning birinchi qismida Xojai Kalon nomi bilan mashhur bo‘lgan Abdulholiq G‘ijduvoniy (v.617/1220), Bahouddin Naqshband (718/1318–791/1389), Xoja Ubaydulloh Ahror (1404–1490) (20a-39b), Nizomuddin Xomushning (v.895/1490) (39a-53b.) tarjimai xollari berilgan.

Asarning ikkkinchi qismi (asosiy qism) Lutfulloh Chustiyning o‘ziga bag‘ishlangan. Bu qism Mavlono Lutfulloh bilan birga

bo‘lgan, uning hamsuhbati bo‘lgan shaxslar tilidan naql qilingan qisqa hikoyalardan tashkil topgan.

Muallif ko‘plab shaxslar haqida xabar berishdan tashqari XVI asrdagi tarixiy voqealarga doir ma’lumotlarni ham zikr etib o‘tgan. Bu asarning yozilgan vaqti noma’lum. U 1292/1875 yilda nastaliq xatida bitilgan, xattoti ham noma’lum.

Naqshbandiya tariqati shayxlarining hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan yana bir qo‘lyozma asar (inv.raqami 1.7638) Mahdumi A’zam nomi bilan mashhur bo‘lgan Xoja Ahmad ibn Mavlono Jamoliddin Kosoniyning (806/1461-62 - 999/1542 y.) zotu nasabi, ilmiy saviya va darajalari, kashfu karomatlari va tasavvuf xususidagi purhikmat so‘zlari hamda boshqa shayxlar haqida hikoya qiluvchi, Ahmad Xojagiy Kosoniyning nabirasi Abul Baqo ibn Xoja Bahouddin ibn Maxdumi A’zam tarafidan yozilgan «Jome’ ul-maqomot»dir. Bu asar 1026/1617 yilda Maxdumi A’zamning safdoshlari Mavlono Muhammad Ali Axsikatiy, Mavlono Do‘st Sahhof, Mavlono Boboi Xugira, hofiz Ibrohim va boshqalarning ma’lumotlariga tayangan holda yozilgan. Mazkur asar qisqa muqaddima, 3ta bob va xotimadan tashkil topgan. Birinchi bobda (3a-11b bet) Xoja Ahmad Kosoniyning Muhammad alayhissalomgacha bo‘lgan shajarasi bayon qilingan.

Ikkinchi va uchinchi boblar (11b-247b.) Maxdumi A’zamning kashfu karomatlariga, uning shogirdlari va muridlari bilan uchrashuvlari, suhbatlariga bag‘ishlangan. Xotimada Maxdumi A’zamning vafoti haqida xabar berilgan.

Bu asarda ko‘plab naqshbandiya tariqati shayxlarining hayoti va faoliyatiga oid materiallar mavjud. Shu jumladan, Shayx Hovand Tahurning avlodlari Xoja Muhammad bin Xoja Xurda, Xoja Iso va Xoja Tohir haqida qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan.

O‘R FA Sharqshunoslik instituti qulyozmalar fondida «Jome’ ul-maqomot»ning 8 nusxasi saqlanmoqda. Ular orasida 1.7638 inv. raqami ostida saqlanayotgan nusxa eng mukammal va to‘liq nusxa bo‘lib, 251 varaqdan tashkil topgan. Bu nusxa 1026/1617 yilda ko‘chirilgan.

Xoja Bahouddin Naqshband Hazratlarining hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi yana bir asar «Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband» ham mavjud bo‘lib, u Hazrat Xojaning eng birinchi xalifasi Xoja Muhammad Porso tomonidan yozilgan. Faxriddin Ali Sa-

fiy qalamiga mansub «Rashahot ayn-al hayot» («Obi hayot tomchilari») kitobida yozilishicha, Xoja Muhammad Porso riyozat chekib yurgan paytida bir kun Hazrat Xoja huzuriga kelib, eshik oldida turadi. Tasodifan ko‘chaga chiqib, uni ko‘rib qolgan kanizdan: «Ko‘chadagi kim?» – deb so‘raydilar Hazrat hoja. Kaniz «Bir porso yigit turibdi» deydi. Hazrat hoja shu kundan boshlab uni Porso deb ataydilar. Porso o‘z pirining mehrini qozonadi. Hazrat hoja vafotlari yaqinlashib qolgach, o‘z o‘rnini kimga qoldirar ekan, deb turganlarga qarata: «Bizni ko‘rishga kimda orzu paydo bo‘lsa, Xoja Muhammad Porsoga qarasin», – deydi.

Xoja Muhammad Porso qalamiga mansub «Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband» asari to‘rt qismdan iborat: birinchi qism - «Valiylikning ta’rifi» deb nomlanadi. Ikkinchi qism: «Bahouddin Naqshband tariqatining ilk davrlari va xojagon tariqati silsilasi». Uchinchi qism «Bahouddin Naqshbandning suhbatlari va tasavvufga oid qimmatli so‘zlaridan namunalar». To‘rtinchi qism: Hazratning kashfu karomatlari».

Ushbu asar nasta’liq xatida xattot Shoh Husayn ibn Isomiddin al-Buxoriy tarafidan 965/1558 yilda Marv shahrida ko‘chirilgan.

Xoja Muhammad Porso «Risolai Qudsiya». («Qudsiy kalimalar haqidagi risola») deb nomlangan yana bir asar muallifidir. Porso ushbu asarni Xoja Alouddin Attor iltimosi bilan yozar ekan, Hazrat Xoja aytgan va o‘z qulog‘i bilan eshitgan qudsiy kalimalarini sharhlab berishni maqsad qilib qo‘yadi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti hazinasida bu asarning sakkizta nusxasi saqlanmoqda. Ular orasida eng qadimiysi 2517/Y11 raqami ostida saqlanayotgan, xattot Muhammad ibn Xoji Muhammad Kalidariy tarafidan 875/1470 yilda nasta’liq xatida ko‘chirilgan nusxadir. Mazkur asarda muallif o‘z pirining «qudsiy» so‘zlarini naql qilar ekan, shunday deydi: «Haqiqiy ixlosmand toliblar bu so‘zlarni mutolaa qilayotganlarida o‘zlarini go‘yo Hazrat bilan suhbatlashayotgandek his qiladilar».

«Anis ut-tolibiyn va uddat us-solikiyn»ning muallifi Saloh ibn Muborak al-Buxoriy qalamiga mansub yana bir asar «Manoqibi Xoja Bahouddin Naqshband» deb nomlanadi. Bu asarning qo‘lyozmasi O‘R FA ning Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 1.11594 raqami ostida saqlanmoqda.

Ushbu «Manoqib» Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va faoliyati haqida mufassal hikoya qiluvchi asarlar sirasiga kiradi. U 162 varaqdan

tashkil topgan bo‘lib nasx xatida xattot Abdulloh ibn Abdullatif tomonidan 993/1585 yilda ko‘chirilgan.

Bu asar to‘rt qismdan iborat. Birinchi qism «Valiylikning ta’rifi» deb atalgan. Ikkinchi qism Bahouddin Naqshband Hazratlarining tariqatga kirgan ilk davrlari haqida bayon qiladi. Shu qismda yana Xojagon tariqatining silsilasi beriladi. Uchinchi qismda Hazrat Bahouddin Naqshbandning ahvollari, axloq va sifatlari, shu bilan birga tariqat ahli bilan qilgan suhbatlari va muomalalari haqida hikoya qilinadi. Asarning to‘rtinchi qismi Hazratning kashfu karomatlari haqidadir. Har bir qism turli hajmdagi, turli shaxslar tomonidan naql qilingan hikoya-naqllardan tashkil topgan.

Mazkur fondda bu asarning uch nusxasi mavjud. Yuqorida zikr qilingan nusxadan tashqari xattot Abdurahmon Xojai Ko‘lobiy tarafidan 1246/1830 yilda nasta’liq xatida ko‘chirilgan 100 varaq hajmdagi 11425 raqamli qo‘lyozma mavjud.

Yana bir nusxa 3804/11 raqami bilan belgilangan bo‘lib, nasta’liq xatida bitilgan va 142 varaqdan tashkil topgan.

Naqshbandiya tariqati shayxlarining hayoti va faoliyati haqida ma’lumotlar jamlangan «Silsilai Xojagoni Naqshbandiya» («Naqshbandiya Xojalari silsilasi») asari Muhammad Tohir ibn Muhammad Tayyib Xorazmiy (XVIII) tarafidan yozilgan. Bu asar «Tazkirai Tohir eshon» va «Tazkirai Naqshbandiya» nomlari bilan ham mashhur bo‘lib, unda 321 nafar naqshbandiya mashoyixlari haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, unda ashtarxoniylar sulolasidan bo‘lgan Buxoro amirlari - Subhonquli Muhammad Bahodurxon (1091/1680-1114/1702) va Ubaydulloxon ibn Subhonqulixon (1114/1702-1123/1711) to‘g‘risida ham manbalar mavjud. Muallif Mavlono Qoziy Omon Termiziyning (vaf. 1134/1722) muridi bo‘lgan va 1157/1744 yili bu asarni uning tavsiyasi bilan yozgan.

Mazkur qo‘lyozma X1X asrning ikkinchi yarmida nasta’liq xatida yozilgan. Xattot Mullo Muhammad Ali Mudarris. Hajmi 262 varaq. Bu asar mazkur fondda №69 raqami ostida saqlanmoqda. Fondda bu asarning jami 8 nusxasi saqlanmoqda. Ular orasida o‘zbek tiliga tarjima qilingan uchta nusxa ham mavjud.

Yuqorida nomlari zikr etilgan va sharhlangan Hazrat Xoja Bahouddin Naqshband va uning izdoshlari bo‘lgan Alouddin Attor, Abdurahmon Jomiy, Xoja Ahror valiylarning hayoti va faoliyati ha-

qida yozilgan maqomotlar orasidan biz aynan Bahouddin Naqshband maqomotlarini tanlab oldik. Buning sabablari quyidagilardan iborat.

Birinchidan, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, Hazrat Bahouddin Naqshbandning hayoti va faoliyati, qudsiy so‘zlari, ko‘rsatgan karomatlari haqida turli manbalarda, jumladan, «Risolai Qudsiyada», «Nafahot ul-uns»da, «Nasoyim ul-muhabbat»da, «Rashahot ayn al-hayot»da ko‘plab ma’lumotlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, ularda shayx Bahouddin Naqshband siymosi to‘liq va mukammal aks ettirilmagan. Mazkur manbalarda Hazrat Xoja hayoti va faoliyatining ba’zi jihatlarigina o‘z aksini topgan.

Ikkinchidan, tadqiqotimizning oldiga qo‘yilgan vazifa aynan agiografiya janrida yozilgan maqomotlarning filologik tahlilidan iborat ekanligini nazarda tutib, mazkur manbalar orasidan Bahouddin Naqshband maqomotlarini tanlab oldik. Chunki bu maqomotlar naqshbandiya tariqati shayxlariga bag‘ishlangan maqomotlarning eng birinchi namunalaridir. Aslini olganda maqomotlar faqatgina xojagon-naqshbandiya tariqati shayxlari hakida yozilgan. Shu sababli maqomotnavislik an’analarining shakllanishi jarayonini ham o‘rganishni maqsad qilib oldik. Fikrimizcha, mazkur maqomotlar keyingi davrlarda yozilgan maqomotlar uchun andoza vazifasini o‘taganligi ham shubhasizdir.

Uchinchidan, Bahouddin Naqshbandning turli mualliflar tarafidan yozilgan maqomotlarini tahlil qilish natijasida maqomot mualliflarining badiiy mahorat darajasini aniqlash ham qisman nazarda tutildi.

### 1.5. Naqshbandiya talimotining asoslari

Umuman tasavvuf va jumladan, Naqshbandiya tariqati sobiq Sovet Ittifoqida qisman o‘rganilgan edi. Rus olimlaridan A. Kazanskiy, A.N. Boldirev, V.A. Gordlevskiy, Ye.E. Bertels, A.A. Semyonov, V.V. Bartold kabi olimlarning ishlarida tasavvuf va uning bir tariqati naqshbandiya haqida ham ba’zi fikr-mulohazalar bildirilgan.

Tojikistonlik taniqli olimlar S. Ayniy, B. Gafurov, A.M. Bahouddinov, M. Rajabov, A. Afsahzod, A. Muhammadxo‘jaev Bahouddin Naqshband va uning hayoti haqida qiziqarli ma’lumotlarni bayon qilganlar.

A. Fitrat, S. Ayniy, Oybek, I. Mo‘minov, V.I. Zohidov, I.O. Sulton, N.M. Mallaev Sh.Sh. Shomuhamedov, A.P. Qayumov, M.M. Xayrullaev, A. Rustamov, A.X. Hayitmetov, E. Rustamov,

A. O‘rinboyev, S. Salimov, G. Navro‘zova, O. Usmon, Nasafiy, N. Komilov, I. Haqqulov, S. Olimov, va boshqalar naqshbandiya ta’limoti hamda Bahouddin Naqshbandning hayoti va faoliyatini o‘rganishga o‘z hissalarini qo‘shganlar.

Oxirgi yillarda matbuotda Orif Usmonov, Abduqodir Hayitmetov, Ismatulla Abdullaev, Muhammadjon Imomnazarov va boshqa bir qator olimlarimizning Bahouddin Naqshband Hazratlarining hayoti, faoliyatiga bag‘ishlangan maqolalari va ko‘plab risolalari chop etildi. Nasafiyning-(Yevgeniy Berezikovning) «Hazrati Bahouddin Naqshbandiy», Aziz Qayumovning «Bu ohang ila bo‘lg‘osen Naqshband», Sadriddin Salim Buxoriyning «Dilda yor», «Bahouddin Naqshband yoki yetti pir», Orif Usmonning «Bahouddin Naqshband va uning ta’limoti haqida», «Krupneyshie sufiyskie bratstva Sentralnoy Azii», Hamidxon Islomiyning «Ipor hid ila tug‘ilgan orif Xoja Bahouddin Naqshband», Po‘lat Zohidovning «Xoja Bahouddin Naqshband Me’moriy hazina», Izzat Sultonning «Bahouddin Naqshband abadiyati», Sultonmurod Olimning «Xoja Bahouddin haqiqati», «Naqshband va Navoiy» tadqiqotlari o‘quvchilar qo‘liga tegdi. Shuni ham aytish kerakki, xorijiy mamlakatlarning olimlarida ham XX asr boshidan boshlab naqshbandiya tariqatiga qiziqish paydo bo‘lgan. G‘arb olimlaridan X. Algar, M. Mole, F. Yunge, E. Brovi, O. Popovich, J. Trimengem, A. Shuls, Idrisshoh kabilarning tadqiqotlarida Bahouddin Naqshbandning tasavvuf va islom tarixidagi o‘rni haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan. Eron, Misr va Turkiyada ham bu mavzuda talay ishlar yozilgani ma’lum. O‘zbek olimlaridan Shamsuddinxon Boboxonov va Abdulaziz Mansur tomonidan tuzilgan «Naqshbandiya tariqatiga oid qo‘lyozmalar fihristi» naqshbandshunoslar uchun benazir qo‘llanma bo‘ldi. Bulardan tashqari Zafarjon Jo‘raev tasavvuf, jumladan, naqshbandiya tariqati haqida ko‘plab tadqiqotlar jamlangan «G‘oyiblar xaylidan yongan chiroqlar» to‘plamini tayyorladi. Tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov «Tasavvuf» nomli tadqiqotining bir bobini naqshbandiya tariqatiga bag‘ishladi.[1]

---

[1] Березиков Е. (Насафий). Ҳазрати Баҳоуддин Нақшбандий. – Т., 1992; Қаюмов А. Бу оҳанг ила бўлғасен Нақшбанд. – Т., 1993; Бухорий С.С. Дилда ёр. – Т., 1993; Баҳоуддин Нақшбанд ёки етти пир. – Т., 1993; Усмон О. Баҳоуддин Нақшбанд ва унинг таълимоти. – Т., 1993; Султон И. Баҳоуддин Нақшбанд абадияти. – Т., 1994; Олим С. Хожа «Баҳоуддин ҳақиқати». Наманган, 1994; Олим С. Нақшбанд ва Навоий.

Agar O‘zbekistonda naqshbandiya ta’limotini o‘rganish haqida gap ketadigan bo‘lsa, bu borada ikki davrni kuzatish mumkin: 1) XX asrning 20-yillaridan boshlab to 80-yillarning o‘rtalarigacha bo‘lgan va 1985 yillardan boshlab (SSSRdagi «qayta qurish» davridan) to hozirgacha davom etayotgan davr.

Birinchi davrda dinga va tasavvufga nisbatan munosabat salbiy bo‘lganligi uchun naqshbandiya ta’limotiga qarash ham to‘la ijobiy bo‘lmagan. Ammo shuni qayd etish joizki, o‘sha davrda ham Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Xoja Ahrori valiy faoliyati va ta’limotini xolisona baholagan qator olimlar bor edi. Chunonchi, rus olimi A.N. Boldirev va o‘zbek olimi E. Rustamov ishlari bunga misoldir. Biroq ularning qarashlari qo‘llab-quvvatlanmadi.

V. Zohidov, A. Bahouddinov, A. Qayumov, A. Muhammadjonov ishlarida esa naqshbandiyani tasavufning boshqa tariqatlari, chunonchi, Yassaviya bilan solishtirib, nisbatan ijobiy tomoni bor, deb ko‘rsatiladi. Ya’ni, yassaviyya reaksion ta’limot, chunki unda tarki-dunyochilik g‘oyasi bor, naqshbandiya esa «Dast ba koru dil ba yor» shiori bilan mehnatkashni ulug‘lagan, shu bois u progressivdir va shuning uchun bu ta’limot Jomiy bilan Navoiyga ma’qul bo‘lib, ularning ijodiga ta’sir etdi. Shuning o‘zi ham o‘sha davr uchun katta yutuq edi degan fikrlar bildirilgan.

Islom va tasavvuf ilmi, uning yirik vakillari ijodini xolisona ilmiy o‘rganish O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin chinakamiga boshlanganligini qayd etish kerak.

Prezident I. Karimovning bevosita tashabbusi bilan milliy qadriyatlarimiz tiklanib, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahrori valiy yubileylari o‘tkazildi. Shu munosabat bilan ko‘plab manbalar o‘rganildi, tadqiqotlar yaratildi. Bahouddin Naqshband ta’limoti keng omma orasida targ‘ib etildi. Tarixiy haqiqatlar xalq ma’naviyatiga poydevor bo‘ladigan tasavvuf g‘oyalaridan bahramand bo‘lmoqdamiz.

---

– Т., 1996; Бобохонов Ш. Мансур. А. Наќшбандия тариќатига оид ќўлёзмалар фихристи. – Т., 1993; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 1996; Комилов Н. Нажмиддин Кубро. – Т., 1993; Усмон О. Крупнейшие суфийские братсвта Центральной Азии. – С., 1999.

Biz bu tadqiqotlarni o‘rganar ekanmiz, naqshbandiya ta’limotini takroran kengaytirib tushuntirmoqchi emasmiz. Balki ishning maqsadidan kelib chiqib, qisqacha axborot bermoqchimiz.

Ingliz tasavvufshunosi J.S. Trimengemning yozishicha, O‘rta Osiyoda tasavvuf rivojida ikki buyuk so‘fiyning hissasi katta bo‘lgan. Bularning biri Abulhasan Ali al-Xaroqoniy (u 1034 milodiy yilda 80 yoshda vafot etgan) bo‘lsa, ikkinchisi Abu Ali al-Formadiydir. Bu shayx 1084 milodiy yilda olamdan o‘tgan. Formadiyning ikki shogirdi tasavvuf olamida juda mashhur: birinchisi Ahmad al-G‘azzoliy (milodiy 1126 yili vafot etgan), ikkinchisi Yusuf Hamadoniydir (milodiy 1049 - 1140). Ko‘p tariqat silsilalari ana shu ikki shayxdan boshlanadi [194:51].

Yusuf Hamadoniy Buxoroda bir guruh iste’dod sohiblariga tasavvufdan chuqur ta’lim berdi. Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Abdulloh Barraqiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy Yusuf Hamadoniyning to‘rt zabardast xalifasi edi. Xoja Ahmad Yassaviy yassaviya tariqatiga asos soldi. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy dastlab «xojagon», so‘ngra esa «naqshbandiya» deb nomlangan tariqatni boshlab berdi.

Bahouddin Muhammad 1318 (hijriy 718) yili Buxoroning Qasri Hinduvon (keyinchalik uning nomi Qasri Orifon deb atalgan) degan qishlog‘ida dunyoga keladi. Uning otasi to‘quvchi va naqsh soluvchi usta bo‘lgan. Muhammadning taqdirida, kamolotga erishishida so‘fiylar bilan yaqindan munosabatda bo‘lgan bobosining xizmati kattadir. U yosh nabirasida sekin-asta tasavvufga qiziqish uyg‘otadi va shu yo‘lda tarbiyalashga ahamiyat beradi. Buxoroda tahsil olgandan keyin uni Shayx Xoja Muhammad Sammosiy o‘z tarbiyasiga oladi. Sammosiy vafoti oldidan xalifasi Amir Sayyid Kulolga Muhammadni o‘ziga shogird qilib, uni Xojagon tariqati jamoasiga qo‘shish va ularning tasavvufiy yo‘lini unga o‘rgatishni vasiyat qiladi. Muhammad Kulol zikr doiralarida va tasbeh aytishlarda ishtirok etib, kamolotini oshiradi. U Abdulxoliq G‘ijduvoniyning g‘oyibona bashorati tufayli ruhoniya darajasiga erishadi. Tushida G‘ijduvoniyni ko‘radi, u Muhammadni Sayyid Kulolga yuboradi. Lekin Muhammad murshid oldiga kelishidan oldinroq, ustod yordamisiz tariqatning haq yo‘liga erishgan, so‘fiy darajasiga yetgan edi. Amir Sayyid Kulol Shihobuddinning (XV asr) «Maqomotlar»ida va Saloh bin Muborak Buxoriyning «Maqomoti Bahouddin Naqshband» kitobida keltirilgan rivoyatlarda aytilishicha, Muhammad Amir Sayyid Kulol xizmatiga kelishdan oldinoq dunyoviy hayotning puch-behudaligiga to‘la ishonch hosil qiladi. Keyin Naqshband mavlono

Orif Deggironiy dargohida 7 yil xizmat qiladi, so‘ng turkiy tasavvufiy shayxlar Qusam Shayx va Xalil ota qo‘lida tasavvuf tahsilini davom ettirib, kamolotga yetadi. Xalil ota dargohida 13 yil xizmat qilgan va uning yaqin hamsuhbati bo‘lgan.

Bahouddin ikki marta haj qilgan. Shamsuddin Somiyning «Qomus al-a’lom» kitobida yozilishicha, ikkinchi hajida shogirdi Xoja Muhammad Porso unga hamroh bo‘lgan. Qaytishda Nishopur va Hirotda to‘xtab, ba’zi mashhur shayxlar bilan ko‘rishib, ularning suhbatlaridan bahramand bo‘lgan. Hirotda bir muddat istiqomat qilib qolgan.

Bahouddin Buxoroga qaytib kelib, qolgan butun umrini shu yerda o‘tkazdi. Amir Kulolning vasiyatiga binoan uning xalifasi bo‘lib qoladi. Bahouddin 1389 (791 hijriy) yili 71 yoshda (hijriy hisobda) vafot etib, kindik qoni to‘kilgan Qasri Orifonda dafn etiladi. Uning muridlari juda ko‘p bo‘lib, eng mashhurlari Xoja Alouddin Attor va Xoja Muhammad Porsodir. «Qomus al-a’lom» va boshqa manbalarda zikr qilinishicha, Bahouddin Naqshbandning «Hayotnoma» nomli va’z va pandu nasihatlariga oid bitta manzumasi (she’riy asari) va «Dalil al-oshiqin» degan tasavvufga oid kitobi bo‘lgan. Buxorolik olima G. Navro‘zova esa hazrati Naqshband zikriga oid asari borligini e’lon qildi. Lekin bu asarlar nusxalari bizga ma’lum emas, ular yetib kelmagan bo‘lsa kerak.

Tarixiy manbalarda yozilishicha, Naqshband ozga qanoat qilish va o‘z xohishi bilan kambag‘alona hayot kechirish, dunyo mol-mulki, dabdabali hayotdan voz kechishni targ‘ib qilgan. U kundalik tirikchiligi uchun bir parcha nonni o‘z mehnati bilan ishlab topgan, eski bo‘yra ustida, darz ko‘zadan suv ichib hayot kechirgan, so‘fiy uchun xizmatkor va qullar ushlashni gunoh deb bilgan.

Bahouddin Buxoro viloyatining ulug‘ tasavvuf namoyandasi, vatandoshi Abdulholiq G‘ijduvoniy asos solgan xojagon tariqati yo‘lidan boradi va o‘ziga ergashgan jamoaga rahnamolik qilish bilan o‘z yangi tariqatining tashkiliy asosini quradi va tasavvufiy tariqat uning xalifa-vorislari tomonidan to‘liq shakllantiriladi. Bahouddin Abdulholiq G‘ijduvoniy an’ana va g‘oyalarini qayta tiklab, takomillashtirdi hamda davom ettirdi. Bu bilan u O‘rta Osiyo tasavvufining ikki yirik namoyandasi Ahmad Yassaviy va Abdulholiq G‘ijduvoniy suluki, qoida-qonun va usullarini o‘z ta’limotiga qo‘shdi. Bahouddin ta’limoti uning davridayoq O‘rta Osiyoda nafaqat shaharlar aholisi, oddiy hunarmand-kosiblar, savdo ahli orasida, balki ko‘chmanchi va

yarim ko‘chmanchi turkiy qabilalar orasida ham keng quloch yoyib, mustahkam asosga ega bo‘lgan sunniy islomni yanada keng tarqatdi. Shu yo‘sinda uning laqabi bilan atalgan naqshbandiya tariqati shakllandi [12:82].

Naqshbandiya qat’iy sunniylikka asoslangan bo‘lib, ma’naviy silsilasi bir tomondan Abu Bakr Siddiqqa (572–634), ikkinchi tomondan Ali ibn Abu Tolibga olib boradigan 12 ta tariqatning bittasidir. Tariqatning bu silsilasi «silsilat az-zahab» («oltin silsila») deb atalib, tariqatning ma’naviy (Abu Bakr) va jismoniy tomondan (Ali ibn Tolib) payg‘ambar alayhissalom bilan bog‘lanishini bildiradi.

XV asrdan boshlab naqshbandiya sekin-asta eng ko‘p tarqalgan (qodiriyadan keyin) ruhiy-ma’naviy tariqatga aylanadi. U O‘rta Osiyo va Xurosondan Qohira va Bosniyagacha, u yerdan Gansu va Sumatragacha hamda Shimoliy Kavkazdan Hindistonning janubi va Arabistonning Hijoz viloyatigacha yetib bordi hamda juda katta zaminda amaliyotga ega bo‘ldi.

Bu zaminda Bahouddin vafotidan keyin uning murshidlari, keyinchalik xalifa va vorislari Xoja Alouddin Attor va ayniqsa, Xoja Muhammad Porso naqshbandiyani birlashtirish, uning mavqeini keng ko‘lamda yoyish hamda tashkiliy tuzilishini mustahkamlash borasida juda katta xizmat qildilar.

Naqshbandiya tariqati o‘zining ijtimoiy negizi bilan shaharga tayangani uchun savdo va hunarmandchilik muassasalari bilan yaqindan bog‘landi, Movarounnahrning deyarli hamma yirik va o‘rtacha shaharlarida uning xonaqohlari paydo bo‘ldi.

Naqshbandiya Xoja Ahror (1404–1490) davrida o‘zining siyosiy-iqtisodiy cho‘qqisiga ko‘tarildi. Xoja Ahror shahar va qishloqlarning ko‘zga ko‘ringan guruhlari, jamoalarining qo‘llab-quvvatlashi bilan temuriylarning o‘zaro ichki nizo va urushlariga faol oqilona aralashdi hamda qirq yil davomida shu yirik mamlakatning siyosiy hokimi bo‘ldi. Uning «Dunyoda o‘z ma’naviy burchini bajarish uchun siyosiy hokimiyatdan foydalanish kerak» degan shiori naqshbandiyaning kelajakdagi barcha ijtimoiy-siyosiy faoliyatini belgilab berdi. Xoja Ahror faoliyatida dehqonchilik bilan shug‘ulllanuvchilarni va shahar xalqini harbiy-ko‘chmanchi zodagonlar talon taroji va bosqinchiligidan himoya qilish asosiy o‘rin tutardi. 1500 yili Movarounnahrda hokimiyatni qo‘lga olgan shayboniylar Xoja Ahror xonadoniga qarashli hamma mol-mulk,

yerlarni musodara qildi (faqat Qarshi va Samarqand viloyatlarida 375 ming tanob - 60 ming gektar hosildor yerlar ularga qarar edi) va bu bilan xonadon kuch-qudratiga barham berildi. 1515 yildan boshlab Xoja Ahror ishini naqshbandiya rahnamosi Xoja Ahmad Kosoniy (1543 yoki 1549 yilda vafot etgan) davom ettirdi [10:45]. «Maxdumi A'zam» nomi bilan mashxur bo'lgan tasavvufning bu yirik namoyandasi asli hozirgi Namangan viloyatining Koson tumanidan bo'lib, Baxouddin Naqshbanddan keyin uning yo'lini davom ettirib, katta shuhrat qozondi. U tasavvufga oid bir qancha asarlar yozib qoldirgan. Keyin uning yo'lini vorislari – Buxoro ma'naviy feodallari hisoblanmish Juybor shayxlari davom etirdilar (XVI asr o'rtasi XVII asr oxiri). Ular shayboniylar va ashtarxoniylar davrida qirg'iz urug'lari va qozoq qabilachilik birlashmalarini hamda Sharqiy Turkiston aholisini musulmonlashtirishda muhim xizmat qilgan.

Sharqiy Turkistonda Xoja Ahmad Kosoniy avlodlarining ikki shahobchasi - oqtog'lik va qor tog'lik xojalar o'rtasidagi keskin kurashlardan keyin ma'naviy va siyosiy hokimiyat to'laligicha oqtog'liklar qo'liga o'tadi (XVII asr oxiri - XVIII asr o'rtasi). Naqshbandiya O'rta Osiyo va Volgabo'yida (Qozonda) XX asrning 20 yillarigacha hukm surdi. Naqshbandiya Hindiston, Usmonli turklar diyorida va Eronda keng tarqalib, xalq orasida, davlat siyosatida muhim ahamiyat kasb etgan [16:61].

Naqshbandiya nazariyasi va amaliyoti asosida Bahouddin Naqshbandning faqat Xoja Muxammad Porso va Alouddin Attor asarlari (xotiralari) tufayli bizgacha yetib kelgan g'oya va qarashlari yotadi. Uning bu g'oya, qarashlari naqshbandiyaning hamma shahobchalari uchun asos bo'lib qoldi. Naqshbandiya Xoja Ahror davridan boshlab hokimiyat egalari bilan yaqin munosabatda bo'lish orqali «ularning qalbiga hukmron bo'lib», ularning siyosatiga ta'sir ko'rsatish bilan xalq manfaatini himoya qilishni nafaqat mumkin, balki majburiy deb bildi.

Naqshbandiya amaliyotining asosiy qismi ichida qalb bilan maxfiy (hufya) zikr qilish tariqatning ko'pchiligi afzal hisoblaydigan ovoz chiqarib (jahriy) zikr qilishdan farq qiladi. Naqshbandiyaning ba'zi jamoalarida ya'ni bir tarkibiy qismi ham mavjud. Naqshbandiya ta'limotining boshqa bir tarkibiy qismi suhbat – murshid bilan muridning xilvatda yashirin uchrashuvi – so'zlashuv bo'lib, u eng yuqori ruhiy darajada

o‘tadi. Nihoyat murshid va murid o‘rtasidagi yaqin munosabat tavajjuh – murshidning muridga nazar tashlashi, har ikki tomon fikrlarining birlashishi bilan namoyon bo‘ladi. Bu avval ular orasidagi ma’naviy-ruhiy aloqani, keyin esa murshid va muridning ma’naviy jihatdan qo‘shilib ketishini vujudga keltiradi. Kamolotga yetishgan muridga murshid o‘z xirqasini yechib beradi [37:58].

Naqshbandiyada uning hamma tarafdorlariga xos yagona markaz bo‘lmagan. Keyinchalik Bahouddin maqbarasi uning hamma a’zolari uchun tavof joyi bo‘lib qoldi. Jamoadagi itoatkorlik va maxsus xonaqohda istiqomat qilish boshqa tariqatlardan hech narsasi bilan farq qilmaydi. Naqshbandiya zohidlikni (tarkidunyochilikni) inkor etadi, hamma «birodarlar» dunyoviy – so‘fiylar bo‘lib, maxsus maskanlarda yashashlari majburiy emas.

XX asr boshlaridan Bahouddin Naqshband ta’limoti hamda naqshbandiya tariqatiga rus va Yevropa olimlarida qiziqish paydo bo‘ldi. Yuqorida nomlari zikr etib o‘tilgan rus sharqshunos olimlaridan B. Gordlevskiy, V.B. Bartold, Ye. Bertels, A. Semyonov, P. Ivanov, A. Boldirev, S. Demidov va boshqalarning Bahouddin Naqshband, uning ta’limoti va so‘fiylik haqidagi bir qancha maqolalari bosilib chiqdi. Yevropa olimlaridan H. Algar, M. Mole, F. Yunge, E. Brovi, O. Popovich kabilarning ingliz, nemis va serb tillarida tasavvuf, Bahouddin va Naqshbandiya tariqatiga bag‘ishlangan bir qancha maqolalari, kitoblari chop etildi.[1]

Bahouddin Naqshband o‘z sulukini Xojagon sulukining bevosita davomi deb bilganlar. Bu sulukning eng katta vakili Xojai Buzurg Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy hisoblanib, Xojaning g‘oyalari, amaliy o‘gitlarini o‘zlariga dastur qilib olganlar. Ammo tariqatning butun mohiyatini belgilab turadigan mavjud o‘n bir qoida Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G‘ijduvoniy va Bahouddin Naqshband taraflaridan asoslangan

Yusuf Hamadoniy tayin etgan shiorlar:

1. Hush dar dam.
2. Nazar bar qadam.
3. Safar dar vatan.

---

[1]Бу тадқиқотлар ҳақида ишимизнинг бундан олдинги қисмларида батафсил маълумот берилди.

4. Xilvat dar anjuman.

Abduxoliq G‘ijduvoniy tayin etgan qoidalar:

1. Yodkard.
2. Bozgasht.
3. Nigohdosht.
4. Yoddosht.

Bu sakkiz qoidaga Bahouddin Naqshband yana uch shiorni qo‘shadilar:

1. Vuqufi zamoniy.
2. Vuqufi adadiy.
3. Vuqufi qalbiy.

Bu qoidalar Ali Safiyning «Rashahot ayn ul-hayot» asarida batafsil tushuntirilgan.[1]

Tasavvuf ta’limoti, so‘fiylik harakati Bahouddin Naqshband faoliyatidan keyin nafaqat Buxoroi sharifda balki butun Movarounnahrda, chinakamiga keng yoyildi. U kishi qalbiga Alloh taolo tarafidan yuboriladigan jazba, ya’ni ilohiy ishqni so‘fiyona iste’dod deb tushungan. Bahouddin Naqshband o‘zining qudratli iste’dodi va aqlu zakovati, karomatu valiylik nuri bilan Xojagon tariqatini taraqqiy ettirib, unga toza ruh bag‘ishlab, tasavvufda yangi davr ochdi. Bahouddin Naqshband o‘z sulukining asosiy qoidalarini bayon etar ekan, birinchi galda sunnat va hadis yo‘liga sodiq qolishni qat’iy ko‘rsatib o‘tadi. U kishi ustozlaridan meros sifatida qabul qilgan va tariqat qoidalariga aylantirgan usul va ruknlar payg‘ambar sunnatiga muvofiq keladi, Chunonchi, «xilvat dar anjuman» («jamoa ichida xilvat») ruknini olib ko‘raylik. Hazrati Xoja buni yana aniqlashtirib, «dar zohir bo xalqu dar botin bo Haq» («zohirda xalq bilan botinda esa Haq bilan») deb ta’riflaganlar. Ko‘rinib turibdiki, ilgari tasavvuf ahli orasida hamma vaqt bir-biriga zid tushunchalar sifatida qo‘llanilib kelingan xalq va Haq, xalq va Xoliq, xilvat va anjuman, zohir va botin bir-biri bilan kelishtirilgan. Ya’ni, Xudo vasliga yetishish uchun jahd etgan solik xalqdan ajralib, mozorotlar, g‘orlar, rabotu xonaqohlarda chillanishin bo‘lishi, oilasi, farzand, do‘stu yorlardan voz kechishi, butkul tarki-

---

[1] Профессор Ориф Умоновнинг «Баҳоуддин Наќшбанд ва унинг таълимоти» (Т., 1993), «Крупнейшие суфийские братства Центральной Азии». (Самарќанд., 1999) китобларида «Рашаҳот» га асосланган ҳолда мазкур шиорлар талќини берилган.

dunyo qilishi shart emas. Odamlar bilan birga bo‘lib ham botinan Haq yodi bilan yashab, qalbni poklash mumkin. Bahouddin Hazratlarining o‘zlari, shuningdek pirlari Boboyi Samosiy, Sayid Amir Kulol, Qusam shayx, tariqat birodarlari, shogird va xalifalari muntazam ravishda foydali mehnat bilan shug‘ullanganlar. Ba’zi tadqiqotlarda naqshbandiyaning ijtimoiyligini ta’kidlash uchun Ali Safiyning «Rashahot» asarida keltirilgan va Bahouddin Naqshbandga nisbat berilgan «dast ba koru dil ba yor» («qo‘l ishda bo‘lsin, ko‘ngil yorda bo‘lsin») shiorini talqin etishda, ushbu ta’limotning shahar hunarmandlari ruhiga mosligi ta’kidlanadi.

Bahouddin Naqshbandning ustozi Abdulxoliq G‘ijduvoniydan qabul qilib olgan safar dar vatan («vatan ichra safar»), hush dar dam (nafasda hushyorlik), nazar dar qadam (nazarni qadamdan uzmaslik) kabi qoidatalablari xilvat dar anjuman qoidasini hayotga tatbiq etish usullari edi. Chunki odamlar orasida botiniy xilvatni ta’minlab turi uchun inson o‘zini o‘zi doimiy ravishda nazorat qilib turishi kerak. Vatan ichra safar ruhning o‘z asli tomon safari, ya’ni sayr fillohdir. Nazar dar qadam faoliyatni tadqiq etish, qilayotgan ishlari, harakatining sunnatga muvofiqligini tekshirib turish va qadamni yomon joylarga qo‘ymaslikni anglatadi. «Yodkard» (yodlash), «bozgasht» (takrorlash, yangidan boshlash), «nigohdosht» (esda saqlash), «yoddosht» (esdalik, eslab qolish) talablari «zikri xafiy» deb nomlanmish yashirin zikrga tegishlidir. Ya’ni, zikrni nazorat qilish. Chunki zikrdan maqsad Alloh nomlarini quruq qaytaraverish, tilda aytib, dilda boshqa narsani o‘ylash emas, balki bu nomlarni dilda naqshlab, muhrlab olish uchun jiddu jahddir [36:73]. Bahouddin ilova qilgan vuqufi zamoniy (muayyan muddatda to‘xtab, o‘zini o‘zi tekshirish), vuqufi adadiy (zikr hisobini aniqlash uchun to‘xtash) va vuqufi qalbiy (qalb ahvolini bilish uchun to‘xtash) tamoyillari ham yashirin zikrni mustahkamlash hamda kuzatish natijasini bilish uchun joriy qilingan.

Biz ataylab hush dar dam rukni haqida alohida to‘xtalmoqchimiz, chunki bu kengroq sharhni talab qiladigan rukndir. Albatta, bu ruknni ham xafiy zikr talablaridan tashqari olib qarab bo‘lmaydi. Agar «dam» so‘zining lug‘aviy ma’nosi nafas bo‘lsa, demak nafasni hushyorlik bilan zikrga moslash yoxud har bir nafasdan zikr uchun oqilona foydalanish ma’nosi ko‘zda tutilgan. Biroq bu o‘rinda ma’no chuqurroq. «Dam» so‘zi ilohiy fayz, barakat ma’nolarini ham beradi. Ya’ni, «hush dar dam» ilohiy fayz – tajalliy nurini behudlikda emas, balki hushyor

holda qabul qilish. Naqshbandiya ta'limoti bo'yicha so'fiyni yoki solikni hamma vaqt bedor va hushyor, o'zidan va atrofidagilardan boxabar bo'lib turishi kerak, aks holda u o'zini o'zi nazorat qilolmaydi, o'zidagi sifatiy o'zgarish, kamolotni anglamasligi mumkin. «Xilvat dar anjuman» tamoyili shuni taqozo etadi. Bu fikrni Naqshbandning Junayd Bag'dodiy so'zlariga e'timodi ham tasdiqlaydi. Junayd Bag'dodiy (910 yil vafot etgan) tasavvuf tarixida sahv - hushyorlik yo'lini yoqlagan va Boyazid Bistomiyning (879 yil vafot etgan) sukra - behudlik konsepsiyasiga qarshi kurash olib borgan mashhur shayxdir. Boyazid Bistomiy fikricha, so'fiy to o'zini unutish darajasiga borib yetmasa, ya'ni ruhiy taraqqiy etib, xalqni, dunyoni butkul esdan chiqarib, Xudo yodida mastu devona bo'lmasa, foniy bo'lolmaydi va haq visoliga erisholmaydi. Shu maqsadda «sukra»chilar samo' majlislari uyushtirganlar, jazavaga tushib, o'zlarini yo'qotib, kiyimlarini yirtib tashlaganlar. Junayd bu raviyani dinga zid va inson shuuri, tafakkuriga zulm deb man etgan. So'fiy ichidan ma'rifat daryosi toshib, tug'yon mavj urganda ham hushini yo'qotmasdan turishi kerak, shunda u haqiqat asrorini yanada ko'proq kashf etadi va bu durlarni o'z suhbatdoshlariga tuhfa qiladi. Nazarimda, «hush dar dam» rukni ayni ana shu konsepsiyani rivojlantiradi. Junayd Bag'dodiyning «hushyorlik» konsepsiyasi Bahouddinning barcha g'oyalariga mos bo'lib, shariat talablariga ham javob berar, fikr hikmatini oshkor etishga ko'maklashardi.

Bahouddin Naqshband har lahzada iymon uchun kurashish kerak, «tabiiy vujudni nafratlab», haqiqiy ma'bud isboti uchun intilmoq lozim, degan fikrni bayon etar ekan, Junaydning quyidagi gapiga suyanadi. Junayd degan ekan: «Oltmish yildirkim, iymon keltiraman va vujudning nafrati men uchun tariqatdir, lekin faqat ixtiyorni tark etish va qusurlarni ko'rish bilan kifoyalanmasdan, ulardan qutulish yo'lini qidirish lozim. Qusur esa mosuvoga bog'liqlikdir. Mosuvo, ya'ni dunyo solik yo'lida qalin bir parda kabidir» [33:78].

Ko'rinadiki, so'fiyning iymoni oddiy mo''min iymonidan farq qiladi. So'fiy uchun iymon faqat tilda Allohning yakka-yagonaligini tan olish, Uning payg'ambari, kitoblariga, qiyomatga ishonishgina emas, balki doimiy ravishda vujud pardasini bartaraf qilaroq, asl mohiyat tomon intilish hisoblanadi.

Bahouddin Naqshband Junayd Bag‘dodiy sulukiga rag‘bat bildirgan, chunki bu suluk iymon tozaligi, sokin va osoyishta so‘fiylik, shariatga tayangan faqirlikni targ‘ib etardi. Shuning uchun Vasliy Samarqandiyning «Nazm us-silsila» asarida naqshbandiya silsilasini Boyazid Bistomiyga olib borib bog‘lashni yanglish hol deb bilmoq kerak. Bil’aks, naqshbandiya sulukini Junayd Bag‘dodiy tariqatiga ulash ma’quldir. Buni yana shu ham tasdiqlaydiki, Junayd kabi Naqshband ham suhbat ta’limini juda qadrlaganlar. Suhbat ta’limi xufya zikr usuliga va «anjuman ichra xilvat» talabiga mosdir. Bahouddin hazratlari demishlar: «Bizning tariqatimiz suhbatdir va xilvatda shuhratdir va shuhratda ofat, hayriyat jamiyatdadir va jamiyat suhbatdadir agarchi, bashartiki bir-birini inkor etsa». Bahouddin Naqshbandning suhbatga e’tibor berishlarining sababi shuki, bu ham Rasulullohdan qolgan sunnatdir. Zero, Rasuli Akram din asoslari, shariat ahkomi va g‘ayb asrorini suhbat bilan boshqalarga tushuntirar ekanlar.

Naqshbandiya tariqati tasavvufdagi haddan tashqari holatlarni islohga keltirib, riyozat va poklanish kamolotini jismoniy hamda ijtimoiy-ahloqiy ehtiyojlar bilan muvofiqlashtirishga intilib keldi, moddiy dunyoga keskin muqobil turish o‘rniga rahnamolik va tarbiyani birinchi o‘ringa qo‘ydi, sharr hamda yovuzlikni nafrat va o‘ch hissi bilan qarshi olmay, ularni mehr-shafqat orqali ezgulikka aylantirish payida bo‘ldi.

# II BOB

## Maqomotlar tuzilishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar

### 2.1 Kompozisiya va g'oya

Maqomot janrini alohida mustaqil janr sifatida o'rganishda dastavval bu janrda yaratilgan asarlarning tuzilishidagi tarkibiy qismlar qay tarzda bir-biri bilan bog'langanligini va nihoyat bir yaxlitlik hosil qilganligini aniqlashimiz lozim. Bu yo'lda biz dastlab maqomot mualliflari o'z asarlarida qanday mavzularni tasvir qalamiga olib, qanday voqealarni o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantirishga harakat qilganliklari haqida fikr yuritishga harakat qilamiz. Sababi, A. Tolstoy ta'biri bilan aytganda har qanday asar kompozisiyasi «San'atkor diqqat markazining belgilanishidir» [197:208].

Tadqiqotimiz uchun aynan Bahouddin Naqshband hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan, turli mualliflar tomonidan yozilgan maqomotlarni tanlashimizdan ko'zlangan asosiy maqsad ularning kompozisiyaon qurilishi, badiiy uslubi, tili va mualliflarning ayni bir shaxsning hayotini yoritishda badiiy vositalardan foydalangan holda har biri o'zicha obrazlar yaratish borasidagi iste'dodi va mahoratlarini tahlil qilishdan iboratdir. Bu, bir jihatdan, maqomotlarning tipologik xususiyatlarini aniqlashga va ikkinchi jihatdan, Hazrati Naqshband siymosini gavdalantirilishida qo'llanilgan adabiy usullarni ko'rib chiqishga yordam beradi.

Ma'lumki, har bir asar kompozisiyasini aniqlashda muhim rol o'ynaydigan asosiy omil yozuvchi ifodalamoqchi bo'lgan fikr – asar g'oyasidir.

Maqomot janriga mansub asarlarni adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rta asrlarda fors-tojik tilida yaratilgan nasriy so'fiyona badiiy adabiyotning shakllanishi va rivojlanishida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan asarlar sifatida tadqiq va tahlil qilar ekanmiz, quyidagi fikrni inobatga olishimiz kerak bo'ladi. Har bir «yozuvchi muayyan manzarani aks ettirar ekan, o'sha manzarani o'quvchi ko'z o'ngida butun to'laligi va yaxlitligi bilan gavdalantirish uchun ma'lum shaklga, qurilishga, qiyofaga ega qilib yaratadi» [4:80].

Bu asarlarda so'z mashoyix va avliyolarning hayoti haqida ketar ekan, shu o'rinda bobokalonimiz Alisher Navoiyning quyidagi fikrlarini ham keltirishni lozim topdik.

«Va chun ul Hazrat (Muhammad s.a.v) anbiyoning hotami erdi va andin so‘ngra nubuvvat eshigi bog‘landi, har oina noqislar takmilig‘a ummatining komil va olimlarini ma’mur ettiki, burung‘i anbiyo o‘rnig‘a ahdo qilg‘aylar va alarg‘a yo‘l ko‘rguzgaylarki: «Ummatim ulamosi bani Isroil payg‘ambarlaridan» va ayzan: «Ulamo payg‘ambarlar vorisidir» ahdosi andin xabar berur va u Hazratdin so‘ngra buzurgvor ashobi xaloyiqg‘a bu rahnamoylig‘ini bajo kelturdilar. Va ul sohib davlatlardin so‘ngra bu ummatning mashoyixi va avliyo-ullohi bu irshodg‘a ishtig‘ol ko‘rguzdilar va va’da budurkim, olam inqirozig‘achakim, millat va shariat siroti mustaqim bo‘lg‘usidir, bu toifakim, valoyat va karomat ahlidurlar va xaloyiqg‘a irshod va ahdo qilurlar, muborak zotlarining barakoti bu millat boshidin holi bo‘lmag‘ay» [41:65].

Navoiyning mashoyix va avliyoullohga bergan bu ta’rifidan shu narsa ayon bo‘ladiki, ular ulamolardan so‘ng anbiyo vorislari hisoblanadilar va xalqni to‘g‘ri yo‘lga boshlash uchun amr qilingan rahnamodirlar.

Maqomotlarning kompozisiyasi haqida so‘z ketganda, yani bir muhim jihatni yodga olishni zarur deb topdik. Chunki muayyan tariqatga asos solgan shayx haqida maqomot yozilar ekan, mualliflar o‘sha tariqat falsafasidan, ta’limotining asosidan kelib chiqqan holda fikr yuritganlar hamda shayxning obrazini yaratishda ma’lum bir qonun-qoidalarga amal qilganlar.

Tasavvuf tarixidan ma’lumki, o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan tariqatlarning barchasining silsilasi oxir-oqibat ikki buyuk mutasavvif - Boyazid (abu Yazid) Bistomiy (vaf.871h.) va Junayd Bag‘dodiy (vaf.910 h.) orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri yo Muhammad (s.a.v)ga yoki Xalifai roshidinning birontasiga bog‘lanadi.

Bu ikki buyuk so‘fiylarning ta’limotini qisqacha sharhlaydigan bo‘lsak, ular quyidagichadir.

Boyazid Bistomiy ta’limotining asosida solikdagi «Allohga muhabbatning kuchliligidan uning «mast» bo‘lishi va «oshiqning u (Alloh) bilan» ruhan birikib ketishi yotadi. Bu ta’limot tarafdorlarining fikricha, Allohning yagonaligiga chuqur va butkul mustag‘riq bo‘lish natijasida solik o‘zligini tark etishi va oqibatda shaxs yo‘q bo‘lib, Alloh bilan birlashib ketishi hamda Alloh zoti sifatlarini o‘zlashtirishi mumkin. Bunda shaxs-ilohga, iloh esa shaxsga aylani-

shi mumkin. Shu sababli bu ta'limot islom ulamolari tarafidan qoralangan va ular «Xulul»da ayblangan [33:75].

Junayd Bag'dodiy ta'limotida yuqorida zikr etilgan fano holati e'tirof etiladi. Ammo Junayd Bag'dodiy bu holni o'tkinchi deb hisoblaydi. Uning fikricha, «Solik yana ma'naviy ruhiy takomil yo'lida davom etib «hushyorlik» bosqichiga yetishi lozim. Shundan so'ng u Alloh ma'rifatini egallab, orif darajasiga ko'tarilib, baqo maqomiga ko'tarilishi hamda mukammallashgan holda ilohiy xislatlarni o'zlashtirib, yangilangan inson sifatida insonlarni to'g'ri yo'lga boshlash uchun mukallaf etilishi va insonlarga xizmat qilishga buyurilishi lozim [33:67].

Mana shu fikrlarni nazarda tutgan holda maqomotlarda shu ikki maktabning qay birini davom ettirgan shayx haqida hikoya qilinayotganligiga ko'ra, asarning g'oyasi, kompozision qurilishi o'ziga xoslikni talab qiladi.

Birinchi maktab ta'limotini o'zlashtirgan shayxlar haqidagi maqomotlarda («Xolnomai Boyazid Ansoriy») shayxning Alloh bilan birikib ketishi darajasigacha bo'lgan ruhiy-ma'naviy kamoloti bosqichlari aks ettirilsa, ikkinchi maktab vakillarining (Naqshband) maqomotlarini yozishda ularning yuqorida zikr etilgan fano va baqo maqomlariga yetishishlari hamda shu bilan bog'liq holda ularning o'z muridlari bilan munosabatlari, ularga beradigan bilimlari, ahloqodobi o'ziga xos tarzda aks ettiriladi.

Yuqoridagi mavzular bilan bog'liq holda maqomotlarda bo'lajak shayxning sulukdagi sayri va uning nihoyasida egallagan martabasi, maqomi, hosil qilgan malakasi hamda bilimi, shakllangan xislatlari va qobiliyatlari bir-biridan farq qiladi. O'zligini mahv qilib Alloh sifatlarini o'zlashtirgan shayx bilan bu bosqichdan o'tib soliklarga to'g'ri yo'lda - Haq yo'lida rahnamolik qiladigan shayx orasida farq mavjud.

Bu o'rinda N. Komilovning «Naqshband Junayd Bag'dodiy sulukiga rag'bat bildirgan, chunki bu suluk iymon tozaligi, sokin va osoyishta so'fiylik, shariatga tayangan faqirlikni targ'ib etardi» degan fikriga to'la qo'shilamiz. «Junayd kabi Naqshband ham suhbat ta'limini juda qadrlaganlar» deb yozadi olim [33:58]. Bu fikr yuqorida ham zikr etilgan. Solikning «baqo» maqomiga yetilib, yangilangan va insonlarni ma'rifatga boshlash vazifasi Alloh tomonidan yuklangan holga qaytishi ham tas-

diqlaydi. Bu holat Bahouddin Naqshband maqomotlarida ham o‘z aksini topgan.

Bundan oldingi bobimizda ta’kidlab o‘tganimizdek, maqomotlar mualliflar tomonidan o‘z tariqatlari shayxining, murshidlarining, pirlarining g‘ayrioddiy voqealarga boy hamda siru asrorga to‘la, hayotlari hamda turli davrlarda va holatlarda sodir bo‘lgan karomatlari, bashoratlari va ularga xos bo‘lgan «havoriq odatlar» haqida hikoya qiluvchi, nasr va nazmda yozilgan katta hajmdagi asarlardir.

Ta’kidlab o‘tganimizdek, biz tadqiqotimiz uchun O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan quyidagi manbalarni tanlab oldik. Ularning birinchisi, Xoja Muhammad Porsoning Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi «Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband» (inv №. 2520/1) asaridir. Ushbu asar to‘rt qismdan iborat bo‘lib, ular quyidagilardir: 1. Valiylikning ta’rifi. 2. Bahouddin Naqshbandning tariqatdagi ilk davrlari va Xojagon tariqati silsilasi. 3. Bahouddin Naqshbandning suhbatlari va tasavvufga oid hikmatli so‘zlaridan namunalar. 4. Hazratning kashfu karomatlari.

Bu asar xattot Shoh Husayn ibn Isomuddin al-Buxoriy tarafidan nasta’liq xatida 965/1558 milodiy yilda ko‘chirilgan. Ko‘chirilgan joyi Marv shahri. Bu qo‘lyozma juda yaxshi saqlangan. Barcha sahifalari mavjud. Xati juda mayda va shu sababli asarning hajmi katta bo‘lishiga qaramasdan 53 sahifadan joy olgan. Qismlarning sarlavhalari qizil rangli siyohda yozilgan.

Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali qalamiga mansub «Maqomoti Xoja Naqshband» (inv. № 9579) asari muqaddima va to‘rt qism – maqsaddan tashkil topgan. 1-maqsad – Bahouddin Naqshband Hazratlarining tariqat yo‘liga kirgan ilk davrlari. 2-maqsad – ul zotning tariqatda tutgan yo‘llari va ba’zi aytgan muborak so‘zlari. 3-maqsad – Hazratning kashfu karomatlari. 4-maqsad – Hazratning vafotlari. Mazkur qo‘lyozma xattot Muhammad Ma’sum Kotib tomonidan nasta’liq xatida yozilgan. Ko‘chirilgan yili 1267/1851 milodiy yil. Bu qo‘lyozma asar juda yaxshi saqlangan. Maqsadlar nomi qizil rangli siyohda yozilgan. Shuning uchun ularni ajratish va topish oson.

Saloh bin Muborak al-Buxoriy qalamiga mansub «Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband» (inv.№11594) asari ham to‘rt qismdan iborat-

dir. 1-qism: valiylikning ta'rifi. 2-qism: Bahouddin Naqshband hazratlarining tariqatga kirgan ilk davrlari. Xojagon tariqati silsilasi. 3-qism: Hazratning ahvollari, axloq va sifatlari hamda tariqat ahli bilan qilgan muomalalari. 4-qism: Bahouddin Naqshband hazratlarining kashfu karomatlari.

Bu qo'lyozma asar xattot Abdulloh ibn Abdullatif tarafidan nasx xatida yozilgan. Ko'chirilgan vaqti 993/1585 yil. Qo'lyozmaning boshidagi uch varag'i yetishmaydi. Jami 169 varaqdan iborat.

Saloh ibn Muborak al-Buxoriy tarafidan yozilgan «Anis ut-tolibin va uddat us-solikin» yoxud «Maqomoti Hazrati Xojai Naqshband» (inv. №8288) deb nomlangan asar ham yuqorida zikr etilgan asarlar kabi to'rt qismdan tashkil topgan. Bu qo'lyozma juda go'zal nasta'liq xatida yozilgan. Yirik va aniq xatda yozilganligi sababli o'qilishi ham juda oson. Bu asar 1001/1592 yilda ko'chirilgan. Qalin qog'ozda yozilgan va jami 175 varaqdan iborat. Barcha sahifalari juda yaxshi saqlangan.

Mazkur asarlarning kompozision qurilishini tahlil qilar ekanmiz, dastlab ularning barchasiga xos bo'lgan jihatlarni ko'rsatib o'tishga harakat qilamiz. Ammo bu yerda takror bo'lsa ham qayd etamizki, biz maqomotlar kompozisiyasi, uslubi deganda ularga roman, doston, qissa kabi sof badiiy janrlar talabi bilan yondashishni maqsad qilib qo'ymaganmiz. Biz faqat shu xildagi so'fiyona asarning o'zidan kelib chiqib fikr yuritamiz. Shu jihatdan olib qaraganda «kompozisiya» so'zini biz ko'proq «tuzilish», «qurilish», tarkibiy qismlarning o'zaro bog'lanishi ma'nosida qo'lladik. Zero, bunday asarlarda syujet aniq ajralib turmaydi, voqealar rivoji yagona bo'lmay, balki bir shaxsga bog'liq holda ketma-ket ulanib keladi.

Mazkur maqomotlarning barchasi asosan muqaddima, hamd va to'rt qismdan tashkil topgan bo'lib, ular umumiy tarzda quyidagicha nomlanadi:

1-qism: Valiy va valiylik ta'rifi (№ 2520/1; №11594; №8288).

2-qism: Xoja Bahouddin Naqshbandning, u zotning ruhini Alloh muqaddas qilsin, ahvollarining ibtidosi hamda xojagonlar, ularning qabrlariga Alloh nur yog'dirsin silsilasi zikrida.

3-qism: Xoja Bahouddin Naqshband Hazratlarining suluklari va suhbatlarining natijalari, sifatlari bayonida hamda suhbat va majlislarda ul zotning lafzlaridagi haqiqatlar va latif so'zlar zikrida.

4-qism: Hoja Bahouddin Naqshbanddan, ularning ruhini Alloh muqaddas qilsin, zuhurga kelgan karomotlar, maqomotlar, ahvollar va asarlar zikrida.

Ushbu tarkibiy qismlar ba'zi maqomotlarda, ya'ni Muhammad Boqir tarafidan yozilgan maqomotda [№9579] «maqsad»deb atalsa, boshqa maqomotlarda «qism» deb nomlangan. Har bir qism shayx Xoja Bahouddin Naqshbandning, ya'ni maqomotlar bosh siymosining hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan turkum naqlrivoyatlardan tashkil topadi.

Har bir maqomotda mavjud bo'lgan yana bir tarkibiy qism asarning boshlanishidan oldin keladigan «hamd» qismidir. Saloh bin Muborak yozgan «Maqomot»ning hamd qismi arab tilida yozilgan. Xat turi ham asosiy matnning xatidan (nasxdan) farq qiladi. Bu qism keyinchalik asarga kiritilgan bo'lsa kerak degan fikr tug'iladi.

Hamd ham hajm nuqtai nazaridan har bir maqomotda turlicha taqdim qilinadi. Hamddan so'ng mualliflar asarning muqaddima qismida o'zlari haqida ma'lumot beradilar va muallifning asarni yozishdan maqsadi, boshqacha qilib aytganda, muallif asarda ilgari surgan asosiy g'oya haqida so'z yuritiladi.

Muhammad Boqirning «Maqomot»ida asarning yozilish maqsadi haqida shunday deyiladi: «Bu shikasta xotirning [muallifning] ko'nglida Xojai Buzurg, ya'ni (Bahouddin) Muhammad Ibn Muhammad (Naqshband) nomi bilan mashhur bo'lgan shayximiz, peshvomiz va mavlonomizning maqomotlari, ma'rifatlari, kashfu karomatlari haqida bir risola yozish niyati bor edi. Haqiqatan bu varaqlarni jamlashdan ko'zlangan ulug' maqsad va oliy matlab ul Hazratning zikrini, ahvollarini, ta'sirotlarini, fe'lu atvorlarini, kashfu karomatlarini bayon qilishdir [1.4.4a]. Muqaddimadan yana shu narsa ma'lum bo'ladiki, bu asar 804 (1401) yilda yozib tugallangan ekan.

Xoja Muhammad Porso tarafidan bitilgan «Maqomot»ning muqaddimasida Shayx Bahouddin Naqshbandning maqomoti yozilishi haqidagi tashabbus birinchi marotaba shayxning birinchi xalifasi Alouddin Attorga taalluqli ekanligi haqida xabar beriladi.

Shayx Bahouddin hayotlik paytlarida ul zot maqomotlari yozilishiga qarshi bo'lganliklari haqida bir qator maqomotlarda xabar beriladi. Masalan: «Anis ut-tolibin va uddat us-solikin» kitobida keltirilishicha:

«Mavlono Hofizuddin Kabir Buxoriy Mavlono Hisomiddin Xoja Yusuf Hofiziy Buxoriy Hazrat Xoja hayot paytlarida bu maqomotlarni jamlash ishtiyoqini bildirdilar. Hazrat Xoja ularga dedilar:

این زمان اجازت نیست بعد از آن اختیار با شماست

«Bu zamon ijozat yo‘qdir, bundan so‘ng ixtiyor o‘zingizda bo‘ladi» [1.3.3a]. Shu sababli Hazratning maqomotlarini jamlashga va yozishga jazm qilgan shaxslar u zot hayotlik davrlarida bu ishga qo‘l urmaganlar. Maqomotlarning barchasi u kishi vafotlaridan so‘ng yozilgan.

Tahlil qilingan maqomotlar orasida faqat birgina Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali tarafidan yaratilgan maqomotda boshqa maqomotlarda mavjud bo‘lgan «Valiy va valiylikning» ta’rifi haqida hikoya qiluvchi maqsad (bob) mavjud emas, bu asarda muqaddimadan so‘ng bir yo‘la boshqa barcha maqomotlarda mavjud bo‘lgan Xoja Bahouddin Naqshbandning tariqat yo‘liga qadam qo‘yishi, unda Haq ma’rifatiga intilish va ilohiy jazbaning paydo bo‘lishi haqida hikoya qiluvchi «Hazrati Xojamiz quddisa sirruhuning boshlang‘ich hollari bayonida» deb nomlanuvchi birinchi maqsadning bayoniga o‘tiladi.

Muhammad Porso tarafidan yozilgan maqomotdagi birinchi qism «Valiy va valiylikning ta’rifi» hajm nuqtai nazaridan uncha katta bo‘lmay uch sahifadan iborat.

Mana shu tafovutlardan tashqari barcha maqomotlarning kompozisiyasi bir xil qurilgan.

Maqomotlardagi «Valiy va valiylikning ta’rifi» haqidagi qism hajman kichik bo‘lsa-da, qismning asar kompozisiyasiga kiritilishidan mualliflar ko‘zlagan maqsad Qur’oni Karim oyatlari, hadislar va mashoyixlar so‘zlariga tayangan holda avliyolarning martabasini ulug‘lash va ularni Alloh sevgan - tanlagan insonlar ekanligini zikr etishdan, va umuman valiullohlar zotiga nisbatan izzat ehtiromni kuchaytirish va o‘quvchilarga ularning oddiy insonlar emasliklarini uqtirishdan iboratdir.

Maqomotlarning kompozision qurilishi haqida fikr bildirganimizda biz mazkur maqomotlar orasidagi o‘xshashlik va yaqinliklarni nazarda tutgan holda, shu bilan birga o‘zining mukammalligi, to‘liqligi va tarkibidagi naqllarning boshqa maqomotlarga qaraganda ko‘pligini inobatga olgan holda, asosan, Abul Muhsin Muhammad Boqir qalamiga mansub maqomotga tayandik. Mazkur maqomotning birinchi qismida jami 51 ta

naql jamlangan bo‘lib, ularda Hazrat Xojaning tug‘ilishlari, ul zotning tug‘ilishidan oldin aytilgan bashoratlar, o‘smirlik yillari, uylanishi, bobosi bilan Samarqandga borishi, Hazrati Xoja Ali Romitaniyning muborak kulohlari Bahouddin Naqshbandga yetishgani va Amir Kulol bilan uchrashishi hikoya qilinadi. Undan so‘ng keladigan bir qator naqllar birinchi qismning mag‘zini tashkil qiladi, Bahouddin Naqshbandning tariqatga qadam qo‘yishi sabablari, jazba holatlari bayoni, Sayyid Amir Kulol, Xalil Ota, Qusam Shayx kabi ulug‘ shayxlar bilan uchrashuv va suhbatlari, ya’ni, Hazrati Xojaning «avval hollari» – tariqatdagi dastlabki davri va kechinmalarini oydinlashtirishga bag‘ishlangan. Bu bobdagi aksariyat naqllar Hazrat Xojaning xotiralari sifatida peshkash qilinadi va «Naql qilishlaricha, Hazrati Xojamiz aytgan ekanlar» kabi kirish so‘zlari bilan boshlanadi va hikoya Bahouddin Naqshband tilidan bayon qilinadi. Bu bobdagi naqllar shu tartibda joylashtirilganki, ularda bayon qilinayotgan voqea-hodisalar kitobxonni asta-sekin Bahouddin Naqshbandning tariqatdagi dastlabki qadamlaridan to ul zotning pir-murshid darajasiga qadar o‘sib borishi jarayoni bilan tanishtiradi. Shu sababli aksariyat naqllar «avval holda», «avval hollari haqida» kabi so‘zlar bilan boshlanadi. Bu demak, yuqorida zikr etganimiz - tariqatdagi ilk qadamlar haqida hikoya qilinmoqda.

Fikrimizga quyidagi misollar dalil bo‘la oladi deb o‘ylaymiz.

«Naql qilishlaricha, Hazrati Xojamiz aytgan ekanlar: «Ahvolning avvvalida jazba g‘alabasi va beqarorlikda Buxoroda tunlari kezib yurardim...» [1.4.28b], «Naql qilishlaricha, Hazrati Xojamiz aytgan ekanlar: «Avval holda tunlarning birida Revartunda ustun orqasida qiblaga yuz qilib o‘tirar edim...», «Naql qilishlaricha, Hazrati Xojamiz avval hollarining boshlanishi haqida hikoya qilganlarida aytgan ekanlar...», «Naql qilishlaricha Hazrati Xojamiz o‘z hollarinin oxirlarida avval hollari haqida hikoya qilib aytar ekanlar...» va hokazo.

Yuqorida zikr etib o‘tganimizdek, bu bobda jami 51 ta naql jamlangan va ularning har birida Bahouddin Naqshbandning tariqatga kirib to shayx darajasiga yetishguniga qadar bosib o‘tgan yo‘llarini, riyozatlarini, ichki kechinmalarini oydinlashtiruvchi naqllar o‘quvchiga imkon qadar ko‘proq va mufassalroq ma’lumot berish uchun shu bobga kiritilgan. Bu naqllarning har birida yuqorida aytib o‘tilgan mavzularni ochib berish imkoniga ega bo‘lgan voqea-hodisalar hikoya qilinadi. Ammo bu voqea-hodisalar hech qachon biri-

birini takrorlamaydi. Tadqiqotimizning keyingi faslida naql-rivoyatlar, ularning syujeti va kompozisiyasi haqida mufassal to‘xtalishimizni nazarda tutib, ular haqidagi fikrlarimizni shu yerda muxtasar qilamiz.

Maqomotlarning ikkinchi qismi «Hazrati Xojamizning suluk yo‘li, darveshlik sifati, ahvol va axloqlari bayonida hamda sharif majlislarda ularning muborak og‘izlaridan chiqqan nozik so‘zlar va mo‘’jaz kalomlar zikrida» deb nomlanadi.

Maqomotlarning bu qismini shartli ravishda ikki kichik qismga bo‘lish mumkin. Uning birinchi qismida jami 31 ta naql mavjud. Ikkinchi qismida esa Hazrati Xojanining qudsiy so‘zlaridan namunalar to‘plangan. Birinchi qismdagi naql, rivoyatlar an’anaviy tarzda «naql qilishlaricha» degan kirish so‘zlari bilan boshlanadi va so‘ngra ularda birorta shaxs tarafidan hikoya qilingan voqea bayon etiladi. Bahouddin Naqshbandning qudsiy so‘zlari esa «aytar edilar» so‘zlari bilan boshlanadi va ul zotning tasavvuf ta’limotining biror bir mavzusiga oid fikrlari qisqa hamda lo‘nda tarzda keltiriladi. Bu fikrlar ba’zi maqomotnavislar ham e’tirof etganlaridek, sharhga muhtoj.

Maqomotlarning ikkinchi qismi naqshbandiya tariqatining qisqacha ta’rifiga bag‘ishlangan naql bilan boshlanadi:

نقل کردند از علاالدین عطار الله مرقده که طریق حضرت خواجه ما فقر بود و ترك دنیا و قطع تعلقات و تجرد کلی و نفی ما سوی... احسان ایشان بدرجه اعلی بود... چنان بود که در رعایت حلال و اجتناب از شبهات میفرمودند...

«Alouddin Attor attarollohu marqadahuning naql qilishlaricha, Xojamizning tariqatlari faqr, tarki dunyo, aloyiqdan kechish, to‘liq yolg‘izlik, mosivoning inkoridan iborat edi... Ularning ehsonlari oliy darajada edi. Aziz suhbatlarining ta’siri barchada ma’lum va hammada oshkor edi. Hazrati Eshonnning qadamlari sunnatga tobe’ bo‘lishlikda mustahkam edi. Halolga intilish va shubhali narsalardan qochishni, va ayniqsa, halol luqmani ta’kidlab gapirar edilar...». Bu naqlning mazmunidan ham anglashilib turganidek, ikkinchi qismdagi naqllarda Hazrati Xojaning pir-murshid, tariqat asoschisi sifatida tasvirlanganini ko‘ramiz. Quyidagi naql ham fikrimizni tasdiqlaydi:

نقل کردند از خواجه علاالحق و الدین که از برکه نظر حضرت خواجه ما...

دراندك فرصتی درویشان حضرت ایشان را احوال چنان میشد که از (نظر) خطوط بشری و اوصاف نفسانی با لکلیه خلاص می یافتند...

«Xoja Alouddin Attorning naql qilishlaricha, Hazrati Xojamizning nazarlarining barakotidan darveshlar andak zamonda shunday holga yetardilarki, odamlik qaydidan va nafsoniy sifatlardan butunlay ozod bo‘lar edilar... Hazrati Xojamizning muborak nafaslari barakotidan toliblar ko‘pincha birinchi qadamlaridayoq muroqaba davlatiga musharraf bo‘lardilar. Agar bu inoyat nazari va tarbiyatlari ziyoda bo‘lsa adam darajasiga yetardilar. Agar bu nazar bundan ziyoda bo‘lsa fano maqomiga yetishar edilar. O‘zlaridan butunlay foniy bo‘lib, Haqqa boqiy bo‘lardilar....» [1.4.91a].

Maqomotlarning so‘fiyona adabiyot sirasiga kirishini nazarda tutadigan bo‘lsak, misol tariqasida keltirilgan bu lavhalar va shu bobga kiritilgan boshqa naqllarda bayon qilingan fikrlar va voqealar kitobxonni ko‘proq mustaqil mulohaza qilishga va xulosa chiqarishga undaydi. Aks holda naqllarda ko‘zda tutilgan maqsad o‘quvchi uchun mavhum bo‘lib qolishi mumkin.

Hazrat Bahouddin Naqshbandning shu qismga kiritilgan qudsiy so‘zlari ulardan oldin keltirilgan naqllarda bayon qilingan fikrlarni yanada to‘ldiradi. Ularda ham tariqatning o‘ziga xos jihatlari, muridlarning axloq-odobi, pirlarning vazifalari va ular oldiga qo‘yilgan talablar haqida fikr yuritiladi.

Maqomotlarning uchinchi tarkibiy qismida Hazrati Xoja Bahouddin Naqshbandda turli davrlarda, turli joylarda sodir bo‘lgan g‘ayritabiiy xislatlar hamda u kishidan zuhurga kelgan karomatlar va bashoratlarga bag‘ishlangan naql-rivoyatlar jamlangan dedik. Bu qismdagi naqllar Hazrati Xojaning Buxoroning Mavlono Xisomiddin Xoja Yusuf ismli ulug‘ olimi va ulamosi haqida aytgan bashoratiga oid naql bilan boshlanadi. Unda Bahouddin Naqshband endigina zuhurga kelayotgan paytlarida Mavlono Xisomiddin o‘zining bir guruh talabalari orasidan chiqib, yonlaridan o‘tib ketayotgan Bahouddin Naqshbandga salom berib, ul zot bilan qo‘l olishib so‘rashadilar. Hazrati Xoja yonlarida turgan Alouddin Attorga qarab:

اول کسی که از علما با ما آشنا شود این بزرگ خواهد بود.

«Olimlardan birinchi bo‘lib biz bilan tanish bo‘ladigan olim shu buzurg bo‘ladilar», deydi [1.4.82 b]. Bahouddin Naqshbandning bu muborak so‘zlari yetti yildan keyin ro‘yobga chiqadi va Mavlono Hisomiddin Hazrati Eshonga yetishadilar hamda ul zotning hamfikr do‘stlaridan biriga aylanadi. Ushbu naqldan keyin esa Bahouddin Naqshbandning muxoliflari bilan bo‘lib o‘tgan munozara aks ettirilgan katta hajmdagi naql-rivoyat keltiriladi. Bu rivoyat haqidagi fikr-mulohazalarimizni bundan keyingi faslda mufassal bayon qilamiz.

Maqomotlarning uchinchi qismidan joy olgan boshqa barcha naql-rivoyatlarda ul zotning karomatpesha valiyliklarini tasdiqlovchi ko‘plab naql-rivoyatlar beriladi. Oxirgi naqlda Hazrati Xojaning vafot etganliklari haqidagi xabar beriladi va asarning yakun topgani borasida so‘zlanadi: «Alloh fazli bilan bu kitob tugadi. Bu kitob talabalarning haqirrog‘i mulla Nishon ibn Muhammad Yusuf nomi bilan tanilgan Ahmad qo‘li ila yozib tugatildi. Yili -1328, muazzam sha’bon oyi, Buxorodagi Kalobod mahallasi.

شد به توفیق خدای لاینام  این کتابه روز یکشنبه تمام

*Hamisha bedor Allohning tavfiqi bilan*
*Bu kitob yakshanba kuni tugadi*» [1.4.175 b].

Umuman olganda, maqomotlarning tuzilishi o‘ziga xos bo‘lib, ulardagi naqllarda Allohning inoyati bilan, pirlarning bashorati bilan, silsilalarning barakotidan kelgusida valiy, shayx bo‘lib yetishguvchi shaxs – Bahouddin Naqshbandning tug‘ilishidan avval mashoyixlar, donishmandlar tarafidan aytilgan bashoratlardan boshlab, to ul zoti sharifning vafotlariga qadar mufassal tarzda hikoya qilinadi. Maqomotlarda naqllarning yuqorida zikr etilgan tartibda joylashtirilishi aniq bir maqsad asosida, o‘quvchining diqqat-e’tiborini asarning boshlang‘ich qismlaridanoq quyida hikoya qilinmoqchi bo‘lgan voqea-hodisalar haqiqatan istiqbolda buyuk inson, din arbobi, xudoning sevgan va siylagan bandasi bo‘lib yetishadigan kishi haqida ekanligiga qaratishga xizmat qiladi.

Har bir qism-fasllarda bayon qilinadigan voqealarning o‘quvchilar tomonidan to‘g‘ri anglashilishi va talqin qilinishi uchun zamin tayyorlaydi.

Masalan, ko‘rib o‘tganimizdek, bashoratlarni gohida tug‘ilajak bolaning onalari ham tasdiqlashadi. Maqomotlarda Bahouddin Naqshbandning bolalik yillarida «ulardan ajoyib va g‘aroyib voqea-

lar mushohada qilinganligi» haqida hikoya qilinadi. Xoja Bahouddinning onalaridan naql qiladilar.

نقل کردند از والده حضرت خواجه ما چون فرزندم بهاء الدین چهار ساله شده گفت که این فراح شاخ ما گو سالهٔ مهبچه پیشانی خواهد آورد واز قضا بعد از چند روز بهمان صفت آورد.

«Farzandim Bahouddin to‘rt yoshlik paytida :»Mana bu sigir peshonasi qashqa bola tug‘adi», - dedi. Taqdirdan bo‘lib uch-to‘rt kundan keyin o‘sha aytilgan sifatdagi buzoq tug‘ildi» [1.4. 7a].

Bu bilan asar mualliflari bayon etilgan fikrning ishonchli ekanligini yana bir bor ta’kidlaydilar. Shu tariqa qayta-qayta turli kishilar tarafidan aytilgan bitta fikr albatta kitobxon yoxud tinglovchi xotirasida mustahkam o‘rnashib qoladi va so‘nggi hikoya qilinadigan voqealarning ham haqiqat ekanligini e’tirof etishga ko‘maklashadi.

Kelajakda shayx bo‘lib yetishadigan shaxsning bolalik yillari ham g‘ayrioddiy xislat va holatlarning namoyon bo‘lishi orqali tasvirlanadi. Ular 3-4 yoshlik chog‘larida o‘ta iste’dodli bo‘lib, Quroni Karimni yod oladilar, bashorat qiladilar, kattalardan o‘z yoshlariga mos kelmaydigan murakkab diniy va falsafiy mavzularda savol so‘raydilar.

Ko‘rinib turganidek, bu holatda ham maqomot mualliflari o‘z qahramonlarining xarakterli jihatlarini ularning bolalik chog‘laridanoq sekin-asta shakllantirishga intilganlar.

Maqomotlarning, umuman agiografiyaning biografik asarlardan ajralib, farqlanib turadigan asosiy jihatlari shundaki, yuzaki qaraganda ularda biografik ma’lumotlar hikoya qilinayotgandek tuyuladi, ammo chuqurroq ahamiyat berilganda har bir biografik ma’lumot zamirida yashirilgan, aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan voqeaning atayin bo‘rttirib berilayotganligini sezamiz. Umuman olganda, maqomotlarda ham, badiiy asarlardagidek, bosh qahramon siymosining shakllanishi va takomili jarayoni tasvirlanadi. Ammo bu tasvir tadrijiy sur’atda, kichik-kichik detallar vositasida amalga oshiriladi. Personajlarning bosh qahramon bilan uchrashuvlari, suhbatlari, safarlari jarayonida uning xarakterining u yoki bu qirralari ochib beriladi.

Hotifdan nido kelishi bilan bog‘liq naqllar ham barcha agiografik asarlarga xos bo‘lgan motiv-komponentlardir. Ular haqida irfoniy adabiyotlarda shunday fikr bildiriladi: irfoniy fors adabiyotida mashoyixlar hayotida ro‘y bergan voqealarda hotif yoki g‘aybdan kel-

gan ovozlar soliklarni to‘g‘ri yo‘lga irshod qiluvchi vosita vazifasini bajaradi [235:126].

Agiografik asar qahramonlarining bolalik yillaridan, o‘sib ulg‘ayib, ularda jazba paydo bo‘lib yurgan yigitlik chog‘laridan o‘zlariga pir axtarishlari bilan bog‘liq hikoyatlar barcha maqomotlarda o‘z o‘rnini topgan. Maqomotga kiritilgan hikoyatlarning bir qismi solikning jazba holati va uning sulukka qadam qo‘yishi haqidagi hikoyat-naqllardir. Ularda aynan o‘sha davrga, holatga xos bo‘lgan voqealar, asar qahramonining ichki kechinmalari bayon qilinadi.

Maqomotlarda Hazrati Xoja «ahvolining avvalini», ya’ni ilohiy jazba paydo bo‘lgan davrini, bu jazba va holning qay tarzda ro‘y bergani, uning o‘ziga xos alomatlari, belgilarini tasvirlash uchun mualliflar mana shu holat tasvirlangan hikoyat, rivoyatlar, naqllarni keltiradilar.

Bahouddin Naqshbandga bag‘ishlangan maqomotlar тащqi tuzilishi nuqtai nazaridan bir-biridan kam farq qiladi. Bu fikrimizni yuqorida keltirganimiz qismlarga bo‘linish tartibi ham tasdiqlaydi. Ammo asarning kompozisiyasi haqida fikr yuritganimizda unga asardagi bayon uslubi ham kompozisiya tarkibiga kirishini yodimizda saqlashimiz kerak. Mana shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda maqomotlarga yondashadigan bo‘lsak, har bir maqomot alohida, o‘ziga xos bayon uslubiga ega ekanligini ko‘ramiz.

Dastlabki qarashda maqomotlarning qurilishi va ulardagi tarkibiy qismlarning aynan bir-biriga o‘xshashligi hamda qismlarni (maqsadni) tashkil etuvchi, muayyan mavzuni yorituvchi naqllar ham aksariyat hollarda biri-birini qaytarayotgandek tuyuladi. Lekin aslida bunday emas. Har bir muallif o‘ziga xos bayon uslubidan kelib chiqib, naqllarni o‘z maqsadiga muvofiq tarzda joylashtiradi. Mutlaq aksariyat naqllar barcha maqomotlarda uchraydi. Ammo bir maqomotdan ikkinchi, uchinchi va hokazo maqomotlarga ko‘chirilganida ularning ba’zi qismlari kengaytirilib, ba’zilari qisqartirilganining shohidi bo‘lamiz. Fikrimizcha, buning asosiy sababi mualliflar diqqat markazining farqlanishida bo‘lsa kerak. Chunki bir muallif maqomotlarning birinchi qismini tashkil etuvchi «valiylikning ta’rifiga» ko‘proq ahamiyat berib, turli manbalardan iqtibos qilib olingan hadislar yo mashoyixlarning bu boradagi so‘zlaridan keltirib qismning hajmini ham kengaytirsa (Muhammad Porso), ba’zilari qisqacha ta’rif va sanoqli dalillar bilan chegaralanganlar (Saloh bin Mu-

borak). Muhammad Boqir tomonidan yozilgan «Maqomot»da esa bunday qismning o‘zi yo‘q. Asarda Bahouddin Naqshbandning tavallud topishi va Hazrati Xojaning silsalalari bayonidan so‘ng, u zotning hollari boshlanishi bayoniga o‘tib ketiladi.

Xuddi shu tarzda maqomotlar kompozisiyasini tashkil qiluvchi asosiy qismlarning har biri turli maqomotlarda turlicha bayon etiladi.

Har bir yozuvchi o‘z zamondoshlari uchun muhim bo‘lgan mavzuni yoritishga harakat qilganidek, maqomotnavislar ham o‘z asarlarida o‘sha davr uchun muhim bo‘lgan masala so‘fiy shayxlarning hayoti va faoliyatini hikoya qilish orqali o‘z axloqi, odobi, dunyoqarashi, bilimdonligi va Alloh inoyati bilan sohibi karomat, sohibi valoyat bo‘lgan shayx, pirlarning siymosini - komil insonlarning siymosini yaratishga hamda ularni boshqalarga ibrat, namuna qilib ko‘rsatishga harakat qilganlar.

Ma’lumki, badiiy asarlar hayotiy haqiqat asosida kitobxonni o‘ziga tortadigan qiziqarli, jozibador voqea-hodisalardan tashkil topgandagina muayyan ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Maqomotlar syujetining qiziqarli bo‘lishiga esa mualliflar turli tuman vositalarni qo‘llash orqali erishganlar.

Biror asar kompozisiyasi, ya’ni tuzilishi haqida fikr yuritish uchun undagi voqea-hodisalar va shaxslar nima maqsadda asarga kiritilganligi xususida o‘ylab ko‘rish kerak bo‘ladi. Chunki maqsad aniq bo‘lmasa, harakat ham, ya’ni asarga kiritilgan voqealar, ularda ishtirok etadigan shaxslarning roli ham mavhum bo‘lib qoladi. Shuning uchun asar kompozisiyasini aniqlash uchun ma’lum birlikda turgan narsa, voqea va shaxslarning nima maqsad bilan birlashganligiga diqqat qilish lozim bo‘ladi. Shu narsa aniqlanmasa, asardagi birlikni, yaxlitlikni va uning qismlari bajaradigan vazifasini anglab olish mumkin bo‘lmaydi.

Maqomotlarda narsa, voqea va shaxslarni bir nuqtaga yig‘adigan kuch bor. Bu asar g‘oyasi, muallif ifodalamoqchi bo‘lgan fikrdir. Shu yo‘sinda maqomotnavisning e’tibor beradigan diqqat markazi paydo bo‘ladi. Maqomotnavislar qamrab olingan hayot materialida nimalarnidir diqqat markazida tutadilar, nimalargadir o‘zlarining diqqatini jalb etmaydilar. Maqomotlarning tuzilishi, tashkil topishida mualliflar ilgari surmoqchi bo‘lgan fikr, g‘oya muhim o‘rinni egallaydi.

Maqomotlar kompozisiyasida turli manbalarda tarqoq holda mavjud bo‘lgan hikoya va rivoyatlar muallif g‘oyasiga muvofiq ravishda (naqllar) bir joyga to‘planib mualliflarning maqsadiga, asarn-

ing g‘oyasiga bo‘ysundirilgan tartibda joylashtiriladi. Hikoya-naqllarning joylashuvi muntazam tartibga ega bo‘lib, asarning asosiy qahramoni – shayx hayotining turli bosqichlariga xos bo‘lgan muayyan xislatlarni yanada yorqinroq tasvirlashga imkon beradi. Ketma-ket kelgan naqllarda tasvirlangan voqealar dastlabki qarashda ortiqchadek, bir-birini takrorlagandek ko‘rinsa-da (ayniqsa, Bahouddin Naqshbanddan zuhurga kelgan karomatlar bayon qilingan naqllar), aslida ular biri-birini to‘ldirib, qahramon xarakterining turli qirralarini ochib berishga xizmat qiladi.

Tahlil uchun tanlab olingan barcha maqomotlar shayx Bahouddin Naqshbandning hayoti va faoliyati bayoni, uning tug‘ilishidan oldin Xoja Muhammad Boboyi Sammosiy tarafidan aytilgan bashorat bilan boshlanadi. Avliyolarning dunyoga kelishlaridan ilgari mashoiyxlar va ulamolar tarafidan ularning tug‘ilishini bashorat qilish barcha musulmon agiografiyasida uchraydigan motivlardan biridir.

Maqomotlarda Xoja Alouddin Attor tomonidan Xoja Bahouddin Naqshband tilidan naql qilingan quyidagi xabar beriladi:

پیش از ولادت فقیر حضرت خواجه محمد بابا بقصر هند و ان بسیار میامدند و میفرمودند که از این خاك بوی مردی میاید و زود باشد که قصر هندو ان قصر عارفان شود.

«Tug‘ilishimdan bir necha vaqtlar ilgari Xoja Muhammad Bobo Qasri Hinduvondan ko‘p marta o‘tgan ekanlar va har gal: «Bu yerdan bir erning hidi kelmoqda tez fursatda Qasri Hinduvon Qasri Orifonga aylanadi», -der ekanlar [1.2.6b].

Buyuk mashoyixlardan biri bo‘lgan Abdulqodir Giloniy hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvi «Risolai Qodiriya»da ham shunday bir fasl bor:»Ahli kashflar ul Hazrat (Abdulqodir Giloniy) zuhurg‘a kelurdin ilgari asosiy shonlari va paydarpay yuksalishlari, azamat va baland martabalaridan xabar berganlarining bayoni». Bu bayonga shayx Abdulqodir Giloniyning tug‘ilishidan oldin boshlab qilingan oltita rivoyat kiritilgan. Mana ulardan biri: Shayx Abu Bakr Havvoz tilidan bayon qilingan: «Bu zoti sharif ajamiydur, ammo Bag‘dodda Vatan tutganlar. Ularning paydo bo‘lishlari hijriyning beshinchi asridadir. Va ular siddiqlarning va qutblarning ulug‘rog‘i bo‘lurlar va Hazrati payg‘ambar sallalohu alayhi vassallamning sahobalaridan bo‘lurlar»-deb aytdilar.

«Manoqibi Qodiriya»da ham shunday bir naql bor: «Bir kun Hazrati G‘avs us-saqalayn bari mashoyixlari bilan tomda o‘ltirib edilar.

Nogoh nazarlari Buxoro tarafiga tushub, shunday amr qildilar: Falon vaqtda Bahouddin Naqshband otlig‘ bir zot zuhurga kelguvsidir, bizning fayz-xosiyatimiz birla mumtoz bo‘lg‘uvsidir [52:19].

Bu kabi bashoratlar ulamo va mashoyixlar tarafidan Xoja Ahmad Yassaviy, Boyazid Ansoriy, Boborahim Mashrab va boshqa sufiylar haqida yozilgan asarlarda ham zikr etiladi.

Bunday bashoratlarning maqomotlar, manoqiblar tarkibiga kiritilishidan ko‘zlangan maqsad buyuk shayxlar oddiy insonlardan farqli o‘laroq tug‘ilishlaridan oldin Alloh inoyati bilan buyuk xislatlar, iste’dodlar, qudratlar sohibi sifatida «tanlangan», «saylangan» insonlar bo‘lishlariga ishoratdir. Shayxlar – komil insonlardir. Ma’lumki, komil insonlar juda kamyob bo‘ladilar. Komil insonlarning siyrati va suratida ilohiylik hamda insoniylik mujassamdir.

Maqomotlarda mazkur bashoratlarni zikr etish orqali mualliflar o‘quvchi diqqatini asarning boshlanish qismidanoq g‘ayrioddiy shaxslar, valiullohlarga qaratishga intilib, kitobxonlarni bo‘lg‘usi voqealarni to‘g‘ri tushunib, to‘g‘ri talqin qilishga tayyorlaganlar.

Maqomotlarning tarkibiy qismida xojagon tariqati silsilasiga ham alohida o‘rin beriladi. Chunki ingliz olimi J. Trimingemning yozishicha, «tariqat va toifalarning muassislari hamda shayxlari avvalo o‘z tariqatlarining asl islomga (ortodoksal islomga) sodiqligini isbotlashga katta ahamiyat berganlar. Bu musulmonchilikda sinovdan o‘tgan usul orqali, ya’ni isnod orqali amalga oshirilgan. Tariqat silsilasi haqida yana shunday fikr mavjudki, tariqat shayxlari o‘z silsilalarini biron bir mashhur piru murshidga bog‘laganlarida o‘z tariqatlarining haqligini, ta’limotlarining chuqur va haqqoniyligini isbotlashga harakat qilganlar. Bu ta’limotlar yangi tariqat uchun kafolat (garantiya) vazifasini bajargan [198:23]. Bu mistik isnod deb atalgan.

G‘arb olimining yuqoridagi fikriga qo‘shimcha qilib, silsilalarga sharqona axloq-odob normalariga, asosan, o‘tmishda o‘tgan ustozlar xotirasini abadiylashtirish, e’zozlash kabi etik prinsipning namoyon bo‘lishi deb qarashimiz mumkin. Shundan kelib chiqqan holda silsilada ustoz shayxlar ismlarining nomma-nom zikr qilinishi ularga nisbatan hurmat-ehtiromning ado etilishi desak xato qilmaymiz.

Naqshbandiya tariqatida [tariqat] asoschisidan to payg‘ambar [Muxammad s.a.v.]gacha bo‘lgan silsila (zanjir) «silsilatu-z-zahab» («oltin silsila») deb atalgan. Maqomotlarda bu haqda shunday yozil-

gan:»Maxfiy qolmasinki, Xojamiz qaddasallohu ruhah ul-azizning tariqat nisbatlari va zikr ta'limlari Hazrati Sayyid Amir Kulol quddisa sirruhudan, ularniki Xoja Muhammad Boboyi Sammosiydan, ularniki Xoja Mahmud Anjir Fag'naviydan, ularniki Xoja Orif Revgariydan, ularniki Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniydan, ularniki Xoja Yusuf Hamadoniydan, ularniki Shayx Abu Ali Formadiydan, ularniki Shayx Abul Qosim Gurgoniydan. Shayx Abul Qosimning botin ilmida nasabi ikki zotga boradi: birinchisi, Shayx Abul Hasan Xaraqoniyga, ularniki Shayx Abu Yazid Bistomiyga, Shayx Abul Hasanning vafoti Shayx Abu Yaziddan keyindir. Shayx Abu Yazidning tarbiyati uning uchun botin va ruhoniyat orqalidir, zohir yuzma-yuz uchrashuv orqali emas. Va Shayx Abu Yazidning irodati Imomi Ja'fari Sodiq raziallohu anhugadir. To'g'ri naql bilan isbot topishga qaraganda, Shayx Abu Yazidning tavalludi Hazrati Imomdan so'ng yuz bergan va Imomning tarbiyati ruhoniyat orqali bo'lgan. Hazrati Imom Ja'fari Sodiq botin ilmida ikki tomondan nisbatga ega: birinchisi, o'zining buzurgvor otasi Imomi Muhammad Boqir, ularga o'z otalari Imomi Zayn ul-Obiddan, ularga o'z otalari Imomi Husandan, ularga o'z otalari amir ul-mo''minin Alidan, ularning barchasiga Allohning roziligi bo'lsin, ularga Hazrati Risolatpanoh (Muhammad) sallallohu alayhi vasallamdandir. Imomi Ja'far Sodiqning ikkinchi tomondan nisbati Qosim ibn Muhammad ibn Abu Bakr Siddiqqa boradi, ularning barchasidan Alloh rozi bo'lsin. Va Hazrat Qosim – Imomi Ja'far Sodiqning otasi bo'lib, yetti faqihlardan biridir, ularning barchasidan Alloh rozi bo'lsin. Va uning nisbati Salmon Forsiy raziallohu anhugadir. U Rasululloh sallallohu alayhi vassallamning suhbatini topganiga qaramay, nisbati amir ul-mo''minin Abu Bakr Siddiqqadir, Alloh undan rozi bo'lsin [1.4.8b,].

Barcha tariqatlarning silsilasi oxiri Xalifai roshidin va Rasulullohning yaqin sahobalaridan bo'lgan Salmon Forsiy va Imom Ja'far Sodiqqa yoxud bularning birovi vositasida Muhammad (s.a.v.)ga olib borib bog'lanadi. Naqshbandiya silsilasi Salmon Forsiy va Abu Bakr Siddiq orqali Payg'ambarimizga olib borib ulangan.

Maqomotlardagi qator naqllar orasida bir naql mavjudki, unda Bahouddin Naqshband «ahvolining avvalida jazba g'alabasi» davrida «voqea»da namoyon bo'lgan hodisalar va uchrashuvlar haqida hikoya qilinadi. Unda mualliflar Bahouddin Naqshbandning ko'plab shayxlar

qatori Abdulxoliq G‘ijduvoniy bilan voqeada (ro‘yoda) namoyon bo‘lgan suhbatini keltiradilar:

متوجه قبله نشستم و در آن توجه غیبتی افتاد و در آن غیبت چنان مشاهده شد که دیوار از جانب قبله شق گشت و تحت بزرگ و بر آن بزرگی نشسته و پرده سبز در پیش اوکشیده، گرد آن تخت جماعتی ظاهر حاضر و خواجه محمد بابا در آن جمع دیده شد دانستم که ایشان گزشتگانند ... از آن جماعت در خواستم که بر حضرت خواجه سلام کنم ... پرده از پیش گرفتند پیری دیدم نورانی سلام کردم جواب دادند آنگاه سخنان که به مبداء سلوك و وسط و نهایت تعلق دارد بیان آوردند گفتند چراغها که بان کیفیت با تو نمودند اشارت و بشارت ترا با ستعداد و قابلیت این راه اما فتیله استعداد در حرکت می‌باید آورد تا روشن شود و اسرار ظهور کند و دیگر فرمودند مبالغت نمودند که در همی احوال قدم در جاده امرو نهی و عمل بعزیمت سنت بجای آری و از بد عتها دور باشی واحادیت مصطفی را صلی الله علید و سلم پیشوای خود سازی متغخصص و متجسس اخبار و آثار رسول صلی الله علیه و سلم و صحابه کرام او باشی.

«...Shu onda bexudlik yuz berdi va qarasam qibla devori yorilib, bir katta taxt paydo bo‘ldi. Bu taxt atrofida bir guruh kishilar o‘tirar edilar. Ularning orasida Xoja Muhammad Boboni tanidim.

Jamoat orasidan bir kishi: «Taxtdagi Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy quddisa sirruhudir», dedi. ...Shunda jamoatdan Xojai Jahonga (Abdulxoliq G‘ijduvoniyga) salom berish va ularning muborak jamollariga nazar solishga ruxsat so‘radim. Pardani ko‘tardilar. Nuroniy bir pirni ko‘rdim va salom berdim. Salomga javob berdilar. So‘ng sulukning boshlanishi, o‘rtasi va oxiri haqida bayon qildilar va dedilar: «Senga chiroqlarning yuqoridagi kayfiyatda ko‘rsatilishi sening bu yo‘ldagi iste’dod va qobiliyatingga ishorat va bashoratdir, ammo iste’dod piligini harakatga keltirmoq lozim, toki ravshan bo‘lsin va sirlar zuhurga kelsin». So‘ngra buyurdilar: «Barcha holatda ham qadaming amru nahiy ko‘chasida bo‘lsin, sunnatni hamisha joyiga qo‘yishga intil, bid’atlardan uzoq bo‘l. Mustafo sallallohu alayhi vas-

sallam va uning sahobalari asarlari va xabarlarini izlovchi va o‘rganuvchi bo‘l» [1.2.16 a-b.].

Ushbu lavhaning maqomotlar tarkibiga kiritilishi bejiz emas, albatta. Maqomot mualliflari ushbu xabar orqali Bahouddin Naqshbandga o‘tmishda yashab o‘tgan Abdulxoliq G‘ijduvoniy qay tarzda pir vazifasini o‘taganligini dalillash uchun kiritilgan va ruhoniy tarbiya qay tarzda amalga oshirilganini tasvirlash uchun bayon qilingan. Maqomotlar tarkibida mazkur naql bo‘lmaganida kitobxonlar oldida ruhoniy tarbiya qanday qilib yuz berganligi haqida savol tug‘ilishi mumkin edi.

Maqomotga bu naqlning kiritilishi mualliflarga muhim bir vazifaning uddasidan chiqishga, badiiy tasvir vositalaridan foydalangan holda Shayx Bahouddin Naqshbandning «tariqa nisbati va zikr ta’limi» Sayyid Amir Kuloldan bo‘lganini va haqiqat ta’limi Abduxoliq G‘ijduvoniy ruhlaridan bo‘lganini tasvirlashga imkon bergan.

Alisher Navoiy zikr qilganlaridek, «Alarg‘a [B. Naqshband] qabul nazari Xoja Muhammad Boboyi Sammosiydindur va odobi tariqat ta’limi zohir yuzidin Amir Sayyid Kuloldandur, andoqkim der emishlar. Ammo haqiqat yuzidin alar uvaysiydurlar va tarbiyat Hazrati Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy ruhidan topibdurlar» [41:125].

«Qabul nazari» haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, bu o‘rinda maqomotlarda Bahouddin Naqshband tug‘ilishlari bilan bog‘liq bo‘lgan, shayx Xoja Muhammad Samosiy tarafidan aytilgan bashoratni yodga olishimiz zarur bo‘ladi.

Hazrati Xoja tug‘ilishlaridan oldin Xoja Boboyi Samosiy buyuk bir shaxs dunyoga kelajagini ona qornidagi bolaning isidan sezadi. Maqomotlardan olingan bu rivoyatni Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da ham zikr etadi: «Xoja Bahouddin valodatidan uch kun (o‘tgan) ekandur, alarning jaddi bar muomala alarning ( Boboyi Sammosiyning) ko‘ksiga qo‘yib, alarni (Bahouddinni) ixlos va niyoz bila Xoja Muhammad Bobo nazariga kelturubdur. Xoja Muhammad Bobo dedilarki: «Ul bizning farzandimizdur va biz uni qabul qilduq»... Va Amir Sayyid Kulolg‘a buyurdilarki «Farzandim Bahouddin haqida tarbiyatu shafqatni darig‘ tutmagaysan va senga bixil qilmag‘aymen (kechirmagayman) agar taqsir qilsang». Amir dedikim: «Er bo‘lmag‘aymen, agar Xoja vasiyatig‘a taqsir qilsam» [41:126].

Mazkur lavhadan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Boboyi Samosiy Bahouddin Naqshbandga «nazar» qilganlari uchun «qabul nazari» yu-

zasidan pir vazifasini o‘taydilar. Amir Sayyid Kulol esa zohir yuzasidan, ya’ni tariqatga o‘rgatgani sababli pir hisoblanadi. Ammo Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy Bahouddinga haqiqat yuzasidan, ya’ni uning ruhi kelib tarbiyalagani uchun, botiniy ilmlardan boxabar qilgani uchun pir bo‘ladilar.

Maqomotlarda berilgan xabarga asoslangan holda Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy Bahouddin Naqshbanddan ilgari yashab o‘tganliklarini inobatga olgan holda uvaysiylikni ruhoniy tarbiya sifatida e’tirof etamiz. Ya’ni, Bahouddin Naqshbandga Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy g‘oyibona ruhiy-ma’naviy tarbiya bergan. Tasavvufda «uvaysiylik» tushunchasi payg‘ambarimiz davrida yashagan Uvays Qaraniy nomi bilan bog‘lanadi. Uvays Qaraniy payg‘ambarimiz bilan ko‘rishib, uchrashmagan bo‘lsa-da, ul zotning ruhidan ma’naviy ozuqa va madad olgan. Bu haqda tasavvuf adabiyotlarida shunday rivoyat bor: «Rivoyat qilishlaricha, Muhammad alayhissalom olamdan o‘tar paytida sahobalar ul azizdan eski to‘nlari-xirqalarini kimga berish lozimligini so‘rabdilar». Payg‘ambarimiz debturlarki: «Uvays Qaraniyg‘a bersunlar va desunlarki, mening ummatimni duo qilsun».

Yamanning Qaran degan yeridan bo‘lgan bu tuyaboqar Uhud tog‘idagi urushda payg‘ambarimizning muborak tishlari singanini eshitib, urib-urib o‘zining 32 tishini sindirgan edi. Ammo Muhammad alayhissalom bilan Qaraniy bir-birlarini hech qachon ko‘rmagan edilar. Shunday bo‘lsa ham, Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» kitobida qayd etilishicha, Rasululloh uni «Ma’ni va ruhoniyat yuzidin tarbiyat qilib erdilar. Bu jihatdin har kishiningki bu toifadin (shayxlardan) zohir yuzidin piri ma’lum bo‘lmasa va mashoyixlardin birining ruhi oni tarbiyat qilg‘an bo‘lsa oni «uvaysiy» derlar» [41:75].

Demakki, uvaysiy atamasi Uvays Qaraniyning nomiga nisbat berilar ekan.

Shu tarzda maqomotlarda silsilaning mufassal bayonidan so‘ng asarning asosiy qismiga o‘tiladi. Asosiy qismlar yuqorida zikr etganimiz maqomotni tashkil qiluvchi boblar, «qismlar», «maqsadlar» va fasllardir. Har bir bob asar qahramoni hayoti va faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan voqea-hodisalarni bayon qiladi va muallif o‘z oldiga maqsad qilib olgan vazifalarni ado etishi lozim bo‘lgan naqllar silsilasida o‘z ifodasini topadi.

Maqomotlar kompozisiyasida asar qahramoni ko‘rgan tushlar va «voqea» lar haqida hikoya qiluvchi naqllarga alohida ahamiyat berila-

di. Ularning aksariyati bashoratli tushlar bo‘lib, kelajakda ro‘yobga chiqadigan voqea-hodisalar, solik yoki shayx hayotida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar haqida xabar beriladi.

Bundan tashqari tushlar maqomotlardagi voqealar rivojida o‘ziga xos vazifani o‘taydi. Ular vositasida mualliflar asar to‘qimasiga qo‘shimcha personajlarni ham kiritadilar.

Soliklar va shayxlar tushlarida, aksariyat hollarda, o‘z ustozlari-pirlarini, avliyolar, payg‘ambarlarni va, xususan, Rasulullohni, Xizr alayhissalomni ko‘radilar va ular bilan suhbatlashadilar. Bunday tushlar biror g‘oyani, fikrni, bashoratni tasdiqlash va dalillash uchun xizmat qiladi. Maqomotlarda bosh qahramon va personajlar ruhiy holatining o‘zgarishi, ular tarafidan qabul qilinadigan birorta jiddiy narsani yoxud voqealar rivojida keskin burilish yasash uchun mualliflar tomonidan tushda ko‘rilgan turli voqea-hodisalar bayon qilingan naqllar kiritilgan.

«Hazrati Xoja shunday dedilar: «...Bir kuni kechasi turk mashoyixlarining ulug‘laridan bo‘lgan Hakim Ato quddisa sirruhuni tushimda ko‘rdim. Ular meni bir darveshga topshirar edilar. Uyg‘ongan joyimda darveshning aftu angori esimda qolgan edi» [1.4.6b].

Tushda avliyolarni ko‘rish katta bir baxt. Ayniqsa, solik tushida avliyoni ko‘rsa, bu tush unga kelajagi porloq ekanligidan, tariqatda muvaffaqiyat qozonishiga, sabr-toqat ila maqomlarni ketma-ket egallashga va shayx-valiy darajasiga ko‘tarilishiga bashorat bo‘ladi.

Qahramonlar, personajlarning tush ko‘rishi ularning ro‘yobga chiqishi agiografik adabiyotga xos bo‘lgan muhim kompozision elementdir. Ular ham xristian agiografiyalarida («jitiya»), ham musulmon agiografiyasida (sira, manoqib, maqomot, tabaqot...) birdek mavjud bo‘lgan komponentlardir. Maqomotlarga kiritilgan tush ko‘rish bilan bog‘liq naqllarda nafaqat asarning asosiy siymosi bo‘lgan Bahouddin Naqshband ko‘rgan tushlar, balki ayrim personajlar ko‘rgan tushlar ham hikoya qilinadi. Bahouddin Naqshband muridlaridan bo‘lgan Amir Sayid Sammoniydan naql qilinishicha, u aytadi: «Mening Hazrati Xojaga yetishganimning sababi shuki, Allohning inoyati bilan tushimda Rasululloh (s.a.v)ni hozir holda ko‘rdim. Bu majlisda ummat buzurglaridan bir nuroniy aziz ham bor edi. Men Rasul (s.a.v)dan: «Bu azizdan nima yuz beribdiki, u sizning sharif suhbatingiz barakotini topibdi», deb so‘radim. Buyurdilar:

«Xudo va uning rasuli roziligini topishni istaysanmi, buning uchun mana shu azizning xizmatini qil!» So‘ng menga ularning nomlarini aytdilar. Uyg‘onganda o‘sha azizning suvrati va sifatlarini bir kitobga yozib qo‘ydim» [1.4.18b].

Asar kompozisiyasiga tushlar, bashoratlar, karomatlar haqidagi rivoyat, hikoyat, latifa, naqllarni kiritish orqali maqomotnavislar birinchidan, asar badiiy to‘qimasiga yangi va yangi, turli-tuman katta-kichik personajlar (aksariyat hollarda bular tarixiy shaxslar)ni jalb qilish orqali asar g‘oyasini ochib berish, komil inson - shayx, pir, valiy siymosini tasvirlashga yordam beruvchi qo‘shimcha syujetlar vujudga keltirish bo‘lsa, ikkinchidan, har bir rivoyat-naql kitobxon va tinglovchining diqqatini rom qiladigan voqea-hodisaga nisbatan qiziqishni orttirishga, bayonning uzluksizligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Maqomotlardagi tush ko‘rish epizodlari mualliflar tomonidan jonli dialoglar va monologlar vositasida tasvirlanadi.

Barcha biz ko‘rib chiqqan maqomotlardagi naqllarda asar qahramonlari tushlarida albatta, Xizr alayhissalomni, mashoyixlarni ko‘radilar. Bu ularning valoyat sohibi ekanliklariga dalolatdir. Xizr a.s. bilan bog‘liq syujet barcha maqomotlarga xos, doimiy syujetdir. Aksariyat tasavvuf adabiyotida va, xususan, agiografiyada tushlarning ba’zi kishilar hamda jamiyatlarning hayotidagi muhim roli zikr etilgan. Tushda payg‘ambarlarni yoki Xizrni ko‘rish tanlanganlarga o‘z tariqatiga asos solish uchun dalil sifatida e’tirof qilingan [198:124].

Maqomotlar kompozisiyasining shakllanishida Xizr alayhissalomning paydo bo‘lishi motivi muhim rol o‘ynaydi. Bu personaj ishtirokisiz maqomotlar kambag‘allashib qolgan bo‘lardi. Chunki Xizr alayhissalom tasavvufda valiylarning yo‘lboshchisi, ustozi, piri sifatida talqin qilinadi va uning maqomotlar kompozisiyasida yo asar qahramoning hayotida, ruhiyatida mushkul damlar yuzaga keladi, yo unga biror muammoning yechimini ko‘rsatib berishda, yo kelajakda buyuk ishlarni amalga oshirishda unga madadkor sifatida paydo bo‘ladi. Maqomotlarda Xizr alayhissalomning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq holatlar juda ko‘p uchraydi. Shu sababli ularning ba’zilariga to‘xtatilib o‘tamiz.

از امیر حسین نقل کردند که گفت یکبار حضرت خواجه ما قدس الله روحه مرا از طریق فتحا باد به شهر روان کردند... حال عجیبی رخ داد و نفس خود را ملامت میکردم و میگفتم ای نفس کافر هرگز باشد که مسلمان شوی تا از شرتو

خلاص شوم مرد نورانی مرا پیش آمد و گفت چند اضطراب میکنی... بسیاری از مشایخ را یاد کرد و رهنمائی ایشان را گفت و طریقه روش ایشان را در این راه بیان کرد من تضرع کردم دست در گریبان کرد و پاره خمیر با من داد و گفت نان پز و بخور... نماز بامداد را با حضرت خواجه گزاردم و... فرمودند آنکس که ترا پاره خمیر داد دانستی که بود. گفتم ندانستم فرمودند چه سخنها گفت من گفتم فرمودند آنکس حضر بود علیه السلام...

«Amir Husayndan naql qilishlaricha, u dedi: «Hazrati Xojamiz, qaddasallohu sirrah ul-aziz bir gal meni Fathobod yo‘li orqali shaharga jo‘natdilar. Bir oz yo‘l yurgach, menda bir ajib holat paydo bo‘lib, yig‘lashga tushdim, o‘z nafsimni malomat qila boshladim va der edim: «Ey yaramas nafs, ayt sen hech musulmon bo‘lasanmi, toki sening yomonligingdan ozod bo‘lsam»...Shu holatda ekanman, oldimdan nuroniy, g‘oyatda safo egasi bo‘lgan bir kishi chiqib qoldi va dedi: «Namuncha iztirob chekasan?». Shunday deb o‘zining qanchalar mashaqqat va riyozat chekkanini hamda mashoyixlardan ko‘plarini yod qildi, ularning yo‘llarini va riyozatlarini yo‘l davomida bayon qildi. Men yalinib, iltijolar qildim. U qo‘ynidan bir parcha xamir chiqarib, menga berdi va dedi: «Buni non qilib pishirib yegin»... Bomdod namozini Hazrati Xoja bilan birga o‘qidim.... «Senga xamir bergan kishi kim ekanligini bildingmi?» deb so‘radilar. «Yo‘q» dedim. «U nimalar dedi?» - deb so‘radilar. Men bo‘lgan voqeani gapirib berdim. «U Hizr edi, va unga (Xizrga) salomlar bo‘lsin» [1.4.46b].

Yana: «Amir Husayndan naql qilishlaricha, u dedi: «Bir kuni Hazrati Xojamiz Qasri Orifonda meni bir ishga buyurdilar. Men o‘sha ishga mashg‘ul edim, qarasam, bir nuroniy kishi Hazrati Xoja huzurlariga keldilar va hovuz labiga o‘tirdilar. Biroz suhbatlashdilar va dedilar: «Amir Husayn, Hizr alayhissalomni ko‘rdingmi?» [1.4.51a].

Yangi toifa (tariqat)ga asos solinishi va yo avliyolik haqida so‘z ketganda musulmon gnosisisining sirli ruhi Al-Xizrning ko‘rinishiga alohida ahamiyat beriladi. Qur’oni Karimning «G‘or» (XVIII-64-81) surasida «Allohning quli» Ilyos bilan Muso (a.s.)ning rahnamosi va ustozi sifatida zikr etilgan al-Xizr «hikmat» sohibi (65-oyat) va «ismi a’zam»ni, ya’ni avliyolik va mo‘’jizalar ko‘rsatish (qobiliyati)ni in’om

etuvchi bilimdan xabardor sifatida tasvirlangan. Tasavvuf ta'limotida u valoyatning botiniy nuri timsoli sifatida talqin qilinadi [198:92]. Bu personaj haqidagi hikoyalar agiografiyalarda ko'plab uchraydi.

Hotifdan keladigan tovushlar – nidoga ham agiografiyalarda katta o'rin beriladi. Hotifdan nido kelishi bilan bog'liq naqllar Bahouddin Naqshbandga bag'ishlangan barcha maqomotlarda ham o'z aksini topgan. Nidolar haqida irfoniy adabiyotlarda shunday fikr bildiriladi: «Irfoniy fors adabiyotida mashoyixlar hayotida ro'y beruvchi voqealarda hotif yoki g'aybiy ovoz beruvchi tomonidan kelgan ovozlar (solikni) to'g'ri yo'lga irshod qiluvchi rolini bajaradi» [235:147].

Maqomotlarda Bahouddin Naqshbandga Hotifdan kelgan birinchi nido: «Har narsadan qaytib, bizga yuz o'girmoq vaqti kelmadimi?» nidosi edi. Ushbu nido Bahouddin Naqshbandga jazba g'olib kelgan kezlarda eshitilgan edi. U shundan keyin tariqatga qadam qo'ydi.

Tasavvuf adabiyotida solikning sulukdagi sayrining muvaffaqiyatli yakunlanishi, ya'ni muridning murodiga yetishi, ruhiyma'naviy kamolot bosqichlarini bosib o'tishida unga rahnamo pirning roli alohida ta'kidlanadi.

Shu sababli Hazrati Xoja Bahouddin Naqshband hayoti haqidagi maqomotlar kompozisiyasiga ularning tariqatga qadam qo'yishlari bilan bu yo'lda ularga yo'lboshchi bo'ladigan pirni axtarishlari haqidagi hikoya-naqllar kiritilgan va bu jarayon o'ziga xos tarzda tasvirlanadi. Bahouddin Naqshbandning piru murshidlar bilan uchrashuvlari, suhbatlari hamda bu suhbatlarning ta'siri va natijalari haqida maqomotlarning birinchi qismida hikoya qilinadi.

Maqomot mualliflari bu jarayonni payg'ambarimizning va mashoyixlarning tariqatda pir-murshidning roli hamda ahamiyati haqidagi hadislari, muqaddas so'zlarini keltirish, ularni turli shaxslar tilidan bayon qilingan naqllar vositasida va nazmda, ruboiy, to'rtlik yoxud baytlarda ifoda etilgan xulosalar tarzida joziba bilan tasvirlaydilar. Ushbu qismda Bahouddin Naqshband dilida Haq zoti ma'rifatini o'rganishga ishtiyoq paydo bo'lganini va bu yo'lda solik komil pir lozimligini anglab yetganligi, va nihoyat, o'ziga munosib pir axtarishi jarayonini tasvirlar ekan, payg'ambarimizning buyuk mashoyixlarning tariqatda pir-murshidlarning roli va ahamiyati haqidagi hadislari, muqaddas so'zlarini keltiradilar.

Bir qator naqllarda hadislar va muqaddas so‘zlar yordamida, ularga ilova qilingan she’rlar orqali komil pirga xos bo‘lgan xislatlar ochib beriladi.

Maqomotnavislar Bahouddin Naqshbandning pirlari haqidagi voqealarni barcha tafsilotlari bilan hikoya qilar ekanlar, bundan ko‘zlayotgan maqsadlari pirlar, murshidlar – komil insonni tasvirlashdan iboratdir. Komil pirlarning muridlar taqdirini hal qilishdagi muhim rolini ko‘rsatib berish bilan birga bunday mukammal insonlar kamyob bo‘lishini ta’kidlab o‘tadilar.

Bahouddin Naqshband Amir Sayid Kulol, Xalil ota kabi buyuk shayxlar suhbatidan bahramand bo‘lganidan so‘ng Amir Sayid Kulol Bahouddinga boshqa pirlardan ham ta’lim olishga ijozat berar ekan, shunday deydi:

مرغ روحانیت شما از بیضنه بشریت بیرون آمد اما مرهمت شما بلند پرواز افتاده

است اکنون اختیار تراست هرجا که بوی بشام میرسد از ترك و تاجك طلبید...

«Sizning ruhoniyat qushingiz bashariyatlik tuxumidan chiqdi. Sizning himmat qushingiz balandparvoz chiqib qoldi. Endi sizga ruxsat va ijozatdir, turk yoki tojiklardan kimning bo‘yi dimog‘ingizga yetsa, ular talabida bo‘ling» [1.3.45b].

O‘rta asrlarda arab va fors tojik adabiyotida ko‘plab agiografik asarlar vujudga kelgan. Fors tilida agiografiya janrining shakllanishida arab tilida yozilgan Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi siralarning ta’siri ham o‘ziga xos rol o‘ynagan bo‘lsa kerak. Mazkur fikrlarni keltirishimizdan maqsad shuki, maqomotnavislar ham mashoyix va avliyo haqida asar yozar ekanlar, albatta payg‘ambarimiz Hotami nabiyyin Muhammad (s.a.v) haqidagi Siyralardan unumli foydalanganliklarini zikr etishdir. Shuning uchun ham maqomotlarda, xususan, Xoja Bahouddin maqomotlarida birinchi bob albatta «Valiy va valiylikning ta’rifi»ga bag‘ishlangan. Bu maqomotlarda avliyoni madh etarkanlar, ularda Allohning inoyati bilan ilohiy va insoniy xislatlar mujassam bo‘lganini, ularning anbiyo, ulamodan so‘ng jamiyatni va insonlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlashga amr qilinganliklari haqida so‘z yuritib, o‘z fikrlarini Qur’oni Karim oyatlari, mashoyixlarning qudsiy so‘zlari bilan asoslaganlar. Maqomotnavislik an’anasining shakllanishida, mazkur bobda eslatib o‘tganimiz, Ibn Hishom va Ibn Ishoq tarafidan yozilgan «Siyrat an-nabi» asari muhim rol o‘ynagan.

Quyida Ibn Hishom va Ibn Ishoqning A. Sottiev tomonidan tadqiq etilgan «Siyrat an-nabi» asarining kompozision qurilishi bilan biz tahlil etgan Shayx Bahouddin Naqshbandning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan maqomotlarning kompozision qurilishini solishtirganimizda har ikki asarning kompozisiyasida bir-biriga monand keladigan mushtarak jihatlar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Ulardagi o‘xshashlikni quyidagi sxemada ko‘rsatishga harakat qildik.

**«Siyrat an-Nabi»**

1. Geneologiya (Muhammad rasulullohning).
2. Bashoratli tush.
3. Muhammadning (s.a.v) tug‘ilishi.
4. Muhammadning (s.a.v) bolalik yillari haqida xabar.
5. Muhammadning (s.a.v) Xadichaga uylanishi.
6. Muhammadning (s.a.v.) payg‘ambarga aylanishi.
7. Muhammadga (s.a.v) vahiy nozil bo‘lishi bayoni.
8. Muhammadning (s.a.v) islomni qabul qilgan tarafdorlari haqida xabarlar. Ular tortgan azoblar. Hijrat.
9. Islom dinining afzalliklari haqida munofiqlar, riyokorlar bilan munozaralar.
10. Qabilalar tarafidan islomning qabul qilinishi.
11. Muhammad (s.a.v) payg‘ambarning vafoti.

**Maqomot**

1. Geneologiya (shajara).
2. Bashoratli tushlar.
3. Bahouddin Naqshbandning tug‘ilishi.
4. Bahouddining uylanishi.
5. Bahoudinning Pirga aylanishi.
6. Bahouddinga Hotifdan nido kelishi.
7. Bahouddinning suhbatini qabul qilib, unga murid bo‘lgan shaxslar haqida hikoyalar.
8. Bahouddinning ulamolar bilan munozaralari va o‘z ta’limotining to‘g‘riligini isbotlashi.
9. Bahouddin ta’limotining qabul qilinishi va uning muridlari sonining ortib borishi.
10. Bahouddin Naqshbandning vafoti.

Yuqoridagi muqoyasaviy sxemadan ko‘rinib turibdiki, sira va maqomotlar taxminan bir xil kompozision qurilishga ega. Bu o‘xshashlik arab siralari va fors tilida yaratilgan maqomotlar orasida uzviy aloqa mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi.

Maqomot mualliflari o‘z asarlarini yaratishdan avval, Muhammad payg‘ambar, uning sahobalari, xalifalari hayoti haqida oldin yaratilgan siralar, buyuk mutasavviflarning hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi maqomot, manoqib, tabaqot, risolalar bilan tanish bo‘lganlar. Maqomotlarda buyuk mutasavviflar Mansur Xalloj, Boyazid Bistomiy, Junayd Bag‘dodiy, Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Boboyi Samosiy, Amir Sayid Kulol hamda boshqa avliyolar hayoti va faoliyati haqidagi lavhalarning zikr etilishi fikrimizga dalil bo‘la oladi, deb o‘ylaymiz.

Shu bilan bir qatorda Bahouddin Naqshband maqomotlari kompozision qurilishining boshqa maqomotlar kompozisiyasi bilan («Holnomai Boyazid Ansoriy», «Maqomoti Ya’qub Charxiy», «Maqomoti Abdurahmon Jomiy», «Maqomoti Xoja Ahror valiy») o‘xshash jihatlari ham mavjud va ular quyidagichadir.

Boshqa maqomotlaridagidek ularda ham qahramonning, ya’ni Bahouddin Naqshband to‘liq geneologiyasi keltirilishi. Bu element ham barcha agiografik asarlarga xosdir. Muhammad payg‘ambar siralarida uning naslu nasabi Odam Atodan boshlanganligi ta’kidlanadi. Boshqa avliyo va shayxlar haqidagi maqomotlarda ularning nasli nasabi Muhammad payg‘ambarga yoki uning sahobalariga nisbat beriladi.

Boshqa agiografik asarlarda bo‘lganidek, maqomotlarda ham «bashoratli tushlar»ga keng o‘rin beriladi. Asar qahramonlari, personajlar ko‘rgan tushlar maqomotlar syujetini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Chunki tushlar va ularning ta’birlari orqali o‘quvchi voqealar rivoji haqida tasavvur hosil qiladi.

Maqomotlarda o‘ndan ortiq tushlar syujet to‘qimasiga singdirib yuborilgan. Ular o‘quvchini oldindan bo‘lajak voqealar haqida ogohlantirib personajlar taqdiridagi o‘zgarishlar haqida xabardor qiladi. Tushlar va ularning ta’birlari o‘quvchining bayonga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Maqomotlarda real-tarixiy personajlardan tashqari Qur’ondan olingan afsonaviy personajlar ham uchraydi. Ular haqidagi hikoyalar Bahouddin Naqshbandning ruhiy ahvolini va amalini mazkur personajlar bilan qiyoslash maqsadida keltiriladi. Masalan, Xizr a.s. shular jumlasidandir.

Maqomotlar kompozisiyasiga xos bo‘lgan yana bir xususiyat undagi voqealarning ichki dinamikaga ega ekanligidir. Asardagi voqealar doimo muayyan makon va zamonda sodir bo‘ladi. Asar qahramoni va boshqa personajlar muntazam ravishda harakatda bo‘lib, bir viloyatdan boshqa viloyatga, bir shahardan boshqa bir shaharga borib keladilar.

Kompozisiyaning yana bir xususiyati unda asosiy bayonga nuqs yetkazmaydigan, bil’aks, uni yanada jozibaliroq qiladigan ichki o‘zgarishlarning mavjudligidir. Bular Bahouddin Naqshband tug‘ilishdan avval kimlardir tarafidan aytilgan bashoratlar, Bahouddinning o‘z muridlari, hamfikrlari bilan suhbatlari va boshqalardan iborat.

Maqomotlar kompozisiyasining o‘ziga xos jihatlaridan biri shuki, ularda bir qator naqllar, munozaralar va suhbatlar jarayonida Naqshbandiya ta’limotining o‘ziga xos qirralari ochib beriladi. Ya’ni, mualliflar muayyan bir hikoya yoki naqlda emas, balki asarning boshidan oxirigacha qadam baqadam Naqshbandiya falsafasini yoritib beradilar.

Shunday qilib, turli manbalardan olingan turli toifadagi unsurlarning mualliflarning kompozisiya yasash ustida olib borgan ijodiy ishlari natijasida namunali va ayni zamonda o‘z hajmi nuqtai nazaridan ulkan bo‘lgan agiografik adabiyot namunasi – Maqomotlar dunyoga kelgan. Ularda o‘rta asr arab, fors-tojik adabiyotida mavjud bo‘lgan turli nasriy janrlarning xususiyatlari o‘z aksini topgan.

Maqomotlarda hayotning yaxlit manzarasini gavdalantirishda ko‘plab shaxslar, voqealar, insoniy munosabatlar, fikr-tuyg‘ularni xuddi turmushdagidek murakkab birikib ketgan holda aks ettirishda turli tuman kompozision vositalarlardan foydalanilgan.

Maqomotnavislar maqomotlarda g‘oyaviy-badiiy maqsadni amalga oshirishda goh asarda ishtirok etuvchi qahramonlar nutqiga, goh muallif nutqiga, goh dialog va monologlarga, goh badiiy tasvirga murojaat qiladilar hamda shu tariqa asarning muayyan qurilishga yoki kompozisiyaga ega bo‘lishiga erishadilar. Maqomotnavislar voqealarni muayyan tarzda tartibga solib, yaxshi ifoda etishga katta ahamiyat berganlar. Bu usul asosiy g‘oyani kitobxonga yetkazishda qulay yo‘l deb hisoblangan.

Shu sababli maqomotlarda ishtirok etayotgan shaxslarning o‘zaro munosabatlari, ular siymosining shakllanishi va turli tuman xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shu maqsadda maqomot mualliflari shayx va pirlar hayotidan hikoya qilar ekanlar, birinchi navbatda, ularning hayotida ro‘y bergan muhim voqealar xususda xabar beruvchi naqllarni keltiradilar. Bu naqllar mualliflari ba’zi hollarda asar qahramonlarining o‘zlari bo‘lsalar, aksariyat hollarda ularning safdoshlari, muridlari, xalifalaridirlar. Bunday deyishimizga sabab, maqomotlardagi aksariyat naqllar kompozisiya tizimiga kiritilganda ularning qaysi shaxs tomonidan naql qilinganligi ko‘rsatib o‘tiladi. Ba’zi hollargina bundan mustasno, ya’ni maqomotlardan o‘rin olgan ba’zi naqllarning mualliflari ko‘rsatilmay umuman: «naql qilishlaricha» degan kirish so‘zlaridan boshlanadi. Bu esa o‘z o‘rnida naql qilingan voqea-hodisaning tarixiy haqiqat ekanligi dargumon bo‘lgan paytlarda qo‘llaniladi.

Maqomotlarining kompozision qurilishi tahlili yakunida quyidagi xulosaga keldik:

a) maqomotlarda valiy yoki shayxning nasli nasabi batafsil hikoya qilinadi;

b) ularning tug‘ilishidan oldin kimlardir tarafidan ko‘rilgan bashoratli tushlar talqin qilinadi;

v) ularning bolalik yillari va ularga xos horiqulodda xislatlar tavsiflanadi;

g) diniy ishlar barobarida halol mehnat bilan shug‘ullanishlari aks ettiriladi;

d) ularning tariqat silsilasi, ya’ni tariqat yo‘lidagi pir-murshidlari haqida ma’lumot beriladi;

ye) o‘zlariga munosib pir axtarishlari, tariqatlarining falsafiy-tasavvufiy asoslari va negizlari haqida to‘xtalib o‘tiladi;

yo) ulardan sodir bo‘lgan horiqulodda holatlar, karomatlar bayon qilinadi;

j) Bahouddin Naqshbandning muqaddas so‘zlaridan namunalar beriladi;

z) Bahouddin Naqshbandning vafotlari haqida hikoya qilinadi.

## 2.2 Maqomotlardagi hikoyat va rivoyatlarning syujeti va kompozisiyasi

Bundan avvalgi qismda zikr etib o‘tilganidek, maqomotlar kompozisiyasi o‘ziga xos bo‘lib, bu turdagi asarlar asosan muqaddima va uch asosiy qismdan tashkil topgan. Ularning barchasi shayxning va-

foti haqidagi naqllar bilan yakunlanadi. Mazmun nuqtai nazaridan olib qaraganda maqomotlar tarkibiga kirgan naql-hikoyatlar uchga bo‘linadi:

1. Bahouddin Naqshbandning tug‘ilishi, bolalik, o‘smirlik, yigitlik-toliblik, ya’ni soliklik davrlari haqida hikoya qiluvchi naqllar.

2. Bahouddin Naqshbandning pir darajasiga yetishishi, suluk yo‘li, ahvoli va ahloqlari haqida hikoya qiluvchi naqllar.

3. Bahouddin Naqshband – Hazrati Xojaning karomatlari haqida hikoya qiluvchi naqllar.

Birinchi guruhga kiruvchi naqllar maqomotlarning birinchi qismida, ikkinchi guruhga kiruvchi naqllar ikkinchi qismida, nihoyat, uchinchi guruhga kirgan naqllar maqomotlarning uchinchi va oxirgi qismida, ya’ni Hazrat Xojadan zuhurga kelgan karomatlar, g‘ayrioddiy holatlar haqida hikoya qiluvchi qismda joylashtirilgan. Takroran bo‘lsa-da, qayd etamizki, bu qism o‘z hajmi nuqtai nazaridan eng katta qism bo‘lib, jami 165 ta naqldan tashkil topgan. Bundan shunday fikrga kelish mumkinki, maqomotnavislar kitobxonlar diqqatini ko‘proq Bahouddin Naqshbandning karomatpesha valiy bo‘lganligiga jalb etmoqchidek tuyuladi. Endi maqomotlardagi hikoyat va rivoyatlarda aks ettirilgan mavzularga nazar tashlasak, ularni quyidagicha tahlil va tasnif qilish mumkin: real tarixiy voqealarni aks ettiruvchi naqllar va afsonaviy syujetlardan tashkil topgan naqllar. Real hayotiy voqealar aks ettirilgan naqllarda mualliflar asar qahramonining tabiiy-insoniy xislatlarini ochib bergan bo‘lsalar, afsonaviy rivoyatlardan iborat naqllarda uning ilohiy, g‘ayritabiiy, horiqulodda xislatlarini tavsiflaganlar. Shu tariqa maqomot mualliflari kitobxonlar ko‘z o‘ngida ham insoniy, ham ilohiy qudratlar va xislatlar sohibi bo‘lgan Xoja Bahouddin Naqshband siymosini tasvirlashga muvaffaq bo‘lganlar. Quyida bayon etilgan fikrlarimizni maqomotlardan olingan misollar vositasida dalillashga harakat qilamiz.

مولانا فرمودند این چنین مرغیکه توئی یار تو عارف دیگ گرانی باید خواجه فرمودند صحبت ایشان باین زودی میسر شود شوق در یافت مولانا عارف برا یشان غالب شده و مولانا عارف در دیگ گران بودند و در آن زمان زمین پنبه میکاشتند با مولانا امیراشرف و با برادران ایشان مولانا امیر حسین و با حال خود

خواجه احمد مسگر که مولانا عارف را پدر بودند مولانا عارف حضرت خواجه را گفتند اگر تراخا طربعارف است او را آواز دهیم و به بامی برآمدند وسه کرت عارف آواز دادند مولانا عارف درآن نیمروز از کار پنبه بیرون آمدند و با مصاحبان گفتند شما بطرف مترل روید که مرا مولانا بها الدین طلبیدند روان شدند و درهمان نیم روز پیش از آن که دیگ از آنش فرود آوردند در آن قشلاق رسیدند و اول ملاقات که حضرت خواجه ما با مولانا عارف بود در آن صحبت بود.

«Naql qilishlaricha, Hazrati xojamiz, qaddasallohu sirrahu-l-aziz, avval hollarida Xoja Muborak qishlog‘iga borib Mavlono Bahouddin xizmatlariga keldilar. Mavlono unga: «Sendek qush parvozi uchun do‘sting Orif Revgaroniy ham hozir bo‘lmog‘i kerak!» dedilar. Xoja: «Ularning suhbatlari tezroq muyassar bo‘larmikin», dedilar va Mavlono Orifning suhbatini topish zavqi alanga oldi. Mavlono Orif Revgaronda edilar. Mavlono Amir Ashraf, birodarlari mavlono Amir Husayn Amir Xurd Vobkandiyning do‘stlaridan bo‘lib, Mavlono Orifning otasi Xoja Ahmad Misgar bilan birga yerga chigit ekayotgan edilar. Mavlono Bahouddin Hazrati Xojaga: «Agar Orifni ko‘rishni xohlayotgan bo‘lsangiz, uni chaqiramiz», deb tomga chiqib, uch marta «Orif» dedilar. Mavlono Orif kunduz o‘rtasida paxta ishidan chiqib, yonidagilarga: «Sizlar uyingizga boraveringlar, meni Mavlono Bahouddin chaqirib qoldilar», dedilar. Yo‘lga tushib, qiyom paytida hali qozon olovdan olinmasdan turib qishloqqa yetib keldilar. Hazrati Xojamizning Mavlono Orif bilan birinchi uchrashuvi shu suhbatda edi [1.3.33b].

Yuqoridagi naqlda Hazrati Xojaning Mavlono Orif Revgaroniy bilan bo‘lgan birinchi uchrashuvi haqida hikoya qilinganda, Muhammad Boqir Mavlono Bahouddinning karomatpesha insonligini oydinlashtirish, g‘ayritabiiy xislat sohibi bo‘lganligini kitobxonga yetkazish maqsadida ushbu naqlga real hayotda yuz berishi amrimahol bo‘lgan bir voqeani kiritadi. Ya’ni, Mavlono Bahoudin Xoja Muborak qishlog‘ida bo‘laturib, tomga chiqib, u yerdan uzoq masofada – Revgaronda bo‘lgan Mavlono Orifni chaqiradi. U bo‘lsa paxta ekayotgan dalasida chaqiriq ovozini eshitadi va «kunduz o‘rtasida» yo‘lga tushib, «qiyom» paytida Xoja Muborak qishlog‘iga yetib keladi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, maqomotnavislar naqllarda afsonaviy voqealarni bayon qilar ekanlar, bu bilan shayxlarning, pirlarning

horiqulodda xislatlar sohibi ekanliklarini dalillash, o‘quvchini shunga ishontirish uchun harakat qilganliklarini ko‘ramiz. Quyidagi naqlda ham xuddi yuqoridagidek avliyolarga xos bo‘lgan xislatni, ya’ni uzoq masofani bir zumda bosib o‘tish qobiliyatini yanada yorqinroq tasvirlash uchun Hazrati Xojaning «tandirdagi baliq hali pishib ulgurmasdan» Buxorodan Deggaronga yetib kelganligi hikoya qilinadi. Tabiiyki, bunday epizodlar bir tarafdan, naqllarning jozibadorligini oshirsa, ikkinchi tarafdan valiulloh zotlarning oddiy insonlardan o‘zlaridagi ilohiy, g‘ayritabiiy xislat va qudratlari bilan ajralib turishlarini tasdiqlashga xizmat qiladi.

منقول است که حدمت مولانا عارف در دیگ گران بودند و صحبتی بود و در آن صحبت از اصحاب ایشان و بعضی از اصحاب خواجه ما بودند و در خاطر اصحاب آمده که چه خوش بودی اگر خواجه ما در این مجلس بودندی تا بلقای ایشان مشرف شد می مولانا عارف سربرآوردند و گفتند بها الدین را طلبیم اصحاب خوشوقت شدند و خواجه در آن وقت در نجارا بودند و در آن فرصت چند ماهی بود پخته شد پیش از آنکه سر تنور را بکشایند حضرت خواجه قدس سره حاضر شدند جامهای بی تکلیف هیز می شاخ سنجر خشك بر کتف درآمدند و سلام گفتند مولانا عارف جواب سلام ایشان گفتند و فرمودند خوش آمدی بها الدین

«Naql qilishlaricha, Mavlono Orif Deggaronda bo‘lgan paytlarida yoronlari bilan suhbat barpo qilindi. Hazrati Xojamizning ham ba’zi do‘stlari suhbatda hozir edilar. Suhbatdagi do‘stlardan ba’zilarining ko‘ngillariga: «Qani endi Hazrati Xojamiz ham shu suhbatda bo‘lsalar, ul zotni ko‘rishga musharraf bo‘lar edik», degan fikr keldi. Shunda Mavlono Orif boshlarini ko‘tarib: «Xoja Bahouddinni chaqiramiz», dedilar. Yoronlar xursand bo‘ldilar. Hazrati Xoja bu vaqtda Buxoroda edilar. Bu yerda esa tandirda bir necha baliq pishirilayotgan edi. Tandir og‘zini ochmaslaridan avval Xojamiz kirib keldilar. Badanlarida havorang ko‘ylak, orqalarida qurib qolgan jiyda shoxlaridan tayyorlangan o‘tin bor edi. Kirib salom berdilar, Mavlono salomga javob berib: «Xush kelibsan, ey Bahouddin!» dedilar [1.2.36b].

Maqomotlardan olingan bunga o‘xshash misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin.

Naql-rivoyatlarning hajmi juda kichik bo‘lganligi va ularda tasvirlangan voqealarning ko‘lami keng bo‘lmaganligini nazarda tutib, aksariyat hollarda ularning syujeti va kompozisiyasi haqida so‘z ketganda bugungi kunda adabiyotshunosligimizda qabul qilingan syujet unsurlari va kompozision vositalar kabi istilohlarni naql-rivoyatlar tahlilida tatbiq etishimiz g‘ayrioddiy hol bo‘lar edi, deb o‘ylaymiz. Shu fikrlarni nazarda tutgan holda naql-rivoyatlarning tuzilishi haqida quyidagi fikrlarni bildirishimiz mumkin bo‘ladi.

Umuman, naql-rivoyatlarning tuzilishiga ahamiyat beradigan bo‘lsak, ularning tuzilishini namunaviy tarzda quyidagicha belgilashimiz mumkin: 1. Kirish so‘zi – xabar. 2. Voqea bayoni – bosh siymo yoki personaj hayotida sodir bo‘lgan voqea. 3. Xulosa – yakun.

Ushbu tartibni maqomotlardan olingan misollar vositasida dalillashga harakat qilamiz.

Maqomotlarning birinchi qismiga kiritilgan naqllar orasida diqqatga sazovor naqllar turkumi – Bahouddin Naqshbandda sodir bo‘lgan ilohiy jazba tasvirlangan naqllardir. Bu naqllar «Ahvolning avvalida...», «Avval holda...», «Avval hollari haqida...», «Talab ayyomlarida...», «Tavba eshigini ochgandan so‘ng», «Jazba va behudlik jarayonida...», «Jazba g‘alaba qilgan kunlarda...», «O‘sha jazba onlarida», kabi kirish so‘zlari bilan boshlanadi. Bundan so‘ng naqllarda Bahouddin Naqshbandning tariqatga qadam qo‘yish jarayoni haqida xabar berishni maqsad qilib olgan muallif unda xuddi shu jarayonni aks ettiruvchi voqealarni hikoya qiladi. Misol tariqasida Abul Muhsin Muhammad Boqir maqomotida Hazrati Xoja tilidan naql qilingan quyidagi naqlga murojaat qilaylik

از حضرت خواجه ما منقول است که میفرمودند که سبب تو به و انایت من و مبتداء آگاهی و انتباه من آن بود که در حلوت با یکی که حاطر با و میلی داشت التفات مینمودم آوازی بگوشم رسید که میگفت وقت نیامده که از همه باز گردی و روی بحضرت ما آری ... از آن آوز حال من دیگر شد بیقرا و شده بیرون آمدم غسل کردم و جامها را شستم در آن حالت شکستگی دو رکت نماز گذاردم سالهاست که در آرزوی آن چنان نمازم که توانم گزارد نمی توانم

«Hazrati Xojamizdan naql qilishlaricha, ular aytgan ekanlar: «Mening tavbayu ijobatim va ogohligu uyg‘onishimning sababi shu ediki, bir kuni xilvatda ko‘nglimga o‘rnab qolgan bir kishiga iltifot qilar edim, nogoh qulog‘imga bir ovoz keldi: Kimdir menga «Har narsadan qaytib bizga yuz o‘girmoq vaqti yetmadimi?!» der edi. Bu ovozdan holatim

o‘zgardi, beqaror bo‘lib, tashqariga chiqdim. Yaqin orada bir anhor bor edi, kuz fasli edi, suvga tushib g‘usl qildim va liboslarimni yuvdim. Shu holda shikastalik bilan ikki rakaat namoz o‘qidim. Mana yillar o‘tibdiki, xuddi shunday namoz o‘qishni istayman, ammo qo‘limdan kelmaydi [1.2.14a].

Yana bir misol: «Naql qilishlaricha, Hazrati Xojamiz aytgan ekanlar: «Ahvolning avvalida jazba g‘alabasi va beqarorlikda Buxoroda tunlari kezib yurardim», jazba yuz berishining avvalida bir tunda Mardoxun Mozorida edim. Men bilan Muhammad Zohid ham birga bo‘lib, menga suyanib olgan edi. Shu asnoda ruhim tanamdan chiqib, aylana-aylana osmon tomonga chiqib ketdi. Shu tariqa birinchi osmonni sayr qildi, undan ikkinchi osmonga, uchinchi, so‘ng to‘rtinchi osmonga o‘tdi, keyin aylana-aylana yana yerga tushdi va tanamga kirdi. Mening bu ahvolimdan Muhammad Zohidning aslo xabari yo‘q edi [1.4.31b].

Yana bir misol:

نقل کردند که حضرت خواجه ما قدس الله روحه فرمودند در آن مبادی احوال متوجه بقبله نشسته بودم ناگاه اثر غیبت و فنا ظاهر شدن گرفت و اندك اندك استیلا آورد و بکلی از خویشتن محوشدم و در آن حالت بفناء کلی رسیدم گفتند آگاه باش آنچه مقصود و مطلوب است. یافتی و بان رسیدی

«Naql qilishlaricha, Hazrati Xojamiz aytgan ekanlar: «Avval holda qiblaga yuz qilib o‘tirar edim, nogoh behudlik va fano zohir bo‘la boshladi. Oz-ozdan meni istilo qilib, oxiri butunlay o‘zimdan mahv qildi. Bu to‘liq mahv va fano ichida menga: «Ogoh bo‘l, maqsad va matlabing nima bo‘lsa, unga yetding va uni topding dedilar» [1.4. 32b].

Yuqoridagi naql-rivoyatlarda Bahouddin Naqshbandda sodir bo‘lgan jazba holati tasvirlanganining guvohi bo‘ldik. Bu turkumdagi naqllarda tolibning betoqat va beorom bo‘lib, o‘zini hech joyga qo‘yolmay, badani qizib, behudlik paydo bo‘lishi, uning ruhiyatida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar tasvirlanganini ko‘rdik. Bundan tashqari mustaqil hayot yo‘liga qadam qo‘ygan Bahouddin Naqshbandning hayoti va faoliyati tasavvuf ta’limotini o‘rganish, ma’naviy kamolot sari harakati jarayonida bayon qilinadi. Maqomotlarning birinchi qismini tashkil qiluvchi qismda Bahouddin Naqshband dilida ilohiy jazbaning

paydo bo‘lishi, haq zotiga muhabbatning paydo bo‘lishi va haq zoti ma’rifatiga ishtiyoqning paydo bo‘lishi haqida hikoya qilinadi.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turganidek, naqllarning tuzilishi juda sodda bo‘lib, u odatda bir-ikki epizoddan tashkil topadi. Dastlab noqil, ya’ni naql qiluvchining nomi keltiriladi, undan so‘ng birorta voqea bayon qilinadi yoki bo‘lib o‘tgan voqea haqida faqatgina xabar beriladi, ya’ni ogohlantiriladi va bayonga yakun yasaladi. Naqllarga xos bo‘lgan bayon uslubida hadisnavislik an’analariga suyanish yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Maqomotlardagi naql-rivoyatlarni ularning hajmi va ularda tasvirlangan voqealarning soni hamda ko‘lami nuqtai nazaridan uch qismga bo‘lish mumkin: 1. Faqat birgina xabardan iborat naqllar. 2. Faqat bitta epizoddan tashkil topgan naqllar. 3. Bir necha epizodni o‘z ichiga olgan naqllar.

Birinchi va ikkinchi guruhga mansub bo‘lgan naqllar maqomotlarning asosiy qismini tashkil etadi. Ularda Bahouddin Naqshband tarafidan aytilgan va noqillar tarafidan yodga olingan bir fikr yoxud birorta voqea bayon qilinadi. Fikrimizga quyidagi misollar dalil bo‘la oladi deb o‘ylaymiz.

«Naql qilishlaricha, Hazrati Xojamiz avval hollarining boshlanishi haqida hikoya qilganlarida aytgan ekanlar: «Biz bu yo‘lning talabiga qadam qo‘yganimizda ikki yuz kishi edik. Mening himmatim ularning hammasidan o‘tish edi. Ilohiy inoyatga noil bo‘lib, bu jamoatning hammasidan o‘tib ketdim va asl maqsadga yetdim».

Bayt:

مردان رهش رسیده اندا زحمت  زان در ره او نشان بی پیدا نیست

Mazmuni: (Haq ma’rifati) yo‘lining mardlari (o‘z maqsadlariga) himmatlari tufayli yetishdilar, Uning (Allohning) yo‘li eshigidan (kirgan odamga) maqsad hosil bo‘lg‘usidir [1.2.21a].

Yana bir misol: «Naql qilinishicha, Hazrati Xojamiz aytgan ekanlar: «Maqsad talabi yo‘lida himmatingiz mening boshimga qadam qo‘yib, mendan ham o‘tib ketish bo‘lmasa, men sizni kechirmayman» [1.2.21a].

Yuqorida zikr etib o‘tilgan naqllar tasnifining bu guruhiga mansub naqllar maqomotlarda tez-tez uchrab turadi. Ularda bayon qilingan fikrlar-xotiralarning ham bosh obrazga xos bo‘lgan ba’zi xislatlarni ochib berishda o‘ziga xos hissasi bor.

Misol tariqasida keltirganimiz birinchi naqlda, boshqa naqllarda ham o‘z ifodasini topgan, Bahouddin Naqshbandga xos bo‘lgan tirishqoqlik, maqsadga intiluvchanlik, ilmga chanqoqlik kabi ijobiy xislatlar yana bir bor uning tilidan aytilgan so‘zlar vositasida tasdiqlanmoqda. Shu tariqa mazkur naql ham boshqa naqllar kabi mualliflarning asosiy maqsadini yoritishga xizmat qilganini ko‘ramiz. Demoqchimizki, maqomotlar tarkibidagi har bir katta-kichik naqlning o‘z o‘rni va vazifasi bor.

Endi naqllar tasnifidagi ikkinchi guruhga kiritilgan naqllarga murojaat qilsak. Ularda yuqorida eslatib o‘tganimizdek, qahramon hayotida ro‘y bergan muayyan voqea aks ettirilganligining guvohi bo‘lamiz. Shu jihatdan olib qaraganda bunday naqllarni mumtoz forstojik va o‘zbek adabiyotida rivoj topgan hikoyatlarga qiyoslashimiz mumkin. Ularda bayon qilingan voqealar real-tarixiy yoki afsonaviy voqealar bo‘lishi mumkin. Bu guruhdagi naqllar sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin.

«Naql qilishlaricha, Nayiston qishlog‘idan bo‘lgan Mavlono Darvesh Nasaf viloyatidagi bir masjidda imom edilar. Xotini Layloxotun bilan urishib qolgan edi. Xotinining undan ko‘ngli og‘rib qolgan edi. Hazrati Xoja Mavlono Darveshga iltifot qilmadilar. Yoronlarni o‘rtaga qo‘ysa ham qabul qilmadilar. Shundan so‘ng Hazrati Xoja Nasafga yuz tutdilar va hech narsaga mashg‘ul bo‘lmay to‘g‘ri o‘sha zaifaning manziliga bordilar. Muborak yuzlarini o‘sha ayolning ostonasiga qo‘yib: «U bu gunohni qilgan emas, bu gunohni men qilganman», deb uzr so‘radilar. Ularning iltifotlaridan ayol va boshqa jamoat ham muhlisga aylandilar. Shundan so‘ng ul darvesh ham avf etildi va maqbul kishilardan bo‘ldi».

Yana bir misol: «Naql qilishlaricha, Hazrati Xojamiz birinchi marta Xijoz safaridan qaytganlarida bir necha muddat Marvda turdilar va ziyorat qilish uchun do‘stlarga ruxsat etdilar. Marvda katta yig‘in barpo bo‘ldi. Xurosonliklar bunday suhbatni ko‘rmagan edilar.

Bir kungi yig‘inda Hazrati Xojamiz dedilar: «Har kim bir ovozdan gurm (qo‘shiq) aytsin». Xoja avval o‘zlari boshladilar va gurm aytdilar. Shunday qilib o‘n besh-yigirma kishi gurm aytdi. Navbat Alouddin Mahmud Xojaga keldi. Mahmud Xojadan ter sharillab oqa boshladi. O‘rnidan turib, «Fotiha» o‘qishga ijozat so‘radi, ijozat bo‘lgach, «Fotihani» o‘qidi. Xoja Alouddin ham qo‘rqib-qaltirab bir bayt o‘qidilar. Navbat oxiri Shayx Rashidga keldi».

Yana bir misol: «Shayx Xusravdan naql qilishlaricha, u dedi: «Bir kuni Hazrati Xojamiz, qaddasallohu sirrah ul-aziz, yo‘lda ketayotgan edilar. Men ularning muborak izlaridan ketib borardim. Boshqa bir odamga yuzlanib, bu faqirga ishora qilib: «Bu osmonga chiqadigan kishidir», dedilar. Bir necha kun ularning sharif suhbatlarida bo‘ldim. Ularning aytgan muborak so‘zlari xotirimda edi. Ular meni Karmina tarafga ravona qildilar. Ularning muborak xotirlari barakotidan yo‘lda menda ulug‘ bir sifat paydo bo‘ldi. Bir kuni namoz o‘qiyotib qa’dada o‘tirsam, menda ajib bir holat paydo bo‘la boshladi. Qarasam, go‘yo osmonga chiqib borayapman. Bir joygacha yetdimki, til uni tushuntirishga ojiz edi, na osmon edi va na zamin, na quyosh edi, na oy va na yulduzlar. Qayoqqa qaramay chegarasi yo‘q bir nur edi» [1.2.91a].

Mazkur misollardan angashilib turganidek, ular ham maqomotlardagi boshqa naqllar kabi «naql qilishlaricha», «naql qilinishicha» kirish so‘zlari bilan boshlanadi va undan so‘ng eca noqilning nomi, voqea sodir bo‘lgan joy ma’lum bo‘lsa, zikr etiladi. Aks holda, ular tushirib qoldiriladi va so‘ngra voqeaning bayoniga o‘tiladi hamda nihoyat xotima yasaladi. Personajlarning suhbatlari goh dialog, goh monolog shaklida beriladi.

Maqomotlar tarkibida yana bir guruh naql-rivoyatlar mavjudki, biz ularni, aytib o‘tganimizdek, uchinchi guruhga, ya’ni bir necha epizodni o‘z ichiga olgan, hajm nuqtai nazaridan ham nisbatan katta bo‘lgan naqllar guruhiga kiritdik. Bu turkumdagi naqllarning boshqa naqllardan ajralib turadigan tomoni shundan iboratki, ularning ba’zilarida kichik hajmli novellalardagidek ekspozisiya, voqealar rivoji va yechim kabi syujet unsurlari ko‘zga tashlanadi. Bunday naqllarda bayon qilingan voqealar boshqa naqllardan farqli o‘laroq tafsilotlarga boy, badiiy jihatdan mukammalroq ishlangandir. Ularda tasvirlangan voqealarni ko‘lami kengligi, hayotiyligi bunday naqllarning jozibadorligini oshiradi. Bunday naqllarda baytlar, misralar, ruboiylar ham o‘ziga xos joyni egallaydi Ammo bu turdagi naql-rivoyatlar maqomotlarda ozchilikni tashkil etadi.

Quyida maqomotlarning uchinchi qismi, Hazrat Bahouddin Naqshbanddan turli davrlarda va joylarda zuhurga kelgan karomatlar hamda g‘ayrioddiy xislatlar haqida hikoya qiluvchi qismdan olingan bir naqlni keltiramiz.

«Naql qilishlaricha, Hazrati Xojamiz, quddisa sirruhu, zuhur qilib chiqqan paytlarida Xoja Alouddin Attorning, uning qabrini Xudo muattar qilsin, Mavlono Hamiduddin Shoshiy borasida ko‘rgan narsalari shu edi, ya’ni Hazrati Eshonning yoqimli tariqa va chiroyli yo‘llari hammaga oshkor va ayon bo‘lgach, donishmandlarning ko‘pchiligi ularning sharif suhbatlariga kela boshladilar. Xususan, Hisomiddin Xoja Yusuf bu holatni mutolaa qilish bilan darsni tark etib, mollari, vaqflarini hisob-kitob qildilar va bu o‘n ikki ming dinor bo‘ldi. Ular bu mablag‘ning hammasini nisor qilishga qaror qildilar.

Donishmandlardan ko‘plari Xoja Yusuf quddisa sirruhuga ergashib, sharif suhbatga mulozamat qildilar. Buxoroning ba’zi ulug‘lari va ulamolari: «Madoris mundaris bo‘lishiga oz qoldi», dedilar. Ba’zilari esa «Xoja Yusuf donishmand odam, ularning mulozamatiga borishlari va tobe’lik ko‘rsatishlari behikmat emas», dedilar.

Bir kuni mavlono Hamiduddin Shoshiyning shogirdlaridan bo‘lgan mavlono Xurd Zahiriy Hazrati Xojamizning huzurlariga kelib: «Mavlono Hamiduddin Shoshiy buyurdilar, siz o‘z sharif qadamingizni ular sari arzon tutar ekansiz, ular siz bilan bomdod paytida darvishona suhbat qurmoqchi ekanlar», dedi. Hazrati Xoja o‘zlariga: «Bu taklifda bir sir bor», dedilar va bomdodda muloqot yuz berdi. Mavlono Hamiduddin tashrif sababidan savol qildilar. Hazrati Xoja taklif qilganligi to‘g‘risida so‘zladilar. Mavlono Hamiduddin: «Bunday so‘z va ishlar mening vazifamga kirmaydi», - dedilar.

Mavlono Hamiduddin Hazrati Xojaning iltimoslari bilan Buxoroning ulamo va fuqarolaridan ko‘p kishini yig‘dilar. Mavlono Xurd Zahiriy bir to‘da talabalar bilan bu anjumanda hozir edi, u jur’at qilgan holda: «Bu qanday darveshlik yo‘likim, madoris mundaris va xavoniq beravnaq bo‘ldi, ilmning qizig‘i va azizligi qolmadi!» - dedi. U chegaradan tashqari gaplarni ko‘p gapirdi.

Hazrati Xoja jim o‘tirar edilar. Mavlono Hamiduddin darg‘azab bo‘ldilar. Turgan jamoat esa mavlono Xurdni to‘xtatishga qattiq urindilar. Shunda Hazrati Xoja boshlarini ko‘tarib dedilar: «Biz Haq toliblarimiz, bizning maqsadimiz shuki, sulukimiz Mustafo sallallohu alayhi vassallam yo‘lida bo‘lib, sunnatga tobe bo‘lsak, deymiz. Haq botildan ayrilsa deymiz. Sizlar asrning peshvosisizlar, ulamolar hozir bu yerda jam bo‘lib turibdilar, biz o‘z yo‘limizni sizlarga arz qilamiz,

agar shariat va sunnatga muvofiq bo‘lsa, biz va sizlar unga amal qilamiz, yo‘qsa undan qaytamiz!». Shundan so‘ng mavlonoga yuzlanib: «Biz shunday jamoatmizki, Haq subhonahu beillat inoyati bilan bizning ko‘nglimizga din dardini solgandir!

Bayt:

شب و روز طالب قبول و ئیم  پیرو امت رسول و ئیم

Tarjimasi: *Tunu kun uning qabuli talabidamiz,*
*Uning Rasuli ummati va payravimiz.*

«Fas’alu ahla-z-zikra in kuntum lo ta’lamun»ga (Mazmuni: Bas, agar bilmaydigan bo‘lsalaringiz, zikr ahlidan so‘ranglar) muvofiq ulamolarga murojaat qilamiz, nimaiki eshitsak, unga amal qilamiz. Agar bizning bu yo‘limiz noto‘g‘ri bo‘lsa, bas, aytinglar!» dedilar. Mavlono: «Biz sizning tariqangiz tahsinga loyiq va sunnatga muvofiq, ahli islom uchun bu yo‘lni tutish vojibdir», dedilar. Hazrati Xoja yana: «Janobi Xoja Yusuf bizning bu muddaomizni taniganlari uchun karam yuzasidan bizning huzurimizga goh-goh tashrif buyuradilar va fuqaroning diniy mushkulotlarini hal qiladilar. Ularning bu ravishlari qanday?». Mavlono Hamiduddin dedilar: «Juda munosibdir».

Turgan jamoat tamoman xomush edi va tortishuvga o‘rin yo‘q, deb hisoblardi.

Ittifoqo Hazrati Xojamiz namad (jun libos) kiygan edilar. Jamoat: «Bunday libos man’ etilgan, chunonchi hadisda aytiladiki:

نحی رسول الله علیه وسلم ان لبس الشهرتین

«Naha Rasulu-l-lohi salla-l-loxu alayhi vassallam an libsi-sh-shuhratayni» (Rasululloh sallallohu alayhi vassallam ikki shuhrat libosini kiyishni taqiqladilar) bu namad shuhratga sababdir», dedi. Xoja Yusuf dedi: «Bu shuhrat libosi emas, chunki shuhrat libosi oliy darajada takalluf qilingan libos bo‘lib, xalq bu libosga mashg‘ul bo‘ladi. Bu namad esa o‘rtacha (libos)dir». Hazrati Xoja dedilar: «Bu namad bahsga sabab bo‘ldi, yaxshisi shuki, uni kiymaganimiz bo‘lsin!». Namad libosni majlisda turgan bir faqirga berib yubordilar.

Shunda o‘shal munkirlar «Darvishlarni darvishlar biladilar. Xoja Avliyoyi Kabir avlodidan Xoja G‘arib laqabli Xoja Nuriddin degan darvish bor, uni chaqiraylik, to u bahs qilsin», dedilar. O‘sha darvishni topib keldilar va tanbih berishga hukm qildilar. Haq subhonahu Shayx

Nuriddinning tiliga: «Haq gapni aytamiz», degan kalimani soldi. U ahli majlis va mavlonoga qarab: «Faqirning otasi Xoja Qutbuddinni taniysizlarmi?» dedi. Hamma bir ovozdan: «Ular tariqat ahlining peshvosi edilar», deyishdi. Shunda u dedi: «Otamning huzurida edim, Xoja Bahouddin sultonlarning yaqinlari kiyadigan libosda keldilar va otdan tushdilar. Bu zaifning otasi bilan ko‘rishdilar. Buzurgvor otam menga ishorat qilib: «Falon joyda bir yumaloq novvot bor, anchadan buyon uni saqlab kelmoqdaman, keltir!» dedilar. Tez borib, uni keltirdim. Otam uni ikkiga bo‘ldilar, bir bo‘lagini ularga va bittasini menga berib buyurdilar: «Sen mening farzandim bo‘lganing kabi u ham mening farzandimdir». Ikkovimizning o‘rtamizda aka-ukalik rishtasini bog‘ladilar va dedilar: «Bir-biringizni quchoqlanglar!» Shundan so‘ng buzurgvorim menga dedilar: «Ey farzand, hushyor bo‘lginki, ulardan ulug‘ hollar va sirlar zuhurga keladi!». Hozirgi paytda o‘sha sirlar zuhurga kelayotgan davrdir».

Shayx Nuriddinning bu so‘zlaridan munkirlarning hammasi xijolatda qoldilar va ularning valoyat saltanati barchaning ustidan g‘alaba qildi.

فوقع الحق و بطل ما كانو يعلمون فغلبو اخنا لك و انقلبوا صغيرين

«Fa-vaqa’a-l-haqqu va batala mo konu ya’lamun fa-g‘ulibu hunolika vanqalabu sog‘iriyn» (Bas, haqiqat qaror topdi, ularning qilgan harakatlari botil bo‘ldi. Bas u yerda mag‘lub bo‘lishib, obro‘siz holda qaytdilar). Haq qaror topdi. Hazrati Xoja Mavlono (Hamiduddin)dan: «Tashvish keltirdik», deb uzr so‘radilar. Bu muomalaning jarimasini Mavlono Hamiduddinning oldiga keltirdilar. Mavlono Hazrati Xojadan iltimos qilib: «Bu taom sizning tashrif qadamingizga pishirilsa», dedilar. Hazrati Xoja qabul qildilar. Darhol darveshlar bilan taom pishirishga kirishdilar.

Mavlono Hamiduddin bir guruh ulamolar bilan o‘tirar edilar. Hazrati Xoja bir lahzaga ularning oldilariga kelib, yana darvishlarning yoniga borar, taom pishirishga mashg‘ul bo‘lardilar.

Hazrati Xoja nogahon mavlono Xurd Zahiriyning yoniga o‘tirdilar. Uning ahvoli o‘zgardi. Xoja esa tez o‘rinlaridan turib, darvishlar tomonga qarab ketdilar. Mavlono Xurd hushdan ketdi va qulab tushdi. Mavlono Hamiduddin do‘stlar bilan birga uning ustidan ovora edilar. So‘ng men faqirni talab qilib dedilar: «Hazrati Xojaga bildirginki, mavlono Xurd halok bo‘lay deb qoldi». Men bu haqda Hazrati Xojaga

aytdim. Ular: «G‘am chekishga arzimaydi, biroq mavlono Hamiduddinning ko‘nglini qoldirmaslik kerak», dedilar.

Hazrati Xoja keldilar va muborak qo‘llarini mavlono Xurdning yelkasiga qo‘ydilar. Behushligi bartaraf bo‘ldi va ko‘p yig‘ladi, qilgan ishlariga bisyor uzrlar so‘radi. So‘ng dedi: «Ko‘zning oqi ko‘z qorachig‘iga ravshanlik bobida qanday ehtiyojli bo‘lsa, men ham sizga shunday muhtojman!»

«Iddat us-solikiyn» kitobining jamlovchisi mavlono Salohiddin Buxoriy o‘zining «Anis ut-tolibin» kitobida shunday yozadi: «Men birinchi martaba Hazrati Xojaga yetishgan paytimda, ular Qasri Orifonda edilar. So‘z orasida dedilar: «Shayx Najmuddin Kubro quddisa sirruhuning zuhur qilib chiqayotgan vaqtlarida Xorazmda mavlono Faxruddin Roziyning qulog‘iga shayxning so‘zlari yetdi. Shayxni chaqirib olib so‘radilar: «Bima araftalloha?» (Allohni nima bilan taniding) Shayx javob berdilar:

عرفت الله تعالى بالواردات الغيبية يعجز أن إدراكها المقول المشككة

«Araftulloha ta’olo bil–voridoti-l-g‘aybiyati ya’jizu an idrokiha-l! uqulu-l-mushakkaka», ya’ni: «Tanidim Allohni g‘aybdan keladigan voridot (g‘ayb sirlari) bilan, qaysiki shakka soladigan aql uni idrok qilishdan ojizdir».

Mavlono Hamiduddin bu so‘zlardan hayratda edilar.

Hazrati Xojamiz qadasallohu sirrahuga e’tiqod qilgan kishilardan mavlono Abu Bakr Afshanajiy haqida naql qilishlaricha, ular bir kuni Afshanada o‘tirar edilar. Bir guruh yigitlar va iste’dod egasi bo‘lgan tolibi ilmlar ul zotdan ko‘p dars olar ekanlar. Bir majlisda Hazrati Xojamiz haqida so‘z ketdi. Talabalardan biri inkor tariqasida: «Ularda riyozat hamda tun bedorligi yo‘q», dedi. Boshqasi esa: «Boshqalarda bo‘lgani kabi ularda simo’ va xilvat ham yo‘q», dedi.

Mavlono Abu Bakr ularning bu so‘zlaridan ta’sirlanib: «Sizlar ul zotning sifatlarini bilmaysizlar, bilmay turib nega bunday gaplarni gapirasizlar?!» dedilar.

Bu paytda Shayx Ibrohim Majzub degan zot bo‘lib, u Buxoro tumanlarida, narigi tarafda yurar, bir necha echkilari bor edi. U qayoqqa jo‘nasa, echkilari ham orqasidan ergashib yurardi. U tasodifan Afshanaga kelib, Tali Regiga chiqdi. Mavlono Abu Bakr talabalarga qarab: «Boringlar, ko‘ringlar-chi, u devonadan nimalar paydo bo‘larkin», dedilar.

Talabalar ularning amrlari bo‘yicha bordilar, Ibrohim Majzub ularga qaradi va tabassum qilgan holda Mavlononing mana bu baytini o‘qidi:

تو نقش نقشبندان را چه دانی  تو شکل پیکر جان را چه رانی

Tarjimasi:

*Sen qaydan bilasan naqshbandlar naqshini,*
*Qaydan ham bilursan jon rishtasining shaklini.*

Shundan so‘ng og‘zidan inkor so‘zlari chiqqan talabaga qarab, mana bu baytni o‘qidilar:

درخت سبز داند قدر باران  تو خشکی قدر باران چه دانی

Tarjimasi:

*Yomg‘ir qadrin bilmagaydur yashnayotgan ul daraxt,*
*Sen-ku quruq daraxtsan, suv qadrini bilmagan.*

Talabalar Ibrohim majzubning bu so‘zlaridan hayronlikda qoldilar, ularning inkori iqrorga aylandi [1.2.82a-87b].

Mazkur naqlga nazar tashlasak, uning ekspozisiya qismida Hazrati Eshonning – Bahouddin Naqshbandning shayx sifatidagi, pir sifatidagi obro‘-e’tibori kundan-kunga oshib borayotganligi, uning hamfikrlarining soni ortib borishi barobarida muxoliflarining ham ko‘payib borayotganligi haqida xabar beriladi. Undan so‘ng Xurd Zahiriy ismli muxolifi tashabbusi bilan tashkil qilingan munozara mufassal tasvir qalamiga olinadi. Munozaraning tashkil etilishi, uning borishi, taraflarning savol-javoblari naqlning asosiy qismini tashkil qiladi. Munozara jarayoni bir necha epizoddan tashkil topganini ko‘rishimiz mumkin. Dastlabki epizodda Hazrati Xoja Mavlono Hamiduddin Shoshiy bilan uchrashadi va suhbatlashadi. Undan so‘ng Xurd Zahiriy bilan suhbat tasvirlanadi. Munkirlar-muxoliflar Bahouddin Naqshbandning liboslari hadisga muvofiq emasligini tanqid qiladilar. Bahouddin Naqshband ularga munosib javob qaytaradi va o‘z libosini bir faqirga hadya qiladi. Bu bilan ham qoniqmagan muxoliflar Xoja Nuriddin nomli darveshni chaqirtirib, uning yordamida Hazrati Xojani mulzam qilmoqchi bo‘ladilar va yana mag‘lubiyatga uchraydilar. Xurd Zahiriydan aziyat chekkan Bahouddin Naqshband unga o‘z ta’sirini o‘tkazib, uni hushidan ketkazadi va yana hushiga keltiradi. Shu tariqa mazkur epizodlarning ifodali, jozibali tasvirlanishi oqibatida hikoyalarga qiyoslagudek naql-rivoyat bitilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Bu naqlda maqomotnavislar munozara ishtirokchilarining savol-javoblarini bayon qilish orqali Hazrati Xoja Bahouddin Naqshbandning o‘z ta’limotining sunnatga muvofiqligini Qur’oni Karim oyatlari va hadislar asosida isbotlab berishini, uning naqadar bilimdon donishmand va olim ekanligini ham jozibali tarzda tasvirlab beradilar. Nihoyat, muxolif taraf Bahouddin Naqshbandning haqligini e’tirof etadi va ularning aksariyati Hazrati Xojaning hamfikrlariga, muridlariga aylanadlar. Shu tariqa naqlga yakun yasaladi.

Xulosa o‘rnida shuni t’akidlashimiz lozimki, yuqoridagi misollarimizdan ko‘rinib turganidek, umuman maqomotnavislikda, shu jumladan, maqomotlar tarkibiga kiruvchi naql-rivoyatlarni yozishda mualliflar tarixnavislik va avvalo hadisnavislik an’analariga suyanganlar. Naql rivoyatlarning tuzilishi ham hadislarga juda o‘xshash. Masalan, naqllar ham xuddi hadislardagidek avval hikoya qiluvchi - noqilning nomini va so‘ngra (ma’lum bo‘lsa) voqea sodir bo‘lgan joy nomini zikr etadilar. Undan so‘ng voqeani bayon qiladilar.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, naqlning syujeti ham yo bir epizoddan yoki bir necha kichik epizodlardan iborat bo‘lishi mumkin. Naqllarda bayon qilingan har bir epizodning o‘ziga xos o‘rni, o‘ziga xos ta’sir kuchi bor. Har bir naqlda maqomot mualliflari asosiy siymo – Bahouddin Naqshband siymosini turli sharoitlarda tasvirlash, uning o‘sha sharoitdagi xatti-harakatlari, fikr-o‘ylarini bayon qilish orqali bu siymoga xos bo‘lgan turli xislatlarni ochib berishga muvaffaq bo‘ladilar.

Nihoyat barcha katta-kichik naqllar jamlanganda kitobxonda asarning bosh siymosi haqida to‘liq tasavvur hosil qilish imkoniyati yaratiladi.

Shu sababli har bir naql maqomot tarkibidan ajratib olinib tahlil va tadqiq qilinishi mumkin emas.

# III BOB
# Maqomotlarda shayxlar siymosining gavdalanishi

## 3.1 Maqomotlarda Bahouddin Naqshband siymosining tasviri

Shubhasiz, Hazrat Bahouddin Naqshband haqidagi maqomotlarning markaziy siymosi (obrazi desak ham bo‘ladi) Xojai Buzurg Muhammad Bahouddin Naqshband al-Buxoriyning o‘zlaridir. Va shuni ham aytish kerakki, bugungi kunda Bahouddin Naqshband haqida bizda hosil bo‘lgan tasavvurlar, ul zotning muborak qiyofasi ushbu maqomotlardagi tasvir va talqinlar tufaylidir.

Bugungi kunda Bahouddin Naqshband nomi zikr etilganda ko‘z o‘ngimizda, tasavvurimizda namoyon bo‘ladigan siymo – donishmand, mo‘ysafid, shayx, din va tasavvuf arbobi, nigohlari o‘tkir va purma’no, chehrasidan nur yog‘ilib turadigan nuroniy inson, o‘z qavmini, o‘zga qavmlarni duoi xayr bilan serob etadigan qudratlar sohibi gavdalanadi. U tiriklarni muayyan muddatga behush qilish va yana hushiga keltirish quvvatiga ega bo‘lgan, voqea-hodisalarni oldindan bashorat qiluvchi piri komil, karomat ko‘rsatuvchi avliyo sifatida ta’rif-tavsif etiladi hamda xuddi shu xislatlar bilan tasvirlanadi. Bahouddin Naqshband hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi maqomotlarda maqomotnavislar tomonidan uni ko‘rgan, bilgan, u bilan hamsuhbat bo‘lgan, u zotga murid va muxlis bo‘lgan shaxslar tilidan yozib olingan naqllarda ana shunday inson siymosi o‘z ifodasini topgan.

Tabiiyki, maqomot kabi asarlar bizgacha yetib kelmaganida, balki biz Bahouddin Naqshband siymosi haqida shunchaki bir axborot xarakteridagi tasavvurga ega bo‘lardik.

Yuqorida bildirilgan fikrdan shunday xulosa kelib chiqadiki, maqomotnavislar o‘z asarlarida valiy inson Bahouddin Naqshband siymosini (obrazini) hiyla puxta, jonli lavhalarda tasvirlay olganlari uchun ham biz bu asarlarni qiziqib mutolaa qilamiz, ular bizga kuchli ta’sir etadi.

Ammo shu narsani ham ta’kidlash lozimki, buyuk shaxs siymosi maqomotlarda tayyor (portret) shaklda tasvirlangan emas, balki maqomotlar tarkibiga kiritilgan yuzlab naqllarda, hikoyalarda Bahouddin Naqshbandning bolalik, o‘smirlik yillari, tariqatga kirishi,

pirlardan ta'lim-tarbiya olishi, pir darajasiga yetgach, murid qabul qilishi, ular bilan suhbatlari jarayonini tadrijiy suratda tasvirlash orqali bunga erishganlar. Ammo qayd etib o'tish lozimki, bu hamma maqomotlarda bir xil darajada emas. Bundan tashqari bir-biridan foydalanish, o'z maqsadiga qarab cho'zish yoki qisqartirib ketish hollari ham mavjud. (Buni oldingi bobda ham qayd etganmiz). Yana bir hodisaga takroran bo'lsa-da, diqqatingizni jalb qilmoqchimiz. Ya'ni, maqomot tarixiy-badiiy biografik asar bo'lgani uchun unda tarixiy ma'lumotlar bilan rivoyat va naqllar, xalq orasida yaratilgan afsonaviy hikoyatlar birlashib ketgan. Shunga ko'ra, markaziy qahramon bo'lmish Hazrat Bahouddin Naqshband siymosini belgilovchi sifatlar, xislatlar xususiyatlar zamirida ham real tarixiy shaxs (donishmand bir ulug' inson) va romantik tasvirlar (g'ayrioddiy, avliyoga xos xislatlar) birga qo'shilib bayon etiladi. Maqomot muallifi buni shunday ustalik bilan tasvirlaydiki, go'yo tarixiy voqealar ham noreal bir tarzda – favqulodda hodisa sifatida ifodalanganday tuyuladi. Masalan, deylik ulug' shaxsning tug'ilishi o'n minglab odamlarning dunyoga kelishi kabi oddiy hodisa. Ammo maqomotda u favqulodda hodisa, ulug' bir ilohiy karomat va Xudoning marhamati sifatida ilohiylashtirilib, g'ayrioddiy qilib berilgan. Bu - shayxlar, valiylar, nabiylar haqidagi asarlar bo'lmish agiografiyaning yetakchi xususiyati hisoblanadi. Bahouddin Naqshband siymosi aynan shu ohangdagi tasvirlar tizmasi vositasida gavdalantirilib borilgan. Va maqomotlar shu jihati bilan boshqa tarixiy-adabiy asarlardan ajralib turadi.

Maqomotlarda tasvirlanishicha, avliyolar, pirlar, mashoyixlar o'ta sirli insonlardirlar. Ular egallagan zohiriy va botiniy ilmlar, dunyoviy va uhraviy bilimlarning chegarasi yo'q. Ular bu dunyo va u dunyo siru asrorlaridan xabardor kishilar. Ular ma'naviy-ruhiy kamolot cho'qqisini zabt etgan, hatto, g'ayb olami bilan so'zlashuvchi, Allohning sevgan bandalari – komil insonlardir. Shu sababli bo'lsa kerakki, bunday zoti shariflarni zikr etganda «qaddasallohu ruhah ul-aziz», (uning aziz ruhlarini Alloh muqaddas qilsin), «qaddasallohu sirrah ul-aziz» (uning aziz sirlarini Alloh muqaddas qilsin) iboralari ismlariga qo'shimcha qilinadi. Payg'ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vassallamning so'zlari «hadis» deyilsa, avliyo, mashoyixlarning so'zlari «qudsiy» – muqaddas so'zlar deb talqin qilinishi ham shundan.

Bu zotlar xalq tarafidan «azizlar», «Xudoning yaqin do‘stlari» deb e’zozlangan va ular vafot etsalar, ruhlariga sig‘inganlar.

Siru asror makoni bo‘lgan avliyoning hayoti va faoliyati, ahvoli va a’moli ham sirli, mo‘’jizali. U oddiy insonlarnikidan tubdan farq qiladi. Shu sababli ularning hayotlarini, kashfu karomatlarini, xavoriq odatlarini qo‘lda qalam bilan tasvirlash, bayon qilish va so‘z bilan ifodalash o‘ziga xos usulni talab etgan. Chunki valiylar ilmi hol sohiblari bo‘lib, o‘z kechinmalarini so‘z bilan ifodalashga ojizdirlar, deyiladi. Ularning holini, egallagan martaba-maqomlarini va har bir maqomdagi ruhiy kechinmalarini, o‘zlashtirgan axloq-odoblarini anglab yetish va qog‘ozga tushirish, bayon qilish, sharhlash uchun har bir maqomotnavis ularning ilmidan, holidan boxabar bo‘lishi, ular bosib o‘tgan yo‘lni, tariqatni qisman bo‘lsa-da, bosib o‘tgan bo‘lishlari shart. Aks holda ular yaratgan tasvir, avliyo siymosi ishonarli chiqmaydi, xom bo‘lib qoladi.

Voqean, maqomot mualliflari shu tariqatning qizg‘in tar-g‘ibotchisi, muhibidirlar. Naqshband g‘oyalarini ular ulug‘ bir muhabbat bilan bayon etadilar, Hazratning xislatlari, faoliyatini ehtiros bilan, ammo me’yorida tasvirlaydilar.

Xoja Bahouddin Naqshband maqomotlarini yozgan mualliflar bu vazifani ado etishga muvaffaq bo‘lganlar, deb o‘ylaymiz va quyida shu xususda fikr yuritishga harakat qilamiz.

Mazkur obraz maqomotlarda ikki xil tarzda tasvirlanadi. Birinchi navbatda biz Bahouddin Naqshband siymosi haqida boshqa personajlar aytgan so‘zlar orqali tasvirlanganligini ko‘ramiz. Bundan tashqari, uning turli holatlarda o‘zini tutishi, muomalasi, o‘y-xayollari, ichki kechinmalarining bayoni jarayonida ham shayx valiy siymosi ko‘z o‘ngimizda gavdalana boradi.

Maqomotlarda Bahouddin Naqshband – shayx, valiy, pir obrazi boshqa shayxlarga bag‘ishlangan maqomot va manoqiblardagidek uning dunyoga kelishidan oldin mo‘’tabar shaxslar – mashoyixlardan biri Xoja Boboyi Samosiy tarafidan aytilgan bashoratni bayon qilishdan boshlanadi. Boboyi Samosiy Qasri Hinduvonda bir chaqaloq tug‘ilishini va bu bola tufayli Qasri Hinduvon Qasri Orifonga, ya’ni Haq taolo ma’rifatiga erishgan oriflar (komil insonlar) qasriga aylanishini bashorat qiladi. Va bu voqea bir haftadan keyin sodir bo‘ladi, ya’ni Muhammad Bahouddin tug‘iladi.

Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, maqomotda bayon qilinadigan voqea-hodisalarning bosh qahramoni Bahouddin Naqshband oddiy bir inson emas, balki Allohning inoyati bilan hidoyat sohibi bo'lishi oldindan belgilab qo'yilgan kishidir.

Bunday syujet Sharq xalqlari adabiyotida, xususan, payg'ambarlar, avliyolar, shayxlar obrazi yaratilgan asarlarda tez-tez uchraydi. Masalan, Jaloliddin Rumiy haqidagi asarlarda uning otasi bilan birgalikda Nishopurda Attor bilan uchrashishi va uning bashorati, Boyazid Ansoriy haqidagi «Holnoma»da uning tug'ilishdan oldin buyuk shaxslar tarafidan kelajakda «dinning chirog'i» bo'lajak inson tug'ilishining bashorati, Sayyid Amir Kulol maqomotida keltirilgan, Hazrati Sayyid Ato tarafidan Sayyid Amir Kulolning otalariga aytilgan: «yaqinda Alloh taolo sizga bir o'g'il ato qilur, zinhor uning ismini Amiri Kamol deb qo'ymangiz. Bu farzand xizmati butun jahonni zabt etur», kabi ko'plab bashoratlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Modomiki, maqomotlarda shayx Bahouddin Naqshbandning siymosini yaratish maqsad qilib olingan ekan, Haq taolo karami bilan hidoyat sohibi bo'ladigan insonga xos bo'lishi kerak bo'lgan xislatlar unda ham namoyon bo'lishi ko'zda tutiladi. Shu sababli uning to'rt yoshidagi g'ayrioddiy xislatini bayon qilish orqali Bahouddindan bolalik chog'idayoq zuhurga kelgan karomat hikoya qilinadi.

«Bahouddinning onalari: «Farzandim Bahouddin to'rt yoshli paytida: «Mana bu sigir peshonasi qashqa bola tug'adi», dedi. Taqdirdan bo'lib uch-to'rt kundan keyin o'sha aytilgan sifatdagi buzoq tug'ildi. Hamma taajjubda qolib: «Hazrati Xoja Muhammad Boboning muborak nafaslari asari zohir bo'ldi»- dedi [1.2.20 a].

Yuqorida keltirilgan lavhada yosh Bahouddindan u to'rt yoshli paytida zohir bo'lgan karomatpeshalik xislati tasvirlangan. Maqomotnavislar, aytib o'tganimizdek, bo'lajak shayxning, valiyning g'ayrioddiy xislatlarini uning bolalik yillarini, hattoki tug'ilishidan oldin aytilgan bashoratlarni hikoya qilish jarayonida shakllantirishga harakat qiladilar.

Bahouddin Naqshbandning bobosi ham unda so'fiylikka ishtiyoq uyg'otadi: «(Bobom) qaerdaki bir darveshni ko'rsalar, meni uning suhbatiga olib borardilar», deb eslaydi u [1.2.20 b].

Bu shuni ko'rsatadiki, Muhammad Bahouddin oilasi so'fiylar, darveshlarga muxlis, iymon-e'tiqodda mustahkam, g'oyat dindor

kishilardan iborat bo‘lgan. Buning yosh bolaga ta’sir etishi muqarrar edi. Ayniqsa, Bahouddinning onasi uning diniy ta’limoti va tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi. Shu bois u onasini e’zozlab, «avval onam qabrini ziyorat qilsinlar», deb vasiyat qilgan.

Shundan bo‘lsa kerak, Bahouddinda mavjud bo‘lgan iste’dodni sezgan bobosi va onasi buni rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shganlar.

U dastlabki ta’limni Boboyi Samosiy rahnamoligida Sayyid Amir Kuloldan oladi. So‘ngra o‘zining diniy-irfoniy bilimlarini mustaqil ravishda oshirish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Uning iste’dodi va bilimiga boshqalar u yoqda tursin, hatto piri Amir Kulol ham qoyil qoladi va nihoyat o‘zidagi bor bilimini unga berib tugatganini aytaib, boshqa pirlardan ham ta’lim va tarbiya olish uchun unga ijozat beradi.

Barcha maqomot mualliflari Bahouddinning so‘fiylik iste’dodi juda baland bo‘lganini va uning yanada yuqoriroq darajada bilim olish imkoniyatiga ega ekanligini mana bu naqlda bayon qiladilar. Maqomotlarda mavjud bu naql Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarida ham zikr etilgan. Biz Navoiy tilidan bayon qilingan parchani keltiramiz.

Bir kuni Amir Sayyid Kulol muridlari Bahouddinni yonlariga chaqirib dedilar: «Ey, farzand Bahouddin! Xoja Muhammad Bobo nafasi vasiyati sizning borangizda ba joy kelturdum..». Dedilarki: «Har ne tarbiyat bobida borkim, sening haqingda ko‘rguzubmen Sen farzand Bahouddin bobida ko‘rgizgil». «Andoq qildim». Keyin o‘z ko‘ksilariga ishorat qilib: «...Bu emchakni sizning uchun quruttum va sizning ruhoniyatingiz qushi bashariyat bayzasidin (tuxumidan) chiqdi. Ammo sizning himmatingiz shahbozi (qarchig‘ayi) balandparvoz tushubtur. Emdi ijozattur, har yerda matlubdin ise dimog‘ing‘izga yetsa, tilang va talabda o‘z himmatingiz mujibi (sababi) bila taqsir qilmang» [41:128].

Uning irfoniy bilimining kuchliligiga hatto ulamolar ham tan beradilar va ularning orasidan ko‘pchiligi Bahouddin Naqshband suhbatiga musharraf bo‘lib, uning ta’limoti hamda sulukini qabul qiladilar.

Bahouddin Naqshbandning ma’naviy kamolot yo‘liga kirib borishiga e’tibor uning yoshlik davridan boshlanganligiga qaratiladi. U yoshlik chog‘laridayoq darveshlar suhbatiga intiladi. Tushida o‘z zamonasining yetuk pirlarini ko‘radi. Ular Bahouddinga tariqatga kirish yo‘llarini o‘rgatadilar.

Bahouddin Naqshbandning komil inson – shayx darajasiga yetishishida uning piri Hazrati Sayyid Amir Kulolning ham roli juda muhim bo‘lgan. Tariqat odobi, ya’ni ruhiy-axloqiy tarbiyani shu odam qo‘li ostida oladi. Bahouddin eslaydi: «U menga Xoja Muhammad Bobo vasiyat qilib, farzandim Bahouddindan shafqatingni ayama, agar bu ishda nuqsonga yo‘l qo‘ysang, seni kechirmayman, dedilar».

Bahouddinning o‘zi ham tanlagan yo‘lidan qaytmaydigan, qarori qat’iy inson sifatida maqsadiga erishish uchun hamisha olg‘a intiladigan, talabchan, har bir imkoniyatdan samara izlaydigan inson sifatida ko‘rsatiladi. Uning bu xislati maqomotlarda ko‘p marotaba ta’kidlanadi. Masalan, u tushida bir darveshni ko‘rib qoladi, uyg‘onib, tushini onasiga aytganda, onasi: «bu bir turk mashoyixi, senga undan nasiba bor», deydi. Bu bashoratni eshitgan Bahouddin haligi tushida ko‘rgan odamni izlab Buxoroga boradi va bozorda uni uchratadi. Lekin Darvesh unga e’tibor qilmaydi. Shunga qaramay, Bahouddin uning yashash manziligacha orqasidan boradi. «U menga qayrilib boqmasdi, - deydi Bahouddin, – Men esa orqasidan qolmasdan ketaverdim».

Shundan so‘ng uning bu tirishqoqligini ko‘rgan darvesh (Xalil ota) tunda Bahouddinni huzuriga chaqirtiradi va u bilan suhbat quradi.

Bu hodisa tasavvufdagi iroda va shunga yarasha pirga sadoqat bilan xizmat qilish, jahdu jihod ko‘rgizish tushunchalari bilan bog‘liq. Hazrati Naqshband tariqat yo‘lida jami mashg‘ulot va nafsu-hirsdan xalos bo‘lish uchun intilgan sodiq bir inson bo‘lgani uchun bu martabaga erishdi. «Lison ut-tayr» asarida Navoiy bir hikoya keltiradi: «Bahouddin Naqshband it izlarini o‘pib, koshki men ham Xudoga va pirlarga shunday sadoqatli bo‘lsam», deb yig‘laydi. Ana shunday butkul berilish, sodiqlik so‘fiyni yuksaltiradi.

Bahouddin Naqshbandga xos bo‘lgan tirishqoqlik, ahdiga vafodorlik, sabr-toqatlilik, ziyraklik va hushyorlik kabi oliy insoniy xislatlar uning «tavbaga muvaffaq» bo‘lishi, «ahvolning avvalida», ya’ni tariqatga qadam qo‘ygan damlaridagi ruhiy holatlarini bayon qilish jarayonida ochib beriladi. Uning 6 yil davomida Xalil ota xizmatida bo‘lishi, ta’lim olishi sabr-toqatli ekanligiga ishoratdir.

Bulardan tashqari u «jazba» (ilohiy ishq, tortilish) onlarida qattiq riyozat chekib, 8 yil davomida tavajjuhini Uvays Qaraniyga qaratadi va 22 yil Hakim Ali at-Termiziy tariqatiga ergashdi», deb yozadi Muhammad Boqir. Bahouddin nafaqat o‘z pirlaridan olgan bilimlariga

qoniqqan, balki mazkur zotlarning ruhlaridan ham ta'lim-tarbiya olgan. Maqomotlarning turli qismlarida uning qancha muddat qancha pirdan ta'lim olganligi zikr etiladi. Bahouddin Naqshband 7 yil davomida Mavlono Orif Deggaroniyning xizmati va mulozamatida bo'lganligi ham ta'kidlanadi.

Mana shunday tirishqoqlik, ko'zlangan maqsad sari og'ishmay intilish natijasida u nihoyat, ma'naviy-ruhiy kamolot yo'lini to'la-to'kis bosib o'tadi va qarigan chog'larida muridlariga ta'lim berar ekan, o'tmishni eslab:

... ما دویست تن بودیم که روی دراین راه طلب نهادیم همت من از همه گذرم

عنایت الهی در رسید و مرا از آن مجموع گذرانید و به مقصود رسانید

«Biz bu yo'lning talabiga kirganimizda 200 kishi edik. Mening himmatim ularning himmatidan o'tish edi... hammasidan o'tib ketdim va asl maqsadga yetdim» deydi [1.2.14 a]. U o'z muridlariga «maqsad talabi yo'lida himmatingiz mening boshimga qadam qo'yib, mendan o'tib ketish bo'lmasa, men sizni kechirmayman» der ekan, muridlarini ustozidan ham o'zib ketishga da'vat qiladi. Yoshligida o'z pirlari va murshidlarining har bir buyurgan ishini sadoqat va ixlos bilan bajargan Bahouddin muridlariga «Xudodan bu yo'lning har qanday og'ir yuklarini ko'tarishni» so'rashga chorlaydi va ularga qarata biz «bu yo'lning og'ir yuklarini yoshlikda ko'tardik, qarilikda ozod bo'ldik» deydi.

Bu so'zlar tariqat yo'li riyozat va mashaqqat ekanligiga ishoradir.

Bahouddin Naqshband Alloh yo'lida sulukka mashg'ul bo'lganligini elga ko'z-ko'z qilishni (oshkora qilishni) yoqtirmagan. Hatto oshkora xilvatni ham shuning uchun rad etadi.

Uning fikricha, «xilvatda shuhrat bor, shuhratda esa ofat bo'lishi aniq». Bu degani o'zini ko'z-ko'z qilib xilvatga chekinish ham riyokorlikdir, chunki shuhrat qozonishga intilish dunyotalab kishining ishi, shuning uchun bu tariqat ahliga ofat keltiradi. Shuning uchun tolib oshkora xilvat qilib, shuhrat qozonmasligi kerak. Buning uchun tolib sirtdan odamlar bilan birga bo'lishi va anjumanda, ya'ni ko'pchilik ichida ham qalban-botinan xilvat qilaverishi mumkin, ya'ni Allohning zikrini yoddan chiqarmasdan jamiyatda foydali ishlar bilan shug'ullanishi lozim.

Maqomotlarda shayx Bahouddin Naqshband obrazi tayyor holda berilmaydi. Ularda bu obraz voqealar rivoji bilan birga asta-sekin, pog‘onama-pog‘ona o‘stirib, takomillashtirib tasvirlanadi.

Maqomotlarni o‘qisak, karomatpesha valiy, tariqat piri, muridlariga nisbatan qattiqqo‘l va talabchan murshid, ustozlari – pirlariga mehribon murid obrazi yaratilar ekan, muallif uning bolalik, o‘smirlik yillariga, balog‘atga yetishiga, ichki kechinmalariga, uning xulq-atvori va odatiga o‘quvchi diqqatini jalb etganini ko‘ramiz. Bu xususiyatlar barcha maqomotlarda saqlangan.

Bahouddin Naqshband obrazi tipiklashtirilgan komil inson obrazidir. Shunga binoan, tanlangan lavha va rivoyatlar, tavsiflar ham shunga muvofiqdir.

Tabiiyki, bunday ulkan, bunday murakkab obrazni yaratish maqomot mualliflaridan yetarli darajada iste’dod, bilim va zahmat talab qilgan. Ammo maqomot mualliflari Xoja Muhammad Porso, Saloh bin Muborak al-Buxoriy va Muhammad Boqir bu vazifaning uddasidan chiqadilar.

Ularning maqomotlarini o‘qigan har bir o‘quvchi ko‘z o‘ngida Bahouddin Naqshband timsolida komil insonning to‘laqonli obrazi gavdalanadi.

Maqomotnavislar Bahouddin Naqshband obrazini, unga xos bo‘lgan xislat va xususiyatlarni voqealar jarayonidagi xatti-harakati, hayotiy voqealarga qarashi, o‘z atrofidagi kishilarga munosabati, turli paytdagi kayfiyat va holatlari, oshkora nutqlari, fikr-o‘ylari, psixologik kechinmalari, munozaralar, dialoglar orqali tasvirlaydilar.

Muhammad Porso, Muhammad Boqir, Saloh bin Muborak maqomotlarini o‘qiganimizda ko‘z o‘ngimizda o‘z davrining yetuk donishmandi, inson ruhiyatining mukammal bilimdoni g‘ayri tabiiy kuchlar va qudratlar sohibi bo‘lgan karomatpesha, o‘liklarni tiriltira oluvchi, balo-qazolarni daf qila oluvchi avliyo siymosi namoyon bo‘ladi. Chunonchi bir misol. Hikoya qilinishicha, Buxoroga Dashti qipchoq tarafidan bostirib kelgan lashkar aholiga ko‘p aziyatlar yetkazar edi. «...Ahli Buxoro lashkarining ilg‘or qismi dushman fitnasini qaytarishdan ojiz bo‘lgan paytda, shahar hokimi Hazrati quddisa sirruhuning oldilariga bir guruh kishini yuborib: «Biz jang qilishdan ojiz qoldik, duo qilsangiz, toki, bizning bu mushkulimiz hal bo‘lsa, ayni madad vaqtidir» deb murojaat qiladi. Bahouddin Naqshband qo‘l ochib

duo qiladilar va bu duo ijobat bo‘lib, «olti kundan so‘ng bu balo daf» bo‘ladi [1.3.115a]. Shu tariqa ahli Buxoro dushmandan najot topadi.

Bahouddin Naqshbandning «balogardon»lik xislati yana bir qator naqllarda ochib beriladi. «Buxoro xalqi nochorlikda qolgan paytida, bir kuni Hazrati Xoja qaddasallohu sirrahu-l-aziz, buyurdilar... Sizlar uchun duo qilaman. Haq subhonahu va taolo sizlarni bu halokatdan xalos etadi.. Tong otgach, o‘sha zolimlardan Buxoro xalqi xaloslik topdi» [1.3.115a].

Bahouddin Naqshband xarakterining shakllanishini va evolyusiyasini maqomotlarda bayon qilingan turli holatlarda o‘zini tutishi, pirlari va muridlari bilan munosabatlari va suhbatlari, uning amallari va so‘zlari orqali mushohada qilamiz. Uning siymosidagi turli xususiyatlar o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy hodisalari va ijtimoiy guruh vakillari bilan bog‘liq holda yoritiladi. Chunki har bir badiiy asarning qahramoni o‘z davri, zamonasining vakilidir.

Quyidagi lavhada Bahouddin Naqshbandga xos bo‘lgan yana bir xislat - insonparvarlik xislati aks ettirilgan.

Bir kambag‘al kishi yo‘l chetiga poliz qilgan edi. Hazrati Xojamizning yo‘llari o‘sha yerga tushib qoldi. Dehqon polizdan bir sapchani Bahouddin Naqshbandga peshkash qiladi. Shu voqeani eslab Bahouddin Naqshband shunday deydi:

آن روز خلق با ما هنوز آشنا نشده بودند که آن درویش نسبت ما حق اثبات کرد که سغچه در فالز بود نزدیك ما آورد...

«Hali xalq bizni tanimagan paytda o‘sha darvesh bizga nisbatan haqini o‘tkazdi, polizdan sapcha olib huzurimizga keltirdi. Albatta biz ham zohir va botin tomondan uning holatini himoya qilishimiz lozim. Yaxshilikka yaxshilik qilish ulug‘ ishlardan hisoblanadi» deydi [1.2.44a] va bu dehqonning ahvolidan xabar olib, ko‘p muruvvatlar ko‘rsatadi.

Bundan oldingi bobda maqomotlar va Muhammad s.a.v. haqidagi siralar, ya’ni «Siyrat an-nabi» o‘rtasidagi o‘xshashliklar haqida fikr bildirgan edik. Bu o‘xshashliklar ularning kompozision tuzilishida va yozilish uslubida yaqqolroq namoyon bo‘lganini tahlil jarayonida ko‘rsatib o‘tdik. Xuddi shunday yana bir mushtarak jihatlar va xususiyatlar siralar hamda maqomotlarda tasvirlangan obrazlar, xususan, bosh qahramon obrazini shakllantirishda ham aniq ko‘zga tashlanadi.

Fikrimizcha, bu mushtaraklik va umumiylik ularda yaratilgan obrazlarning bir-biriga o‘xshash bo‘lganligidadir. Siralarda payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. obrazi turli bo‘yoqlar bilan bezatilib, unga xos bo‘lgan xususiyat va xislatlar bo‘rttirilgan holda jonli tarzda tasvir qalamiga olingan.

Aytib o‘tganimizdek, agar maqomotlarda «avliyolar, payg‘ambarlarning vorisi», degan hukmdan kelib chiqadigan bo‘lsak va maqomotnavislar siranavislar izidan borganliklarini, ularga taqlid qilganliklarini yodga oladigan bo‘lsak, maqomotlarda shayx Bahouddin Naqshband obrazini yaratishda ham payg‘ambarimiz obrazi yaratilgan siralardan unumli foydalanganliklarining guvohi bo‘lamiz.

Tasavvuf adabiyotida ham komil insonlarning eng komili, mukammali Muhammad s.a.v. deb e’tirof etiladi [232:123].

Bahouddin Naqshbandning hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi maqomotlar yozilgunga qadar irfoniy adabiyotda Ibn al-Arabiy, Sanoiy, Attor va Mavlaviy kabi buyuk mutasavviflar asarlarida so‘fiyona ideal-armoniy insonlar, ya’ni valiylar, shayxlar, pirlar, qutblar, g‘avslar, mardi xudolar va boshqalarning konseptual siymolari tavsiflanganligi va sharhlanganligi ma’lumdir. Shayx Azizuddin Nasafiy aqidasiga ko‘ra «Jumlai mavjudot odamzotga shuning uchun sajda qiladiki, odamlar orasida komil inson bor. Bas jumlai odamzot komil inson tufayli sharaflidir. Mavjudot ichra komil insondan ko‘ra ulug‘roq va donoroq kimsa yo‘q, chunki komil inson eng pastdan eng yuqorigacha martabalardagi mavjudotlarning xulosasi va qaymog‘idir va farishtalar, ruhoniy mavjudotlar va arshu kursi, samovotu kavokib - hammasi komil inson tegrasini tavof qilurlar... Komil inson ilm mazharidir, komil inson ilohiy zot sifatlarining ham mazharidir [33:13].

Mazkur mutafakkir va mutasavviflar o‘z asarlarida komil inson xarakteri va xislatlari konsepsiyasini umumiy tarzda yaratgan bo‘lsalar, maqomotnavislar ulardan farqli o‘laroq konkret tarixiy shaxs, xojagonlar ta’limotining davomchisi va naqshbandiya tariqatining asoschisi, buyuk mutasavvif, shayx va valiy Bahouddin Naqshband misolida so‘fiyona ma’naviy kamolot yo‘lini bosib o‘tgan, payg‘ambarona xislatlar, xoriqul odatlar sohibi bo‘lgan komil insonning shakllanishi jarayonini, unga xos bo‘lgan armoniy xislat hamda xususiyatlarni bayon qiladilar. Ular uchun

Bahouddin Naqshbandning tarixiy shaxs ekanligidan ko‘ra, uning ruhoniyatidagi tavajjuh, so‘fiyona fikr-o‘ylari va dunyoqarashi muhimroq bo‘lib, fikrlari, amali va qiyofasi birinchi o‘ringa chiqariladi. Bu hol maqomotlarning boshidan oxiriga qadar, ya’ni Bahouddin Naqshbandning tug‘ilishidan vafotiga qadar bo‘lgan davrni qamrab olgan qismlarda kuzatib boriladi. Biz nabiylar haqidagi qissalarni o‘qiganimizda ham shu usulning guvohi bo‘lamiz.

Demoqchimizki, Bahouddin Naqshband haqidagi maqomotlarda konkretlilikdan ko‘ra umumlashtirish, umuman so‘fiy shayxining tipini yaratishga intilish ustun. Bu ijobiy xislatlarni aks ettiruvchi g‘ayrioddiy naql va rivoyatlarni ketma-ket keltirish orqali amalga oshirilgan. Ammo maqomot mualliflari shayx karomatini afsona, noreal hodisa emas, balki haqiqat deb, real voqea deb talqin etadilar, o‘quvchi ham shunday qabul qiladi. Bahouddin Naqshbandning har bir qismda, qolaversa, har bir naqlda bayon qilingan, barchaga ibrat bo‘lguvchi u yoki bu xislati, o‘zini tutishi, amali qadam-baqadam jamlanib, nihoyat, mukammal bir obraz o‘quvchi ko‘z o‘ngida shakllanishining guvohi bo‘lamiz. Maqomotnavislar asar qahramonining har bir harakatini, uning so‘zlarini, tashqi ko‘rinishini mahorat bilan tasvirlashlari natijasida asarni o‘qish jarayonida kitobxon ko‘z o‘ngida uning ilohiy siymosi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tariqat tasavvufning amaliy qismi bo‘lganligi sababli Bahouddin Shayx Amir Kulol rahbarligida uning maqomotlarini birin-ketin egallay boshlaydi, ya’ni har bir maqomning solik bajarishi lozim bo‘lgan barcha o‘ziga xos yo‘riqlarni bajaradi va har bir maqomga xos bo‘lgan axloq-odob qoidalarini o‘zlashtiradi.[1]

Tariqatda pir-muridlik qoidalariga katta ahamiyat beriladi. Shuning uchun o‘z maqsadiga yetishish uchun Bahouddin Naqshband ham o‘z pirlaridan tarbiya oladi. Bu pirlarning birinchisi Boboyi Samosiy tarafidan tayinlangan Amir Sayyid Kulol edi.

Mualliflar Bahouddinning ma’naviy-ruhiy kamolot yo‘lining birinchi bosqichi – tariqatga kirishidan oldingi holatini tasvirlaganda unda jazba g‘alaba qilgan davrlardagi ruhiy va jismoniy ahvolini tasvirlashga katta e’tibor beradilar.

---

[1] Баҳоуддин Наќшбанднинг ҳаёти, фаолияти ва ѓайриоддий хислатлари ҳаќида ҳикоя ќилувчи асарларнинг «маќомот» дейилиши ҳам мана шундан.

Tasavvufda jazba – bu insondagi alohida ilohsevarlik mayli, ruhiy va tafakkuriy, shuuriy bir tavajjuhdir. Jazba – tortish demakdir. Haqning bandalariga va bandalarning Haqqa intilishi insonni ilohga bog‘laydigan dard. U ko‘ngilni betoqat etib, faqru fano yo‘liga yetaklaydi. Jazba qancha kuchli bo‘lsa, solik shuncha tez tariqat odatini o‘zlashtiradi va qalb ko‘zi ochiladi [33. 31-32].

«Hazrati Xojai Buzurg senga so‘z aytadilarki, Haq yo‘lida yurishda unga amal qilmay ilojing yo‘q. Shunda jamoatdan Xojai Jahonga (Abduxoliq G‘ijduvoniy) salom berish va ularning muborak jamollariga nazar solishga ruxsat so‘radim. Pardani ko‘tardilar, nuroniy bir pirni ko‘rdim va salom berdim. Salomga javob berdilar. So‘ng sulukning boshlanishi, o‘rtasi va oxiri haqida bayon qildilar hamda dedilar: «Senga chiroqlarning yuqoridagi kayfiyatda ko‘rsatilishi sening bu yo‘ldagi iste’dod, qobiliyatingga ishorat va bashoratdir, ammo iste’dod piligini harakatga keltirmoq lozim, toki ravshan bo‘lsin va sirlar zuhurga kelsin». So‘ng buyurdilar: «Barcha holatda ham qadaming amru nahiy ko‘chasida bo‘lsin, sunnatni hamisha joyiga qo‘yishga intil, bid’atlardan uzoq bo‘l, Mustafo (s.a.v.)ning hadislarini o‘zingga peshvo qilib ol... va uning ulug‘ sahobalari asarlari va xabarlarini izlovchi va o‘rganuvchi bo‘l» [1.4.23b].

Mazkur naql-tushni bunchalik mufassal berishimizdan maqsad shuki, unda Abduxoliq G‘ijduvoniy Bahouddinga qanday qilib ruhoniy pir bo‘lib qolgani va Bahouddinning qanday qilib uvaysiy bo‘lgani sababini ko‘rsatib berishdir.

Mazkur tush va unda Abduxoliq G‘ijduvoniy aytgan so‘zlarni Bahouddin hamisha yodida tutadi hamda ularga amal qiladi. Shundan so‘ng unga tavba eshigi ochiladi va tariqatning birinchi maqomiga qadam qo‘yadi.

Tavba tasavvufda - qaytish ma’nosini beradi, ya’ni kamolotga oliy axloqiy sifatlarga qaytish tavbani «bob ul-abvob» – eshiklarning eshigi ham deydilar. Bahouddin jazba g‘alabasi va beqarorlikda tunlari Buxoroda kezib yurar edi, tabarruk mozorlarni ziyorat qilardi. Bu ayyomda u Buxoroning bir necha mozorlarini ziyorat qiladi, o‘zini qo‘yishga joy topolmaydi, betoqat bo‘ladi, qish fasli bo‘lishiga qaramay muzdek suvda g‘usl va tahorat qiladi.

Bahouddin majzub solik bo‘lishiga qaramasdan unga tariqat maqomlarini adashmay bosib o‘tish uchun pir-murshid ko‘magi lozim edi.

Bahouddinning pirlar tarbiyasini olganligini tasdiqlash uchun maqomotlarda bir naql beriladiki (Bahouddinga ro‘yoda Boboyi Samosiy, Abduxoliq G‘ijduvoniy va boshqa pirlarning ko‘ringani haqidagi hikoya beriladi. Biz uni yuqorida keltirdik), bu naqlda uning pirlari kimligi va ularning har biri Bahouddinga qay tariqa ta’lim-tarbiya berganliklari hikoya qilinadi.

Tolib (solik) Bahouddin Haq taolo visoliga yetishish yo‘lida g‘ov bo‘ladigan barcha narsalardan voz kechadi, butun intilishi, diqqat-e’tiborini Allohga qaratadi, avvalgi hayot tarzidan butunlay voz kechadi.

U shundan so‘ng zikr bilan mashg‘ul bo‘ladi... «Hazrati Amir menga saboq berdilar va ovoz chiqarmay xufya aytiladigan nafiy va isbotga mashg‘ul qildilar. Bir necha muddat bu usulga amal qildim. O‘sha zikr qilingan bexudlikda xojagonlar tomonidan buyurilganiga muvofiq zikri aloniyaga amal qilmadim va aloniyani butunlay tark qildim», deydi [3:31].

Ushbu lavhadan shu narsa oydinlashadiki, Bahouddin Naqshbandga qadar xojagonlar tariqatida zikri aloniya – ovoz chiqarib aytiladigan zikrga amal qilingan va Bahouddin Naqshband birinchi marotaba zikri xufya – ovoz chiqarmay, dilda aytiladigan zikrni joriy qilgan. «Dast ba kor dil ba yor» shiori mana shu zikri xufyaga ishoratdir [33, 25-26].

Maqomot mualliflari Bahouddin Naqshband siymosini yanada ulug‘roq, buyukroq tarzda tasvirlash uchun uni undan oldin yashab o‘tgan shayxlar, xususan, Boyazid Bistomiyga va hattoki, ochiqdan-ochiq bo‘lmasa-da, Muhammad s.a.v.ga qiyoslashga va uning boshqa shayxlardan afzalroq, buyukroq ekanligiga ishora qiladilar.

Aksariyat hollarda Bahouddin Naqshband obrazi Boyazid Bistomiyga qarshi qo‘yish orqali tasvirlanganligini ko‘ramiz.

Masalan: Boyazid Bistomiy haqida hikoya qiluvchi bir naqlda Boyazidning sayr maqomiga yetganidagi ahvoli tasvirlanadi: «Sayr maqomiga yetganimda payg‘ambarlar, ularning barchasiga hamda o‘z payg‘ambarimizga salovotu salomlar bo‘lsin, sifati bilan sayr qilardim. Shunda Mustafo, unga salovotu salomlar bo‘lsin, dargohlariga yetdim va ularning sifatiga kirib, sayr qilmoqchi bo‘ldim. Ul zot qo‘llarini mening peshonamga qo‘ydilar» [1.2.41a]. Bahouddin Naqshband esa «... o‘sha maqomga yetganimda Alloh inoyati bilan gustohlik qilmadim.

Hojatmandlik va iltijoning boshini onhazratning izzat-ehtirom ostonalariga qo‘ydim», deydi [1.2.41a].

Demakki, Boyazid Bistomiy gustohlik qilib sayr jarayonida Mustafo alayhissalom sifatiga kirib sayr qilishga jur’at etgan bo‘lsa, Bahouddin bunday qilishga jazm qilmaydi. Chunki bu ish, bu sayr payg‘ambarimizga nisbatan hurmatsizlik bo‘lishini his qiladi.

Shu lavhaning o‘zida maqomotnavislar bir tarafdan Boyazid Bistomiy siymosining tasvirini chizib, ikkinchi tarafdan uning o‘zini payg‘ambar darajasida his qiluvchi xudbin inson sifatida tasvirlanganini sezamiz.

Ikkinchi tarafdan esa shu yerning o‘zida Bahouddin Naqshbandning so‘zlarini berish orqali uni Boyazid Bistomiyga qiyoslaganini va undan aqlliroq, donoroq, boadabroq ekanligini, undan shu jihatlari bilan ustunroq ekaniligi aks ettirilganiga guvoh bo‘lamiz.

Maqomotnavislar tomonidan Bahouddin Naqshband siymosining Boyazid Bistomiydan yuqori qo‘yilishiga mana bu lavha ham misol bo‘ladi: Boyazid Bistomiyning «Bu yo‘lda yuruvchi qanchalik yurmasin, uning so‘nggi qadami bizning birinchi qadamimiz ustida bo‘ladi» degan so‘zlariga javoban Bahouddin Naqshband g‘ayrat yuzasidan: «Birinchi qadami Boyazidning oxirgi qadami ustida bo‘lmagan kishiga Haq subhonahuning suhbati harom bo‘lsin» deydi. Va yana «Biz intihoni ibtidoda tugallaymiz» deydi Bahouddin Naqshband.

Mazkur naqllarda Boyazid Bistomiy Haq taolo ma’rifatiga yetishning yagona yo‘li bo‘lmish sulukka kirgan tolib, bu yo‘lda qanchalik g‘ayrat qilmasin «men» yetgan darajaga, martabaga yetisholmaydi» demoqchi bo‘lganini mushohada qilamiz. Bahouddin Naqshband esa uning oxirgi qadami, ya’ni u egallagan eng baland martabani biz sulukdagi birinchi qadamimizdayoq egallashga qodirmiz deydi. «Intihoni ibtidoda tugallaymiz» ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Chunki «ibtido» deb naqshbandiya tariqatining dastlabki birinchi maqomi nomlanadi. «intiho» – bu sulukning oxirgi, nihoiy maqomidir.

Ko‘rinib turganidek, ikki buyuk shayxning fikrlarini qarama-qarshi qo‘yish orqali mualliflar o‘zlari vasf etgan Bahouddin Naqshband siymosini yanada ravshanroq, go‘zalroq tasvirlashga muvaffaq bo‘lganlar. Ayni zamonda Naqshband tariqatining asosiy yo‘nalishi,

mohiyati shu rivoyat orqali ochib berilgan. Zero, Boyazid Bistomiy sukra (behudlik) sulukini tutgan va shu yo‘l bilan Xudoga yetish mumkin deb aytadi, behudlikda o‘zini Xalloj kabi «iloh sifati bilan sifatlanganman» deb jar solardi. Naqshband esa buni rad etadi. U faqirlik, hokisorlik, tinch-osoyishta muhabbat orqali iloh vaslini qozonishni targ‘ib etadi.

Ayni shu maslak uning ichki va tashqi dunyosi, amaliy ishlari, xatti-harakatiga ham ta’sir etgan. Tasvirlanishicha, Hazrati Bahouddin vazmin tabiatli, kamgap, viqorli va hamisha zikrni dilidan qo‘ymaydigan odam bo‘lgan. Ammo juda tartibli, qat’iyatli odam sifatida belgilangan ishni o‘z vaqtida bajarishni xush ko‘rgan.

Shunday qilib, Hazrati Muhammad Bahouddin maqomotlarda tasvirlanishiga ko‘ra: 1) xudo ato etgan ilohiy qobiliyati (tug‘ma jazbasi); 2) kichikligidan sufiylar muhitida tarbiya olishi; 3) Boboi Samosiy, Shayx Amir Kulol, Xalil ota kabi pirlardan ta’lim olganligi tufayli yetuk bir donishmand, komil inson bo‘lib shuhrat topadi. Ammo bu qiyin va mashaqqatli yo‘lni u o‘zining Xudoga cheksiz muhabbati, matonat va sadoqati bilan yengib o‘tadi, ya’ni ruhiy-ma’naviy kamolotning maqom-martabalarini bir-bir bosib, zinadan-zinaga ko‘tariladi, bilimi, so‘fiylik layoqati oshib boradi. Navoiy ta’kidlaganidek, Naqshbanddagi jazbani avval Boboi Samosiy tanigan hamda uni «farzandlikka» qabul etgan, tariqat odobini u Amir Kuloldan o‘rgangan va boshqa pirlar undagi sadoqatu qobiliyatni sinab, mustahkamlaganlar. Natijada tariqatning oliy maqomi – valiylik maqomiga ko‘tariladi. Kashfu karomat bilan elga taniladi. Hatto tasavvufga shubha bilan qaragan Buxoroning bilimdon mudarrislari ham bahs-munozarada unga qoyil qoladilar. Bahouddin ana shundan keyin Ulug‘ Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy davrida mavjud bo‘lgan, biroq uning vafotidan so‘ng so‘na boshlagan tariqat – faqru fano tariqatiga qayta ruh bag‘ishlab, taraqqiy ettiradi, tasavvufni sunna-shariatga yana ham yaqinlashtirib, behisob muridlar tarbiyalay boshlaydi. Endi u Buxoroda naqshbandiya tariqati asoschisi, piru murshid sifatida mashhur bo‘ladi. Qasri Orifon – orif darveshlar xonaqohiga aylanadi.

Tasavvuf adabiyotida ta’kidlanganidek, pir zimmasiga juda katta vazifa yuklanadi. U har jihatdan yetuk bo‘lishi, hamma vaqt muridlarga namuna bo‘lishi lozim edi. Pir tariqat maqomlarini bosib

o‘tgan, qalbi iloh ma’rifati bilan to‘lgan orif insondir. U ham bilimining chuqurligi, ham tariqat usullarini yaxshi bilishi, ham ko‘nglining pokligi, nafsini mahv etganligi va hokazolar bilan ajralib turishi, salobati, so‘zi va harakati, suhbati va nazari, tadbiri va himoyasi ila muridga ta’sir o‘tkazmog‘i lozim edi.

«Agar shayxlik ruknlari nechta deb so‘rasalar, yettita deb aytgil,» deya uqtiradi Husayn Voiz Koshifiy «Futuvvatnomai Sultoniy» asarida: «Birinchidan, shayx komil ma’rifat egasi bo‘lsin. Ikkinchidan, o‘tkir farosatli odamshunos kishi bo‘lib, bir nigoh tashlash bilan muridning qobiliyatini ilg‘ay olsin. Uchinchidan, yetuk ruhiy-ma’naviy quvvati bo‘lsin, toki agar murid tariqat yo‘lidan adashsa, unga ma’naviy madad berib, mushkulini oson qilsin, to‘g‘ri yo‘lga solsin. To‘rtinchidan, yetarli darajada erkin odam bo‘lsin, ya’ni hech narsaga muhtojligi bo‘lmasin. Beshinchidan, ixlosi mustahkam bo‘lsin, riyo va tama’ni tark etsin, mol va mansab deb birovga sarg‘aymasin, egilmasin. Oltinchidan, rostlik va beg‘araz do‘stlikni shior qilsin – haq so‘zni har yerda, har qanday sharoitda ayta olsin, gapirganda ikkiyuzlamachilik qilmasin, qalbida shafqat nuri porlab tursin, murid manfaatini va umum manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘ysin [36:18].

Maqomotlarda muridlarga – toliblarga rahnamolik qiluvchi murabbiylar «pir», «murshid», «ahli irshod», «muqtado» nomlari bilan ataladilar. Ularga xos bo‘lgan xislatlar maqomotlarning asosan ikkinchi va uchinchi qismlarida (boblarida) tasvirlanadi. Bahouddin o‘z tajribasidan kelib chiqib, pirlar haqida aytgan so‘zlari aynan o‘zi haqidagi so‘zlardir. «Murshid» (pir) bu – hoziq tabib muridning holiga muvofiq bo‘lgan davoni qiladi, deydi u [1.3.37b].

Yana Naqshband so‘zlarini keltiramiz: «Murid tolibning o‘tgan, hozirgi va kelajak kabi uch holidan boxabar «[1.3.39a] kishi bo‘lishi kerak.

«Ahli irshod (pirlar) sayyod kabidurlarki, noziklik bilan vahshiy jonivorni qo‘lga oladilar va tolibni vahshiylik sifatidan odamlik maqomiga yetkazadilar. Bu toifa (ahli irshod) hikmat bilan chiroyli tadbir qo‘llab, sohib tabiat tolib bilan shunday muomala qiladilarki, oxiri uni bo‘sundiradilar va sunnatga tobe’ qilish yo‘liga kirgizadilar hamda visol maqomiga olib chiqadilar. Bu toifaning har kim bilan qilgan muomalasi o‘sha odamning qobiliyatiga mos bo‘ladi» [1.3.40b-41a].

Mazkur qobiliyat va sifatlar maqomotlarda Bahouddin Naqshbandda o‘z ifodasini topganligining guvohi bo‘lamiz.

Bahouddin Naqshband tariqatga qadam qo‘ymasidan oldin dastlab shariat ilmini mukammal o‘rganadi. Piri – ustozi Abduxoliq G‘ijduvoniy aytganidek (oldingi boblarda Bahouddin Naqshband Abduxoliq G‘ijduvoniyni tushida ko‘rgani va u Bahouddinga shariatda mustahkam bo‘lishini ta’kidlagani haqida xabar bergan edik), Rasul alayhissalomning hadislarini o‘rganadi va sahobai kirom raziyallohu anhum ishlariga amal qiladi. Tariqatga qadam qo‘ygach, xufya zikr bilan mashg‘ul bo‘ladi.

So‘fiylar undan: «Sizning tariqingizni qanday topish mumkin», deb so‘raganlarida Bahouddin Naqshband: «Shariatni mahkam tutish va Rasululloh s.a.v. sunnatlariga to‘liq amal qilish bilan», - deb javob beradi [1.4.132b].

Naqshbandiya tariqatida zikrga alohida ahamiyat beriladi. Hazrati Azizondan ikki xil zikr naql qilinadi. Biri jahr, ikkinchisi xufya zikrdir. «Xufya zikr kuchli va avlo bo‘lgani uchun biz uni ixtiyor qildik», deydi Bahouddin. Xufya zikrni Boboyi Samosiydan hosil qilganini so‘zlar ekan, shunday deydi: «Biz talqini zikrni buzurgvor shayx Xoja Muhammad Boboyi Samosiydan olganmiz» [1.2.36a].

Zikr talqinini (zikr aytish yo‘lini) Bahouddin Naqshband quyidagicha sharhlaydi: «Lo iloha» so‘zi tabiat ilohini inkor etish, «illolloh» esa ma’budning haq ekanini isbotlashdir. Zikrdan Bahouddin Naqshband ko‘zlagan maqsad «Kalimai tavhid» haqiqatiga yetishishdan iborat edi. «Kalimai tavhid»ni aytishdan maqsad Alloh taolodan boshqa narsani ko‘ngildan butunlay ketkazishdir.

Bahouddin Naqshband tolib zikr bilan mudom mashg‘ul bo‘l-sagina maqsudiga yetishadi, deydi. Shuning uchun tolibning qo‘li halol rizq topish bilan mashg‘ul va ko‘ngli hamisha Alloh zikri bilan band bo‘lishi, ya’ni «dast ba kor dil ba yor» bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi.

U jahriya zikrni va samoni inkor qilmaydi (mo inkor namikunim, ammo, in kor namikunim, ya’ni biz inkor qilmaymiz, ammo bu ishni qilmaymiz), biroq o‘z tariqati afzal ekanligini ta’kidlaydi: «Bizning tariqamiz anjumanda xilvat (xilvat dar anjuman), vatanda safardir (safar dar vatan), deydi u. Bahouddin Naqshband tariqatida xilvatda

o‘tirish, ya’ni chilla o‘tirish yo‘q edi, muridlar zikr va suhbat bilan, karomat ko‘rsatish bilan tarbiyalangan.

Malomatiya[1] tariqati aqidasiga yaqin bo‘lgan bu ta’limotdan ko‘zlangan maqsad, har bir tolib – solik haq taolo zikri bilan muntazam suratda, birovga bildirmagan holatda shug‘ullansa, afzalroq deyishdir.

Bahouddin o‘z atrofida to‘plangan muridlariga ana shu tariqat talablari asosida ta’lim berardi. Uning tarbiya usuli ham o‘ziga xos edi: ko‘proq muridlar bilan suhbat qurish, muloqotda bo‘lishni xush ko‘rardi. Muridlarni ana shu suhbatlarda sinovdan o‘tkazib, ularning o‘sish darajasini ham belgilar, har bir muridga qobiliyati, bilimi, farosati va idrokiga qarab vazifa topshirardi. U ustozlaridan olgan tajribani ijodiy qo‘llagan. Insonning ruhiyatini hisobga olgan. Tariqat odobini shariat talablarini bajarish bilan qo‘shib davom ettirgan.

Maqomotlarda tasvirlangan shayx, pir-murshid Bahouddin Naqshband siymosi haqidagi fikrlarimizni davom ettirar ekanmiz, diqqatni yana bir jihatga qaratmoqchimiz. Maqomotlarda Bahouddin Naqshband siymosi nafaqat so‘fiy, shayx, valiy inson sifatida tasivrlangan, balki uning oddiy insonlardan farq qilmaydigan xislat va xususiyatlari vasf etilgan naqllar ham maqomotlarda ko‘p uchraydi. Bu naqllarda Bahouddin Naqshband oddiy, kamtarin, mehnatsevar, xalqparvar, mehribon inson sifatida ham tasvirlanganligini ko‘ramiz. Mana shunday naqllardan bir lavha:

همه یاران در نظر حضرت امیر خواجه را نکوهش کردند و بعضی احوال ایشانرا بر قصورخزمت حمل میکردند امیر در آن مجلس جوابی نگفتند پس در ان مجلس توجه با صحاب کردند و گفتند شما در حق فرزندم خواجه بهاالدین گمان بد میبرید... بنگرید باین جماعت که خشت میکشانند بعضی چهار خشت را برفرسوی خود برناف نهاده بر جایگاه می برند و بعضی شش خشت را برسینه نهاده میکشند و فرزندم بهاالدین در میان ایشان نگاه کنید ده دواز ده خشت را از اول تا آخر بر سر مینهد و بی ملال برغبت و نشاط وخرامان بزوق و شوق میکشد.

---

[1] Бу тариқат ҳамда унинг ўзига хос жиҳатлари ва қонун-қоидалари ҳақида ўрта асрларда яшаб, ижод қилган Аш-Шаҳристонийнинг рус тилига таржима қилинган ва «Книга о религиях и сектах».М.,1984. китобидан маълумот олиш мумкин.

«...Yoronlar Hazrati Amir Sayyid Kulol huzurlarida Xojamizni yomonladilar va ularning ba'zi holatlarini nuqsonga yo'ydilar. Hazrati Amir majlisda ularga hech narsa demadilar». So'ngra esa «Sizlar hali uni tanimabsizlar... Mana bu g'isht tashiyotgan jamoatga boqing, ba'zi odamlar to'rtta g'ishtni qorniga qo'yib kerakli joyga eltmoqda. Ularning orasida Bahouddin farzandimga qaranglarki, o'n ikkita g'ishtni ko'kragiga terib, shodu xandon, shavqu zavq bilan bemalol ko'tarib ketmoqda» [1.2.49b]. Shu o'rinda yana bir lavhani keltiramiz. «...Xojamizning taomlari ziroatdan hosil bo'lardi. Har yili biroz arpa va mosh ekardilar va ishlov berardilar. Xo'kizlarni ehtiyot qilardilar» [1.2.55a]. Bu mazkur ikki lavhada maqomot mualliflari Bahouddin Naqshband diniy ishlar barobarida boshqa oddiy insonlar kabi dunyoviy ishlar, jismoniy mehnat bilan shug'ullanganini, mehnatdan qochmasligini, boshqalarga o'rnak bo'ladigan darajada ishlashini, el qatori o'z ro'zg'ori uchun kerakli bo'lgan mahsulotlarni o'zi yetishtirganini ko'ramiz.

Mana bu naqlda esa Bahouddin Naqshbandning yoru do'stlariga mehribon, ularning hol-ahvolidan boxabar, ularga nisbatan g'amxo'r do'st sifatida tasvirlanganini ko'rishimiz mumkin. Nasaf viloyatida masjidda imom bo'lgan Bahouddin Naqshbandning muxlislaridan biri o'z xotini bilan urishib qoladi. U har qancha harakat qilsa ham xotini bilan yarashib ololmaydi. Bundan xabar topgan Bahouddin Naqshband Hazratlari o'sha xotinning oldiga boradilar va

روی مبارك خود را بر آستاند آن عورت نهاده اند عذر خواسته اند که این گناه را

او نکرده است. من کرده ام از الطفات ایشان آن ضعیفه جمعی از مخلصان شدند

«Muborak yuzlarini o'sha xotinning ostonasiga quyib:» U bu gunohni qilgan emas, bu gunohni men qilganman», deb uzr so'-raydilar. Ularning iltifotlaridan ayol va boshqa jamoat ham muxlisga aylanadilar» [1.2.48 a].

Shunday qilib, Bahouddin Naqshband obrazi – bu nafaqat valiylik darajasiga ko'tarilgan so'fiy obrazi, balki oddiy insonlarga xos xislatlar sohibi bo'lgan inson obrazi hamdir. Bu obraz orqali maqomotlarda Haqqa yetish, Haq tarafida turib, jamiyatga ta'sir o'tkazish, adolat, insof, to'g'rilik, ilohiy poklik g'oyalari ilgari surilgan. Naqshband mehnat ahli, hunarmandlar, dehqonlar bilan do'st edi, u shoh-amirlarni ham nafsdan qutulib, faqrga yuz tutishga da'vat etdi, quldorlikni, zulmni qoraladi: «Men qul emasman va

menga qul kerak emas», deb chiqdi u. Xudoga banda bo‘lganlar tengdir, ya’ni Xudo oldida shohu gado teng, shu bois mening oldimda ham shohu gado tengdir, deb e’lon qildi.

Bu g‘oyalar o‘sha davr uchun ham, hozir ham bag‘oyat qimmatli, dolzarb hisoblanadi. Hazrati Xojaga xos xislatlar, muridlik odobi, tarbiya usuli, pirlarini e’zozlashi, xullas ulug‘ rahnamo shayx sifatidagi faoliyati maqomotlarda ul zotning pirlari muridlari bilan munosabati misolida keng va batafsilroq berilgan. Shu bois ishimizning navbatdagi bo‘limi maqomotlardagi boshqa shaxslarga bag‘ishlangan esa-da, ammo bu yerda ham markazda Bahouddin turganiga shohid bo‘lamiz.

## 3.2. Personajlar tasvirining o‘ziga xos xususiyatlari

Maqomotlarda shayx valiy Bahouddin Naqshband timsolida komil inson obrazini yaratish bilan bir qatorda uning yoru do‘stlari, pirlari, muridlari, muxlislari va boshqa bir qancha obrazlar tasvirini ham ko‘ramiz.

Mazkur personajlar maqomotlarda asosiy obraz Bahouddin Naqshband tevaragida aylanadilar. U bilan muloqotda, suhbatda, safarlarda birga bo‘ladilar. Maqomotlarning ruhi, ulardagi markaziy obrazning xarakter va xususiyatlari uning o‘z atrofidagi kishilarga munosabatlari maqomotlarda hikoya-naql qilingan barcha voqealarni o‘zaro bog‘laydi. Har bir badiiy asarda ko‘zga tashlanganidek, maqomotlarda ham ularning mualliflari personajlarning ba’zilariga ijobiy, ba’zilariga esa salbiy munosabatda bo‘lganliklari yaqqol sezilib turadi. Mualliflar o‘zlari yaxshi ko‘rgan personajlarning faqat yaxshi, ijobiy xislatlarini, axloq-odoblarini vasf etishga harakat qiladilar, ularga muhabbat bilan yondashib, yoqimli tarzda tasvirlaydilar, ularni eng yaxshi bo‘yoqlar bilan va sifatlar bilan bezaydilar.

Mualliflar salbiy munosabat bildirgan personajlar esa xira ranglarda tasvirlanib, ularning salbiy jihatlarini bo‘rttirib ko‘rsatish hollari ko‘zga tashlanadi. Natijada o‘quvchida ularga nisbatan salbiy munosabat hissi vujudga keladi.

Maqomotlardagi personajlarni asar qahramoni Bahouddin Naqshbandga nisbatan bo‘lgan pozisiyasi nuqtai nazaridan shartli ravishda ijobiy yoki salbiy personajlarga bo‘lish mumkin. Ya’ni,

maqomot mualliflari Bahouddin Naqshbandga xayrixoh bo‘lgan, u bilan yaqin munosabatlarda bo‘lgan shaxslarni tasvirlashga ijobiy yondashganliklarini e’tirof etish lozim. Aksincha, unga qarshi bo‘lgan, uning iste’dodi, qobiliyati, karomatlariga shubha bildirgan kishilarning fe’lidagi salbiy jihatlarni ko‘proq tasvirlashga harakat qilinadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, maqomotlarda bunday shaxslar albatta yo o‘ladilar, yo kasallikka chalinadilar va shu tariqa o‘z qilmishlariga yarasha jazolanadilar.

Maqomotlarda personajlar ularning ijtimoiy mavqei, dunyoqarashi, e’tiqodi, xatti-harakati, xulq-atvori va boshqa jihatlari nazarda tutilgan holda bir-biriga o‘xshash yoxud bir-biridan farqli xarakterga ega kishilar sifatida tasvirlangan.

Tasvirlangan obrazlar jonli, hayotiy bo‘lishini ta’minlashga jiddiy harakat qilinadi. Ularda o‘quvchini o‘ziga maftun qiladigan yoxud o‘quvchida shu obrazga nisbatan salbiy munosabat hissini uyg‘otadigan belgi va holatlar mujassamlashtiriladi.

Tasvirlanayotgan aksariyat personajlarning xarakteri va ularga xos xususiyatlar, ularning odamlarga bo‘lgan munosabati, qiliqlari mualliflar tomonidan bir o‘rinda to‘plab berilmasdan, tasvirlanayotgan voqea-hodisalar bilan bog‘liq holda, bu voqealarning bayoni jarayonida yoritiladi.

Mualliflar tasvirlanayotgan obrazni, u yashayotgan sharoit, uning atrofini o‘rab turgan turli tuman ijtimoiy-siyosiy hayot voqealari bilan bog‘lab, personajning shu voqealarga nisbatan munosabatini belgilaydilar, uning u yoki bu tipdagi xarakterini ochib beradilar, muayyan personajning o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlarini tasvirlashda uning ruhiyatidagi, tabiatidagi o‘zgaruvchan belgi va xususiyatlarining eng muhimini izlab topadilar. Obrazni bu tarzda tasvirlash orqali o‘quvchiga tasvirlanayotgan davr, ijtimoiy-siyosiy sharoit haqida tasavvur hosil qilishga imkon yaratiladi.

Maqomotlarda tasvirlangan personajlarni umumiy tarzda quyidagi guruhlarga bo‘lishimiz mumkin.

1. Bahouddin Naqshbandning pirlari (Boboiy Samosiy, Sayyid Amir Kulol, qisman Abduxoliq G‘ijduvoniy).
2. Afsonaviy personajlar - Xizr alayhissalom.
3. Bahouddin Naqshbandning xalifalari, muridlari.

**A)** Maqomotlarda Bahouddin Naqshbandning pirlari tasviri.

Maqomotlarda mufassalroq va yorqinroq tasvirlangan personajlardan biri Sayyid Amir Kulol siymosidir. Uning mard va va'daga vafodorligi Boboyi Samosiyga Bahouddinni tarbiyalash xususida bergan va'dasining bajarilishida o'z aksini topgan.

Bu mehribon, talabchan, va'daga vafodor inson – komil inson, pir, dono murabbiy, murshid obrazi. Uning pir - muridlik qonun-qoidalarini izohlovchi quyidagi so'zlari dono murabbiyligidan dalolat beradi: «Ustoz-shogirdni tarbiya qilib, tarbiyasining asarini o'z shogirdida ko'rishni istaydi va qilgan tarbiyasi o'z o'rnida bo'lgan bo'lmaganligiga ishonch hosil qiladi. Agar shogirdida biron nuqson ko'rsa tarbiya bilan o'sha nuqsonni tuzatadi» [1.4.17a]. Demakki, boshqalarga shu so'zlarni nasihat qilgan Amir Kulol o'zi ham shunga amal qilganligi haqida maqomotlardan ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Quyida uning mana shu xislatlarini aks ettiruvchi lavhalardan birini keltiramiz:

«Menga Xoja Muhammad Bobo (Samosiy) vasiyat qilib, farzandim Bahouddindan shafqatingni ayama, agar bu ishda nuqsonga yo'l qo'ysang, seni kechirmayman, dedilar. Agar Hazrati Xoja Muhammad Bobo vasiyatida nuqsonga yo'l qo'ysam er emasman», deydi [1.4.19a.].

Amir Kulol o'z va'dasining ustidan chiqadi va pirining vasiyatini to'la-to'kis ado etadi. O'zida bor bo'lgan barcha bilimlarni Bahouddinga o'rgatadi. Nihoyat, unga boshqa pirlardan ham ta'lim-tarbiya olishga ijozat beradi.

Bahouddin Naqshband o'z piri Amir Kulol bilan birgalikda o'tkazgan davrlarini eslab shunday hikoya qiladi: «Sayyid Amir Kulol quddisa sirruhu suhbatining jazbasi menda paydo bo'lib qoldi. Ularning manziliga yetishdim. Amir darveshlar bilan o'tirgan edilar. Ularning muborak nazarlari menga tushgach: «Bu kim?», deb savol qildilar. (Bahouddinni yaxshi tanisa-da) Ma'lum bo'lgandan so'ng dedidilar: «Zudlik bilan uni bu yerdan chiqarib tashlanglar» dedilar». Tasavvuf adabiyotidan ma'lumki, murshid muridni o'z tarbiyasiga olishdan avval uning iste'dodini, sabr-toqatini va boshqa xislatlarini imtihon qiladi. Bundan xabardor bo'lgan Bahouddin Naqshband bu so'zlar uni imtihon qilish, ya'ni uning talab yo'liga astoydil kirgan-kirmaganligini sinash uchun aytilganligini anglab, yana Amirning uyiga borib ostonasida uxlab qoladi, ustini qor qoplaydi. Amir Kulol manzillaridan chiqib muborak qadamlarini Bahouddinning boshiga qo'yadilar. So'ng uning boshini ostonadan ko'taradilar, uyga olib

kiradilar. So‘ng bashorat berib deydilar: «Ey farzand, bu saodat libosi qaddu qomatingga muvofiq va munosibdir. Muborak qo‘llari bilan oyog‘idan tikon va xashaklarni oldilar va jarohatlarini tozalab uzoq tikilib turdilar» [1.2.36a]. Ushbu lavhada Amir Kulolga xos bo‘lgan talabchanlik, qattiqqo‘llik kabi xislatlardan tashqari uning mehribon, rahmdil inson ekanligini mushohada qilamiz. Sayyid Amir Kulol bashorat va karomat sohibi, g‘oibiy sirlardan doimo voqif shayxdir. Uning karomatpeshaligi ko‘pgina naqllarda zikr etiladi.

Kunlarning birida Bahouddin Naqshband Buxorodan Nasafga o‘z piri oldiga boradi. Kun juda issiq bo‘ladi. Amir Kulol Bahouddinga o‘choqqa o‘t yoqishni buyuradi. Bahouddin ustiga po‘stin kiyib olganligi sababli, issiqdan po‘stinini o‘choqqa tashlaydi, Amir Kulol Bahouddinga olovga kirib, po‘stinini olib chiqishni buyuradi. Ikkilanib turgan Bahouddinga qarab: «Ey farzand Bahouddin, Hazrati Haq subhonahu va taoloning shavqida yongan darveshlarning ustida yillab turgan narsani bu dunyo olovi qanday kuydira olsin deydi» va haqiqatda Bahouddin olovga kirib po‘stinning bir tuki ham kuymaganligini ko‘radi va uni olib chiqadi [1.2.40b].

Amir Kulol o‘tkir nafas va nazar sohibidir. Uning tarbiyasi va ta’siri natijasida Bahouddin Naqshbandda o‘liklarni tiriltirish qobiliyati (xislati) paydo bo‘ladi. Maqomotlarda bu haqda shunday naql bor: Bahouddin Naqshband Amir Kulol huzuriga ketayotgan paytida yoronlarining biri bilan muhabbat haqida so‘zlashib qoladi. Bahouddin Naqshband undan: «Sizning menga muhabbatingiz qay darajada?» deydi. Bahouddin «o‘l» deydi. U o‘sha onda yiqilib o‘libdi. Bahouddin hayron bo‘lib turganida Hotifdan «Amir Kulol oldiga bor» degan ovoz eshitiladi. Amir Bahouddinga «Ey farzand, endi kutib turishing joiz emas, bor unga «tiril» deb ayt deydi. O‘likning oldiga borib (ungacha o‘lik 5-6 soat jazirama issiqda yotib shishib ketgan ekan), «tiril» debdi. Ul aziz tirilibdi va o‘rnidan turibdi» [1.2.47a].

Amir Kulol birovlarning dilidan o‘tgan xayolni, fikrni anglash qobiliyatiga ega valiy inson. Uning o‘zgalar fikrini o‘qiy olish qobiliyati bir qator naqllarda o‘z ifodasini topgan.

در حضور حضرت امیر در خاطر ایشان چنین گذشت که در نظر حضرت امیر از من نزد یکتر کسی با شد که بناگاه مردی گوسفندی آورده است. خواجه ما را در خاطر آمده که کاشکی مولانا عارف دیگ گرانی بودی که این گوسفند را بر

یان پختندی امیر فرمودند ای بها الدین برخیز و مولانا عارف را آواز ده که بیاید خواجه بیرون آمد در گوشه خانه استاده سه کرت آهسته گفتند که یا مولانا عارف هنو زنه نشسته بودند که مولانا عارف در آمدند و سلام کردند سید امیر روی بخواجه ما کردند و فرمودند که ای بها الدین دید یکه از تو هم نزدیکتران بوده اند.

Bahouddin Naqshband Hazrati Amir huzurlariga borib xayolida: «Hazrati Amirning nazarlarida mendan ulug‘roq kishi bormi?» deydi. Nogoh bir kishi qo‘y olib kelib qoldi. Bahouddin Naqshbandning ko‘nglidan: «Qani endi bu qo‘yni pishirg‘anlarida Mavlono Orif shu yerda bo‘lsalar!» degan fikr o‘tdi. Shunda Amir Kulol: «Ey Bahouddin, tur, Mavlono Orifni chaqir, kelsin», dedilar. Bahouddin uyning burchagiga o‘tib, uch marta ohista «Yo Mavlono Orif» deydi. Mavlono Orif eshikdan salom berib kirib keldi. Shunda Amir kulib, Bahouddinga qarab: «Ey Bahouddin, ko‘rdingizmi, bizga sizdan ham yaqinroq kishimiz bor» deydi [1.2.34a].

Maqomot mualliflari Amir Kulol obrazini tasvirlashda uning nutqi va tiliga ham alohida ahamiyat berganlarini ko‘ramiz. Yuqorida keltirilgan va quyidagi naqllarda u o‘z fikrlarini so‘fiyona majoziy usulda bayon qilishining guvohi bo‘lamiz. Amir Kulol Bahouddinga boshqa pirlardan ham ta’lim olishga ruxsat berar ekan, «o‘z ko‘kraklariga ishorat qilib deydi:

مرغ روهانیت شما از بیضه بشریت بیرون آمد مرغ همت شما بلند پرواز افتاده است اکنون به شما اجازت است هر جا که بوی بمشام شما میرسد از ترك و تاجك طلبید و در طلبگاری برموجب همت خود تقصیر نکنید.

«Sizning ruhoniyat qushingiz bashariyatlik tuxumidan chiqdi. Sizning himmat qushingiz balandparvoz chiqib qoldi. Endi sizga ruxsat va ijozatdur, turk yoki tojik (shayx)lardan har kimning bo‘yi dimog‘ingizga yetishsa, uning talabida bo‘ling. Maqsadga yetish borasida ximmatingizga nuqson yetkiza ko‘rmang» [1.3. 52b ].

Maqomotlarda Amir Sayyid Kulol obrazi mufassal tasvirlanmagan bo‘lsa-da (chunki asosiy e’tibor Naqshbandga qaratilgan), u haqida zikr qilingan naqllar cheklangan bo‘lishiga qaramay, kitobxon bu shaxs haqida muayyan tasavvur hosil qilishi mumkin va maqomotlarda bu shaxs o‘ziga munosib o‘rin egallaydi.

Maqomotlarda boshqa personajlar qatorida Ahmad Yassaviy xonadoniga mansub turk shayxlaridan biri Qusam Shayx obrazi ham o‘z aksini topgan.

Amir Kulol Bahouddinga boshqa shayxlardan ham ta’lim olishga ijozat bergach, u Yassaviya tariqati shayxlarining mashhurlaridan bo‘lgan Qusam shayx oldiga boradi.

Maqomotlarda Qusam shayx ishtirokidagi birgina naql mavjud. Ammo mana shu birgina naqlda ramziy ifodalar vositasida Qusam shayx timsolida Yassaviya tariqatining yetuk shayxlaridan birining siymosi tasvirlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yassaviya tariqatiga mansub Qusam shayx va boshqa shayxlar bilan muloqot hamda suhbatda bo‘lgan Bahouddin Naqshband ular haqida shunday fikr bildiradi: «Har kimda turk mashoyixlarining sifatini tanish bo‘lmasa, u odam bularning tariqidan butunlay noumid bo‘lishi va yuz o‘girishi lozim» [1.3.51b].

Maqomotlarda Bahouddin Naqshband bilan Qusam shayxning dastlabki uchrashuvi shunday tasvirlangan: «Birinchi muloqotlarida Qusam shayx qovun yeyayotgan ekanlar. Po‘chog‘ini Xojamizning oldilariga tashladilar. Talabda g‘ayratlarining kuchliligidan tabarruk deb po‘choqni tamom yeb yubordilar. Shu majlisning o‘zida uch marta shu hol takror bo‘ldi».

O‘rta asrlarda tasavvufdan boxabar bo‘lgan kitobxonlar uchun ishoraning o‘ziyoq shayxning bilimdonligi, hushyorligi haqida tasavvur hosil qilishga imkon bergan. Qusam Shayx Bahouddin bilan so‘zlashmasidanoq nima maqsadda uning oldiga kelganini tushungan. Shu sababli uni imtihon qilish, uning o‘z irodasini shayx irodasiga bo‘ysundirish uchun tayyor yoki tayyor emasligini aniqlash maqsadida unga qovun po‘chog‘ini tashlaydi. So‘fiyona axloq-odob qoidalari va pir-muridlik qonunlaridan xabardor bo‘lgan Bahouddin pirning maqsadini anglab, unga munosib javob qaytaradi. Ya’ni, irganmasdan po‘choqlarni yeyaveradi va shu yo‘sinda o‘zining talab yo‘lida hech narsaga parvo qilmasligini bildiradi. Birinchi sinovdan muvaffaqiyatli o‘tgan Bahouddin Qusam shayx huzurida uch oy davomida ta’lim oladi va pirining muhabbatini qozonadi. Qusam shayx Bahouddinni sevib qoladi va unga: «Mening to‘qqiz o‘g‘lim bor, o‘ninchisi sensan va ularning hammasidan sen muqaddamsan» deydi. Uning bu bahosidan Bahouddin Naqshbandga bo‘lgan mehr-muhabbati, dilbastaligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Qusam Shayx umrining oxirida bir necha yillar Naxshab (Qarshi) tumanlaridan Buxoroga kelib turadi. Bahouddin Naqshband uni juda izzat-ikrom qilardi. Qusam Shayx Bahouddin Naqshbandga: «Senda mavjud bo‘lgan bunday sifat va qat’iy talabni toliblardan birortasida ko‘rmaganman», deydi.

Qusam Shayx g‘oyat karamli va o‘ta oddiy inson bo‘lib, hayotlarining oxirida Buxoro shahrida Masjidi Sarrofon yaqinidagi timga kirib, har xil xaridlar qiladi va timdan chiqqach, bir do‘konchaga kiradi,... o‘sha yerda «Kalimai tavhidni aytadi» va Haqqa taslim bo‘ladi.

Maqomotlarda yana bir personaj, Boyazid Bistomiy obrazi borki, uni Bahouddin Naqshbandga qarama-qarshi qo‘yilgan obraz sifatida talqin qilishimiz mumkin. Chunki mualliflar Bahouddin Naqshbandning Boyazid Bistomiydan axloq, odob, bilim va egallagan martabalari nuqtai nazaridan ustunligi, afzalligini tasvirlash uchun Boyazid Bistomiy bilan bog‘liq voqea-hodisalar hikoya qilingan naqllarni maqomotlarga kiritganlar hamda qiyoslash usulidan foydalanganlar. Quyidagi lavhalar fikrimizga dalil bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Takroran bo‘lsa-da, ilgari bayon etilgan lavhani keltirishimizdan maqsad bu personaj haqidagi ma’lumotlar kam bo‘lishiga qaramasdan uning Bahouddin Naqshband siymosining ochilishidagi roli muhimligi bilan belgilanadi. Boyazid Bistomiy: «Sayr maqomiga yetganimda payg‘ambarlar, ularning hammasiga hamda o‘z payg‘ambarimizga salavotu salomlar bo‘lsin, sifati bilan sayr qilardim. Shunda Mustafo, unga salavotu salomlar bo‘lsin, dargohlariga yetdim va ularning sifatiga kirib, sayr qilmoqchi bo‘ldim. Ul zot qo‘llarini peshonamga qo‘ydilar. «Bizning Xojamiz q.s.a. dedilar: «Men o‘sha maqomga yetganimda Alloh inoyati bilan gustohlik qilmadim. Hojatmandlik va iltijoning boshini onhazratning izzat va ehtirom ostonalariga qo‘ydim».

Bu parchada bir tarafdan Boyazid Bistomiy siymosiga chizgilar chizilgan. Unda Bistomiy o‘zini payg‘ambar darajasiga ko‘targan, xudbin, xudpisand kishi sifatida tasvirlangan bo‘lsa, ikkinchi tarafdan shu yerning o‘zida Bahouddin Naqshbandning unga bergan bahosi aks ettiriladi,

«Bir kuni Xojamizning sharif suhbatlarida Sulton ul-Orifinning (Boyazid Bistomiyning): «Bu yo‘lda yuruvchi qanchalik yurmasin,

uning so‘nggi qadami bizning birinchi qadamimiz ustida bo‘ladi» degan so‘zlari naql qilinibdi. Xojamiz g‘ayrat yuzasidan: «Birinchi qadami Boyazidning oxirgi qadami ustida bo‘lmagan kishiga Haq subxonahuning suhbati harom bo‘lsin!» degan edilar.

Bu yerda ham yana bir bor Boyazid Bistomiy o‘zi haqida yuqori fikrda bo‘lgan inson sifatida tasvirlanganining guvohi bo‘lamiz. Uning o‘zi Haq ma’rifatini egallash yo‘lida naqadar ilg‘or ketganligini so‘zlar ekan, uning martabasiga yetishish uchun harakat qilgan har bir kishi ham, baribir maqsadga yetolmaydi, ya’ni «men egallagan martabani hech kim egallay olmaydi» degan fikrda ekanligi ta’kidlanadi.

Ikkinchi tarafdan mualliflar Bahouddin Naqshband so‘zlarini keltirish orqali ikki buyuk shayxning so‘zlarini bir-biriga qarshi qo‘yish yo‘li bilan Bahouddin Naqshband obrazini yanada oydinlashtiradilar va uni Boyazid Bistomiydan bir qancha ustunliklarga ega inson sifatida tasvirlaydilar.

«Naql qilishlaricha Hazrati Xojamiz q.s.dan savol qilgan edilarki, «Ba’zi mashoyixlarning aytishlaricha, Muhammad s.a.v.ning valoyati Sulton ul-Orifinda hatm bo‘lgan ekan?» Ular dedilar: «U zot o‘z zamonalariga nisbatan hatm qiluvchi edilar» [1.257b].

Mazkur lavhalarning har birida Bahouddin Naqshbandning javoblarida uning Boyazid Bistomiyga nisbatan munosabati salbiyligi yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi. Uning bu munosabati mualliflar tarafidan o‘ziga xos mahorat bilan ifodalangan.

Boyazid Bistomiy va Bahouddin Naqshbandning fikrlari, so‘zlari, amallarini qiyoslash orqali kitobxon bu obraz haqida muayyan tasavvur hosil qilish imkoniyatiga ega. Maqomotnavislarning obraz yaratish mahorati ham shunda namoyon bo‘ladiki, ular u yoki bu personajni tasvirlashda ko‘p so‘zlamasdan, personajlarning xislatlarini mufassal bayon qilmasdan naqllarda keltirilgan bir-ikki voqeaga, yoxud biron bir munosabatga nisbatan bildirilgan fikrlarni keltirish orqali personajlar haqida tasavvur hosil qilishni kitobxonlarning o‘zlariga havola etadilar.

A) Maqomotlarda Xizr alayhissalom siymosining tasvirlanishi.

Arab va fors tillarida yaratilgan agiografiyalarning barchasida tasvirlangan Xizr alayhissalom obrazi Bahouddin Naqshband maqomotlarida ham o‘z aksini topgan. Tasavvuf adabiyotida bu personaj asosan yangi tariqatga, toifaga asos soluvchi valiylarning

tushiga kiradi. Ular Xizr alayhissalom bilan suhbatlashadilar va undan ilmi g‘aybni o‘rganadilar. Mutolaa va tahlil qilgan maqomotlarimizda esa uni faqat Bahouddin Naqshband tushida yoki ro‘yoda ko‘rmaydi, Xizr alayhissalom uning muridi Amir Husaynga ham bir necha marotaba hamsuhbat bo‘lganligini yuqorida zikr etib o‘tdik.

Xizr alayhissalom «cho‘l va biyobonlarda to‘g‘ri yo‘ldan adashganlar uchun yo‘l ko‘rsatuvchi, abadiy tirik va barcha ilmlardan xabardor» [198, 163] «hikmat sohibi» va «ismi a’zam» (eng buyuk ism)ni biladigan donishmand, Alloh siylagan bandalarga valiylikni va karomat ko‘rsatish qobiliyatini baxsh etuvchi, odamlarning mushkullarini oson qiluvchi [198.231] sifatida talqin qilingani uchun maqomotlarda uni tushida yoki ro‘yoda ko‘rgan va u bilan suhbatda bo‘lgan kishilar undagi mazkur xislatlardan bahramand bo‘ladilar. Shu sababli Xizr alayhissalom nomi zikr etilishining o‘ziyoq asar qahramoni va boshqa personajlarga uning ilmidan bahra olganliklariga ishoratdir.

Maqomotlarda Xizr alayhissalom shunday tasvirlanadi: «Podachilarga o‘xshab qo‘liga qattiq tayoq ushlab olgan va kigizdan kuloh kiyib olgan» edi. Bahouddinning yoniga kelganda «tayoq» bilan Bahouddinni uradi va turkiy tilda so‘zlaydi: «Otlarni ko‘rdingmi?» Bahouddin Naqshband uning Xizr ekanligini tanisa-da, unga e’tibor bermaydi. Xizr alahissalom uni to rabot Qorovulgacha kuzatib boradi. Amir Sayyid Kulol Bahouddinga: «Uni tanidingmi, u Hazrati Xizr edi», deydi [1.2.19 a].

Xizr alayhissalomni nafaqat Bahouddin Naqshband balki boshqa shayxlar ham tushda ko‘radilar.

Masalan, Shayx Abdullo Xo‘jandiy ham «Tushida Muhammad Ali Hakim Termiziy bilan birga uning yonida bir nuroniy qariya»ni ko‘radi. U Xizr alayhissalom bo‘ladi. Termiziy uni Abdullo Xo‘jandiyga tanishtirib: «Bu Xizr alayhissalomdirlar» deydi va yana: «Sen hozir o‘zingga tashvish berma va iztirobga tushma, sen qidirayotgan narsa 12 yildan so‘ng Buxoroda o‘sha davrning qutbi zamoni Xoja Bahouddin Naqshband qoshida hosil bo‘ladi» deydi. Bu Abdullo Xo‘jandiyga tariqatga kirishiga va maqomotga yetishiga bashorat bo‘ladi [1.3.116a].

Amir Husayn ham ro‘yoda Xizrni ko‘radi: «Oldimdan bir nuroniy, g‘oyatda safo egasi bo‘lgan kishi chiqib qoldi va dedi:

«Namuncha iztirob chekasan?» Shunday deb o‘zining qanchalar mashaqqat va riyozat chekkani haqida so‘zlab, mashoyixlardan ko‘pini yod qildi, ularning yo‘llarini va riyozatlarini yo‘l davomida bayon qildi. Men yalinib iltijo qildim. U qo‘ynidan bir parcha xamir chiqarib menga berdi va dedi: «Buni non qilib pishirib yegin». Amir Husayn xamirni Atoyi degan nonvoyga berdi, u bu xamirni ko‘rib, «men xech qachon bunday xamirni ko‘rmagan edim» deydi. Ikkita: biri katta, biri kichik non yasaydi. Kichigini Amir Husayn unga beradi, kattasini o‘zi olib qoladi. Shomda bir masjidga kiradi. Olma hidi dimog‘iga kiradi. Shu payt masjid shipidan 14 dona olma tushadi. Nonning bir qismini olma bilan yeydi. Hazrati Xoja bilan uchrashganda u: «Senga xamir bergan kishi kim ekanini bildingmi?» -deydi. «Yo‘q» deydi. «U nimalar dedi?» deb so‘raydi. Bahouddin Naqshband. Amir Husayn barcha voqeani aytib beradi. Xoja Bahouddin Naqshband: «U Xizr edi, payg‘ambarimiz oilasiga va unga salomlar bo‘lsin» deydi [1.3.130a].

Amir Husayn qasri Orifonda Xoja xizmatini qilib yurgan paytida bir nuroniy kishi Hazrat Xoja huzurlariga kelganini ko‘radi. Ular ikkovi hovuz bo‘yiga o‘tiradilar. Biroz suhbatlashadilar va ketadilar. So‘ng Xoja Amir Husaynga: «Xizr alayhissalomni ko‘rdingmi?», deydi [1.3.147].

Yuqorida zikr etganimizdek, Amir Husaynga Xizr alayhissalom bir parcha xamir berishining o‘zi uning kelajagi porloq bo‘lishiga dalil sifatida talqin qilinadi. Boshqa naqlda zikr etilganidek, Xizr alayhisalomning Bahouddinni tayoq bilan urishi uning ilmidan boxabar bo‘lganiga ishoratdir. Chunki Xizr alayhissalom «Haq ma’rifatiga yetish yo‘lini biluvchi, valiylarga obi hayot suvini ichiruvchi, ularning haq visoliga yetishishlariga rahnamolik qiluvchidir» [235.311]. Shuning uchun Xizr alayhissalomdan o‘rganiladigan ilm – Haq ma’rifati ilmidir.

Xizr alayhissalom poklik va pokizalik timsolidir. Shu sababli aksariyat hollarda oppoq soqolli, oq kiyim kiygan, oq otga mingan nuroniy qariya sifatida tasvirlanadi. Maqomotlarda bu obraz bir necha naqllardagina tasvirlangan bo‘lishiga qaramay, ul zot kitobxon ko‘z o‘ngida salobatli donishmand siymo sifatida namoyon bo‘ladi.

V) Maqomotlarda muridlar tasviri.

Maqomotlarda kitobxonlar diqqatini o‘ziga jalb qiladigan ikki nafar yetuk muridlar obrazi tasvirlangan. Bularning biri Xoja Alouddin Attor va Xoja Muhammad Porso obrazlaridir. Bu ikki obraz Bahouddin Naqshbandning xalifalari darajasiga ko‘tarilgan suyukli muridlar obrazlaridir.

Xoja Alouddin Attor Bahouddin Naqshbandning birinchi xalifasidir. Maqomotlardagi aksariyat naqllarning unga nisbat berilishi, uning o‘z pirini naqadar yaxshi bilishi, uning ustozi ilmidan naqadar bahramand bo‘lganligidan dalolat beradi. Bahouddin Naqshbandning unga muhabbati kuchli bo‘lganligidan uni o‘ziga kuyov qiladi. Alouddin Attorning asl nomi Muhammad ibn Muhammad al Buxoriydir. U hali madrasani tugatmasidanoq Hazrati Xojani o‘ziga pir tutib, uning sulukiga kiradi va pirining muhabbatiga sazovor bo‘lish sharafiga muyassar bo‘ladi. Alouddin Attor Bahouddin Naqshband bilan boshqalarga nisbatan uzoqroq, ko‘proq muddat davomida birga bo‘lganligi sababli pirining bilimi, martabasi, iste’dodi, karomatlaridan ko‘proq xabardor bo‘lgan.

Alouddin Attor Hazrat Bahouddin Naqshbandning hamsuhbatlaridan biri, naqshbandiya tariqatining bilimdoni, yetuk xalifa, pir, Bahouddin Naqshbandning suyukli shogirdlaridan biri sifatida tasvirlanadi. Maqomotlarda u haqda bir nechtagina naql mavjud. Mana shulardan biri Alouddin bir darvesh bilan g‘ayb olami haqida tortishuv va munozarada g‘olib chiqdi. Buni eshitgan Bahouddin Naqshband uni o‘z huzuriga chaqirib: «Sen valiymisan?» deb so‘radi. U hurmat yuzasidan javob bermadi. So‘ng Bahouddin Naqshband dedi: «Agar valiy bo‘lmasang, valoyat sifatidan kech». «Agar mening suhbatimni tilasang, valoyat sifatidan kechishing shart». Alouddin Attor pirining tanbehlariga amal qilib, «Tangri mehribonligi yetib, meni to‘siq va pardadan qutqazdilar. Bu hol va kamoldan azizroq bo‘lgan narsalarni ko‘rdim» deydi [1.3.66b].

Hazrati Xoja hol avvalida Alouddinni o‘z oldilarida ko‘p tutar edilar. Bu haqda yoronlar savol qilganlarida shunday dedilar: «Uni bo‘ri yemasin deb oldimga o‘tqazaman. Uning bo‘ri nafsi doimo pistirmadadir. Har lahza uning holidan xabar olaman, to uning holi bilinib tursin» derdilar.

Attor bir umr Xoja bilan birga bo‘lib, u kishining ishorati bilan ko‘p kishilarni o‘z tarbiyasiga oladi. U Hazrati Xoja vafotidan 11 yil o‘tgach, 802 xijriy (1399 milodiy) yilda vafot etadi.

Maqomotlarda tasvirlangan siymolardan biri Hazrati Xojaning yana bir suyukli shogirdi, xalifasi Xoja Muhammad Porso siymosidir. U ham yuqorida zikr etilganidek, Bahouddin Naqshbandning xalifalaridan biridir. Uning haqida Mavlono Orif Bahouddin Naqshbandga shunday so‘zlarni aytadi va bu so‘zlarda Muhammad Porsoga naqadar katta baho berilganligini ko‘ramiz: «O‘z yoronlarimga va sizning yoronlaringizga diqqat qildim. Bu yo‘lning qobiliyati va ko‘plik sifatini boshqalarga nisbatan Xoja Muhammad Porsoda ko‘proq ko‘rdim. Bu yo‘lda topgan har qanday ilmimni va bu sohada kasb etgan har qanday ma’noni unga nisor qildim. Siz ham uning borasida nuqsonga yo‘l qo‘ymagaysizki, u sizning yoronlaringizdan» [1.3. 65a].

Muhammad Porso riyozat chekib yurgan paytida, bir kuni Hazrati Xoja huzuriga kelib, eshik oldida turadi. Tasodifan ko‘chaga chiqib, uni ko‘rib qolgan kanizdan: «Ko‘chadagi kim?» deb so‘raydilar Hazrati Xoja. Kaniz: «Bir porso yigit turibdi» deydi, Hazrati Xoja uni shu kundan boshlab Porso deb ataydilar. Porso pirning mehrlarini qozonadi. Vafoti yaqinlashgach, o‘rniga kimni qoldirar ekan, deb kutib turganlarga qarata: «Bizni ko‘rishga kimda orzu paydo bo‘lsa, Xoja Muhammad Porsoga qarasin» deydilar.

Muhammad Porso yetuk olim edi. Uning bir qancha asarlar yozgani ma’lum. Uning asarlari orasida Bahouddin Naqshband maqomotlari ham bor. Porso haj safariga jo‘nab, 822 (1419) yili Madinada vafot etadi.

Bahouddin Naqshband «Oramizga kirganda o‘z botinini bizga to‘g‘irlaydigan va shu holatda kiradigan do‘stlardan faqat seni ko‘rayapman. Shuncha yo‘q bo‘lgan paytimizda va shunchalik mashaqqatga mubtalo bo‘lgan vaqtimizda ham barcha holatda botini bizga to‘g‘irlanganlardan seni mushohada qilib turibman» deganida uning o‘z muridiga nisbatan muhabbati va hurmati aks ettirilganini ko‘ramiz.

Porso o‘z ustoziga vafodor, iste’dodli shogird, ustozinig barcha bilimlarini o‘zlashtirgan murid. Bahouddin Naqshband uning tirishqoqligi va bilimga chanqoqligiga ishora qilib «Bizning nimamiz bo‘lsa barchasini

sen pok-pokiza supurib ketding» ya'ni menda nima ilm bo'lsa, barchasini to'la to'kis egallading», deydi.

Bahouddin Naqshband hayotining oxirlarida Porso haqida shunday deydi: «Undan hech qachon ranjimadim, boshqalardan ranjish sababi yuz berdi, lekin undan xech qanday nuqson yuz bermadi» [1.3.44b]. Bahouddin Naqshband uni o'z o'rniga xalifa qilib tayinlaydi. Unga ishonchi va muhabbati shu darajadaki: «Tariqat xojalaridan bizga har qanday haq va omonat yetgan bo'lsa va bu yo'lda nimaiki topgan bo'lsak o'shal omonatni senga topshirdim, Alloh xalqiga yetkaz!», deydi [1.2. 42a].

Maqomotlarda boshqa personajlarga nisbatan mufassalroq tasvirlangan personajlardan biri Shayx Shodi obrazidir. Shayx Shodi Bahouddin Naqshbandning muridlaridan biridir. Bu personaj haqidagi birinchi xabar maqomotlarda «sadoqatli darvesh» so'zlari bilan boshlanadiki, shuning o'zi mualliflar bu obrazga qanday munosabat bildirganliklariga ishoradir.

«Sadoqatli darvesh» Shayx Shodi xachirlar oldiga yem, mehmonlar oldiga ovqat qo'yar edi. Kun bo'yi ikki qo'lini qovushtirib, tavoze' bilan ularning oldida turardi. Mehmonlar uchun hojatxona kesagini tayyorlardi. «Mehmonlar minnati jonimiz ustiga» der edi [1.2.52a].

Mualliflar Shayx Shodi obrazini tasvirlashni boshqa personajlardan farqli o'laroq uning Hazrati Xoja bilan ilk daf'a ko'rishganlarida ro'y bergan hodisani bayon qilishdan boshlashadi. Maqomotlardagi bir qator naqllarda Shayx Shodi, oddiy bir dehqon, qanday qilib Shayx Bahouddin Naqshbandning sharif suhbatlariga musharraf bo'lgani va shayx darajasiga ko'tarilgani hikoya qilinadi.

Shayx Shodi o'z dalasida «Xirmon shopirayotgan, yerlarni supurib, qolgan donlarni yig'ayotgan» paytda unga Bahouddin Naqshbandning ko'zi tushib qoladi. Uning oldiga keladi. Somonlar orasida to'rtta qovunni ko'radi. Shodi avval ularning ikkitasini so'yadi, yana ikkitasini Hazrati Xojaga olib kelib beradi. Hazrati Xoja unga: «Oramizda non-tuz haqi paydo bo'ldi, kel, sening uyingga boramiz, xotining qo'y kallasini tandirda pishirib turibdi», deydi. Uyga kelgach, Xojaning karomatidan voqif bo'ladi va shu tariqa Hazrat Xojaning muhabbat saodatlari Shayx Shodi xonadonida paydo bo'ladi. Bahouddin Naqshband Shayx Shodi uyida ko'p

marotaba bo‘lgan. Shodi va uning oila a’zolari Xoja Bahouddin uylariga tashrif buyurishlaridan benihoya xushnud bo‘lardilar va u zotning xizmatlarini astoydil ixlos bilan bajarardilar.

Maqomotlarda Bahouddin Naqshband va Shayx Shodi munosabatlari muloqotlari, birgalikdagi safarlari, suhbatlari hikoya qilingan, bir qator naqllar keltirilgan. Ularda Shayx Shodi piri Bahouddin Naqshbandning karomatlari zuhurga keladigan ob’ekt, sodiq murid sifatida tasvirlanadi.

Shayx Shodi piriga vafodor tolib, pirining har bir amrini itoatkorlik va shukronalik bilan amalga oshirishga hozir inson sifatida namoyon bo‘ladi. Pirining bir og‘iz so‘zi bilan bor mol-mulki, pullarining bahridan o‘tadi. O‘quvchi ko‘z o‘ngida u e’tiqodiga fidokorlik timsoli sifatida gavdalanadi.

Shodida ham Bahouddinga murid bo‘lmasidan ilgari birmuncha salbiy xususiyatlar bo‘lgan. Bahouddinga murid bo‘lganidan keyin undagi salbiy xislatlar asta-sekin yo‘qolaib boradi. Masalan, uning Hazrati Xoja suhbatlariga yetguniga qadar bo‘lgan davrdagi xislatlaridan biri yolg‘onchilik edi. Ko‘p yolg‘on gapirardi. Hazrati Xoja har safar uning yolg‘onchiligini fosh etavergach, bu odatini tark qiladi va Bahouddin Naqshbandning suyukli toliblari qatoridan joy oladi.

Shayx Shodi vafodor va itoatkor murid obrazidir. U o‘zining mazkur sifatlari tufayli pirining muhabbatiga sazovor bo‘lib, uning tarbiyasidan bahramand bo‘ladi.

Shayx Amir Husayn ham Bahouddin Naqshbandning suyukli muridlaridan biri bo‘lib, uni ma’lum darajada tipiklashtirilgan murid obrazi deyish mumkin. U to Hazrati Xojaga murid bo‘lguncha, ya’ni 20 yoshga kirgunicha «yeyish-ichish, uxlashdan boshqa» ishni bilmasdi. Uning na Qur’ondan, na musulmonchilikdan xabari bor edi. Shunchalik sodda, savodsiz bo‘lishiga qaramasdan hushyor kishi edi.

Tunlarning birida Hazrati Xojani tushida ko‘radi, uning qo‘llarida katta yorug‘ oyna bo‘lib, Bahouddin Naqshband bu oynani Amir Husaynga beradi. Amir Husayn oynada o‘zini ko‘radi. Uyg‘ongach, uni yig‘i egallab oldi. Ertasiga ertalab uning uyiga Hazrati Xoja kirib keladi va «Qo‘lingga kim oyna berdi?» deb so‘raydi. U: «Siz» deb javob beradi.

Amir Husaynning ko‘rgan tushi unga tariqatga kirishiga bashorat va Xoja Bahouddin unga pir vazifasini o‘tashiga ishorat bo‘ladi. So‘ngra Bahouddin Naqshband Amir Husaynga: «Musulmonchilik odatlarini senga men o‘rgataman, qanday tarbiya lozim bo‘lsa, hammasini qilaman», deb uni muridlikka qabul qiladi.

Amir Husayn Bahouddin Naqshband qo‘lida ta’lim va tarbiya olib, riyozatlar chekib ma’naviy-ruhiy kamolot bosqichlaridan o‘tadi, Bahouddin Naqshbandning muborak nazarlari barakotidan ikki olam baxtiga muyassar bo‘ladi [1.3.125a].

Bahouddin Naqshband Amir Husaynni muhabbat bilan tarbiyalaydi. Natijada u Hazrati Xojaning yaqin suhbatdoshiga, ishonchli odamiga aylanadi.

Maqomotlarda Amir Husayn Bahouddin Naqshband bilan doimo birga bo‘ladigan, uning karomatlarini o‘zida mujassam qiladigan murid sifatida tasvirlanadi (yoxud karomatlar unda zuhurga kelar edi).

«Shayx Shamsuddin Kulol huzurida Hazrati Xoja Amir Husaynning botiniga ta’sir qilish bilan mashg‘ul bo‘ldi. Shundan so‘ng Shayx Shamsuddin ham unga ta’sir eta boshladi. Amir Husayn Hazrati Xojaga yuzlanadi. Shundan so‘ng Hazrati Xoja Shayx Shamsuddinga tavajjuh qiladilar (yuzlanadilar). Shayx Shamsuddinda qabz (betoqatlik) holati paydo bo‘la boshlaydi. Amir Husaynga o‘z ta’sirini o‘tkazolmagach, Shayx uni bag‘riga bosib undan uzr so‘raydi [1.3.132b].

Quyidagi lavhada ham Hazrati Xojaning karomati Amir Husaynda zuhurga kelganini ko‘ramiz: «Amir Husayn paxtazorda ishlayotgan paytda Hazrati Xoja uning oldiga keladilar. U kishiga bir guruh darveshlar hamroh edilar. Hazrati Xoja Amir Husaynga tanbeh beradilar va «Nogoh qarasalar, Amir Husayn qulab tushadi, boshu bo‘yni tuproqqa ko‘miladi, xuddi omochdek yerni yorib borardi va undan bir sas ham chiqmasdi [3.133]. Hamroh darveshlardan biri Hazrati Xojadan uning uzrini so‘rab olgach, «Muborak oyoqlarini kovushdan chiqarib Amir Husaynning ko‘kragiga qo‘ydilar. U harakatga kela boshladi, qattiq yig‘ladi va uzr so‘radi. Shundan so‘ng Xoja dedilar: «Bu suvga kir». Amir Husayn suvga tushdi, sho‘ng‘idi va qaytib chiqmadi. Hazrati Xoja hovuz labiga kelib: «Amir Husayn, suvdan chiq», dedilar. Amir Husayn suvdan shu onda chiqdi».

Amir Husaynni Bahouddin Naqshband payg‘ambar s.a.v.ning sahobalariga qiyoslaydi. Bu qiyoslash quyidagicha bayon qilinadi.

Bahouddin Naqshband Amir Husaynga: «Biz bir do‘stimizning ziyoratiga boramiz, o‘n besh kundan keyin qaytib kelamiz», deydi. Shunga qaramasdan o‘sha kuni Shom bo‘lganda Amir Husaynda Hazrat Xojani ko‘rish ishtiyoqi g‘alaba qilib, betoqat bo‘la boshlaydi. Tong otgach, uning uyiga Hazrati Xoja kirib keladi va shunday deydi: «Senga o‘n besh kundan keyin kelaman deb aytmaganmidim? Qaerga borsam oldimda turibsan, bir lahza ham sendan g‘oyib emasmiz». So‘ng buyurdilar: «Muhabbat ishi – bu ulug‘ sifatdir, sahobalar shunday sifatga ega edilar, Payg‘ambar s.a.v.ning suhbatlaridan bir lahza ham uzoqlashishni istamas edilar» [1.3.131a].

Quyidagi naqllarda ham Amir Husaynga xos bo‘lgan xislatlar tasvirlanganligini ko‘rishimiz mumkin. «(Bahouddin Naqshband) haybat bilan qaradilar. O‘sha zahoti Amir Husaynda bir holat yuz berdi, u boshini ko‘tarardi va yerga urardi, xuddi objuvozdagi sholi yanchib, guruch qiladigan sopga o‘xshardi. Ahli majlisda qo‘rqinch va vahima paydo bo‘ldi». «Hazrati Xoja Amir Husaynga haybat bilan tikildilar. U o‘sha onda qulab tushdi, bo‘ynidan ovoz kela boshladi, yuzi orqa tomonga o‘tib ketdi, orqasi esa ko‘kragiga osildi. Bu hol o‘tirganlarga ta’sir qildi» [1.3.135b].

Amir Husayn tushida va ro‘yoda uch marotaba Hazrati Xizrni ko‘radi, Uning iltifoti va inoyati tufayli ilmi g‘ayb, ilmi holdan bahramand bo‘ladi. (Yuqorida zikr etib o‘tganimizdek, Xizr a.s. unga xamir beradi, u pishirilgan nonni yeydi va ilmdan boxabar bo‘ladi, non bilan olmani yeydi). Zikr etib o‘tganimizdek, Hazrati Xizrni tushda ko‘rish ilohiy ne’mat ekanligidan kelib chiqadigan bo‘lsak, Amir Husayn avvalo o‘z piri murshidi Bahouddin Naqshband va Hazrati Xizr rahnamoligida ma’naviy kamolot yo‘lini bosib o‘tadi va oddiy kishidan Shayx darajasigacha ko‘tariladi.

Shunday qilib, yuqorida bildirgan fikrlarimizga tayanib aytishimiz mumkinki, maqomot mualliflari o‘z asarlarida personajlarni tasvirlar ekanlar, ularni bir butun holda o‘quvchining ko‘z o‘ngida gavdalantirishga, ularning salbiy va ijobiy xislatlarini qamrab olgan holda tasvirlashga, ularning hayotiyligini gavdalantirishga harakat qilganlar.

Biz shunga guvoh bo‘lamizki, tasvirlanayotgan personajlarning u yoki bu tipiga xos xususiyatlar o‘sha personajning xarakterli tomonini yoritib beruvchi bir qator naqllarda tadrijiy suratda ochib beriladi. Shu tariqa mualliflar muayyan obrazning o‘quvchi xotirasida saqlanib qolishiga erishadilar.

Maqomotlarda nomlari zikr etilgan aksariyat kishilar tarixiy shaxslardir. Maqomotnavislar mana shu tarixiy shaxslarning faoliyati va sarguzashtlarini, nasl-nasabi, ma’naviy qiyofasi, xislatlari, xulq-atvori, atrofdagilarga munosabati, madaniy saviyasi va boshqa jihatlarini tasvirlab, badiiy portretlar va xarakterlar yaratishga harakat qilganlar. Bu xildagi personajlar tarixiy romanlardagi qahramonlarga o‘xshab ketadilar.

Mualliflar Bahouddin Naqshbandning muxlis va muridlari bo‘lganliklari sababli uning o‘zini va yaqin safdoshlari – xalifalari bo‘lgan Xoja Alouddin Attor, Xoja Muhammad Porso, Shayx Xoja Yusuf va boshqalarning tasvirini ijobiy xislatlar sohiblari sifatida maroq bilan bo‘rttirib tasvirlaydilar. Muxolif shaxslar obrazlarini, aksincha, ularning salbiy tomonlariga ko‘proq ahamiyat bergan holda ifodalaydilar.

Xulosa tariqasida maqomotlardagi personajlarning tasviri tahlilidan kelib chiqqan holda mualliflarning o‘ziga xos obraz yaratish mahorati haqidagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagilarni bayon qilishimiz mumkin.

1. Mualliflar personajlarning u yoki bu xususiyatini tasvirlar ekanlar, ularning bu xususiyatlarini quruq so‘z bilan tasvirlashdan tashqari konkret hayotiy misollar vositasida ochib beradilar.

2. Ayrim personajlarning xarakteriga xos xususiyatlar, bir qator voqealar jarayonida, hayot bilan bog‘liq holda yoritiladi.

3. Ba’zi personajlarning xarakteri ularning hayot hodisalariga, o‘z atroflaridagi voqealarga, kishilarga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatish, uning xatti-harakati, dunyoqarashi, xulqi bilan bog‘liq holda tasvirlanadi.

4. Maqomot mualliflari Bahouddin Naqshbandning xalifalari, muridlari, muxlislari bo‘lganliklari sababli uning safdoshlari, unga hamfikr shaxslarni, xalifalari va muridlari obrazlarini ijobiy xislatlar sohibi sifatida tasvirlaydilar.

5. Maqomotlarda salbiy xususiyatlari bo‘rttirib tasvirlangan siymolar ham mavjud bo‘lib, bu personajlar tasviri ularning Bahouddin Naqshbandga nisbatan salbiy munosabatlarda bo‘lganliklari uchun shu guruhga kiritilganlar.

Shunday qilib, fors tilidagi mumtoz adabiyot namunasi bo‘lgan maqomotlarda personajlarning xarakter va xususiyatlari badiiy shaklda tasvirlanib, kishilar obrazini tasvirlashning dastlabki shakllarini ko‘ramiz.

# IV BOB

# Maqomotlarning badiiy-uslubiy xususiyatlari

## 4.1. Maqomotlarning mushtarak (tipologik) xususiyatlari

Avvalgi boblarda maqomotlarning tarkibiy qismlari ulardagi qahramonlar va personaj xarakteri, agiografik adabiyotga xos bo‘lgan xususiyatlar bilan belgilanishi, ushbu janrning sinkretik xarakteri ham shundan ekanligini ko‘rib chiqdik.

Shunga qaramasdan, har bir maqomot yaxlit asar ekanligini qayd etishimiz joiz. Shu bois tarkibiy qismlarni tashkil qiluvchi naql-hikoyalarning badiiy-uslubiy jihatdan qayta ishlanishi va turli unsurlarni jamlab, bir yaxlit asarning yaratilishini ham maqomotnavislar mahoratidan dalolat deb hisoblash kerak. Zero, badiiy til va uslubiy umumiylik ham asar uchun muhimdir.

Maqomotlarning sof badiiy asar emasligini e’tirof etgan holda, ularning o‘ziga xos badiiy nasr namunasi ekanligini ta’kidladik va shu sababli maqomotlar sof ilmiy, tarixiy asarlardan o‘zining badiiy xususiyatlari bilan ajralib turishini ko‘rsatib o‘tishga harakat qildik. Maqomotlarning badiiy-uslubiy xususiyatlari tahlili ushbu fikrimizni yana yorqinroq isbotlashga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

Bu xususda so‘z yuritar ekanmiz, dastlab diqqatni asarning bayon tarziga qaratmoqchimiz.

Ma’lumki, sharq adabiyotida «uslub» atamasi bayon tarzi, fikrni ifoda etish mahorati sifatida talqin qilingan. «G‘iyos ul-lug‘at»da uslub xuddi shu tarzda tavsif etilgan [242.160].

Shunisi ham ma’lumki, adabiyotshunos olimlar yozuvchilarning individual uslubidan tashqari har bir tarixiy davrning har bir adabiy tur va janrning o‘ziga xos uslubi borligini ham e’tirof etmoqdalar.

Aksariyat hollarda, bir adabiy tur va janr doirasida yozilgan, ayni bir xil muammo va pafosni qamrab olgan asarlar har bir muallifning individualligidan qat’iy nazar, o‘ziga xos mushtarak xususiyatga egadir [176.93].

Shu bilan bir qatorda o‘zining dunyoqarashi, mafkurasi va e’tiqodi nuqtai nazaridan bir-biriga yaqin bo‘lgan yozuvchilar ham o‘z ijodlari bilan muayyan bir adabiy oqimni yuzaga keltirishlari mumkin.

Adabiyotshunoslar hatto turli adabiy oqim va maktablarga mansub bo‘lgan va turli davrlarda yashagan yozuvchilar asarlarida, agar bu asarlar aynan bir janrda yozilgan bo‘lsa, umumiy uslub mavjud bo‘lishi mumkinligini tasdiqlaydilar [176. 98].

Maqomotlarda ham mana shunday jamlanma tiplashtirish, «g‘oya va ma’no-mazmun hamda maqsadga qarab bir turdagi ifoda va ta’sir etuvchi adabiy usul, vositalardan foydalanish» [176.98] hodisasi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bu xususiyatning bosh yo‘naltiruvchi chizig‘i tasavvuf va tariqat g‘oyalari, so‘fiyona ideallarni badiiy bo‘yoqlarda shakllantirishdir.

Yuqorida zikr etilgan fikrlardan kelib chiqib, naqshbandiya tariqatining yetuk vakillari bo‘lgan, hattoki Bahouddin Naqshbandning xalifasi bo‘lgan Xoja Muhammad Porso va Abdul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali, Salohiddin bin Muhammad al-Buxoriy kabi maqomotnavislarning Xoja Bahouddin Naqshband maqomotlariga xos bo‘lgan umumiy badiiy-uslubiy xususiyatlari haqida fikr bildirishimiz mumkin deb o‘ylaymiz.

Tadqiqotning ushbu bobi o‘rta asrlarda sharqda fors tilida yozilgan maqomotlarning badiiy-uslubiy xususiyatlariga bag‘ishlanganidan kelib chiqib, maqomotlar uslubini ularning sharqona tushunchasidan, ya’ni «bayon tarzi» tushunchasidan kelib chiqib tahlil qilmoqchimiz.

Chunki sharq adabiyotida o‘rta asrlarda hukmron bo‘lgan uslub «bayon tarzi» uchun fikrni mumkin qadar ko‘proq o‘xshatishlar, qiyoslashlar, istiora va kinoyalarda, obrazli parallelizmlar orqali ifoda etishga intilish xarakterli bo‘lgan. Buning natijasida ushbu uslubda yozilgan asarning tili ancha murakkab bo‘lib, uni tushunish uchun ma’lum darajada tayyorgarlik talab etiladi.

Lekin shunga qaramay bu yerda biz maqomotlar tilining (ba’zi tarkibiy qismlari bundan istisno) nisbatan sodda va ravon ekanligini aytib o‘tmoqchimiz.[1] Fikrimizni «Eron adabiyoti tarixi» kitobining muallifi Zabixullo Safoning quyidagi so‘zlari ham tasdiqlaydi. U Xoja Muhammad Porso yozgan asarlarga baho berar ekan, shunday yozadi:

---

[1] Бунинг сабаби сўфий муаллифларнинг ўз асарларини оддий кишиларга тушунарли ќилиб ёзишга интилишларидир. Е.Э.Бертельс. Суфизм и суфийская литература, 49 бет.

خواجه محمد پارسا آثار متعددی بپارسی در شرح مسائل عرفانی بنابر طریقت نقشبند یان داشت... بسی شیوه تفکر و تحلیل ابن عربی از مسائل عرفانی نزدیك است... و کتابی در شرح مقامات خواجه بهاالدین نقشبند دارد که بیشتر ما خوذ است از کلمات و بیانات خواجه نقشبند بپارسی روان خوب تالیف کرده است.

tarjimasi: «Xoja Muhammad Porsoning naqshbandiya tariqatiga oid masalalar sharhida ko‘plab forscha yozilgan asarlari bor.... (ularning) aksariyati Ibn al-Arabiyning irfoniy masalalar xususidagi tafakkuri va tahlili uslubiga yaqindir... va Xoja Bahouddin Naqshband maqomotlari sharhida yozilgan kitobi bor va (unda) Xoja Naqshbandning (qudsiy) so‘zlaridan olingan namunalar ravon fors tilida yaxshi yozilgan [234.659].

Rus eronshunos olimi I.M. Dyakonov fikricha, «Eron madaniyatining asosi Sharqda yaratildi. Buxoro (X asr) o‘rta asrlar madaniyatining dastlabki markazi ekanligi, u yerda yaratilgan adabiyot hozirgi zamon fors adabiy tili asosini tashkil etishini» qayd etadi va bu adabiyotning uslubi ravon ekanligini aytadi [124.6]. Bu fikr eronlik adabiyotshunos olim Z. Safo tarafidan bayon etilgan yuqoridagi fikrning kengroq ko‘lamdagi tasdig‘i sifatida qabul qilinishi mumkin.

Maqomotlarning badiiy xususiyatlari tahlilida, umuman, badiiy adabiyotga xos xususiyatlardan biri bo‘lgan «ta’sirchanlik»ni yodga olish lozim. Chunki «ta’sirchanlik» (fors adabiyotshunosligida bu istiloh «ta’sirdoriy» deyiladi) adabiyotshunoslikda badiiy ta’sir, estetik zavq, badiiy effekt sifatida talqin etiladi.

Yana bir fikr mavjudki, u ham badiiy asarga xos bo‘lgan xislatlarni yorqin ifoda etadi: «O‘zi ifoda etgan fikr va hislar bilan o‘quvchi yo tomoshabinni hayajonga soladigan asarlargina haqiqiy san’at asari bo‘la oladi», deyiladi boshqa bir tadqiqotda. Xullas, maqomotlar sof badiiy asar deb qaralmasa-da, ularda badiiy vositalardan foydalanib, ta’sirchanlikni oshirishga intilish ko‘zga chalinadi.

Xoja Bahouddin Naqshbandga bag‘ishlangan maqomotlarda hikoya qilingan hayotiy voqealar, shayx Bahouddinga xos bo‘lgan xoriqulodda – g‘ayrioddiy xislatlar haqida hikoya qiluvchi naqllar va rivoyatlarda tasvirlangan voqealar maqomot mualliflarining ravshan,

sodda va ravon tilidan bayon qilinganki, ularning ta'sirchanligi va jozibadorligiga sabab bo'lgan.

Maqomotnavislar o'z asarlarini yozishda muhaddislarga taqlid qilganliklari, ularning bayon uslubini, bayon tarzini o'z-lashtirganliklari barcha maqomotlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Yuqorida eslatib o'tganimizdek, maqomotlar tarkibiga kiritilgan har bir hikoya «Naql qilishlaricha»; «Bir donishmandning naql qilishicha», «Naqldirki», «Alouddin Attor attarollohu marqadahunning naql qilishlaricha» kabi kirish so'zlari va isnod bilan boshlanadi.

Isnod so'zi arab tilida - tirgak, dalil, asos ma'nolarini anglatadi. Islomda isnod har bir hadisning tarkibiy qismini tashkil etadi. Hadisning boshlanishida uni birinchi bo'lib aytgan va eshitgan kishidan boshlab, hadislarni to'plovchigacha barcha shaxslarning ismlari birma-bir ko'rsatib chiqiladi va bu hadisning asosi, dalili hisoblanadi. Hadisning haqiqiy va soxta ekanligini ulamolar shu nomlarni taqqoslash yo'li bilan topganlar. Hadisni yozib qoldirgan kishilarning yashagan yillari to'g'ri kelsa, ular islomda obro' qozongan kishilar bo'lsa, isnod to'g'ri, demak hadis ham to'g'ri deb hisoblangan [134.166].

Hadislarga murojaat qilsak, ulardagi hikoyatlar ham «Abu Hurayra raziyallohu anhudan bunday deb naql qiladilar», «Abdulloh ibn Abbos rivoyat qiladilar», «Abu Hurayra aytadilar», «Ba'zi odamlar..» kabi kirish so'zlari bilan boshlanadi.

Isnodning vazifasi haqida arabshunos olim A.B. Xolidov shunday fikrlarni bildiradi. «VIII asrda yashab ijod qilgan Urva musulmon aristokratiyasi vakillarining turli masalalar xususida bildirgan fikrlari tutgan yo'llarining va faktlarning haqiqat ekanligini aniqlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan iqtiboslar va isnodlar tizimini yaratishga asos soldi. Ushbu tizim dunyo xalqlari yozma adabiyotida juda nodir hodisa bo'lib, bayon etilayotgan xabarlarning aniqligiga (to'g'riligiga) dalolat beradi. Arab va umuman musulmon agiografiyasiga xos bo'lgan xususiyat - isnod tizimining kelib chiqishi haqida olim shunday deydi: «Og'zaki tarzda biror kishi tarafidan boshqa birovga takror orqali yetkazilgan xabarlarning aniqligi, to'liqligi va buzilmaganligini tekshirish odati arab adabiyoti taraqqiyotining ilk davrlarida keng tarqalgan edi». Bu odat og'zaki

adabiyot bag‘rida yuzaga kelib, islomga qadar mavjud bo‘lgan arab og‘zaki adabiyotidan sarchashma oladi [204.98].

Bundan tashqari maqomotlardagi «naql»larning va «hadis»larning ham bir-birlariga o‘xshash tomonlari juda ko‘p. Bu o‘xshashlik «naql» va «hadis»lar kompozision qurilishining bir-biriga juda o‘xshashligida namoyon bo‘ladi. Ular orasidagi o‘xshashlikni quyidagi misollarda ham kuzatishimiz mumkin.

«Hazrati Xoja Aloul-haq vaddin attorallohu marqadahunning naql qilishlaricha», «Darvesh Bobosohib Samarqandiydan naql qilishlaricha» (maqomotlarda) «Anas ibn Molikdan naql qiladilar», «Usoma ibn Zayd raziyallohu anhu rivoyat qiladilar», «Abu Muso al-Ash’ariy rivoyat qiladilar»(hadislarda). Bu misollardan ko‘rinib turganidek, naql va hadislarning boshlanish qismi bir-biridan farq qilmaydi.

Ularning kirish qismidan so‘ng keladigan asosiy bayon qismi ham juda o‘xshashligini quyida ko‘rib o‘tamiz.

«Naql qilishlaricha, Hazrat Xojamiz qaddasallohu sirrah ul-aziz hol avvalida bir kuni G‘adyutda Shayx Shodi uyiga tushgan edilar. Shayx Shodi ularning huzurlarida muroqaba kasb etish uchun o‘tirgan edi. Hazrati Xoja boshlarini ko‘tarib: «Shodi, sen men bilan raqobat qilmoqchimisan? Hozir o‘rningdan turib xizmat qiladigan payting, ammo bu xizmatda o‘zligingdan kechib, vujudsiz sifat bilan xizmat qil!» - dedilar (Maqomotdan).

Endi mana bu hadisga diqqat qiling: «Abdurahmon ibn Bakra otalaridan naql qiladilar: «Bir kishi Rasululloh sallollohu alayhi va sallamning huzurlarida boshqa bir kishini maqtab ko‘klarga ko‘tardi. Shunda janob Rasululloh: «Voy burning yerga ishqalgur, do‘stingning bo‘ynini sindirding-ku!» - deb bir necha bor takrorladilar. So‘ng: «Agar birortangiz kimnidir haqiqatan ham maqtovga sazovor deb bilib, maqtamoqchi bo‘lsangiz, u holda «men uni bunday va bunday deb hisoblayman», - deb aytingiz. Chunki Alloh taolo uni (sizdan ko‘ra yaxshiroq) bilg‘aydir, Allohning bandasini Allohning o‘ziga maqtamangiz!» dedilar [3. 99].

Yuqoridagi misollar maqomotlar va hadislarning bayon uslubi bir-biriga yaqinligini ko‘rsatib turibdi. Ko‘rinib turganidek, naql ham, hadis ham avvalo kimlardir tarafidan valiy yoki payg‘ambarning so‘zlari, ishlari, amallari yoki biron bir voqeaga munosabatlari haqidagi xabarning bayonidir. Bu bayon kim tarafidan

amalga oshirilganligi haqidagi xabar-isnod naql va hadislarning boshlanish qismida beriladi. Undan so‘ng asosiy maqsad bayoniga o‘tiladi.

Yuqorida misol tariqasida keltirilgan maqomotdan olingan naqldan shu narsa anglashiladiki, unda Hazrati Xoja G‘adyutda shayx Shodi ismli muridining uyiga borgan ekan. Undan so‘ng asosiy maqsadning bayoniga o‘tiladi va unda shayx Shodining o‘z piri huzurida muroqaba bilan mashg‘ul bo‘lishi, murshidi tarafidan tanqid qilingani va bu ishning amalga oshirilishiga ijozat yo‘qligini ta’kidlash hamda muridning vazifasi hozir muroqaba bilan mashg‘ul bo‘lish emas, balki «o‘zligidan kechib» piru rahnamosi belgilab bergan vazifalarni bajarishdan iborat ekanligini ta’kidlashdir. Naqlning oxiri pirning muridga o‘giti bayoni bilan yakunlanadi. Buni naqlning xulosa qismi desak adashmaymiz.

Mazkur hadisda ham xuddi shunday kompozision qurilish ko‘zga tashlanadi. Hadis naql qiluvchining ismini zikr qilish bilan boshlanadi. So‘ngra hadisning asosiy qismi bayoniga o‘tiladi va nihoyat hadis payg‘ambarimizning o‘git-nasihatlari bilan yakunlanadi.

Maqomotlardagi naqllar va payg‘ambarimiz hadislarining hajmi katta-kichik bo‘lishidan qat’i nazar yuqorida zikr etilgan kompozision qurilish saqlanib qoladi.

«Avliyolar anbiyolarning vorislari» ekanligini yodga oladigan bo‘lsak, Rasululloh so‘zlari va amallari sabt etilgan hadis kitoblari uslubi bilan shayx-valiy Bahouddin Naqshbandning hayoti, faoliyati va qudsiy (muqaddas) so‘zlari, karomatlari haqidagi hikoyat-naqllar jamlangan maqomotlarning uslubidagi o‘xshashlik o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘lib qoladi.

Maqomotlarning badiiy-uslubiy xususiyatlaridan biri ularda ramz (majoziy) uslubining keng qo‘llanilganligidir. Professor H. Karamatovning bu boradagi fikri diqqatga sazovor: «Tasavvuf adabiyotida xuddi Qur’ondagidek xilma xil tushunchalar, tarixiy va diniy hodisalarda ramziy ishoralar, qaytariluvchi va yetakchi mavzu hamda syujetlar baravariga kelib o‘quvchini bilim va taxayyul olamiga hodi etadi» [26.44].

Ramziylikning qo‘llanilishi faqat ma’noni belgilab, uni tugal shaklga yetkazmaslikdir. Bu orqali o‘quvchilarga fikr-mulohaza

yuritib, o‘zi bayon qilgan voqealardan mustaqil ozuqa olish imkoniyati yaratiladi va shunga ishora qilinadi.[1]

Maqomotlarda ramz va majoz keng qo‘llaniladi. Bu birinchidan, bayon etilayotgan fikrning aslini boshqa ma’noni anglatuvchi so‘zlar va iboralar ortiga yashirish bo‘lsa, ikkinchidan asarning jozibadorligini oshirish orqali o‘quvchini chuqurroq o‘ylashga, idrok qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Boshqa tarafdan maqomotlar dastlab maxsus kitobxonlar doirasiga (so‘fiy-darveshlar) mo‘ljallab yozilgan va o‘sha o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lgan. O‘sha davrning xos kitobxoni islom aqidalari va diniy-tasavvufiy risolalar, istilohlar, tushunchalardan boxabar bo‘lgan satrning ko‘z ilg‘amas zohiriy va botiniy ma’nolarini tushuna olgan.

Maqomot mualliflari Bahouddin Naqshband yoki boshqa personajlar hayotiga oid biror voqeani bayon qilishda yoxud pir-murid munosabatlaridagi axloq-odob qoidalarini bayon qilishda, albatta o‘sha mavzuga bag‘ishlangan bir qator naqllarni keltiradilar. Masalan, muridning o‘z piriga so‘zsiz tobe bo‘lishi lozimligini, pirning amri murid uchun vojib ekanligini tasvirlash uchun maqomotlarda ko‘plab naqllar keltiriladi. Naql so‘zi asli arab tilidan kirgan bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi – hikoya (rasskaz, pereskaz) demakdir. O‘zbek tilida ham bu so‘z keng qo‘llanilgani uchun biz bu istilohni aslida ishlatdik.

Quyida bunday naqllarning birini keltiramiz.

منقول است که روزی خواجه علی الدین با یکی از درویشان بخارا که مشهور بود ملاقات شد و در میان ایشان قصئه گذشته از عالم غیبت برآن درویش غلبه کرده اند آن معنی به حضرت خواجه رسیده گفتند که تو ولیٍّ چنانکه شیوه ایشان بود این صفت را از خود نهی کرده اند باز فرموده اند من میگویم تو ولی نیستی از صفت ولایت گز رایشان متوقف شده اند خواجه فرموده اند که اگر صحبت مرا میطلبی از صفت ولایت می باید

[1] Бу асар тилини мураккаблаштирган-ку, юқорида зикр этилган соддалик ҳақидаги фикрга зид-ку, дейишингиз мумкин. Аммо биз соддалик ҳақида гапирганда, нисбатан олиб қараяпмиз, яъни бошқа адабиёт турига кўра суфиёна адабиётда соддалик бор. Бироқ бу адабиётнинг ўзига хос ишора ва рамзлари бор. Буларсиз кароматларни англаш мушкул.

گذشت خواجه علی الدین گفته اند که عنایت الهی در سیر مرا از عقبه و حجاب گزرانیدند آنچه دیدم و دانستم که هرچه حالی و کمالی که از آن شریفتر نیست.

«Naql qilishlaricha, bir kuni Hazrati Xoja Alouddin Buxoroning ulug‘lik da’vo qilib yuradigan darveshlaridan biri bilan uchrashib qoldilar. Ularning orasida g‘ayb olami haqida tortishuv bo‘lib o‘tdi. Xoja Alouddin darvesh ustidan g‘alaba qildilar. Bu xabar Hazrati Xojamizga yetdi va Xoja Alouddinga: «Sen valiymisan?» dedilar. Ular odatlari bo‘yicha bu sifatni inkor etdilar, Hazrati Xoja: «Sen valiymisan deb so‘rayapman?» dedilar yana, Xoja Alouddin tazarru’ va ojizlik izhor qilib turdilar. Hazrati Xojamiz dedilar: «Agar valiy bo‘lmasang, valoyat sifatidan kech!». Xoja Alouddin jim turdilar. Hazrati Xoja davom etdilar: «Agar mening suhbatimni tilasang, valoyat sifatidan kechishing shart».

Xoja Alouddin dedilar:»Tangri mehribonligi yetib, meni to‘siq va pardadan qutqazdilar. Bu hol va kamoldan azizroq bo‘lgan narsalarni ko‘rdim» [1.2.47a].

Naql va rivoyatlarni o‘rganganda, ma’lum bo‘ladiki, ular orasida: 1) aniq tarixiy shaxs yoki bir necha shaxsga havola qilib keltirilganlari (manzilli-isnodli) va 2) manzilsizlari ham bor. Chunki bunda xalq orasida tarqalgan rivoyatlar ham qo‘shib beraverilgan.

Bulardan tashqari maqomotlarda «safarnoma»larga xos bo‘lgan sarguzasht hikoya-naqllar ham borki, yo‘l azoblarini, tabiat manzaralarini rangli bo‘yoqlar bilan tasvirlashga harakat qilingan.

Bahouddin Naqshband tushida (ro‘yoda) dunyodan o‘tgan pirlar qatori Abduxoliq G‘ijduvoniyni ko‘rishi, so‘ngra unga bu tushning haqiqat ekanligi isbotlanishi uchun unga vazifa topshirilishi va u o‘sha vazifani bajarish uchun yo‘lga tushishi hikoya qilingan naql yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi deb o‘ylaymiz.

Chunonchi, shu naqldan:

... بعد از آن آن جماعت مرا حرکت دادند و بخود آوردند در آن صبحدم بتعجیل بطرف ریورتون رفتم از متعلقان از قصه کلاه پرسیدم گفتند مدتی ست که در فلان جای است... آن روز گذشت روز دیگر وقت آفتاب برآمدن برمقتضای آنکه درآن واقعه ما مور بودم سه عدد مویز گرفتم و براه ریگ مرده بطرف نسف

متوجه شده... چون به پشته قراخون رسیدم اهل کاروان از من سوال کردند از کجا میایی... چنین از آن کاروان گذشتم آن سوار که گفته بودند مرا پیش آمد چون نزدیك اور سیدم بر وسلام کردم گفت تو کیستی که من از تو میترسم گفتم من آن کسم که ترا بر دست من تو به باید کرد زود از مرکب پیاده شده خروا رهای شراب داشت همه را ریخت و تو به کرد و چون از آن سوار هم گذشتم و بحد نسف رسیدم بدهی رفتم که حدمت سید امیر کلال در آنجا بودند

«...Shundan so‘ng bu jamoat meni harakatga solib o‘zimga keltirdilar. Shu kuni tongda zudlik bilan Revartun tarafiga ravona bo‘ldim. Aloqasi bor kishilardan kuloh haqida surishtirdim. Aytdilar: «Bir necha muddatdan buyon falon joydadir»... Bir kun ham o‘tdi. Ertasiga quyosh chiqqan vaqtda buyurilgan ish taqozosi bo‘yicha uch dona mayiz olib Regi Murda ko‘li orqali Nasafga shaylandim. ...Shu kuni kunning avvalida... shiddat bilan yo‘lga tushdim. Pushtai Qaroxunga yetganimda bir qariyaga duch keldim, bitta issiq non berdi. Nonni olib unga xech narsa demadim. Ancha yurgach, bir karvonga duch keldim. Karvondagilar mendan: «Qaerdan kelayapsan?» deb so‘rashdi. Men joy nomini aytdim... Karvondan o‘tdim va o‘sha aytilgan otliqqa duch keldim. Yaqiniga borib salom qildim. Otliq: «Sen kimsan, men sendan xavfdaman!» dedi. «Men seni tavbaga yetkazadigan kishiman» dedim. U sakrab otdan tushdi, yukini tushirib, sharoblarini to‘kdi va tavba qildi. Bu yerdan ham o‘tib, Nasaf chegarasiga yetib keldim. Hazrati Sayyid Amir Kulol yashaydigan qishloqqa kirdim...» [1.2.16a-b].

Bu kabi naqllar ham maqomotlarda ko‘plab uchraydi. Ular maqomotlarning bayon tarzining o‘ziga xosligidan dalolat beradi.

Umumun olganda «naql» ko‘proq so‘fiyona adabiyotga xos (Attorning «Tazkirat ul-avliyo» asarida ham bundan keng foydalanilgan), chunki Sharqda masal, hikoyat, rivoyat janrlari yaxshi rivojlangan. Adabiyotda bular ko‘p uchraydi. Ammo naql asosan hadis va maqomotlarda qo‘llanilgan istiloh. Chunki naql qisqa (miniatyurik) hikoyacha, bitta fikr yoki karomatni bayon etishga xizmat qilgan.

Maqomotnavislar asar qahramonining va boshqa personajlarning ruhiy kechinmalarini, fikr-o‘ylarini tasvirlash uchun shu mavzuni yechib bera oluvchi naqllarni keltirish orqali maqsadlariga yetadilar.

Mualliflar insonning ichki dunyosini, shaxsning ma'naviy takomilini tasvirlashda ham mahoratlarini namoyon etadilar. Bunday tasvirlar asar qahramoni va personajlarning ma'naviy-ruhiy holatlarini mualliflar tarafidan emas, balki ularning xatti-harakatlari, atroflaridagi kishilar bilan munosabatlari, suhbatlari jarayonida ochib beradilar (buni avvalgi bobda ko'rib o'tdik).

Ma'lumki, badiiy asarning tili bir-biridan sezilarli farq qiladigan ikki bo'lakdan – muallif nutqi va personajlar nutqidan iboratdir [1.99].

Maqomotlardagi muallif nutqi asosan axborot xarakteriga ega. Mualliflarning axborot beruvchi nutqi o'quvchini asar bosh qahramoni va boshqa personajlar hayoti hamda faoliyati, ularning hayotida ro'y bergan muhim voqea-hodisalardan xabardor qiladi.

Maqomotlar mazmunining o'ziga xosligi, ya'ni ularning tariqat piri, shayx Bahouddin Naqshband hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi asar ekanligini yodga oladigan bo'lsak, bu hol mualliflar tilining ham o'ziga xos bo'lishini talab qilganligining guvohi bo'lamiz. Har qanday diniy-tasavvufiy mazmunga ega bo'lgan asar tilining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri unda arabiy so'zlar va iboralarning ko'plab ishlatilishidir. Chunki so'fiylar nutqini Qur'on oyatlarisiz yoxud hadislarsiz, falsafiy-tasavvufiy istilohlarga boy jumlalarsiz tasavvur qilish qiyin. Shu sababli ham maqomotlarda ko'plab arabiy so'z va iboralarni uchratamiz.

Ularning hech biri asar tilining jozibadorligiga zarracha nuqson yetkazmaydi, aksincha unga o'ziga xos rang-baranglik baxsh etadi. Maqomotlar uslubining o'ziga xosligi ham shundaki, ularda arab tilida yozilgan Qur'on oyatlari va hadislar originalda keltiriladi, fors tiliga tarjima qilinmaydi.

Muallif nutqidan tashqari personajlar nutqi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Maqomotlar personajlarining aksariyati Bahouddin Naqshband bilan bevosita yoki bilvosita aloqadorligi, ularning ham nutqida arabiy so'zlar va iboralarning mavjudligini taqozo etadi. Arabizmlar Bahouddin Naqshband va boshqa personajlarning diniy-tasavvufiy mavzudagi suhbatlarida nihoyatda ko'p uchraydi.

Maqomotlar shayx Bahouddin Naqshbandning – naqshbandiya tariqatining asoschisi, piru murshidning hayoti va faoliyatiga bag'ishlanganligi tufayli ularning tili ham o'ziga xos. Ularda

Bahouddin Naqshbandning diniy-tasavvufiy dunyoqarashini aks ettirish uchun ko‘plab Qur’oni Karim oyatlari, hadislar va mashoyixlar qudsiy so‘zlarining arab tilida keltirilishi, bir tarafdan, maqomotlar tiliga o‘ziga xos jozibadorlik, maftunkorlik va rangbaranglik baxsh etsa, ikkinchi tomondan, personajlar tilini individuallashtirishga qaratilgan harakat sifatida talqin qilinishi mumkin. Quyida maqomotlardan olingan va oyat va hadislar bilan kelgan naqllardan namunalar keltiramiz va bu misollar fikrimizni tasdiqlaydi, deb o‘ylaymiz.

«Naql qilishlaricha, bir bola maktabdan chiqib kelardi, qo‘lida esa Qur’on bor edi. U Hazrati Xojamizga salom berdi. Ul zot alik olib, so‘ng bolaning qo‘lidan Qur’onni olib ochgan edilar: «Va kalbihum bositun ziroayhi bi-l-vasiyd» (tarjimasi: ularning itlari esa oldi oyoqlarini ostonaga yozib yotur) degan oyat chiqdi. Shunda Xoja: «O‘sha men bo‘lsam kerak, deb umid qilaman», dedilar [1.2.71a].

Mana bu naqlda esa hadis keltirilganini ko‘ramiz. «Naql qilishlaricha, bir kuni Xojamizning huzuriga halim olib kelishdi. Ular halimdan yedilar. Bu suhbatda bir darvesh ham hozir edi, taomdan yemadi. Xoja undan: «Nega yemayapsan», - deb so‘radilar. «Ro‘za tutganman», - dedi u. «Qanday ro‘za tutgansan», - deb so‘radilar Xojamiz. Darvesh jim bo‘lib qoldi. Xoja dedilar: «Yeyaverki, bizni fazl eshigidan keltirganlar va bizning vazifamiz farzlar, vojiblar va sunnatlarni ado qilishdirki: «Man shag‘ala-l-farzu ‘ani-l-fazli fa huva ma’zurun. Va man shag‘alahu-l-fazlu ‘ani-l-fazli fa-huva mag‘rurun» (tarjimasi: kimki farzni bajarishga intilib, fazilatga intilmasa, bu uzrlidir, kimki fazilatga intilib, farzdan qolsa, u aldangan kishidir).

So‘ng dedilar: «...Sizlarning birdan bir ishingiz beixtiyor bo‘lishdir. Sizlar rizotalab qalblar roziligini topishga rioya qiling. Har bir darvesh ahlullohlar roziligini topishga intilmog‘i lozim....» [1.2.69b].

Maqomotnavislar asarda kishilar xarakterini, ularning ruhiy holatlari, psixologik kechinmalarini, ichki va oshkora nutqlarini tasvirlaganda faqat xalq maqollaridangina emas, Qur’on oyatlari, hadislar, mashoyixlarning ibratli-qimmatli so‘zlari va mumtoz shoirlarning she’rlarini ham ustalik bilan ishlatganlar.

Ma’lumki, Qur’on O‘rta asrdagi barcha musulmon dunyosi xalqlari adabiyotiga ta’sir ko‘rsatgan. Diniy-tasavvufiy mazmundagi adabiyotlar islom ruhini aks ettirib, Qur’ondan olingan oyatlar bilan boyitilgan. Maqomotlar ham bundan istisno emas. Maqomotlarning bosh qahramoni Bahouddin Naqshband buyuk shayx bo‘lganligidan, uning nutqi arab tilidagi Qur’oniy iqtiboslar bilan birga hadislarga juda boy.

Bu hol mualliflar tarafidan asar qahramoni - Bahouddin Naqshband tilining ta’sirchanligini oshirish uchun uning tilini individuallashtirishga qilingan harakat, deb baholanishi kerak.

Tasavvuf adabiyotining xoh u nasrdan, xoh u nazmdan iborat bo‘lsin, Qur’oni Karim oyatlari va turli muhaddislarning hadislarisiz tasavvur qilish qiyin, albatta. Ularda Qur’oni Karimdan oyatlar keltirar ekanlar, aksariyat hollarda, bayon qilinayotgan bu fikrning, diniy-tasavvufiy g‘oyaning to‘g‘ri ekanligini tasdiqlash uchun xizmat qiladi. Tabiiyki, har bir mo‘min-musulmon uchun Qur’ondan bo‘lak ishonchliroq manba, dalil bo‘lishi mumkin emas. Bu borada ko‘plab misollar keltirish mumkin.

«Naql qilishlaricha, Hazrati Xojamiz aytgan ekanlar: «Hakimi ala-l-itloq jalla jalolahu o‘z inoyati bilan menga tavba eshigini ochgandan so‘ng bir kuni yo‘lda ketayotgan edim. Do‘stlardan bir guruhi o‘tayotib, mening oldimga keldilar va meni o‘z tariqatlariga kirishga da’vat qildilar va bu borada jiddu jahd ko‘rsatdilar. Tangrining inoyati bilan tilimga mana bu kalima keldi va dedim: «Hazrati haq subhonahu va taolo berkitib qo‘ygan eshikni sizlar ocholmagaysizlarki,

ما يفتح الله للناس من رحمته فلا مومسك لها و ما يمسك ولا مرسلة له من بعضه

«Mo yaftahullohu li-n-nosi min rahmatihi, fa-lo mumsika laho va mo yumsiku, va-lo mursila lahu min ba’dixi».

Tarjimasi: Alloh odamlar uchun rahmatini yuborsa, uni to‘sib qoluvchi bo‘lmas, rahmatini to‘sib qo‘ysa, to‘sib qo‘yganidan so‘ng uni ochib yuboruvchi bo‘lmas.

Bu so‘z mazkur jamoatga ta’sir qildi va hammalari tavba qildilar.

Mana bu oyat va hadislar sharorasidan kelib chiqadigan xulosa, yuqorida bayon qilingan asosiy fikr va aqidaning to‘g‘ri, haqqoniy ekanligini isbotlab, dalillab ishonarli tarzda o‘quvchiga yetkazish uchun unda hech qanday gumon qoldirmaslik uchun keltirilgan.

Mualliflar shu bilangina cheklanib qolmay bu oyat va hadislar ham bayon etilayotgan fikrni o‘quvchiga yoki tinglovchi ongiga singdirishga kamroq ko‘rinib bularga qo‘shimcha qilib, ayni o‘sha fikr yoki aqidani nazmga soladi va masnaviy, qit’a, ruboiy, fard tarzida bayon qiladilar. Bunday masnaviylar qit’a va fardlar ham hikmatli-aforizm so‘zlardek jaranglab va o‘quvchining xotirasida saqlanib qoladi.

Ba’zi maqomotlarda (Muhammad Porso qalamiga mansub maqomotda inv. raqami 2520) Qur’on oyatlari, hadislar izoh va tafsirsiz beriladi. Aksincha, Saloh ibn Muborak al-Buxoriyning «Anis ut-tolibin» kitobida keltirilgan hadis va oyatlar buyuk muhaddislar, xususan Hakim at-Termiziy sharhi bilan beriladi. Bu hol maqomotnavislar uslubining turlicha ekanligidan dalolat beradi.

Ammo maqomotlarda keltirilgan oyat va hadislarning aksariyati fors tiliga tarjima qilingan. Bu maqomotga xos uslub bo‘lib, bundan ko‘zlangan maqsad fikrni o‘quvchiga oson yetib borishini ta’minlashdir. Chunki fors irfoniy adabiyotida oyat va hadislar keltirilganida aksariyat asarlarda ularning tarjimalari berilmaydi va buning natijasida oddiy kitobxon uchun asarni tushunish qiyin bo‘ladi. Masalan, Jaloliddin Rumiyning «Masnaviy» asarida ham ko‘plab Qur’on oyatlari va hadislar ishlatilganligi ma’lum (760 ta). Ammo «Masnaviy»da ishlatilgan oyat va hadislarning ko‘pchiligi arab variantida keltirilib, tarjima qilinmagan. Shu sababli ularni tushunish uchun o‘quvchi maxsus tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lishi lozim. Yuqorida zikr qilganimizdek, ba’zi maqomotlarda oyat va hadislar ham muallif tarafidan arab tilidan fors tiliga o‘girilgan. Bu bir tarafdan kitobxonlar uchun asarning mazmunini yanada aniqroq tushunish uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchi tarafdan asarning qiymati va unda bayon etilayotgan fikrlarning ta’sirchanlik kuchini yana bir karra orttirgan.

Maqomotlar badiiy xususiyatlarining yana bir jihati shundaki, ularda tarixiy faktlar ham bayon qilinadi. Ammo tarixiy faktlar quruq holda emas, balki badiiy bo‘yoqlar bilan bezatiladi. Shu sababli ham maqomotlarni adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish o‘rta asrlardagi badiiy tafakkur va nasriy janrlarning rivojlanishini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda o‘rta asrlarda qo‘llanilgan badiiy so‘z san’atining asosiy yo‘nalishlarini

aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Fikrimizga dalil sifatida quyida bir naqldan parcha keltiramizki, unda Bahouddin Naqshbandning Xalil ota ismli darvesh bilan muloqoti haqida hikoya qilinadi.

... من در ملازمت ایشان بودم در حضور ایشان حالات عجیب مشاهده نمودم بعد از شش سال پادشاهی ماوراالنهر او را میسر شد و او را سلطان خلیل می گفتند در آن اوقات نیز حالهای بزرگ مطالعه کرده می شد در آن دوران شش ساله پادشاهی ملازم او بودم و آداب حدمت پادشاهان را میاموختم... بعضًا بعنف و گاهی بلطف مرا شفقت بسیار میکرد...

«...Men uning mulozamatida bo‘ldim. Uning huzurida ajoyib holatlarni ko‘rdim. Olti yildan so‘ng unga Movarounnahr podsholigi muyassar bo‘ldi. Uni Sulton Xalil der edilar. O‘sha paytda ham undan ulug‘ holatlar ro‘y berardi. Uning olti yillik saltanati davrida yana unga mulozim bo‘ldim va podsholar hizmatidagi odoblarni o‘rgandim va unga xizmat qilish odoblarini joyiga qo‘ydim. Xilvatda uning xos mahrami men edim. Shunday qilib, men avliyoullohning xizmatini qilardim. Ba’zan qattiq gapirib, ba’zan lutf bilan menga ko‘p shafqatlar qilardi. Shundan so‘ng ularga qarshi dushman paydo bo‘ldi. U yengildi. Bir onda uning tamomi saltanati havoga sovurildi. Shunda dunyoning barcha koru boridan ko‘nglim sovidi. Buxoroga qaytib keldim va Revartunda yashay boshladim».

Ko‘rinib turibdiki, mazkur lavhada tarixiy voqeaning, ya’ni mashhur sufiy Xalil Ota bilan Bahouddin Naqshbandning uchrashuvi va suhbatlari haqida ma’lumot beriladi. Ammo bu tarixiy voqea quruq xabar berish uslubida emas, balki badiiylashtirilgan tarzda bayon etilgan. Bu bayon ustoziga mehr-muhabbati nihoyatda baland bo‘lgan murid tilidan olib borilmoqda. Unda ertak va rivoyatlarga xos bo‘lgan bayon uslubini ham ko‘rishimiz mumkin: «Uni Sulton Xalil der edilar», «...ulug‘ holatlar ro‘y berardi», «...shafqatlar qilardi» kabi iboralar tarixiy faktlar bayoniga xos iboralardan ko‘ra rivoyatlarga xosdir. «Bir onda uning tamomi saltanati havoga sovurildi. Shunda dunyoning barcha koru boridan mening ko‘nglim sovudi» kabi jumlalarda ifodalangan fikr tarixnavisga emas, balki nosirga taalluqliligi ayondir, chunki badiiy so‘z ustasigina tarixiy voqeani bu qadar jozibali va go‘zal shaklda tasvirlay olishi mumkin.

Saltanatning barbod bo‘lishi «bir onda» sodir bo‘ladigan hodisa emas, albatta. Ammo bu jarayonning naqadar tez suratda sodir bo‘lganini tasvirlash uchun maqomot muallifi uni «bir onda havoga sovurilgan» deb ta’riflaydi. Dunyoning bebaqoligiga ishonch hosil qilgan Bahouddin «dunyoning barcha koru boridan ko‘ngli soviganini» aytish bilan o‘zining nafaqat konkret voqeaga nisbatan, balki butun borliqqa bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Shu tariqa u dunyoviy ishlardan voz kechib, yana diniy ishlarga yuz tutganini asoslaydi.

Shu qisqagina tahlildan kelib chiqib, maqomotlarda tarixiy faktlarga badiiy ishlov berilishi natijasida ularning bayoni obrazli til vositasida amalga oshirilganligiga guvoh bo‘ldik. Aks holda tasvir yuqoridagidek ta’sirchan va jozibali chiqmagan bo‘lardi.

Maqomotlarning badiiy-uslubiy xususiyatlaridan yana biri, uning nasr bilan nazmda yozilganligidir. Bu uslub bir tarafdan agiografik janr asarlariga xos bo‘lishi bilan bir qatorda maqomot mualliflarining nozik ta’blaridan dalolat beradi.

Bu hol maqomotlarning faqat biron bir qismiga xos emas, balki janr uslubiga xos xususiyatdir. Fors-tojik mumtoz adabiyotining buyuk namoyandalari Sa’diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiyning o‘lmas asarlari «Guliston» va «Bahoriston»ga xos bo‘lgan nasr va nazm uyg‘unligi, ya’ni mazkur asarlarning nasriy va nazmiy qismlarining hamohang tarzda, bir-birini to‘ldirib kelishi va oqibatda yagona, yaxlit bir asarning ajralmas bo‘laklarini tashkil etishi barchaga ma’lumdir. Maqomotlarning nasrini uning nazmidan ajratib bo‘lmaydi. Bu uslub bir tarafdan maqomotnavislarning nosirlik va nozimlik mahoratini namoyon etsa, ikkinchi tarafdan kitobxonning diqqatini bayon etilayotgan mavzuga yanada ko‘proq jalb etishga xizmat qiladi.

Maqomotlar tili o‘ziga xos tasviriy jozibaga ega bo‘lgan obrazli til. Shu sababli maqomotlarda personajlarning kechinmalari tabiat manzaralari shunday tasvirlanadiki, bu tasvir orqali maqomot mualliflari ifoda qilmoqchi bo‘lgan manzara ko‘z oldimizda yorqin namoyon bo‘ladi. M. Gorkiy ta’kidlaganidek, «yozuvchi faqat qalam bilan yozmaydi, balki so‘z bilan surat chizadi. Surat chizganda ham odamlarni beharakat tasvirlamaydi, balki ularni muttasil harakatda, junbushda, o‘zaro uzluksiz to‘qnashuvlarda, kurashda tasvirlashga intiladi» [123.70].

Maqomotlarda bayon ritmi (maromi) doimo o‘zgarishda bo‘lib, gohida osoyishta va sokin gohida shiddat kasb etib hikoya qilinayotgan voqea-hodisalarning asar qahramoni hayotiga ko‘rsatgan ta’sir darajasi va ahamiyati bilan bog‘liq holda o‘zgarib turadi. Ko‘p hollarda voqealar sahna asari kabi dialoglar tarzida hikoya qilinadi va shu tariqa bayon jonlantiriladi.

Bu uslub maqomotlardan olingan, yuqorida Bahouddin Naqshbandning madrasa ulamolari bilan bahsi zikr etilgan parchada ham o‘z aksini topgan.

Shunga o‘xshash yana bir misol:

در رساله سید امیر کلال آورده است که چون حضرت خواجه ما از بخارا متوجه نسف شده اند و به خواجه مبارك رسیدند باتش کردن خمدان مشغول شدند هوا بغایت گرم بوده است و در بدن مبارك حضرت خواجه ما پوستین بوده است. چون نسف آتش بوی رسیده خواجه از حرارت در اضطراب آمده اند پوستین را از بدن مبارك بیرون کرده اند و در آتش انداخته اند حضرت امیر فرموده اند چرا چنین کردهء خواجه گفته اند بکرم عفو فرمائید امیر فرموده اند درآی و پوستین خود را بیرون آور سه نوبت گفته اند و خواجه عذر گفته اند آخر خواجه ما گفته اند که ای مخدوم پوستین اگر از سنگ و آهنین هم بودی بگداختی و این پوستین بیش نبود امیر فرموده اند کای بهاالدین ندانستهء که چیزی که ظاهر درویشان بدان سالها بوده باشد و در آتش شوق حق سحانه سوخته با شد این آتش را چه زمره که و یرا بسوزد.

«Sayyid Amir Kulol risolasida keltirilishicha, Hazrati Xoja Buxorodan Nasafga yuzlanib, muborak Xojaga yetishdilar va xumdonga olov qalashga mashg‘ul bo‘ldilar. Havo g‘oyat issiq edi. Hazrati Xojamizning muborak badanlarida eski po‘stinlari bor edi. Olov nafasi ularga yetgach, haroratdan iztirobga tushdilar, po‘stinni muborak badanlaridan yechib, olovga tashladilar. Shunda Amir: «Ey farzand, nega bunday qildingiz?» deb so‘radilar. Hazrati Xoja unga: «Lutfu karam bilan avf qilsalar!» dedi. Amir ularga: «Ey farzand, olovga kirib, po‘stiningizni olib chiqing» dedilar. Shu tartibda bu so‘zni uch marotaba takrorladilar. Xoja uzr izhor qildilar. Oxiri aytdilar: «Ey Mahdum, agar po‘stinim, tosh yoki temirdan bo‘lganda

ham erib ketardi, bu po‘stindan o‘zga narsa emas!». Amir: «Ey, farzand Bahouddin, Hazrati Haq subhonahu va taoloning shavqida yongan darveshlarning ustida yillab turgan narsani bu dunyo olovi qanday kuydira olsin!» [1.4 40 a ].

Dialoglar ham o‘ziga xos, ular bugungi kungi dialog tushuncha-siga mos kelsa-da, shaklan boshqacha, maqomotlardagi dialoglar ham aslida personajlarning o‘zaro so‘zlashuvidir. Umuman, o‘rta asrlarda nasriy janrlarda arab va fors tillarida yozilgan sira va maqomot kabi asarlarda nutqning dialog shakliga ko‘proq ahamiyat berilgan. Bu haqda arab adabiyoti bilimdoni B.Ya. Shidfar shunday yozadi: «Xalq roman»laridagi (siralardagi) dialoglar o‘ziga xos dramatik janrning sarchashmalari namunasidir. Arab «oliymaqom» adabiyoti»da o‘rta asrlarda dramatik janr mavjud bo‘lmagan. Folklor bundan istisno bo‘lib, unda badiiy jihatdan qayta ishlanmagan, faqatgina folklorga xos bo‘lgan xalq teatri rivoj topgandi. «Xalq romani» xalq teatri bilan juda yaqin aloqada bo‘lgan... «Xalq romani»ning o‘zi ham, agar uning og‘zaki nutqdagi ijrosi tasavvur qilinsa, uni ertaklarga xos va epik syujetlar ijrochilarining dramalashtirilgan, jonli tili shaklini olgan «bir aktyor ijrosidagi teatrga» o‘xshatish mumkin [129.110].

Dialoglar asosan asar qahramonining Haq taolo bilan, pirlari Xoja Boboyi Samosiy, Amir Sayid Kulol, Xalil ota, muridlari bilan suhbatlari, muxoliflari bilan munozaralari shaklida o‘z ifodasini topgan. Dialoglar vositasida Bahouddin Naqshbandning boshqa personajlar bilan munosabati, uning dunyoqarashi va umuman naqshbandiya tariqati ta’limotining mohiyati ochib beriladi. Bahouddin Naqshbandning Haq taolo bilan suhbati aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Fikrimizga quyidagi lavha misol bo‘la oladi:

حضرت خواجه ما قدس الله روحه میفرمودند در بدایت جذ به مرا گفتند در این راه چون مید رائی گفتم به این طریق که هر چه گویم همچنان شود حطاب آمد هرچه ما میگوئیم آن میشود باید کردن گفتم من طاقت آن ندارم اگر چه هرچه من میگویم آن میشود در این راه قدم میتوانم زدن و گر نمی شود نمی توانم دوکرت به این طریق سوال و جواب شد بعد از آن مرا بمن گذاشتند.

«Hazrati Xoja, uning ruhi muqaddas bo‘lsin, aytardilar: Jazaba boshlangan davrda menga dedilar: «Bu yo‘lga qachon kirasan?»

Dedim: «Shu tariqaki (agar) men nimaiki desam va xohlasam shunday bo‘lsa».

(Hotifdan) xitob keldi: «Biz nima desak (o‘shani) qilish kerak».

Dedim: «Meni bunga toqatim yo‘q. Agar men aytganim bo‘lsa, bu yo‘lga yura olaman. Agar bo‘lmasa (bu yo‘lda), yura olmayman».

Ikki marotaba shu yo‘sinda savol javob bo‘ldi. Shundan so‘ng meni o‘z holimga qo‘ydilar [1.2.69a].

Yana bir misol:

«...Ilhom keldi. Bizning huzurimizdan nimaiki tilasang miskinlik va .....lik yuzasidan tila.

Dedim: «Iloho rahmating va inoyating daryosidan bittagina tomchi nisor et!»

Ilhom tushdi: «Mening karamim daryosidan bir tomchi so‘raysanmi?»

Dedim: «Poko parvardigoro, rahmating va inoyating daryosini men uchun nisor et» [1.2.75b].

Asar qahramonining ichki dunyosini, uning ruhiy kechinmalarini tasvirlashda mualliflar asosan «monolog»ning yopiq shaklidan unumli foydalanadilar. U ko‘rgan tushlarining bayoni, Haq taolodan nido kelgach, uning Bahouddin Naqshband ruhiyatiga ta’sirini, Boyazidning fikr-o‘ylarini tasvirlaganda ham yopiq monologdan (ichki monologdan) mohirona foydalaniladi.

Maqomotlardagi har bir monolog asar personajlarining ichki kechinmalarini, fikru-xayollarini ifodalashdan tashqari ularning kelajakda qanday ishlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida ham kitobxonni ogohlantiradi.

Maqomotnavislar asar qahramonlarini to‘qnashuvlarda o‘sib, takomillashib borishini ham ishonarli tarzda ifodalashga harakat qiladilar (bu birinchi o‘rinda asarning bosh qahramoni Bahouddin Naqshbandga taalluqlidir).

Mualliflar bu kabi epizodlarni Bahouddin Naqshband xarakterida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni yanada aniqroq bo‘rttiribroq ko‘rsatish maqsadida asar syujeti to‘qimasiga kiritadilar. Bu bilan personaj ruhiyatida dunyoviy ishlardan ko‘ra ko‘proq diniy ishlarga moyillik paydo bo‘layotganini ham ochib berishga harakat qiladi. Shu tariqa

muallif uning botini bilan zohiri, fikr-o‘ylari bilan amali bir xil ekanligini o‘quvchiga namoyon qiladi.

Maqomot mualliflari uslubining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri ular asar qahramoni va boshqa personajlarning ichki dunyosini, ichki kechinmalarini mahorat bilan tasvir eta olishida namoyon bo‘ladi. U Bahouddin Naqshbandning ruhiyatida sodir bo‘lgan ruhiy kechinmalarini tasvirlar ekan, kitobxon ko‘z o‘ngida mohir insonshunos, psixoanalitik sifatida namoyon bo‘ladi. Quyidagi lavhaga e’tibor bering:

منفول است از دانشمندی میکفت در آن فرصت که در نجا را مشغول بودم در فتح آبار ساکن می بودم یك بار در آخر روز با یکی از درویشان حضرت خواجه ملاقات شد مرا گفت چرا بصحبت شریف حضرت خواجه نمی شتابی من گفتم وقت بیگاه است و در خاطرم گذشت که در یافتن صحبت ایشان را احرام علیحده می باید و نیز در خاطر خطور کرد که مجلس شریف ایشانرا بوجود خود ملوث بسازم...

«Bir donishmand hikoya qiladi: «Buxoroda ibodat bilan mashg‘ul bo‘lgan vaqtlarimda Fathobod qishlog‘ida sokin edim. Bir gal kunning oxirida Hazrati Xojamiz, qaddasa sirruhuning darveshlaridan biri bilan uchrashib qoldim. Mendan: «Nega ul zotning suhbatiga shoshilmaysan?» deb so‘rab qoldi. Men unga: «Kun kech bo‘ldi», deb javob berdim. Ko‘nglimda esa: «Ul zotning suhbati uchun alohida ehrom kerak «, dedim. So‘ng yana ko‘nglimdan: «Ularning sharif majlislarini o‘z vujudim bilan bulg‘ab nima qilaman», degan fikr o‘tdi...» [1.2.48b].

Ushbu lavhadagi darveshning ko‘nglidagi gaplar, o‘y-fikrlar kitobxonni uning o‘ziga xos dunyoqarashi borligidan ogohlantiradi. Uning fikricha, pirning xizmatiga borish, tariqatga kirish va uni muvaffaqiyatli bosib o‘tish – bu oson ish emas, o‘ziga xos maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan ishdir. «Alohida ehrom» kiyish – maxsus tayyorgarlik ko‘rish demakdir. Agar asar muallifi darveshning ko‘nglidan o‘tgan shu fikrlarni bizga yetkaza olmaganida biz uning fikr-o‘ylaridan bexabar qolardik.

Bu o‘rinda badiiy adabiyotning muhim vazifalaridan biri insonshunoslik ekanligini nazarda tutgan holda maqomotlarning bosh qahramoni Bahouddin Naqshband obrazini yaratishda, uning ruhiy

takomilini tasvirlashda obrazning psixologik holatiga ko‘proq ahamiyat berganligini ta’kidlab o‘tmoqchimiz. Chunki F. Shiller ta’kidlaganidek: «Biz faqatgina qahramon qay tarzda harakat qilayotganini emas, balki bu harakatni qanday amalga oshirishni o‘ylayotganini ham ko‘ra bilishimiz kerak. Uning fikrlari harakatlariga qaraganda biz uchun cheksiz ahamiyatga ega va biz uchun uning harakatlari oqibatiga qaraganda, bu o‘y-fikrlarning manbalari muhimroqdir» [169,162].

Maqomotlarda personajlarning ichki kechinmalarini bayon qilish yo‘li bilan ularning ruhiyatidagi keskin burilishlarni ochib berishga harakat qilinadi va shu tariqa ular murakkab hayotiy muammolarni yechishda to‘g‘ri yo‘l tanlay oladigan insonlar ekanliklari ta’kidlanadi.

## 4.2. Maqomot mualliflariga xos bo‘lgan individual uslubiy xususiyatlarning tahlili va asosiy jihatlari

Yuqorida maqomotlarning mushtarak-tipologik xususiyatlari yuzasidan fikr-mulohazalarimizni bildirdik.

Endi har bir maqomot muallifining o‘ziga xos uslubiy xususiyatlari haqida gapirishdan oldin shu narsani qayd etishimiz lozimki, biz ko‘rib chiqqan maqomotlarning (ularning soni to‘rtta) barchasi Hazrati Xoja Bahouddin Naqshband maqomotlaridir. Ya’ni, turli (uch nafar) mualliflarning o‘z pirlari haqida bilgan, o‘zlari eshitgan, boshqalardan eshitgan naql-rivoyatlar to‘plamidir.

Eng birinchi yozilgan «Bahouddin Naqshband maqomotlari» Xoja Muhammad Porso qalamiga mansubdir. Xoja Muhammad Porso ilgari ham qayd etganimizdek, Hazrati Xojaning muridi, so‘ngra esa uning xalifasi bo‘lgan. Shu sababli, boshqa maqomot mualliflaridan farqli o‘laroq, Bahoudin Naqshband bilan bevosita aloqada va u kishi bilan hamisha birga bo‘lgan. Shu sabablarni inobatga oladigan bo‘lsak, u yozgan maqomotni eng asl va eng birinchi maqomot desak bo‘ladi. Muhammad Porso Bahouddin Naqshband bilan zamondosh, hamsuhbat va hamnafas bo‘lishi barobarida, avvalo o‘z piri Bahouddin Naqshbandga, so‘ngra Bahouddin Naqshbandning birinchi xalifasi Alouddin Attorga bo‘lgan hurmat-ehtiromining cheksizligidan maqomotlar tarkibiga kirgan aksariyat naqllarni Alouddin Attor tilidan bayon qiladi.

Muhammad Porso o‘z asarini yozishda qanday manbalarga asoslanganligi haqida shunday deydi:

... اگر فیاض عنایت یاری دهد شمهء از کرامات و مقامات حضرت خواجه آنچه از ملازمان و نزدیکان و درویشان رسیده و اجازت اظهار شده شرح داده آید.

Tarjimasi: «Agar Allohning cheksiz inoyati madad bersa, Hazrati Xojaning mulozimlari, yaqinlari va darveshlaridan (bizga) yetishgan va izhor etishga ruxsat berilgan karomatlari va maqomotlaridan bir qismi sharhlanadi [1.3.3a].

Muhammad Porsodan keyin Hazrati Xojaning maqomotlarini yozgan mualliflar uning qalamiga mansub maqomotdan bevosita foydalanganliklari aniq. Chunki maqomotlardan birining muallifi Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali bu haqda shunday deydi:»Bu zikrlar esa Hazrati eshonning ishonchli kishilari, chunonchi, Xoja Alouddin Attor va qutb ul-avliyo, ya’ni janobi Hazrati Xoja Muhammad Porso, Alloh ularning sirlarini muqaddas qilsin, tillaridan bevosita yoki bilvosita eshitilgan va yoki naql qilgan mo‘’tabar kitoblaridan olinib, bu risolaga kiritildi [1.4.4b].

Demakki, u Bahouddin Naqshbandning xalifalaridan eshitgan va boshqa manbalar qatori Muhammad Porsoning «Maqomot»idan va uning boshqa asarlaridan foydalangan. Muhammad Boqir Hazrati Xojaning muxlislaridan bo‘lib, Hazrati Xojaning barcha hamsuhbatlari bilan uchrashgan edi.

Bu hol nafaqat mualliflarning e’tiroflaridan, balki har bir maqomotning tuzilishi, ularning har biriga xos bo‘lgan badiiy-uslubiy xususiyatlarini tahlil etish jarayonida ham o‘z tasdig‘ini topdi.

Biz mutolaa qilgan maqomotlar turli mualliflar tomonidan yozilgan bo‘lishiga qaramasdan ulardagi o‘xshashliklar nihoyat darajada katta bo‘lib, ba’zida xuddi bir muallif yozgan asarning nusxalarini o‘qigandek bo‘lamiz. Buning asosiy sababalaridan biri bizning nazarimizda, o‘rta asrlarda yaratilgan ayni bir shaxs hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi, turli mualliflar tomonidan yozilgan asarlarni bir-biridan ajratib olishning mushkulligi, o‘sha davrlarda dastlabki manbalardan foydalanish qoidalarida o‘ziga xoslik mavjudligida bo‘lsa kerak. Chunki barcha maqomotlar taxminan bir xil uslubda yozilgan, barchasidagi mutlaq aksariyat

naql-rivoyatlar bir xil bo‘lishi barobarida ularni yozgan odamlar o‘z nomlarini muallif sifatida zikr etadilar. Bundan shunday xulosa chiqadiki, mualliflar bir-birlarining asarlaridan foydalanib, ularni o‘zlashtirib olganlar va bu hol ayb sanalmagan.

Mushtaraklikning ikkinchi asosiy sababi shundaki, maqomotlar tarkibiga kirgan naqllarning aksariyati muayyan shaxslar Alouddin Attor (asosan), Muhammad Porso kabi «ishonchli kishilar» tarafidan naql qilingani sababli maqomotnavislar «isnod» qoidalariga amal qilgan holda ularni qisman bo‘lsa-da o‘zgartirishga jur’at qilolmaganlar. Aks holda bu maqomotlar o‘zining ishonchli manba sifatidagi vazifasini bajarolmagan bo‘lardi.

Biz ko‘rib chiqqan maqomotlar orasida hajm nuqtai nazaridan eng kichigi Muhammad Porso yozgan «Maqomoti Hazrati Bahouddin Naqshband»dir (inv.raqami 2520). Aytib o‘tganimizdek, bu asar xronologik nuqtai nazardan olib qaraganda eng birinchi yozilgan maqomotdir.

Uning birinchi qismi 23 ta naqldan, ikkinchi qismi 42 ta naqldan, uchinchi qismi 41ta naqldan tashkil topgan. Unda jami 106 ta naql mavjud. Bu naqllarning barchasi Muhammad Boqir va Saloh bin Muborak al-Buxoriylar tarafidan yozilgan maqomotlarda qaytariladi.

Muhammad Porso maqomotining tuzilishi boshqa qolgan maqomotlar uchun andoza vazifasini o‘tagan. Chunki boshqa maqomotlar tuzilishida ham bu maqomotdagidek to‘rt qism mavjud.

Uslub nuqtai nazaridan olib qaraganda Porso maqomotlaridagi naql-rivoyatlar boshqa asarlardagiga qaraganda o‘zining qisqaligi va ixchamligi bilan ajralib turadi. Voqea-hodisalar bayonida erkinlikka yo‘l qo‘yilmaydi. Fikr lo‘nda va ixcham bayon qilinadi (buni quyiroqda berilgan qiyosiy misollarda ham ko‘rish mumkin). Undagi hadis va oyatlar ham o‘ta qisqartirilgan shaklda keltiriladi. O‘tmishda yashab ijod qilgan mashoyixlarning so‘zlari keltirilganda esa ularning qaysi asarlardan iqtibos qilib olinganligi ko‘rsatilmaydi.

Maqomot mualliflari orasida Saloh bin Muborak al-Buxoriy bunga ko‘proq ahamiyat bergani. U aksariyat hollarda hadislar va qudsiy so‘zlar qaysi asardan olinganligini va uning muallifi nomini eslatib o‘tadi.

Masalan, Saloh bin al-Buxoriy ko‘pgina joylarda berilgan hadislarning qaysi manbadan olinganligi haqida ma’lumot berib

o‘tadi va asarning nomini, ba’zida uning muallifining ismini ham zikr etib o‘tadi. Foydalanilgan adabiyotlar orasida Shayx Abduruahmon Sulamiyning حقايق التصنيف «Haqoyiq ut-tasnif», Hakim at-Termiziyning حتم الولاية «Hatm ul-viloyat» asarini va mualliflari noma’lum bo‘lgan قوت القلوب فى مقابلة المهجوب «Quvvat ul-qulub fi muqabilatil mahjub», تعرف فى علم تصوف »Taarruf fi ilm tasavvuf» kabi asarlarni zikr etadi.

Bu kabi istifoda etilgan manbalar nomini ko‘rsatish boshqa maqomotlarda uchramaydi.

Kuzatishlarimiz natijasida shunday xulosaga keldikki, yod etilgan barcha maqomotlarning bir-biridan farqli jihatlariga qaraganda o‘xshashlik tomonlari juda ko‘p ekan. Bu xulosa maqomotlarning tuzilishiga, ulardagi tarkibiy qismlarga, ularga kiritilgan naqllarga, badiiy-uslubiy xususiyatlariga ham tegishlidir.

Shunga qaramasdan har bir muallif va ular yozgan maqomotlarga taalluqli bo‘lgan jihatlarni misollar yordamida ko‘rsatib o‘tmoqchimiz.

Birinchi navbatda maqomotlarda ko‘zga tashlangan tafovut ular hajmining turlicha bo‘lishidadir. Maqomotlar orasida eng kichik hajmdagisi (yuqorida ham aytib o‘tgan edik) Muhammad Porso qalamiga mansub maqomotdir. Uning hajmining kichikligi unda jamlangan naql-rivoyatlarning soni kamligi bilan belgilanadi. Fikrimizcha, bunga asosiy sabab bu maqomotning boshqa maqomotlarga qaraganda ancha ilgari yozilganligi va uning Bahouddin Naqshband haqidagi maqomotlarning birinchisi bo‘lganligidir. Shu sababli unda jamlangan naqllar soni oz, keyingi davrlarda yozilgan maqomotlarda esa Muhammad Porso maqomotida mavjud bo‘lgan barcha naqllarga xalq orasida keyinchalik paydo bo‘lgan Bahouddin Naqshband haqidagi naql – rivoyatlarning qo‘shilishi sababli ularning xajmi ko‘paygan.

Ikkinchidan, Muhammad Porsoning bayon tarzi – uslubi boshqa mualliflardan farqli. Bu xususiyat uning o‘z fikrini ixcham va lo‘nda tarzda bildirishi bilan bog‘liq. Bu ixchamlilik voqea-hodisalarning yoxud falsafiy fikr-mulohazalarning qisqa va yorqin ifodalanishida ko‘zga tashlanadi. Undagi naql-rivoyatlar boshqa mualliflardagi kabi

tafsilotlarga boy emas. U asl voqeani ortiqcha kirish so‘zlarisiz, izohlarsiz, mayda detallarsiz bayon etishga harakat qiladi.

Aksincha, Muhammad Boqir va Saloh bin Muborak al-Buxoriy kabi mualliflar maqomotlarida voqea-hodisalar imkon qadar ko‘proq tafsilotlar, izohlar bilan bayon qilinadi.

Bu jihatdan olib qaraganda Muhammad Boqirning nosirlik mahoratini alohida ta’kidlash lozim. Uning tili va uslubi ham boshqa mualliflarga qaraganda o‘zining sodda va ravonligi bilan ajralib turadi.

Muhammad Boqir va Saloh bin Muborak al-Buxoriylar yozgan maqomotlarning bayon tarzi dastlabki qarashda bir-biridan farqlanmaydigandek, ayni bir asarning o‘zidek ko‘rinadi. Ammo ularning ham farqli tomonlari mavjud bo‘lib, biz bu farqlarni quyida misollar vositasida ko‘rsatishga harakat qilamiz.

Saloh bin Muborak al-Buxoriy maqomotida jami 247 ta naql jamlangan. Uning qalamiga mansub «Anis ut-tolibin iddatu-s-solikin» deb nomlangan maqomotda esa 170 ta naql mavjud. She’rlar soni ham har ikki maqomotda turlicha, birinchisida 53 ta she’riy parcha mavjud bo‘lsa, ikkinchisida ularning soni 43 ta.

Demakki, maqomot mualliflari uslubining tafovutli jihatlari ularning she’riy parchalardan turlicha foydalanganliklarida ham namoyon bo‘ladi. Muhammad Boqir maqomotida 97 ta she’riy parcha mavjud.

Ushbu tahlilda maqomotlarning hajmiga va ularning tarkibidagi naqllar soniga urg‘u berishimizdan maqsad har bir asarning hajmi ham uning muallifining yozuvchilik, nosirlik mahorati bilan bog‘liqdir.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, biz ko‘rgan maqomotlar orasida eng to‘lig‘i, hajm nuqtai nazaridan eng kattasi ham, badiiy-uslubiy jihatdan yondashganda eng puxta yozilgani ham Muhammad Boqir qalamiga mansub maqomotdir. Uning tili ham boshqalarga nibatan sodda va ravon bo‘lganligi uchun uning maqomoti boshqa maqomotlarga qaraganda oson o‘qiladi, bayon qilinayotgan voqea-hodisa va maqsadning kitobxon tomonidan oson hamda to‘g‘ri anglashilishiga sharoit yaratadi.

Har bir muallifning bayon tarzi va tiliga xos bo‘lgan mushtarak va farqli jihatlarni quyidagi misollarda tahlil etishga harakat qildik.

Maqomotlarning barchasida mavjud bo‘lgan, Bahouddin Naqshbandning Xalil ota bilan bo‘lgan uchrashuvi hamda u bilan suhbatlari hikoya qilingan naqldan olingan parchalarni keltiramiz va tahlil qilamiz. Unda Bahouddin Naqshband Xalil ota bilan uchrashgandan so‘ng uning podshoh bo‘lishi va Bahouddin Naqshbandning u bilan uchrashuvi hikoya qilinadi.

Muhammad Porso maqomotidan olingan lavha quyidagidan iborat.

بعد از فرصتی او را پادشاهی مملکت ماورا النهر میسر شد و هر نوع سببی وابطه شد تا مرا ملازمت از بایست کردن و در آن اوقات ملازمت نیز چیزهای بزرگ از او دیده میشد و مرا شفقت بسیار میکرده و گاهی بلطف ز گاهی بعنف مرا آداب در میاموخت.

«Biroz fursatdan so‘ng unga (Xalil otaga) Movarounnahr mamlakatining podshohligi muyassar bo‘ldi va turli sabablar bilan uning mulozamatini qilishga to‘g‘ri keldi. O‘sha mulozamat paytlarida ham undan ulug‘ narsalar (holatlar) namoyon bo‘lardi. Menga ko‘p shafqat qilardi. Gohida lutf bilan va gohida qattiq qo‘llik bilan menga odobni o‘rgatardi» [1.3.6a].

Saloh ibn Muborak maqomotida xuddi shu voqea quyidagicha bayon etilgan:

اتفاقا او را بعد از فرصتی پادشاهی ماورا النهر مسلم گشت و او را سلطان خلیل میگفتند و بواسطه امری در آن زمانی سلطنت با او ملاقات شد ملازمت و حدمت او بایست نمودن و در آن اوقات پادشاهی از او نیز حالهای بزرگ مطا لعه کرده میشد و میل خاطر او بیشتر می شد و مرا شفقت بیار میکرد گاهی بلطف و گاهی بعنف آداب حدمت مرا در میاموخت.

«Ittifoqo, biroz fursatdan keyin unga Movarounnahr podshohligi muyassar bo‘ldi va uni Sulton Xalil derdilar. Bir ish yuzasidan uning sultonlik davrida u bilan muloqot yuz berdi. Uning mulozamatini va xizmatini qilishga to‘g‘ri keldi. Uning o‘sha podshohlik davrida ham unda ulug‘ holatlarni ko‘rish mumkin edi. Menga ko‘p shafqat qilardi. Gohida lutf bilan va gohida qattiqlik bilan menga xizmat odobini o‘rgatardi» [1.2,15a].

من در ملازمت ایشان بودم در حضور ایشان حالات عجیب مشاهده نمودم بعد از شش سال پادشاهی ماوارا النهر او را میسر شد. او را سلتان خلیل میگفتند در آن اوقات نیز حالهای بزرگ از او مطالعه کرده می شد در آن دوران شش ساله سلطنت او ملازم او بودم و آداب حدمت پادشاهان را میاموختم...

Ushbu lavha Muhammad Boqir maqomotida quyidagicha berilgan: «...Men uning mulozamatida bo‘ldim. Uning huzurida ajoyib holatlarni ko‘rdim. Olti yildan so‘ng unga Movarounnahr podshohligi muyassar bo‘ldi. Uni Sulton Xalil der edilar. O‘sha paytda ham undan ulug‘ holatlar ro‘y berardi. Uning olti yillik saltanati davrida men unga mulozim bo‘ldim va podshohlar xizmatidagi odoblarni o‘rgandim, unga xizmat qilish odoblarini joyiga qo‘ydim» [1.4.70a].

Keltirilgan uchta misolda ayni bir voqea bayon qilinadi. Syujet bir xil. Bu voqeani har bir muallif uning asosiy mazmunini saqlab qolgan holda, ba’zi tafsilotlar va mayda detallar bilan boyitishga harakat qilganini ko‘ramiz.

Birinchi misolda bu voqeaning Muhammad Porso tarafidan amalga oshirilgan bayoni bilan tanishdik. Ko‘rinib turganidek, uning bayon uslubi ixcham va sodda, fikr qisqa, ortiqcha so‘zlarsiz, izohlarsiz ifoda etilgan.

Bu ixchamlik lavhaning birinchi jumlasidayoq seziladi:

بعد از فرصتی او را پادشاهی مملکت ماورا النهر میسر شد

Biroz fursatdan so‘ng unga Movarounnahr mamlakatining podshohligi yetishdi.

Ikkinchi misolda xuddi shu tasvir kengaytirilib, detallashtirilgan, izohlar kiritilgan va bayon soddalashtirilgan.

بعد از فرصتی خبر رسید که آن درویش خلیل را پادشاهی ماورا النهر میسر شد

Biroz fursatdan so‘ng o‘sha darvesh Xalilga Movarounnahrning podshohligi muyassar bo‘ldi (degan) xabar keldi.

Uchinchi misolda esa o‘ziga xos tarzda mantiqiy urg‘u lavhaning boshida «ittifoqo» so‘ziga ko‘chirilganligini ko‘ramiz.

اتفاقا اورا بعد از فرصتی پادشاهی ماوراالنهر مسلم گشت و او را سلطان خلیل میگفتند.

Tasodifan biroz fursatdan keyin unga Movarounnahr podshohligi yetishdi va uni Sulton Xalil derdilar.

Barcha maqomotlarda mavjud bo‘lgan yana bir quyidagi kichik voqeani turli mualliflar qay tarzda bayon qilganiga e’tibor bersak, yuqorida aytib o‘tilgan fikrimizning tasdig‘ini topamiz.

Muhammad Porso maqomotida:

سوال کردند از حضرت خواجه ما بعضی از مشایخ گفته اند ولایت محمدی برماحتم شده است فرمودند ایشان حتم ولایت به نسبت زمان خود بوده اند.

«Hazrati Xojamizdan savol qildilar: ba’zi mashoyixlar Muhammad s.a.v.ning valoyati bizda hatm bo‘lgan deganlar. Ular dedilar: «Ular o‘z zamonlariga nisbatan bu valoyatni hatm qiluvchi edilar» [1.3. 17a ].

Saloh ibn Muborak maqomotida:

نقل کردند از حضرت خواجه ما قدسی الله روحه که بعضی از مشایخ طریقت فرموده اند که ولایت حضرت محمدیه برماحتم شده است خواجه فرموده اند که ایشان حتم ولایت زمان خود بوده اند

«Hazrati Xojamizdan, ularning ruhini Alloh muqaddas qilsin, naql qildilar: «Ba’zi tariqat mashoyixlari Muhammad s.a.v. valoyatlari bizda hatm bo‘lgan deydilar. Xoja dedilar: Ular o‘z zamonlarida valoyatni xatm qiluvchi edilar» [1.2.32 b ].

Muhammad Boqir maqomotida:

شخص سوال کرد از حضرت خواجه ماقدس الله روحه که بعضی از مشایخ گفته اند که ولایت محمدی بر ماحتم شده است فرمودند ایشان حتم حاتم این ولایت به نسبت زمان خود بوده اند

«Bir shaxs Hazrati Xojamizdan, ularning ruhini Alloh muqaddas qilsin, savol qildi: «Ba’zi mashoyixlar Muhammad s.a.v. valoyatlari bizda xatm bo‘lgan deydilar». Ular dedilar: «Ular o‘z zamonlariga nisbatan bu viloyatning xatmi Hotami edilar» [1.4.32b].

Mazkur lavhalarni bu qadar mayda bo‘laklarga bo‘lib, tahlil qilishimizdan maqsad, yuqorida aytib o‘tganimiz, har bir muallifning o‘ziga xos tili, bayon tarzi va har bir muallifning o‘ziga xos badiiy-uslubiy xususiyatlarining farqi aynan yuqorida keltirilgan misollardagidek ekanligini ko‘rsatishdir. Maqomotlardagi aksariyat naqllar aynan bir xil bo‘lishi bilan bir qatorda, har bir muallif uning

mazmunini kitobxonga yetkazishda o‘ziga xos uslubni qo‘llaganini ko‘ramiz. Mazkur misollar tahlilini boshlaganimizdek davom ettirsak, quyidagi natijaga kelishimiz mumkin:

Muhammad Porsoning bayon tarzi o‘zining qisqaligi va ixchamligi bilan ajralib turadi. U voqea-hodisalar bayonida ortiqcha so‘zlardan imkon qadar kamroq foydalanishga harakat qiladi. Buning natijasida fikrlar lo‘nda shaklda ifodalanadi, ammo o‘quvchi uchun bayon qilinayotgan mavzuni anglab olish biroz qiyinchilik tug‘diradi.

Saloh ibn Muborak va Muhammad Boqir kabi mualliflar esa aksincha o‘z fikrlarini bayon qilishda ko‘proq tafsilotlar, izohlardan foydalanadilar. Shu sababli asarda bayon qilingan voqealar, so‘fiyona tushunchalarni anglab olish osonroq bo‘ladi.

Shu bobning boshida ta’kidlab o‘tganimizdek, maqsadimiz maqomotlarning mushtarak xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat bo‘lganligi va har bir muallifning o‘ziga xos badiiy-uslubiy xususiyatlarni tahlil qilish tadqiqotimiz vazifalari doirasiga kirmaganligi sababli bu xususdagi fikr-mulohazalarimizni qisqacha bayon qildik. Har bir maqomot muallifining o‘ziga xos uslubini aniqlash, tahlil qilish va qiyoslash masalasining o‘zi bir nechta ilmiy tadqiqotlarga mavzu bo‘la oladi.

Mazkur individual xususiyatlar nafaqat yuqorida keltirilgan lavhalarda, balki har bir asarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Har bir muallif til sohasidagi o‘z bilimi boyligidan kelib chiqib, ayniqsa, fe’llarni ishlatishda sinonimlarga boy fors tili imkoniyatlaridan unumli foydalanishga va o‘z bayon tarzini individuallashtirishga harakat qilganini ham yuqoridagi misollarda mushohada qilish mumkin.

Kuzatishlarimizdan kelib chiqib, xulosa tariqasida shuni ta’-kidlashimiz lozimki, har bir muallifning o‘ziga xos individual bayon tarzi bo‘lib ular quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ldi:

1. Maqomotlar tarkibiga kiritilgan naqllar sonini orttirish yoxud kamaytirishda.

2. Voqea-hodisalarni va fikr-mulohazalarni ixcham yoki tafsilotlar, izohlar bilan, mayda detallarga bo‘lib bayon qilishda.

3. Maqomotlarning tarkibiy qismlariga kirgan ba’zi naqllarning o‘rnini o‘z maqsadlariga bo‘ysundirgan sur’atda almashtirishda.

4. She’riy parchalardan foydalanib maqomotning jozibadorligi va ta’sirchanligini oshirishda. Ko‘rib o‘tganimizdek bir muallif she’riy parchalardan unumli foydalansa, boshqa biri bunga nisbatan kamroq e’tibor bergan.

## 4.3 Maqomotlarda qo‘llanilgan badiiy til vositalari va san’atlari

Voqelikni so‘z yordamida obrazli aks ettirishda maqomotnavislar fors tilining butun boyligidan, bitmas-tuganmas imkoniyatlaridan unumli foydalanadilar.

Maqomotlarda ularning badiiy qimmatini va xalqchilligini ta’minlash uchun xalq og‘zaki ijodining eng ommaviy janrlaridan biri, so‘zning ko‘rki bo‘lmish maqollar va hikmatli so‘zlardan mahorat bilan foydalanilgan hamda bunga alohida ahamiyat berilgan. M. Gorkiy maqollarga yuksak baho berib: «Eng ulug‘ donolik so‘zning soddaligidadir. Maqollar va qo‘shiqlar har vaqt qisqa bo‘ladi. Ularda butun-butun kitoblar mazmuniga teng keladigan fikr va sezgilar mavjud bo‘ladi», - degan edi. Shuning uchun ham maqomotnavislar Bahouddin Naqshband fikrlarini ixcham shaklda ifodalab, uning jonli va obrazli bo‘lishini ta’minlash uchun o‘z asarlarida maqollardan unumli foydalanishga harakat qilganlar.

Masalan:

ضربه که به شاخ رسد به تنه درخت نیز میرسد

tarjimasi: Zarba shoxga tegsa daraxtning tanasigacha yetadi.

تیر را از ترکی سلطان می باید که تا حمایت را شاید

Tarjimasi: «O‘qni sulton o‘qdonidan olish kerakki, himoyaga yarasin» [1.4.46 a].

Maqomotlar tilining jonli, obrazli bo‘lishiga sabab mualliflarning badiiy til vositalaridan unumli foydalanganligidadir. Maqomotlarda o‘z aksini topgan mubolag‘a, metonimiya, jonlantirish, sifatlash, o‘xshatish bilan bir qatorda intonasion vositalardan, sintaktik inversiyalardan ham ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Mubolag‘a maqomotlarga xos xususiyat desak yanglishmaymiz. Chunki mubolag‘a ishlatilmagan naqllar maqomotlarda kam uchraydi.

Bu hol bizning maqomotlardagi voqea-hodisalarga bugungi kundagi voqelikdan kelib chiqqan holda bergan bahomizning

natijasidir. Ammo biz uchun mubolag‘a bo‘lib tuyulgan narsa, o‘sha davr kitobxoni va maqomotnavislar e’tiqodidan kelib chiqadigan bo‘lsak, ular uchun ayni haqiqatdir. Shu sababli bo‘lsa kerakki, maqomotlarning avliyolar va ularga xos bo‘lgan xislatlar bayon qilingan qismida «ulardan sodir bo‘lgan va zuhurga kelgan kashfu karomatlariga ishonchsizlik bilan qarash nodonlikdan iborat», deb ta’kidlanadi. Quyida misollar keltirib fikrimizni dalillashga harakat qilamiz.

Bir darvesh naql qiladi: «Buxoro xalqi nochorlikda qolgan paytida, bir kuni Hazrati Xoja qaddasallohu sirrah ul-aziz buyurdilar: «Mening o‘tar yo‘limni harom qilmanglar, qadamlarim benamoz bo‘ladi, sizlar uchun duo qilaman, Haq subhonahu sizlarni bu halokatdan xalos etadi».

Shu kuni yana dedilar: «Biz bugun kechasi bo‘ynimizga varza’ tashlaymiz va iltimos qilamiz». Tong otgach, o‘sha zolimlardan Buxoro xalqi xaloslik topdi» [1.4.113a].

Shayx Xusrav Mavlono Orifdan naql qilishicha, ular dedilar: «Bir kuni Hazrati Xoja, qaddasallohu sirrahul-aziz bilan yo‘lda ketayotgan edik. Qish fasli edi. Oyog‘imda na kovush va na etik bor edi. Qor yog‘a boshladi. Og‘ir tashvishda qoldik. Men Hazrati Xojaga yuzlanib: «Bu qanday hol bo‘ldi?»dedim. Xoja ajoyib holatda edilar, haybat bilan osmonga boqdilar. Bir lahzada qor to‘xtadi va havo juda yoqimli bo‘lib qoldi».

فرمودند از سخنان عزیزان است علیه الر حمه و الر ضزان که زمین در نظر این طایفه چون صفره است و ما میگوئیم چون روی یك ناخن است

Dedilar: «Aziz (avliyo)larning, ularni Alloh rahmat qilsin, so‘zlaridankim yer bu (avliyo) toifaning nazarida xuddi supradekdir va biz (esa) tirnoqning yuzidekdir deymiz [1.3. 30a].

هر گاه حق تعالی بر بنده بصفت حال تجلی فرماید وجود آن بنده چنان بزرگ شود که در عالم نگنجد.

«Qachonki Haq taolo bandasiga hol sifatida tajalli qilsa bu bandaning vujudi shunchalik katta bo‘ladiki, olamga sig‘maydi» [1.4., 34a].

Bu kabi mubolag‘alashtirilgan sahnalar agiografiyalarning muhim xususiyatidir.

Lakonizm – fikrni qisqa va yorqin ifoda eta bilish mahoratidir. Maqomot mualliflari bu san'atdan ham juda unumli foydalana olganliklarini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin.

... مرا بایکی از دوستان حق جل جلاله ملاقات شد با من خطاب کرد که از آشنایان می نمائی گفتم امیدوارم که از برکت نظر دوستان آشنا شوم آن عزیز دوست حق از من پرسید که معامله بآ رزو چه میکنی گفتم اگر میابم شکر میگویم و اگر نیابم صبر میکنم آن عزیز تبسم کرد و گفت این سهل است که تو کردهء کارآنست که تو نفس خودرا در بوته در آری اگر هفتهء نان و آب نیاید سرکشی نکند من تضرع کردم و از آن عزیز اسمداری نمودم چنین فرمود که در بیابانی در آیی که امیدش...

«...Haq jalla jaloluhuning do'stlaridan biri bilan uchrashuv yuz berdi. U menga qarab: «Oshnolardan ko'rinasan?» – dedi».

Men unga: «Do'stlar nazarining barakotidan oshno bo'lishga umidvorman», - dedim.

Ul aziz mendan: «Muomalada qanday yo'l tutasan», - deb so'radi.

Men unga: «Agar topsam shukr qilaman, agar topmasam sabr qilaman», - dedim.

U aziz dedi: «Sen tutadigan bu yo'l juda yengil, aslida ish bunday: nafsingni bir changalzorga kiritki nonu osh topolmasin va qaysarlikni tashlasin».

Asarning bosh qahramoni shayx Bahouddin Naqshbandning tili lakonizmlarga boy til. Quyidagi misolga boqing:

نقل کردند که حضرت خواجه ما میفرمودند که در بد ایت طلب بهر صاحب دولتی که میرسیدم میگفتم ضعیفی را با قوی کار افتاده است چه کند میفرمودند صبر کند روزی به یکی از دوستان حق رسیدم پرسید که حال چیست گفتم منتظر عنایتم فرمودند که ای فرزند ما جستیم نیافتیم تو بطلب که خواهی یافت از برکات نفس آن صاحب دولت وجد طلب من زیاده شد

«Naql qilishlaricha, Hazrati Xojamiz aytgan ekanlar: «Talab yo'lining boshida har bir sohib davlatga yetishganimda: «Kuchsizning kuchliga ishi tushibdi, nima qilmoq darkor?» deb

so‘rardim. Ular esa: «Sabr qilmoq kerak» - derdilar. Kunlardan bir kun Haq do‘stlaridan biriga duch kelib qoldim: «Ahvol qalay?» – deb so‘radi. «Inoyatga intizormiz», – dedim. U esa: «Ey farzand, biz qidirdik - topmadik, sen qidir, albatta topasan», - dedi. Bu sohib davlat nafasining barakoti tufayli g‘ayrat va harakatim ziyoda bo‘ldi».

Keltirilgan birinchi lavhaga murojaat qilamiz. Undagi «Haq jalla jallolahuning do‘stlari» iborasi «shayx», «pir», «orif», «komil inson» ma’nolarini anglatadi.

«Oshno» so‘zi tariqatga qadam qo‘ygan, Haq talabida ma’rifat yo‘liga kirgan solikni bildiradi.

Muomala – dunyoviy ishlar, rizq-ro‘zni ta’minlash maqsadida amalga oshiriladigan ishlar.

«Agar topsam, shukr qilaman, agar topmasam, sabr qilaman». Bu so‘zlar sabr maqomiga yetgan solikning holati bayonidir.

«Nafsingni bir changalzorga kiritki, nonu osh topolmasin va qaysarlikni tashlasin».

Bu parchada maqomotnavislarning ham lakonizmdan, ham jonlantirish san’atlaridan foydalanganliklariga guvohi bo‘lamiz.

Ikkinchi misoldagi «sohibi davlat» iborasi ham birinchi misoldagidek shayx, pir, Haq ma’rifatini o‘zlashtirgan orif inson - komil insonni anglatadi. «Talab yo‘li» - tariqat, suluk ma’nolarini bildiradi. Mazkur ikki ibora orqali tushunchalar o‘z nomi bilan atalmasdan boshqa nom bilan ataladi. Shuning uchun ular perifraz deb ataluvchi badiiy til vositasiga ham misol bo‘la oladi.

«Kuchsizning kuchliga ishi tushibdi, nima qilmoq kerak?» jumlasidagi kuchsiz so‘zi tariqatga endigina qadam qo‘ygan solikni anglatsa, kuchli so‘zi tariqat, ma’rifat, haqiqat maqomlarini to‘la-to‘kis bosib o‘tib, ma’naviy kamolot cho‘qqisini zabt etgan komil insonni anglatadi.

«Haq do‘sti» ham komil inson. Yuqoridagi misoldagi «Haq jalla jalollahuning do‘sti» bilan «Haq do‘sti» ikkisi bir ma’noni anglatadi. «Inoyatga intizorman» jumlasi solikning tavakkul maqomiga xos xislat va ruhiy holatni ifodalaydi.

Maqomotlarda ularning mualliflari o‘xshatish san’atidan unumli foydalanganliklarining ham guvohi bo‘lamiz. «Amir Husaynda bir

hol yuz berdi, u boshini ko‘tarar va yerga urardi, xuddi objuvozdagi sholi yanchib, guruch qiladigan sopga o‘xshardi» [1.4.135 b.].

Ushbu misolimizda maqomot muallifi Amir Husaynga Xoja Bahouddin ruhiy ta’sir qilganida unda sodir bo‘lgan holatning tasvirini, o‘zini tutishini tasvirlash uchun uning boshi harakatlarini «objuvozning sopi»ga o‘xshatganini ko‘ramiz. Shu tariqa muallif tasvirni jonlantirib, o‘quvchi ko‘z o‘ngida harakatning shakli va yo‘nalishini hayotdan olingan misol bilan izohlaydi.

Yana bir misol:

«Sendek qush parvozi uchun do‘sting Orif Revgaroniy ham hozir bo‘lmog‘i kerak» [1.4.47b].

Amir Sayid nutqidan olingan bu parchada uning Bahouddin Naqshbandga qaratilgan so‘zlari keltirilgan. Ko‘rinib turganidek, maqomot muallifi Amir Sayid Kulol nutqini badiiylashtirish maqsadida perifraz san’atini qo‘llagan. Mazkur jumlada Bahouddin Naqshbandni «qush» deb ataydi. Bu so‘z bilan muallif Sayid Amir Kulol Bahouddin Naqshbandning iste’dodiga yuqori baho berganini mushohada qilamiz. «Qush parvozi» bu yerda iste’dodning naqadar yuksakligini anglatadi.

Quyidagi misolda esa jonlantirish san’ati namunasi bor:

«Bu manzildan tashqari chiqqanimda nafsim yana sarkashlik qilib tizginini qo‘ldan berishga oz qoldi» [1.4.27b].

Ushbu misolda nafsning yashirin ravishda asov otga o‘xshatilganligi ko‘rinib turibdi, ammo bu sof o‘xshatish emas, balki jonlantirish orqali yasalgan tashbehdir. «Tizgin» so‘zi esa nafsning asov otga o‘xshatilishini yanada kuchaytiradi. Hosil qilinadigan xulosa shuki, nafsni tiyish, uning ustidan g‘alaba qilish, asov otni qo‘lga o‘rgatish, rom etishga qiyos qilinadi. Tizgin hamisha suvoriy qo‘lida bo‘lmasa, asov otning harakatlarini nazorat qilish qiyin bo‘lib, u boshi oqqan tomonga ketaverganidek, nafs ham nazorat ostiga olinmasa, turli ishlarga undaydi.

Jonlantirish san’ati mualliflar tarafidan juda ko‘p hollarda tatbiq etilgan. Mana bu misolga e’tibor qiling:

در آن فنا معآینه دیدم که روح مرا بر ملکوت آسمان ها گذ را نیدند و برانجا رسید که روح من در صورت ستاره در دریای نورانی و انوار بی نهایت محو نا پدید شد... آنگاه پاره روح مرا بوجود باز گردانیدند

«Bu fanoda mening ruhimni osmon farishtalari oldimdan olib o‘tganlarini aniq ko‘rdim. Shu darajaga yetdiki, u yulduz shakliga kirdi va chegarasiz nur daryosiga g‘arq bo‘ldi. «Oxiri ruhimni bo‘lak-bo‘lakka bo‘lib vujudimga kirgaza boshladilar» [1.2.20a].

Maqomotnavislar metonimiyadan ham unumli foydalanganlar.

«Ey farzand, bu saodat libosi bu qaddu qomatingga muvofiq va munosibdir» [1.4.25a]. Bu jumladagi «farzand» so‘zi Bahouddin Naqshbandga nisbatan ishlatilgan. Bu yerda majoz san’ati ham qo‘llanilgan. Yuqoridagi jumlani tahlil qiladigan bo‘lsak, undan shunday ma’no anglashiladi. «Ey Bahouddin, tavba qilib, borlig‘ingni Haq visoliga yetishish yo‘liga (sulukka) bag‘ishlaganing bu katta baxt, bu yo‘l (suluk) senga munosib, sen bu yo‘lda ulkan cho‘qqilarga ko‘tarilasan, Haqqa yetasan». Bu o‘rinda «Saodat libosi» iborasi istiora-metaforadir.

Frazeologizmlar ham maqomotlar tilining obrazliligini ta’minlovchi badiiy vositalardan hisoblanadi. Boshqa tillar kabi fors-tojik tili ham frazeologik birikmalarga boy til. Maqomotnavislar o‘z fikrlarini obrazli tarzda ifoda etishda frazeologizmdan keng foydalanadilar. Biz Saloh bin Muborak al-Buxoriy frazeologizmni yaxshi qo‘llaganini quyidagi misolda ko‘ramiz:

بعضی از آن آیات ولایت هم از نقل ایشان در قلم آورده شد

Valoyat (haqidagi) o‘sha oyatlarning ba’zilari ham ularning (Hazrat Xoja) naqllaridan qalamga olindi (yozildi) [1.2.40b].

Ushbu jumladagi در قلم آوردن frazeologizm bo‘lib, taxtullafziy tarjimasi «qalamga olmoq» bo‘lsa, aslida u «yozmoq» ma’nosida ishlatilgan.

حضرت خواجه دست مبارك خودرا در از کردند و کتابرا بیرون آوردند

Tarjimasi: «Hazrati Xoja muborak qo‘llarini uzatdilar va kitobni chiqarib oldilar» [1.3. 32 b ].

Bu jumladagi دست در از کردن iborasi frazeologizm bo‘lib, taxtullafziy tarjimasi «qo‘lni uzaytirmoq» bo‘lsa, bu yerda «biron narsani olish uchun qo‘l uzatmoq» ma’nosida ishlatilgan.

Bu kabi misollar maqomotlarda ko‘plab uchraydi.

Inversiya – gapdagi so‘zlarning odatdagi o‘rnini o‘zgartirish (inversiya lotincha «joy almashtirish») demakdir. Jumladagi so‘zlarning odatdagi o‘rnini almashtirishdan ko‘zlangan maqsad birorta so‘zga alohida urg‘u berish orqali uning ta’sirchanligini oshirishdan iboratdir.

Maqomotlarda ham inversiyaga misollar juda ko‘p topiladi. Fikrimizga quyidagi jumlalar dalil bo‘ladi:

تعجب بسیار کردند و سبب مزید یقین ایشان شد به حضرت خواجه

«Juda ajablandilar va (bu) ularning ishonchi oshishiga sabab bo‘ldi» [1.2.147a].

Fors tili grammatikasining normativ hodisalari nuqtai nazariga ko‘ra mazkur jumladagi Hazrat Xoja (to‘ldiruvchi) kesimdan oldin kelib ushbu shaklda bo‘lishi kerak

بسیار تعجب کردند و سبب مزید یقین ایشان به حضرت خواجه شد.

«Juda ajablandilar va (bu) ularning Hazrat Xojaga ishonchi oshishiga sabab bo‘ldi». Originaldagi jumlaga diqqat qilganimizda muallif gapning egasini o‘z o‘rnidan boshqa o‘ringa ko‘chirish orqali asosiy mantiqiy urg‘uni «Hazrat Xoja»ga ko‘chirganining guvohi bo‘lamiz.

وا عظی بود در شهر بخارا

Tarjimasi: «Bir voiz (va’z o‘quvchi) bo‘lardi Buxoro shahrida».

Fors tili stilistikasi qoidalariga binoan mazkur jumla shunday tuzilishi kerak edi:

در شهر بخارا و اعظی بود

Tarjimasi: «Buxoro shahrida bir voiz bo‘lardi».

Bu jumlada esa muallif o‘quvchi diqqat-e’tiborini «voiz» so‘ziga jalb etmoqchiligini sezamiz. Bu hol voizga nisbatan ko‘proq e’tibor berilganligiga dalolatdir.

حضرت خواجه ما قدس روحه با آن عزیز نشته بودند بر کنار جوی

Tarjimasi: «Hazrati Xojamiz, uning ruhi muqaddas bo‘lsin, u aziz (kishi) bilan o‘tirgandilar ariq bo‘yida» [1.4.88a].

Normativ grammatika nuqtai nazaridan bu jumla quyidagi tartibda tuzilishi kerak:

حضرت خواجه ما قدس روحه با آن عزیز برکنار رجوی نشته بودند.

Tarjimasi: «Hazrati Xojamiz, ularning ruhi muqaddas bo‘lsin, u aziz (kishi) bilan ariq qirg‘og‘ida o‘tirgan edilar».

Maqomotlarda intonasion, stilistik vositalardan sanalmish inversiyaning ishlatilganligiga yana ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Qisqacha xulosa qiladigan bo‘lsak, ularda inversiya faqat birgina maqsadda, u ham bo‘lsa jumladagi ega, kesim va ikkinchi darajali bo‘laklarning odatdagi o‘rnini almashtirish orqali bayon qilinayotgan fikrning o‘quvchi ruhiyatiga ta’sirini kuchaytirish maqsadida ishga solingandir.

Mazkur misollardan ko‘rinib turganidek, maqomotlar nasri bir qator badiiy til vositalari va badiiy tasviriy vositalarning ishlatilishi tufayli o‘ziga xos jozibadorlik kasb etadi.

Yuqorida zikr etib o‘tilganidek, maqomotlar ravon va sodda tilda yozilgan. Bu hol bejiz emas, albatta. Maqomotnavislar naqshbandiya tariqati ta’limotining ko‘proq kitobxonlar ommasiga yanada tushunarli bo‘lishini ta’minlash maqsadida sodda va ravon bayon tarzini tanlaganlar.

Maqomotlarning ba’zi qismlarini (xususan, valiy va valiylik ta’rifi qismini) hisobga olmaganda ulardagi jumlalar o‘zining soddaligi va qisqaligi bilan ajralib turadi.

Uzundan-uzun, murakkab jumlalarning yo‘qligi maqomotlar mazmunini tushunishni osonlashtiradi. Umuman olganda maqomotlar nasrining tili soddaligi bilan xalq tiliga yaqin turadi.

Shunga qaramasdan, bugungi fors tili grammatikasi nuqtai nazaridan kelib chiqib yondashadigan bo‘lsak, unda bir qator eskirib qolgan va muomaladan chiqqan elementlar ko‘zga tashlanadi. Asarda boshqa tillardan kirgan so‘zlar ko‘plab uchraydi. Dastlab arabizmlarning ko‘pligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Asarda arabizmlardan tashqari turkizmlar ham uchrab turadi. Asar uslubining shakllanishiga unda mavjud bo‘lgan ko‘plab diniy elementlar, istilohlar bilan bir qatorda tasavvuf istilohlarining ko‘pligi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Maqomotlarning badiiy-uslubiy xususiyatlarini va tilini o‘rganish yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. XVI–XVII asr fors nasrining yodgorligi bo‘lgan maqomotlarning fonetik, leksik-grammatik xususiyatlarini o‘rganish ham hali oldinda turgan vazifalar jumlasidandir. Chunki bu asarlar fors tili tarixiy lug‘ati, so‘z boyligi, grammatikasini yaratishda qimmatli manba vazifasini o‘tashi mumkin.

Maqomotlarning badiiy-uslubiy xususiyatlari tahlili natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, ayrim maqomotlarda (N1520,11954) ba’zi naqllarning tushirib qoldirilishi yoxud ba’zi qismlarni katta yoki kichik bo‘lishi maqomotlarning tarkibiy qismlari bir-biriga qiyoslanganda ko‘zga tashlanadi. Bu omil mualliflar tomonidan aynan bir shaxs hayoti va xarakteri mualliflar tomonidan ijobiy yoki salbiy xislatlarni ko‘proq tasvirlashni taqozo etgan. Shundan kelib chiqib, muallif qahramonning xarakterini tasvirlashda bir yoqlamalilikka berilib ketib, asl hayotiy haqiqatlardan yuz o‘girib, o‘zining emotsional tafakkurini asoslashga harakat qiladi. Bularning barchasi tasvirlanayotgan xarakterlarning ichki qonuniyatlaridan chetga chiqib o‘z pafosini tasdiqlashga, ya’ni asarning g‘oyaviy yo‘nalishi tendensiozlanishiga olib keladi.

Bunday holatlar turli mualliflar o‘z ijodida o‘z e’tiqodidan kelib chiqqan paytlarda yaqqol seziladi. Ular hayotni ideallashtirishga harakat qilib, asar qahramoni xarakterini ham ideal armoniy xislatlar sohibi sifatida tasvirlaydilar.

Obrazli tasvir vositasida maqomotnavislar tomonidan tasvir doirasiga tortilgan hodisalar, turmush jarayonlari, kishilarning taqdirlari, his-tuyg‘ulari, o‘y-fikrlari bir butun, jonli holda qamrab olinadi. Ular to‘laqonli, jonli, yaxlit, hayotiy manzaralar chizish orqali o‘quvchi qalbida go‘zallik, shodlik, faxr, iftixor tuyg‘usini uyg‘otadilar va uning o‘zi mukammal inson sifatida tarbiyalanishiga zamin tayyorlaydilar.

Maqomotlar kitobxon tafakkuriga kuchli ta’sir ko‘rsatishga qodir asarlardir. Mualliflar bunday ta’sirchanlikka aniq so‘zlar yordamida yaratilgan obrazlar vositasida erishadilar, chunki bu obrazlar go‘yo mualliflar g‘oyalarini nurlantirib, o‘quvchi ongida, qalbida nozik tuyg‘ular va o‘zgarishlar tug‘dira oladi.

Aristotel tarixga nisbatan poeziya umumiyroq tomonlarga bog‘liqligini qayd qilib: «Poeziya tarixga nisbatan... falsafiyroqdir; poeziya umumiyroq hodisalar haqida, tarix esa ayrim voqealar haqida gapiradi. Qandaydir xarakterli inson gapirishi yoki qilishi ehtimol yoxud zarur bo‘lgan narsa umumiylik hisoblanadi» [84.68].

Aristotelning mazkur fikrlari antik adabiyotga nisbatan aytilgan bo‘lsa-da, o‘rta asr adabiyotiga ham mos keladi. Chunki muayyan ijtimoiy guruhlar va yo‘nalishlarning o‘ziga xos belgilari, uning obrazlari o‘sha davr kishilari uchun qiziqarli va keng yoyilgan tomonlarni ko‘rsatishga urinishi bo‘lganidan dalolat beradi. Bu avliyolar maqomotlariga ham to‘la-to‘kis mos keladi. Chunki maqomotlarda o‘rta asrlarda Movarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan naqshbandiya tariqati shayxlarigagina xos bo‘lgan belgilar, xislatlarni mujassamlashtirgan shaxslar tipi yorqinroq va to‘liqroq tasvirlangandir.

O‘rta asrlar adabiyotida fors tilida yozilgan maqomotlarda tarixiy-xronologik tafsilotlar bilan birga tarixiy faktlar o‘ziga xos badiiy ishlov berilishi natijasida badiiylashtirilgan sahnalar darajasiga ko‘tarilgan. Ularda qalamga olingan, tasvirlangan voqealar ko‘p hollarda ma’lum bir syujet asosiga qurilgan badiiy asarlarga xos bo‘lgan to‘qimalarga boyligi, tilining ravonligi va obrazliligi bilan badiiy asarlarni eslatadi. Bu kabi asarlar tarixiy faktlaridan ko‘ra, o‘zining badiiy jihatlari, ularda bayon qilinayotgan voqealar rivoji va tasvirlanayotgan xarakterlarning ziddiyatli qarashlari, obrazlarning ijobiy va salbiy taraflarining ochib berilishi kabi bir qator badiiy xususiyatlari bilan o‘quvchilarni o‘ziga ko‘proq maftun etadi. Bu turdagi asarlar kitobxonlar nazdida ma’lum darajada tarixiy qissalar sifatida qabul qilinib, ularning ma’naviy-estetik ehtiyojlarini qondiradi.

### 4.4. Maqomotlardagi she’riy parchalar

Tasavvuf adabiyotini umuman she’riyatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki uning Sharqda keng tarqalishining boisi ham uning arab, fors, turkiy tillarda buyuk bir she’riyatni vujudga keltirishi bilan bog‘liqdir. VIII–XI asrlarda Robiya Adviya, Mansur Xalloj singari ulug‘ so‘fiylar ijodi bilan boshlangan so‘fiyona she’riyat, X–XII asrlarga kelib ulkan bir adabiyotga aylandi, o‘ziga

xos obrazlar, timsollar olami, alohida ramzlar, uslub va usullar tanlandi [33.151].

Tasavvuf shayxlari muridlarga ta'sir etish uchun ruboiy, g'azal kabi kichik she'riy asarlardan foydalanganlar. Ba'zan o'zlari so'fiyona g'oyalarga mos asarlar ijod qilib, xalq orasida yurgan og'zaki ijod namunalari, mashhur shoirlarning she'rlaridan foydalanib suhbatlarini qizitganlar, so'zlarga yangi ma'no berib, so'fiyona g'oyalar ruhida talqin va tafsir qilib, eshituvchilarni hayajonga solganlar.

So'fiyona adabiyotning tasvir mavzui tariqat yo'li bilan poklanadigan va tinmay komillik sari taraqqiy etayotgan inson bo'lgani uchun ana shu solik insonning dunyoqarashi, estetikasi, kechinmalar olami muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Tasavvuf adabiyotining barcha janrlari, ko'rinishlarida ana shu solik insonning tuyg'ulari, tushunchasi tasvirga olinadi, uni tarbiyalash, unga Haqni va o'zligini tushuntirish, turli rivoyat va hikoyatlar keltirish, pand-nasihatlar qilish bilan uning ongi va qalbiga yo'l topish bosh masala qilib olinadi.

Tasavvuf g'oyalarini aqliy nazariy mushohadadan ko'ra hissiy-obrazli tafakkur bilan tushuntirish oson bo'lganligi tufayli shayxlar va pirlar o'z nazariy fikrlarini falsafiy istilohlar vositasida tushuntirishga qiynalib qolgan paytlarida muddaoni she'riy satrlar yordamida izhor etganlar. Shu sababli mashhur shayxlar ajoyib ruboiy va g'azallar yozgani, she'riy meros qoldirgani tarixdan ma'lum.

Shayxlar o'z atroflarida to'plangan muridlarga tariqat maqomi va hol manzillari haqida suhbatlar qilish jarayonida ora-orada she'riy parchalar o'qib, ixcham hikoyatlarni misolga keltirib o'tar, tinglovchilar esa bundan zavqlanib shayxning fikrini chuqurroq anglar edilar.

Hazrati Bahouddin Naqshband maqomotlari ham bundan mustasno emas.

Asarning jozibadorligi nasriy bayonning sodda va ravonligi bilan bir qatorda uni ta'sirchanligini va mantiqiyligini oshirish maqsadida she'riy parchalarning keltirilishi va ularning o'zaro zanjiriy bog'liqligi tasvirlanayotgan fikr, voqea, hodisalar, xarakterlarning to'laqonligini ta'minlaydi. Shuning uchun ham asarni o'qigan

kitobxon muallif mahoratiga tahsin o‘qiydi. Maqomotlarning har bir sahifasini mutolaa qilgan o‘quvchi ularda keltirilgan oyat, hadis va nazm zanjiri jozibasi, ta’siridan lazzatlanadi, davr voqealarini va bayon qilinayotgan fikrlarni yaqqolroq his qiladi.

Yuqorida zikr etib o‘tganimizdek, maqomotlar o‘rta asrlarda yaratilgan musulmon agiografiyasi jumlasiga kiruvchi asarlardir. Agiografiya janriga mansub asarlarning nasr va nazmda yozilishi ular qaysi tilda yozilganligidan qat’i nazar ularning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Maqomotlarda she’rlar va she’riy parchalar juda ko‘p. Ular misra’, bayt, to‘rtlik, ruboiy, masnaviy, g‘azallardan tashkil topgan. She’rlarning maqomotlar mohiyati va mazmunini ochib berishdagi roli hamda o‘rni nihoyatda kattadir. Maqomotlar tarkibiga kirgan she’rlar asarning nasr qismini to‘ldirib, she’rlargagina xos bo‘lgan o‘ta qisqa obrazli shaklda mantiqiy xulosa yasash uchun yozilgan yoxud u yoki bu shoirning ijodidan iqtibos qilib olingan she’rlardir. Aksariyat she’rlar maqomotlarda naql-rivoyatlarning oxirida beriladi va go‘yoki ularda bayon qilingan fikr-mulohaza, voqea-hodisalarga yakun yasaydi, xulosa chiqaradi. Naql-rivoyatlarning aksariyati maqomotlarning nasriy matni bilan chambarchas bog‘liq holda muayyan vazifani bajaradi. Shu sababli ba’zi she’rlar asarning asosiy matnidan ajratib olinsa, ularni alohida tahlil qilish mumkin bo‘lmaydi.

Maqomotlardagi she’rlar aksariyat hollarda maqomot mualliflariga taalluqli bo‘lib, ba’zi hollarda she’rlarning mualliflariga ishora qilinadi. Masalan, maqomotlarda Bahouddin Naqshband, Hazrati Azizon, Xoja Ali Romitaniy, Fariduddin Attor qalamiga mansub she’rlar ham mavjud. Mualliflar she’rlar kimga mansub ekanligini (ba’zi hollardagina) ko‘rsatib o‘tadilar. Masalan: «Hazrati Xojamiz Qasri orifonda masjid imoratiga mashg‘ul bo‘lgan vaqtlarida ... mana bu baytni o‘qir ekanlar, bayt:

بجان بکنم کار تو چرا نکنم  بر سر بکشم بار تو چرا نکشم

*Tarjimasi: «Sening ishingni jon deb qilaman nega qilmayin,*
*Sening yukingni boshimda ko‘taraman, nega ko‘tarmayin».*

Quyidagi ruboiy bir naqldagi mana bu voqeaga ilova qilingan:

(Hazrati Xojaga) Sayid Amir Kulolning oldiga bor degan ovoz kelibdi. Amirning oldiga boribdilar. Amir buyuribdilar:

Ruboiy:

تا ز آی که ترا بناز من خواهم داست  بر تو در لطف باز من خواهم داشت

هر غصه غم که در درون دل توست　　آن بمن گو که راز من خواهم داشت

Tarjimasi: «Qaytgilki, seni noz birla kutib olaman,
Senga lutf eshigini men ochaman.
Menga dilingdagi barcha g‘am-g‘ussalarni
aytki, men sirni saqlay olaman.

Aytib o‘tganimizdek, maqomot muallifiga yoki nomi noma’lum shoirlarga tegishli she’rlardan tashqari muayyan shaxsga nisbat berilgan she’rlar ham maqomotlarga kiritilgan.

«Husayn Mansur Xalloj haqida eshitganmiding ... u aytgan edi:

کفرت بد ین الله و اکفر و اجب　　علی و عند المسلمین قبیح

Tarjimasi:
*«Inkor etdim Alloh dinini kufr vojibdur manga,*
*Aql muslim nazdida bul ko‘p qabohatdur manga»* [1.4. 70a].

Mansur Xallojga nisbat berilgan mazkur bayt originalda, ya’ni arab tilida berilgan. Bu she’rning tarjimasi M. Hasanovning «Bahouddin Balogardon» kitobidan olindi.

Quyidagi baytda Hazrati Azizonga nisbatan berilgan.

سگ به ز کسی باشد که او پیش سگ گویش

جان را محلی بیند دل را قدری داند

«Joningni hurmat qiladigan va qadringni biladigan it
Buning aksi bo‘lgan odamdan yaxshiroqdir».

Quyidagi bayt ham ularning muborak zabonlaridan o‘tib turardi.

نبینی وقت سفتن مرد حکاك　　به شاگردان دهد دُر خطرناك

Tarjimasi: «Ko‘rmaysanmi durga shakl beruvchi durni ishlayotgan paytda nozik (xatarli) durni o‘z shogirdiga beradi (uni sinash maqsadida)» [1.4.77a].

Quyidagi g‘azal buyuk mutasavvuf Fariduddin Attor tarafidan yozilganligi g‘azalning maqta’ qismidan ma’lum bo‘ladi.

آنچه من در عشق جانان یافتم　　کمترین چیزها جان یافتم

چون بدیدم آشکارا روی دوست　　صدهزا ران راز پنهان یافتم

چون در افتادم به پندار بقا　　در بقا خود را پریشان یافتم

چون فرو رفتم به دریای فنا　　در فنا دُر فراوان یافتم

تا نپنداری که این دریای ژرف　　نیست دشوار من آسان یافتم

صد هزاران قطره خون از دل چکید　　تا نشان قطرهء از آن یافتم

شعله های عشق از سودای دوست　　در دل عطار سوزان یافتم

Tarjimasi:

*«Jonon ishqida men topgan narsa.*
*Do‘st chehrasini oshkora ko‘rganimdan so‘ng*
*Yuz ming pinhon bo‘lgan sirlarni topdim.*
*Baqo (maqomi) tasavvuriga cho‘mganida*
*Baqo (maqomi)da o‘zimni parishon topdim.*
*Fano (maqomi) dengiziga g‘arq bo‘lganimda*
*Fanoda ko‘plab durlarni topdim.*
*Bu chuqur dengizni men osonlikcha topdim deb o‘ylamaginki*
*Undan bir qatra topishim uchun*
*Yurakdan yuz minglab qatra qon tomdi.*
*Do‘st savdosidan Attorning qalbida ishq shu’lalarini so‘zon topdim* [1.3, 46a,].

Mazkur g‘azal faqatgina Xoja Muhammad Porso qalamiga mansub «Maqomoti Hazrat Naqshband»da to‘liq holda berilgan.

Saloh bin Muborak al-Buxoriy va Ali Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali maqomotlarida bu g‘azalning matla’idan avvalgi bayti ya’ni:

صد هزاران قطره خون از دل چکید　　تا نشان قطرهء از آن یافتم

tarjimasi:

*«Undan bir qatra nishon topishim uchun*
*Yurakdan yuz minglab qatra qon tomdi»* [1.2. 103b] keltirilgan, xolos. Bu g‘azalda so‘fiyona tushunchalar o‘z ifodasini topgan bo‘lishiga qaramasdan juda sodda va ravon tilda yozilgan. Baytning sodda va ravonligi Attor g‘azallariga xosdir.

Quyidagi ruboiylar Bahouddin Naqshbandga nisbat beriladi.

هیچ مانیست و هیچ کم نی　　از هیچ هیچ غم نی

جنده بر پشت وپشت گور ستان　　روزی که میریم هیچ ماتم نی

Tarjimasi:

«Hech narsamiz yo‘q, shuning uchun hech kamimiz yo‘q. Hech-hech, ya’ni u-bu narsa deyishdan hech bir g‘amimiz yo‘q. Egnimizda jandayu orqada qabriston, o‘lgan kunimiz motam ham yo‘q».

Mazkur ruboiy barcha maqomotlarda mavjud. Ba’zi maqomotlarda ruboiyning ba’zi so‘zlari o‘zgartirilgan. Bu o‘zgartirish mualliflar tarafidan ro‘y berganmi yoki xattotlar «ijodining» samarasimi aniqlash mushkuldir.

Mazkur ruboiy maqomotlarda hazrati Xojaning «suluk yo‘li va darveshlik sifati ta’riflangan naqlda keltiriladi. Ushbu naqlda Hazrati Xojaning tariqa yo‘llari faqr, «aloyiqdan kechish» ekanligi ta’kidlanadi va shu ruboiyda tasavvufdagi faqr tushunchasi o‘z ifodasini topgan. «Faqr» maqomotning alohida bosqichini anglatishidan tashqari, umuman darveshlikning mohiyatini ham belgilab keladi. Tasavvuf lug‘atlarida qayd etilishicha, «faqr» «ulug‘ bir mohiyat, insonning ilohiy aslidir», faqirlik dunyoning moli va ahvolidan hech narsaga ega bo‘lmaslik.

Demak, yuqorida keltirilgan ruboiyda tasavvuf istilohi bo‘lmish faqrning badiiy ifodasi, chuqur falsafiy ildizi qisqa va yorqin tarzda o‘z aksini topganini ko‘ramiz. Mazkur ruboiyning ikki muallifga mansub ikki maqomotda ba’zi so‘zlari o‘zgartirilganligini yoxud tushirib qoldirilganligini namoyish qilish uchun keltirdik. Bu juz’iy o‘zgarishlarning ruboiyning asosiy ma’nosiga zarar yetkazmaganligi yuqoridagi tarjimalarda ham ko‘zga tashlanadi, deb o‘ylaymiz.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bunday o‘zgarishlar kim tomonidan amalga oshirilganligini aniqlash mushkul.

Shu naqlning o‘zida mavjud bo‘lgan yana bir to‘rtlik ham Bahouddin Naqshbandning tariqalari faqr ekanligini tasdiqlash uchun keltirilgan. Bu to‘rtlikning muallifi Bahouddin Naqshband ekanliklari ham naqlda zikr etiladi.

نه مرا مفرش و نه مفر شکس　　نه غلامان ترك و نه ترکشکش

همه شب چون سگان کهدانی　　سر بردم آوردم به جسم خوش

Tarjimasi: *«Menda na gilam bor na farrosh*
*Na turk g‘ulomiyu na sangtarosh*
*Munda men yoturman it kabi xor zor*
*Ingrayman, dumimga qo‘yganimcha bosh»*

Hazrati Xoja Sulton Xalil (Xalil ota) mulozamatida yurganlarida ularni «Aqroni Sulton der edilar va ular jallodlik qilishga buyurilgan edilar» deb boshlanadigan naqlda tuhmat bilan mahkum qilingan kishiga chiqarilgan hukm ijrosi asosida uning bo‘yniga solingan shamshir o‘tmaganidan so‘ng, ma’lum bo‘lishicha, u kishi Said Amir Kulolning muridlaridan bo‘lib chiqadi. Shundan so‘ng Xoja buni eshitgach, muridni shamshirdan saqlay oladigan kishi (pir) uni do‘zax olovidan ham saqlay olishi mumkinligiga ishonchlari yanada oshdi».

Ushbu naqlga quyidagi bayt ilova qilinganki, unda komil insonlarga xos bo‘lgan xislat, ya’ni ular nazari tushgan zotlarni har qanday balodan ham asray olishlari mumkinligi bayon qilingan.

مردان خدا خدا نباشد  لیکن ز خدا جدا نباشد

Tarjimasi: *«Xudoning mardlari Xudo emaslar,*
*Lekin Xudodan ham judo emaslar».*

Bu baytdagi مردان خدا iborasi tasavvuf lug‘atlarida komil inson tushunchasini anglatuvchi ibora ekanligi ko‘rsatiladi.

She’rlar orasida yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, tarbiyaviy ahamiyatga molik didaktik xarakterga ega bo‘lgan she’rlar ham maqomotlarda ko‘plab uchraydi.

چون آموز گارش فریدون بود  از آن پرهنر بیهنر چون بود

Agar ustozi Faridun bo‘lsa,
Bunday purhunar ustozning shogirdi qanday qilib behunar bo‘ladi?

Va yana quyida misol tariqasida keltirilgan ruboiylar do‘st va do‘stlik haqida yozilgan:

نیکوان راد وست دارد هر که با شد در جهان
گربدان را دوست داری گوی بردی از میان

*«Dunyodagi odamlar yaxshi kishilarni do‘st tutadilar,*
*Agar sen yomonni yaxshi ko‘rolsang, o‘rtadan o‘yin olgan bo‘lasan»* (62).

حاصل دریا همین دُر بود  یك هنر از آدمی پر بود

tarjimasi:

*«Dengizdan hamisha izlamagil dur,*
*Odamga bir hunar bas, ezgu turur»* [1.4.74].

quyidagi baytlar esa aforizm - hikmatli so‘zlardek yangraydi:

تا نسوزد بر نیاید بوی عود  پخته راند این سخن را خام نی

*«To kuymaguncha udning hidi chiqmaydi*

*Bu so‘zni pishgan (tajribali) odam biladi, xom bilmaydi».*

درخت سبز داند قدر باران  توخشکی قدر باران چه دانی

*«Yomg‘irning qadrini ko‘m-ko‘k daraxt biladi*

*Sen quruqsan, yomg‘irning qadrin qaydan bilasan»* [1.4.11].

اگر بینی که نابینا و چاه است  اگر خاموش بنشینی گناه است

tarjimasi:

*«Agar ko‘zi ojiz odamni (yo‘lida chuqurlikni) ko‘rsang va indamasdan xomush o‘tirsang, gunoh bo‘ladi».*

Bu bayt shu kungacha og‘izdan-og‘izga ko‘chib yuruvchi tarbiyaviy ahamiyatga molik aforizm sifatida ko‘p ishlatildi.

Bahouddin Naqshbandda «jazba va behudlik» g‘alaba qilgani va u tunda Sayid Amir Kulol huzuriga borib, Sayyid kulol uni o‘z hujrasidan haydab chiqarib, «Sening hojating bu eshikdan hosil bo‘lmas!» degani hikoya qilingan naqlga ilova qilingan ruboiyda Bahouddin Naqshbandning o‘sha holatidan so‘ng unda Sayyid Kulol suhbatidan bahramand bo‘lish maqsadida uning hujrasiga qaytish ishtiyoqi zo‘raygan paytdagi fikrlari quyidagi ruboiyda o‘z aksini topadi.

ای داده روی تو ماه را زیبائی  خاك قدم تو دیده را بینائی

در حدمت توجان و دل و دیدهء تن  میبازم من قبول میفرمائی

Tarjimasi:

*«Ey chehrasi oyga go‘zallik bag‘ishlagan (inson)*

*Sening qadaming hoki ko‘zlarga nur (bergan inson)*

*Sening xizmatingga men jonu dilim va ko‘zlarimni baxshida etaman, qabul qilasanmi?»*

Qaytib kelib boshini uning ostonasiga qo‘yadi va quyidagi ruboiyni o‘qiydi:

تاجان دارم رنگ غمت آمیزم  تا اشك بود بر سر کویت ریزم

چون صبح قیامت بدمد باد عشقت  از خلك درت نعره زنان برخیزم

Tarjimasi:

*«Sening g‘aming jonimda toki jonim bor esa,*

*Yo‘g‘ingda yig‘layurman, toki yoshim bor bo‘lsa,*

*Qiyomat bo‘lsa hamki, sening ishqing ko‘nglimda*

*Ostonangda yoturman na’ra tortib xor bo‘lsam»* [1.4..38].

یامکن با فیلبانان ردستی  یا بناکن خانهء در خرُد فیل

*«Yo filbonlar bilan do‘stlik qilmagin,*
*Yo fil sig‘adigan uy qur».*

ممکن نبود حصول مقصود  بی بد رقه عنایت یار

*«(Xudo) Yor inoyatining ko‘magisiz*
*Maqsad hosil bo‘lmaydi».*

تا توز هستی خود زیرو ز برنکردی  در نیستی مطلق مرغ دو پرنکردی

این پرده نهایت درهت شکن که هرگز  در پرده ره نیابی تاپرده در نکردی

*«Borlig‘ingni vayron-talqon qilmasang agar,*
*Ul pardani parcha-parcha tilmasang agar,*
*Qush singari parvoz ayla yo‘qlikka tomon*
*Parda ermas ul to‘siqdir, bilmasang agar».*

Didaktik she’rlarga qaraganda maqomotlarda tasavvufiy mazmunga ega she’rlar juda ko‘p uchraydi:

شب و روز طالب قبول و ئیم  پیروامت رسول و ئیم

tarjimasi:

*«Kechayu kunduz uning qabuli talabgorimiz*
*Uning rasulining ummatlari payravlarimiz (ergashuvchilarmiz)»*

من غلام آفتابم همه ز آفتاب گویم
نه شبم شبپر ستم که حدیث خواب گویم

tarjimasi:

*«Men quyoshning quliman har doim quyoshdan gapiraman*
*Tun emasman, tunparast ham emasmanki, tushdan gapirsam».*

ما اختیار خود از دست داده ایم
کان اختیار دوست همه اختیار رماست

tarjimasi:

*«Biz o‘z ixtiyorimizni qo‘ldan boy berganmiz*
*Do‘stning har bir ixtiyori (xohishi) bizning ixtiyor (xohishimizdir)»* (77).

بکوش بکف آری کلید گنج و جود
که بلطف نتوان یافت گوهر مقصود
برآ ستانه سعادت که سر نهادشبی
که لطف دوست بر رویش دریچه بکشود

tarjimasi:

*«Vujud ganjin kalitini qo‘lga kiritishga harakat qilgil*
*Talabsiz maqsad gavharini topib bo‘lmaydi.*
*Munda saodat ostonasiga boshni qo‘yganda*
*Do‘st lutfi unga darcha (eshik)ni ochdi»* (39).

Mazkur ruboiy quyidagi naqlga ilova qilingan: «Bahouddin Naqshband jazaba ayyomida tunlarning birida Amir Sayid Kulol suhbatining jozibasini sezib, uning huzuriga boradi. U darveshlar bilan suhbatlashayotgan edi. Unga ko‘z tutib: «Bu kim?» deb so‘radi. «Ma’lum bo‘lgandan so‘ng dedilar: «Zudlik bilan uni bu yerdan chiqarib yuboringlar» deb haydab yuboradi. Bahouddin Naqshband yana qaytib kiradi va yana haydaladi. Unga shunday deydilar: «Boshqa kelmaki, sening hojating bu eshikdan ravo bo‘lmaydi».

Yuqorida keltirilgan ruboiy naqldan hosil bo‘ladigan xulosani qisqa shaklda ifodalaydi. Ya’ni, kimki haq ma’rifati yo‘liga kirgan bo‘lsa va haq visoli talabida bo‘lsa, unda solik bu yo‘lda uchraydigan barcha qiyinchilik va riyozatlarga chidashi zarur, shunday qilgandagina «do‘st» ya’ni Alloh unga «o‘z ma’rifati darvozasini ochishi mumkin, bundan boshqa yo‘l yo‘q» degan ma’no anglashiladi.

Maqomotlardagi she’riy parchalar, baytlar, ruboiylar nasrda bayon qilingan mavzuni nazmda ifoda etib, asarning jozibadorligini oshiradi. Yuqorida ham ko‘rib o‘tganimizdek, she’rlar orasida Bahouddin Naqshbandga nisbat berilgan baytlar ham mavjud. Maqomotlarda ko‘plab uchraydigan, nasr va nazmning mazmunan uyg‘unligidan dalolat beruvchi quyidagi bir parcha fikrimizni tasdiqlashi mumkin.

Naql qilishlaricha, Hazrati Xojamiz aytgan ekanlar: «Avvali holda odatim shu ediki, agar ikki kishi o‘zaro gaplashayotgan bo‘lsalar, quloq solardim. Agar Uning (Allohning) gapini gapirayotgan bo‘lsalar shod bo‘lardim, yo‘qsa g‘amgin».

Masnaviy:

هر که نه گویا به توخاموش به  هر چه نه یاد تو فراموش به

tarjimasi:

*«Har kim Seni (haqingda) so‘zlamasa xomushlik (jim turish) yaxshiroq(dir).*

*(Har kim) Agar Seni yod etmasa, (uni) esdan chiqargan yaxshiroq(dir)».*

Yuqorida maqomotlardan olingan misollar sifatida keltirilgan she’rlar tahlilidan kelib chiqqan holda maqomotlardagi she’rlarni mazmun-mohiyati nuqtai nazaridan quyidagicha tasnif qilishimiz mumkin:

1. So‘fiyona istilohlardan foydalanib yozilgan sof so‘fiyona she’rlar zarur sharoit va extiyojdan kelib chiqib tinglovchi muridning ruhiyatiga ta’sir qilish uchun yozilgan. Bu kabi she’rlarda so‘fiyning botiniy holati va ichki kechinmalari o‘z ifodasini topgan.

2. Mualliflarning yoxud Bahouddin Naqshbandning falsafiy qarashlari in’ikos etilgan she’rlar. Bunday she’rlarda majoziy, ramziy so‘zlar va iboralar ko‘p ishlatilganligi sababli maqsad – g‘oya yashirilgan.

3. So‘fiyona istilohlar qo‘llanilmagan bo‘lishiga qaramasdan so‘fiylar doirasiga mansub bo‘lgan, o‘zida islomiy axloq-odob normalarini mujassamlashtirgan didaktik xarakterga ega bo‘lgan she’rlar.

# X U L O S A

Ushbu dissertatsiya ishi o‘rta asrlarda fors tilida yaratilgan agiografik asarlarning tasnifiga va bu turkumga kiruvchi maqomotlarning, xususan, bu janrning dastlabki namunalaridan hisoblangan «Hazrat Bahouddin Naqshband maqomot»larining filologik tahliliga bag‘ishlangan birinchi tadqiqotdir. Shu bilan bir qatorda islom agiografiyasi tushunchasi ham birinchi marotaba ilmiy taomilga kiritilmoqda va uning «sira», «tabaqot», «tarojim», «tazkira», «qissa», «manoqib», «xolot», «maqomot» kabi janrlari ilk marotaba tasniflanmoqda.

1. Agiografiya janriga mansub asarlar tarkibida maqomotlar forsiy agiografiya janrlari taraqqiyoti va takomilining yuqori darajadagi mahsuli bo‘lib, ular o‘zining mavzusi, mazmuni, maqsadi va g‘oyasi, keng qamrovliligi, badiiyligi bilan boshqa agiografiyalardan ajralib turadi. Bunday xulosa chiqarishimizga ularda tazkira, tabaqot, tarojim kabi asarlardan farqli o‘laroq faqatgina bir shayx, pir, valiyning hayoti boshidan oxirigacha butun tafsilotlar bilan tasvirlangani, bu kabi asarlar tarkibidagi yuzlab naql-rivoyatlar mualliflarning ijodiy g‘oyasiga – maqsadiga bo‘ysundirilgan holda maqomotlarning bosh obraz – Bahouddin Naqshband siymosini tasvirlashga xizmat qilishi asos bo‘ldi.

2. Maqomotlar nasr va nazmda yozilgan bo‘lib, ko‘plab Qur’on oyatlari va hadislarni o‘z ichiga oladi. Maqomotlarda bayon etilayotgan nazariy materialni dalillash uchun ko‘plab hikoyat, rivoyat, naqllar keltiriladiki, ular nazariy masalalarning misollar vositasida kitobxon xotirasida saqlanib qolishiga imkoniyat yaratadi.

3. Maqomotlar sodda, ravon tilda yozilgan bo‘lishiga qaramay, ularda ko‘plab so‘fiyona istilohlar uchraydi. Maqomotlar tarkibidagi she’riy parchalarning roli shundan iboratki, ular avval nasrda bayon etilgan fikr-mulohazalarni qisqa va lo‘nda shaklda g‘azal, bayt, misra’, masnaviy, ruboiy, qit’a, fard shakllarida ifodalaydi.

Asarning jozibadorligini nasriy bayonning sodda va ravonligi, ta’sirchanligini va mantiqiyligini oshirish maqsadida she’riy parchalarning keltirilishi va ularning o‘zaro zanjiriy bog‘liqligi tasvirlanayotgan fikr, voqea, hodisalar, xarakterlarning to‘liqligini ta’minlaydi. Shuning uchun ham asarni o‘qigan kitobxon mualliflar mahoratiga tahsin o‘qiydi. Maqomotlarning har bir sahifasini mutolaa

qilgan o‘quvchi ularda keltirilgan oyat, hadis va nazm zanjiri jozibasi hamda ta’siridan asarni o‘qigan sari lazzatlanadi, davr voqealarini va bayon qilinayotgan fikrlarni yaqqolroq his etadi.

She’rlarning maqomotlar mohiyati hamda mazmunini ochib berishdagi roli va o‘rni nihoyatda kattadir. Maqomotlar tarkibiga kirgan she’rlar asarning nasr qismini to‘ldirib, she’rlargagina xos bo‘lgan o‘ta qisqa obrazli shaklda mantiqiy xulosa yasash uchun yozilgan yoxud u yoki bu shoirning ijodidan iqtibos qilib olingan she’rlardir. Aksariyat she’rlar maqomotlarda naql-rivoyatlarning oxirida beriladi. Ularning aksariyati maqomotlarning nasriy matni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, muayyan vazifani bajaradi. Shu sababli she’riy parchalarni asarning asosiy matnidan ajratib olib, alohida tahlil qilish mumkin bo‘lmaydi.

4. Maqomot mualliflari o‘z asarlarini yaratishdan avval Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar, uning sahobalari, xalifalari hayotiga oid o‘zlaridan oldin yaratilgan siralar, buyuk mutasavviflarning hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi maqomot, manoqib, tabaqot, risolalar bilan tanish bo‘lganlari ravshan. Maqomotlarda buyuk mutasavviflar Mansur Xalloj, Boyazid Bistomiy, Jaloliddin Rumiy, Junayd Bag‘dodiy, Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Boboyi Samosiy, Amir Said Kulol va boshqa avliyolar hayoti, faoliyati haqidagi lavhalarning zikr etilishi fikrimizga dalil bo‘la oladi, deb o‘ylaymiz.

5. Bahouddin Naqshband maqomotlari kompozision qurilishining Muhammad (s.a.v.) siralari va boshqa maqomotlar kompozisiyasi bilan («Xolnoma»i Boyazid Ansoriy, Maqomoti Ya’qub Charxiy, Maqomoti Abdurahmon Jomiy, Maqomoti Xo‘ja Ahror valiy) o‘xshash jihatlari ham mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

a) boshqa maqomotlaridagidek unda ham qahramonning, ya’ni Bahouddin Naqshbandning to‘liq genealogiyasi keltiriladi. Bu element ham barcha agiografik asarlarga xosdir. Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning siralarida uning naslu nasabi Odam Atodan boshlanganligi ta’kidlanadi. Boshqa avliyo va shayxlar haqidagi agiografiyalarda ularning nasli nasabi Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarga yoki uning sahobalariga nisbat beriladi;

b) boshqa agiografik asarlarda bo‘lganidek, maqomotlarda ham «bashoratli tushlar»ga keng o‘rin beriladi. Asar qahramoni, personajlar ko‘rgan tushlar maqomotlar syujetini rivojlantirishda

katta rol o‘ynaydi. Chunki tushlar va ularning ta’birlari orqali o‘quvchi voqealar rivoji haqida tasavvur hosil qiladi. Maqomotlarda o‘ndan ortiq tushlar syujet to‘qimasiga singdirib yuborilganki, ular o‘quvchini bo‘lajak voqealar haqida oldindan ogohlantirib, personajlar taqdiridagi o‘zgarishlar haqida xabardor qiladi. Tushlar va ularning ta’birlari o‘quvchining bayonga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi;

v) maqomotlarda real-tarixiy personajlardan tashqari afsonaviy personajlar ham uchraydi. Ular haqidagi hikoyalar Bahouddin Naqshbandning ruhiy ahvolini, amallarini mazkur personajlar bilan qiyoslash maqsadida keltiriladi. Masalan, Xizr a.s va boshqalar shular jumlasidandir;

g) maqomotlar kompozisiyasida voqealarning ichki dinamikaga ega ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Asardagi voqealar doimo muayyan makon va zamonda sodir bo‘ladi. Asar qahramoni va boshqa personajlar muntazam ravishda harakatda bo‘lib, bir viloyatdan boshqa viloyatga, bir shahardan boshqa shaharga borib keladilar;

d) maqomotlar kompozisiyasi asosiy bayonga zarar yetkazmaydigan, bilaks uni yanada jozibaliroq qiladigan ichki o‘zgarishlar mavjudligi bilan ajralib turadi. Bahouddin Naqshbandning tug‘ilishidan oldin kimlardir tarafidan aytilgan bashoratlar, Bahouddinning o‘z muridlari va hamfikrlari bilan suhbatlari va boshqalar shular jumlasidandir;

ye) maqomotlarda valiy yoki shayxning nasli nasabi batafsil hikoya qilinadi. Ularning tug‘ilishidan oldin kimlardir tarafidan ko‘rilgan bashoratli tushlar talqin qilinadi. Ularning bolalik yillari va ularga xos xoriqulodda xislatlar tavsiflanadi, diniy ishlar barobarida halol mehnat bilan shug‘ullanishlari aks ettiriladi. Shayxlarning tariqat silsilasi, tariqatdagi pir-murshidlari haqida ma’lumot beriladi va o‘zlariga munosib pir axtarishlari haqida hikoya qilinadi. Ulardan sodir bo‘lgan xoriqulodda holatlar, karomatlar bayon qilinadi. Shu bilan bir qatorda maqomotlarda Bahouddin Naqshbandning muqaddas so‘zlaridan namunalar beriladi va nihoyat maqomotlar Bahouddin Naqshband Hazratlarining vafotlari haqidagi naqllar bilan yakunlanadi;

yo) maqomotlarda bir qator naqllar, munozaralar va suhbatlar jarayonida Naqshbandiya ta’limotining o‘ziga xos qirralari ochib beriladi. Ya’ni, mualliflar muayyan bir hikoya yoki naqlda emas, balki asarning boshidan oxirigacha qadam baqadam naqshbandiya falsafasini yoritib boradilar;

6. Shuni ta’kidlash lozimki, turli manbalardan olingan turli toifadagi mualliflarning kompozisiya yasash ustida olib borgan ijodiy ishlari natijasida namunali va ayni zamonda o‘z hajmi nuqtai nazaridan ulkan bo‘lgan agiografik adabiyot namunasi – maqomotlar yaratilgan. Ularda o‘rta asr arab, fors-tojik adabiyotida mavjud bo‘lgan turli nasriy janrlarning xususiyatlari o‘z aksini topgan.

7. Maqomotlarda g‘oyaviy-badiiy maqsadni amalga oshirishda maqomotnavislar goh asarda ishtirok etuvchi qahramonlar nutqiga, goh muallif hikoyasiga, goh dialog va monologlarga, goh badiiy tasvirga murojaat qiladilar va shu tariqa asarning muayyan qurilishga yoki kompozisiyaga ega bo‘lishiga erishadilar. Maqomotnavislar muayyan tarzda voqealarni tartibga solib, yaxshi ifoda etishga katta ahamiyat berganlar. Bu usulni asosiy g‘oyani kitobxonga yetkazishda qulay yo‘l deb hisoblaganlar. Shu sababli maqomotlarda ishtirok etayotgan shaxslarning o‘zaro munosabatlari, ular siymosining shakllanishi va turli-tuman xususiyatlari bilan birga o‘z aksini topadi. Maqomot mualliflari shayx va pirlar hayotini hikoya qilar ekanlar, birinchi navbatda ularning hayotida ro‘y bergan muhim voqealar haqida xabar beruvchi naqllarni keltiradilar. Bu naqllar mualliflari ba’zi hollarda asar qahramonlarining o‘zlari bo‘lsalar, aksariyat hollarda ularning safdoshlari, muridlari, xalifalaridir. Bunday deyishimizga sabab, maqomotlardagi aksariyat naqllar kompozisiya tizimiga kiritilganda ular qaysi bir shaxs tomonidan naql qilinganligi ko‘rsatib o‘tiladi, ya’ni ta’bir joiz bo‘lsa, adresli va adressiz naqllarning mavjudligi shundan dalolatdir.

8. Maqomot mualliflarining obraz yaratish mahorati ularda Bahouddin Naqshband, uning pirlari, muridlari siymolarining tasvirlanishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bugungi kunda «Bahouddin Naqshband» deganda ko‘z o‘ngimizda donishmand, mo‘ysafid, shayx, nigohlari o‘tkir va purma’no, chehrasidan nur yog‘ilib turadigan nuroniy inson, o‘z qavmini va o‘zga qavmlarni duoi xayr bilan serob etadigan qudratlar sohibi bo‘lgan valiysirat inson siymosi namoyon bo‘ladi. Maqomotlarda bu siymo tiriklarni muayyan muddatga hushidan ketkazish va yana tiriltirish quvvatiga ega bo‘lgan, voqea-hodisalarni oldindan bashorat qiluvchi piri komil, karomat ko‘rsatuvchi avliyo sifatida ta’rif-tavsif etiladi va xuddi shu xislatlar sohibi sifatida tasvirlanadi. Bahouddin Naqshband hayoti va

faoliyati haqida hikoya qiluvchi maqomotlarda uni ko‘rgan, bilgan, u bilan hamsuhbat bo‘lgan, u zotga murid va muxlis bo‘lgan shaxslar tilidan maqomotnavislar tamonidan yozib olingan naqllarda ana shunday inson siymosi o‘z ifodasini topgan:

a) maqomotlarda yaratilgan Bahouddin Naqshband siymosi tipiklashtirilgan komil inson obrazidir. Shunga binoan tanlangan lavha va rivoyatlar, tavsiflar ham mana shu tipik obrazni tasvirlashga xizmat qiladi. Tabiiyki bunday ulkan, bunday murakkab obrazni yaratish maqomot mualliflaridan yetarli darajada iste’dod, bilim va zahmat talab qiladi. Ammo maqomot mualliflari Xoja Muhammad Porso, Saloh bin Muborak al-Buxoriy va Ali Muhsin Muhammad Boqir bu vazifaning uddasidan chiqqanlar. Ularning asarlarini o‘qigan har bir o‘quvchi ko‘z o‘ngida Bahouddin Naqshband timsolida komil insonning to‘laqonli obrazi gavdalanadi;

b) maqomotnavislar Bahouddin Naqshband obrazini tayyor holda bermasdan, unga xos bo‘lgan xislat va xususiyatlarni voqealar jarayonidagi xatti-harakati, hayotiy voqealarga qarashi, o‘z atrofidagi kishilarga munosabati, turli paytdagi kayfiyat va holatlari, oshkora nutqlari, fikr-o‘ylari, psixologik kechinmalari, munozaralar, dialoglar orqali tasvirlaydilar. Maqomotlarni o‘qiganimizda ko‘z o‘ngimizda o‘z davrining yetuk donishmandi, inson ruhiyatining mukammal bilimdoni g‘ayritabiiy kuchlar va qudratlar sohibi bo‘lgan karomatpesha avliyo siymosi namoyon bo‘ladi;

v) maqomotlardagi Bahouddin Naqshband obrazi - bu nafaqat valiylik darajasiga ko‘tarilgan so‘fiy obrazi, balki oddiy insonlarga xos xislatlar sohibi bo‘lgan inson obrazi hamdir. Bu obraz orqali maqomotlarda Haqqa yetish, Haq tomonida turib jamiyatga ta’sir o‘tkazish, adolat, insof, to‘g‘rilik, ilohiy poklik g‘oyalari ilgari surilgan. Bahouddin mehnat ahli, hunarmandlar, dehqonlar bilan do‘st, shoh-amirlarni ham nafsdan qutulib, faqrga yuz tutishga da’vat etadi, quldorlikni, zulmni qoralaydi: «Men qul emasman va menga qul kerak emas», deb chiqadi u. Xudoga banda bo‘lganlar tengdir, ya’ni Xudo oldida shohu gado teng, shu bois mening oldimda ham shohu gado tengdir», deb e’lon qiladi.

Bu g‘oyalar o‘sha davr uchun ham, hozir ham bag‘oyat qimmatli, dolzarb hisoblanadi. Hazrati Xojaning xos xislatlari, muridlik odobi, tarbiya usuli, pirlarini e’zozlashi, xullas ulug‘ rahnamo shayx

sifatidagi faoliyati maqomotlarda ul zotning pirlari, muridlari bilan munosabatida kengroq va batafsilroq yoritilgan;

g) maqomotlarda shayx valiy Bahouddin Naqshband timsolida komil inson obrazi bilan bir qatorda uning yoru do‘stlari, pirlari, muridlari, muxlislari va boshqa bir qancha obrazlar tasvirlanganini ham ko‘ramiz. Bular Sayid Amir Kulol, Qusam Shayx, Xalil ota, Alouddin Attor, Muhammad Porso, Amir Husayn, Shayx Shodi va boshqa bir qator obrazlardir.

Maqomotlarda tasvirlangan personajlarni umumiy tarzda quyidagi guruhlarga bo‘lishimiz mumkin:

1) Bahouddin Naqshbandning pirlari (Boboiy Samosiy, Sayyid Amir Kulol, qisman Abduxoliq G‘ijduvoniy).

2) Afsonaviy personajlar - Xizr alayhissalom.

3) Bahouddin Naqshbandning, xalifalari, muridlari.

9. Maqomotlardagi personajlarning tasviri tahlilidan kelib chiqqan holda mualliflarning o‘ziga xos obraz yaratish mahorati haqidagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagilarni bayon qilishimiz mumkin:

a) mazkur personajlar maqomotlarda asosiy obraz – Bahouddin Naqshband tevaragida aylanadilar. U bilan muloqotda, suhbatda, safarlarda birga bo‘ladilar. Maqomotlarning ruhi, ulardagi markaziy obrazning xarakter va xususiyatlari, uning o‘z atrofidagi kishilarga munosabatlari maqomotlarda hikoya-naql qilingan barcha voqealarni o‘zaro bog‘laydi. Har bir badiiy asarda ko‘zga tashlanganidek, maqomotlarda ham ularning mualliflari personajlarning ba’zilariga ijobiy, ba’zilariga esa salbiy munosabatda bo‘lganliklari yaqqol sezilib turadi. Mualliflar o‘zlari yaxshi ko‘rgan personajlarning faqat yaxshi, ijobiy xislatlarini, axloq-odoblarini vasf etishga harakat qilib, ularga muhabbat bilan yondashib, yoqimli tarzda tasvirlaydilar, ularni eng yaxshi bo‘yoqlar bilan va sifatlar bilan bezaydilar;

b) maqomotlardagi personajlarni ularning asar qahramoni Bahouddin Naqshbandga nisbatan pozisiyasi nuqtai nazaridan shartli ravishda ijobiy yoki salbiy personajlarga bo‘lish mumkin. Ya’ni, maqomot mualliflari Bahouddin Naqshbandga xayrixoh bo‘lgan, u bilan yaqin munosabatlarda bo‘lgan shaxslarni tasvirlashga ijobiy yondashganlar. Aksincha, unga qarshi bo‘lgan kishilarni, uning iste’dodi, qobiliyati, karomatlariga shubha bildirgan kishilarni,

ularning xarakteridagi salbiy jihatlarni ko‘proq tasvirlashga harakat qilganlari sezilib turadi;

v) maqomotlarda personajlar ularning ijtimoiy mavqei, dunyoqarashi, e’tiqodi, xatti-harakati, xulq-atvori va boshqa jihatlari nazarda tutilgan holda bir-biriga o‘xshash yoxud bir-biridan farqli xarakterga ega kishilar sifatida tasvirlangan;

g) maqomotlarda tasvirlangan obrazlar jonli, hayotiy bo‘lishini ta’minlashga jiddiy harakat qilinadi. Ularda o‘quvchini o‘ziga maftun qiladigan yoxud o‘quvchida shu obrazga nisbatan sovuq munosabat hissini uyg‘otadigan belgi va holatlar mujassamlashtiriladi;

d) tasvirlanayotgan aksariyat personajlarning xarakteri va ularga xos bo‘lgan xususiyatlar, ularning kishilarga munosabati, qiliqlari, mualliflar tomonidan bir o‘rinda to‘plab berilmasdan, tasvirlanayotgan voqea-hodisalar bilan bog‘liq holda, bu voqealarning bayoni jarayonida yoritiladi;

ye) mualliflar personajlarning u yoki bu xususiyatini tasvirlar ekanlar, ularning bu xususiyatlarni quruq so‘z bilan tasvirlashdan tashqari hayotiy misollar vositasida ochib beradilar. Ayrim personajlarning xarakteriga xos xususiyatlar, bir qator voqealar bayoni jarayonida, hayot bilan bog‘liq holda yoritiladi. Ba’zi personajlarning xarakteri ularning hayotdagi hodisalarga, atrofidagi voqealarga, kishilarga bo‘lgan munosabati, xatti-harakati, dunyoqarashi, xulqi bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Maqomot mualliflari Bahouddin Naqshbandning xalifalari, muridlari, muxlislari bo‘lganliklari sababli uning safdoshlari, unga hamfikr shaxslarni, xalifalari va muridlari obrazlarini ijobiy xislatlar sohibi sifatida tasvirlaydilar. Maqomotlarda salbiy xususiyatlari bo‘rttirib tasvirlangan siymolar ham mavjud bo‘lib, ular Bahouddin Naqshbandga nisbatan salbiy munosabatlarda bo‘lganliklari uchun shu guruhga kiritilganlar. Obrazni bu tarzda tasvirlash orqali o‘quvchiga tasvirlanayotgan davr, ijtimoiy-siyosiy sharoit haqida tasavvur hosil qilishga imkon yaratiladi.

Shunday qilib, maqomotlarda personajlarning xarakter va xususiyatlari badiiy shaklda tasvirlangan bo‘lib, fors tilidagi mumtoz adabiyot namunasi bo‘lgan maqomotlarda kishilar obrazini tasvirlashning dastlabki namunalarini ko‘ramiz.

10. Maqomotlarning badiiy-uslubiy xususiyatlari haqida shuni ta’kidlash lozimki, har bir maqomot yaxlit asar ekanligini qayd etgan holda tarkibiy qismlari bo‘lmish naql-hikoyalarning badiiy til va uslubiy jihatdan qayta ishlanishi va turli unsurlarni jamlab, bir yaxlit asar yaratilishi maqomotnavislar mahoratidan dalolat beradi. Zero, badiiy til va uslubiy umumiylik ham asar uchun muhimdir.

11. Maqomotlarning sof badiiy asar emasligini e’tirof etgan holda, ularning o‘ziga xos badiiy nasr namunasi ekanligidan kelib chiqib, maqomotlarning sof ilmiy, tarixiy asarlardan o‘zi badiiy xususiyatlari bilan ajralib turishini ko‘rsatib o‘tishga harakat qildik. Maqol, matal, aforizm, frazeologizm, mubolag‘a, tashbeh, metonimiya, jonlantirish, inversiya kabi bir qator badiiy til vositalari va badiiy tasviriy vositalaridan foydalanganligi tufayli maqomotlar nasri o‘ziga xos jozibadorlik kasb etgani aniqlandi.

12. Maqomotlarning ba’zi qismlarini (xususan, valiy va valiylik ta’rifi qismini) hisobga olmaganda, ulardagi jumlalar o‘zining soddaligi va qisqaligi bilan ajralib turadi. Uzundan-uzun, murakkab jumlalarning yo‘qligi maqomotlar mazmunini tushunishni osonlashtiradi. Umuman olganda, maqomotlar nasrining tili soddaligi bilan xalq tiliga yaqin turadi.

Shunga qaramasdan, bugungi fors tili grammatikasi nuqtai nazaridan kelib chiqib yondashadigan bo‘lsak, unda bir qator eskirib qolgan va muomaladan chiqqan elementlar ko‘zga tashlanadi. Asarda boshqa tillardan kirgan so‘zlar ham ko‘plab uchraydi. Dastlab arabizmlarning ko‘pligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Arabizmlardan tashqari turkizmlar ham asarda uchrab turadi. Asar uslubining shakllanishiga unda mavjud bo‘lgan ko‘plab diniy elementlar, istilohlar bilan bir qatorda tasavvuf istilohlarining ko‘pligi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

13. Maqomotlarning badiiy-uslubiy xususiyatlarini va tilini o‘rganish yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. XVI–XVII asr fors nasri yodgorligi bo‘lgan maqomotlarning fonetik, leksik-grammatik xususiyatlarini o‘rganish ham hali oldinda turgan vazifalar jumlasidandir. Chunki bu asarlar fors tili tarixiy lug‘ati, so‘z boyligi, grammatikasini yaratishda qimmatli manba vazifasini o‘tashi mumkin.

14. Obrazli tasvir vositasida maqomotnavislar tomonidan tasvir doirasiga tortilgan hodisalar, turmush jarayonlari, kishilarning

taqdirlari, his-tuyg‘ulari, o‘y-fikrlari bir butun, jonli holda qamrab olinadi. Ulardagi to‘laqonli, jonli, yaxlit, hayotiy manzaralar tasviri o‘quvchi qalbida go‘zallik, shodlik, faxr-iftixor tuyg‘usini uyg‘otadi va uning mukammal inson sifatida tarbiyalanishiga zamin tayyorlaydi.

15. Maqomotlar kitobxon tafakkuriga kuchli ta’sir ko‘rsatishga qodir asarlardir. Mualliflar bunday ta’sirchanlikka aniq so‘zlar yordamida yaratilgan obrazlar vositasida erishadilar, chunki bu obrazlar go‘yo mualliflar g‘oyalarini nurlantirib, o‘quvchi ongida, qalbida nozik tuyg‘ular va o‘zgarishlar tug‘dira oladi.

16. Demak, tasavvuf adabiyoti nuqtai nazaridan yondashadigan bo‘lsak, maqomotlar muayyan tarixiy shaxs – valiy, shayx, pirlarning riyozati evaziga va Haq taoloning inoyati bilan har bir maqomda hosil bo‘lgan ruhiy holat va malakalarini hamda ularda paydo bo‘lgan g‘ayrioddiy sirli xislatlar, ular tarafidan sodir bo‘lgan karomatlar va bashoratlar haqida hikoya qiluvchi asarlardir. Yuqorida zikr etib o‘tilgan agiografiya va biografiya orasidagi farqni V.O.Klyuchevskiyning: «Raznisa mejdu «jitiem svyatogo» i «biografiey» ta je, kotoraya sushestvuet mejdu ikonoy i portretom», [140.5] degan so‘zlarini yodga oladigan bo‘lsak, maqomot ham bir valiy yo shayxning quruq biografiyasi aks ettirilgan asar bo‘lmaydan, uning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq tarixiy-biografik ma’lumotlarga badiiy ishlov berish, asar syujeti to‘qimasiga bashoratli tushlar, Allohdan kelgan nidolar, afsonaviy personajlar ishtirokidagi hikoyalar, Qur’oniy syujetlar, hadislarni singdirish natijasida dunyoga kelgan va o‘quvchi ko‘z o‘ngida oddiy bir shaxs emas, balki ilohiy qudratlar hamda insoniy xislatlar sohibi bo‘lgan avliyoning hayotini tasvirlab beruvchi asardir.

17. Maqomotlarning badiiy-uslubiy xususiyatlarining o‘ziga xosligidan kelib chiqib shuni ta’kidlash lozimki, kelajakda ayrim maqomotlar va ularning mualliflariga xos bo‘lgan individual xususiyatlar tahlili natijasida islom agiografiyasi hamda ularning o‘ziga xos badiiy-uslubiy xislatlari haqidagi tasavvur yanada kengayishi va unga yana o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin. Umuman olganda islom agiografiyasining har bir turiga xos bo‘lgan badiiy-uslubiy xususiyatlarning, ularning kompozisiyasiga, tiliga xos bo‘lgan xususiyatlarning tahlili borasida qilinadigan ishlar juda ko‘p.

Jumladan, maqomotlarga qadar yaratilgan agiografik asarlardagi badiiylik darajasini, uning manbalarini aniqlash, tarixnavislik janriga mansub asarlarda inson tasviri masalasi va shunga o‘xshash masalalar o‘z javobini kutmoqda.

## ADABIYoTLAR RO‘YXATI


1. Abdullaev V.A. O‘zbek adabiyoti tarixi. - T.: O‘qituvchi, 1980. - 346 b.
2. Abdul Muhsin Muhammad Boqir. «Maqomoti Xodja Bahouddin Naqshband» / Forsiydan tarjima. Mahmudxon Mahdum Hasanxon Mahdum o‘g‘li. - T: Yozuvchi, 1996. -206 b.
3. Abu-Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. Al-jami’ as-sahih (Ishonarli to‘plam) /Arab.tarj. prof. N.Ibrohim va shoir M.Kenjabek tahriri ostida. 1-4 jild. - T: Qomuslar Bosh tahririyati, 1997.-2255 b., T.1. -560 b., T.2. -607 b., T.3. -560 b., T.4. -528 b.
4. Adabiyot nazariyasi. T.2/ M.K.Nurmuxamedov. - T.: Fan, 1978.- 448 b.
5. Attor Farididdin. Ilohiynoma.: Nasriy tarjima, talqin, tafsir/ amalga oshiruvchi: Najmiddin Komilov. - T.: Yozuvchi, 1994. - 96 b
6. Bobur Zahiriddin Muhammad. «Boburnoma». - T.: Yulduzcha, 1989. -368 b.
7. Bo‘ronov Q. B.Tasavvuf falsafasi xususida. -T.: Yozuvchi, 2000. - 40 b.
8. Buyuk siymolar, allomalar /mas’ul muharr: Xayrullaev M.Ya. - T.: A.Qodiriy nom.nashr., 1996. - 119 b.
9. Buxoriy, S, S. Dilda yor (Hazrat Bahouddin Naqshband). Badia. - T: G‘.Gulom nom.nashr., 1993.-80 b.
10. Valixo‘jaev B. Xoja Axror tarixi. - T.: Yozuvchi, 1994. - 96 b.
11. Durdona: Mirkulol va shohi Naqshband maqomotlaridan /fors.tojik tilidan. S.S.Buxoriy va I.Subxoniy tarj.: mas’ul muharrir N.Aminov. - T: Sharq, 1993. -75 b.
12. Do‘stqoraev B. Yassaviy kim edi. - T.: Abdulla Qodiriy nom. Nashr. 1994. - 80 b.
13. Jo‘raev Z. G‘oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. - T.: O‘zbekiston, 1994 - 336 b.
14. Zohidov I.V. Ulug‘ shoir ijodining qalbi. - T.: O‘zbekitson, 1970. - 495 b.
15. Zohidov P. Xoja Bahouddin Naqshband Me’moriy xazina, - T.: Movarounnaxr, 1993. - 123 b.

16. Ibrohimov N. O‘rta asrlar arab xalq adabiyoti /Mas’ul muharrir Z.I. Munavvarov. -T.: Fan, 1994. - 244 b.
17. Ibrohimov N. Ibn Battuta va uning O‘rta Osiyoga sayohati. - T.: Fan, 1993, - 104 b.
18. Idris Shoh. Naqshbandiy tariqati. ; masu’l muharrir N.G‘iyosov. - T.: O‘zbekiston, 1993, - 62 b.
19. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. - T.: O‘qituvchi, 1980. - 392 b.
20. Izzat Sulton. Bahouddin Naqshband abadiyati/ Naqshbandiya tariqatining zamonaviy ahamiyati haqida jajji tadqiqot. - T.: Fan, 1993, - 87 b.
21. Ilohiy hadislar/To‘plovchilar Hasan Husnu Ardam va Alliyul-Qoriy; Turkchadan Usmon Qo‘chqor tarj.; mas’ul muharrir: A.Mansur, - T.: Cho‘lpon, 1994.-126 b.
22. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar, - T.: Sharq, 1998. - 239 b.
23. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz takomil bosqichlari. - T: Sharq. 1996. - 144 b.
24. Islom asoslari / Tuzuvchi: N.Nosir - T: Kamalak, 1996, - 71 b.
25. Islomiy, Hamidxon. Alisher Navoiy va Xorazm avliyolari (Ustoz va shogird muammolari) – T.: Fan, 1998. - 68 b.
26. Karamatov H. Qur’on va o‘zbek adabiyoti. – T.: Fan, 1993. - 96 b.
27. Karamatov H. Xo‘rlangan payg‘ambar g‘alabasi, - T.: Fan, 1998. - 102 b.
28. Karimov.I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. - T: O‘zbekiston, 1999. - 380 b.
29. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir: Ma’ruzalar. Nutqlar. Suhbatlar. - T.: O‘zbekiston, 1995. - 278 b.
30. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. – T.: O‘zbeksiton, 1994. - 9 b
31. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T. 5. - T.: O‘zbekiston, 1997. - 384 b.
32. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson ahloqi. K.1. - T.: Yozuvchi, 1996 - 272 b.
33. Komilov N. Tasavvuf: K.2. Tavhid asrori. - T.: G‘.G‘ulom, 1999. - 208 b.
34. Komilov N. Tafakkur karvonlari. – T.: Ma’naviyat, 1999. - 217 b.

35. Komilov N. Najmiddin Kubro. - T: Adabiyot va san'at nashr, 1994. - 64 b.
36. Koshifiy X.V. Futtuvatnomai Sultoniy: yoxud javonmardlik tariqati /fors-tojik tilidan N.Komilov tarjima. - T: A.Qodiriy nom.nashr, 1994 - 112 b.
37. Lison ut-tayr haqiqati. - T: Fan, 1998. - 92 b.
38. Mallaev N.M., O'zbek adabiyoti tarixi (Filologiya fak.hamda pedagogika in-t til va adabiyot fak. uchun darslik. Mas'ul muharrir V.A.Abdullaev: Birinchi kitob (XVII asr). - T: O'qituvchi, 1965, - 748 b.
39. Me'rojnoma/ nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izoh muallifi: I.Haqqul, S.Raf'iddin. - T: Yozuvchi, 1995 - 96 b.
40. Mirzazoda X. Torixi adabiyoti tochiki (asrhoyi XIII-XV). - Dushanbe: Maorif, 1977, - 488 sah.
41. Navoiy A. Tanlangan asarlar. 15 jild. - T: G'.G'ulom nom. nashr. - 1976. - 247 b.
42. Nazarov B.N. Ali Muhammad Muxlisning «Holnoma» asari XV–XVII asr dariyzabon nasrining namunasi: Nomz.dis., avtoref... T.: 1996. - 166 b.
43. Nazarov B.N. Ali Muhammad Muxlis va uning «Holnoma» si/ Mas'ul muharrir: Mannonov A.M.. - T.: 1996. - 77 b. - (ToshDShI)
44. Naqshbandiya tariqatiga oid qo'lyozmalar fihristi / Boboxonov Sh.Z., Mansur A.; Taqrizchi A.O'rinboyev. - T: Movarounnahr, 1993, - 127 b.
45. Nasafiy (Ye.Berezikov). Hazrati Bahouddin Naqshbandiy / tarj. Va so'z boshi muallifi M.Andijoiy. – T.: Merosnur, 1992. - 110 b.
46. Nuriddinov M. Boburiylar sulolasi. – T.: Fan, 1994 - 263 b.
47. Odob bo'stoni va ahloq gulistoni /arab, fors, turk, tatar va ozar. tillaridan M.Hasaniy tarj. – T.: Fan, 1994, - 216 b.
48. Olim S. Naqshband va Navoiy /maxsus muharrir: N.Komilov. - T: o'qituvchi, 1996, - 216 b.
49. Olim S. Ishq, Oshiq, Ma'shuq. - T.: Fan, 1992, - 79 b.
50. Rumiy J. Ma'naviy masnaviy (tarj. sharhi bilan/tarj. A.Mahkam; mas'ul muharrir T.Mahmudov. - T:: Sharq, 1999. - 367 b.

51. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. - T.: Adabiyot va san'at nashr, 1979. - 214 b.
52. Rushdiy, Muhammad Siddiq. Avliyolar sultoni, turonlik valiylar, - T: Kamalak, 1995 - 174 b.
53. Sadriddin Salim Buxoriy. Bahouddin Naqshband yoki yetti pir, - T: Yozuvchi, 1993 - 16 b.
54. Saydumarov M. Haririy maqomalari o'rta asr arab saj'i yodgorligi sifatida: nomz, diss. avtoref... - T.: 1995. - 125 b.
55. Saydumarov M. Haririy maqomalari /O'z FA muxbir a'zosi N.Ibrohimov tahriri ostida. - T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1996. - 125 b.
56. Samarqandiy, Vasliy. Al-kalomu - l- afxanri manoqibi imomi A'zam. - T.: Yozuvchi, 1995, - 64 b.
57. Sulaymon Boqirg'oniy. Boqirg'on kitobi. She'rlar va doston. -T: Yozuvchi. 1991-80 b.
58. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. - T.: O'zbekiston, 1997. - 415 b.
59. Temur Ubaydulla Naqshbandnoma/Toshkent Haqiqati - 1993 - 30 okt.
60. Usmonov O. «XV-XVII asrlar Hirot madaniy muhiti va Hattak she'riyati»: dok. diss.avtoref - T; 1993. - 220 b.
61. Forobiy, Abu Nasr Fozil odamlar shahri. - T.: Abdulla Qodiriy nom. nashr. 1993. - 224 b.
62. Xoja Azim, Eshon. Hikmat /nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi Rafiddinov S. - T.: «O'zbekiston», 1993. - 88 b.
63. Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat, - T: 1995. - 184 b.
64. Haqqul I. Irfon va idrok. - T: 1998. - 160 b.
65. Homidiy H. Ko'hna Sharq darg'alari: Badiiy - ilmiy lavhalar. - T.: Sharq, 1990, - 349 b.
66. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati , N.M.Mallaev tahriri ostida. - T: O'qituvchi, 1985 - 300 b.
67. Xudoyberdiev E. Adabiyotshunolikka kirish. - T.: O'qituchi. 1995. - 270 b.
68. Shomusarov Sh.G'. Arab va o'zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili:dok. diss,avtoref. - T: 1997. - 50 b.
69. Shomuhamedov Sh.M. Fors-tojik aruzi. - T.: Fan, 1970 - 117 b.

70. Shomuhamedov Sh.M. Fors-tojik adabiyoti tarixidan qisqacha kurs (o‘quv qo‘llanma). - T: Universitet, 1992, - 102 b.
71. Shomuhamedov Sh.M. Fors-tojik adabiyoti klassiklari ijodida gumanizm taraqqiyoti. _: Fan, 1968. - 431 b.
72. Shomuhamedov Sh.M. Fors-tojik adabiyoti klassiklari. - T.: Uz. Adabiynashr, 1970. -198 b.
73. Qayumov A. Bu ohang ila bo‘lg‘asen Naqshband. - T.: 1993. - 27 b.
74. Yassaviy, Ahmad. Hikmatlar. - T.: Adabiyot va san’at nashr, 1991. - 256 b.

## RUS TILIDAGI ADABIYoTLAR

75. Abramovich G.L. Vvedenie v literaturovedenie. - M.: Nauka, 1970, - 352 s
76. Avvakum, Protopop. Jitie Avvakuma, im samim napisannoe i drugie sochineniya /pod red. N.K.Gudziya, - M.: Gospolitizdat, 1960. - 479 s.
77. Al-Gazzali. Abu Xamid. Vokreshenie nauk o vere / Per. s arab., issled. I komment. V.V.Naumkina. - M: Nauka, 1980. - 376 s.
78. Adrianova - Perets V.P. Drevnerusskaya literatura. - M. - L.: Nauka, 1964. - 41 s.
79. Al-Farabi. Sищestvo voprosov //Izbrannie proizvedeniya misli - teley Blijnego i Srednego Vostoka. - M.: 1961. - 629 s.
80. Aliev G.Yu. Persoyazichnaya literatura Indii: Kratkiy ocherk. - M: Nauka, 1968. - 248 s.
81. Aliev G.Yu. Problemi stanovleniya i razvitiya persoyazichnoy literaturi Indii XI-XII vv: Avtoref., dokt. Diss... - M.: 1974. - 41 s.
82. Apslari D.V. Xudojestvennoe otobrajenie ideynoy borbi v gruzinskoy agiografii. - Tbilisi: Mesnierba, 1982. - 221 s.
83. Arabskaya srednevekovaya kultura i literatura. - M: Nauka, 1978. - 215 s.
84. Aristotel. Ob iskusstve poezii /Per. s drevnegrech. V.G.Appeldrota. Red., per. i s komment. F.A. Petrovskogo. - M: Gospolitizdat, 1957, - 183 s. - (na pereplete: Poetika).
85. Aslanov M.G. Afganskaya literatura// BES, 2-e izd. - M.: - 1950. - T.2. - 428 s.

86. Aslanov M.G. Narodnoe roshanii i yego otrajenie v afganskoy literature XVI-XVII vv. // Sovetskoe vostokovedenie - 1995. - № 5. - 121-135 s.
87. Aslanov M.G. Afgansi, yazik i duxovnaya kultura //Narodi Peredney Azii. - 1957. - 12-14 s.
88. Asoyev, Xudoynazar. Formirovanie janrovoy sistemi prozi Afganistana na yazike dari/ K voprosam tipologii i nasionalnogo svoebraziya. Otv. Red.D.S.Kommisarov. - Dushanbe: Danish, 1988. - 223 s. - (tadj.gos.un-t).
89. Afganskaya literatura // Kratkaya literaturnaya ensiklopediya - 1962. T.1-360-363 s.
90. Babadjanov B.M. Politicheskaya deyatelnost sheyxov Nakshbandiya v Maverannaxre (1 pol.XVI v.): Avtoref, diss... - T: 1996. - 23 s.
91. Bartold V.V. Sochineniya: T.11. Raboti po istorii islama i arabskogo xalifata. - M.: Nauka, 1966. - 784 s.
92. Belyaev Ye.A. Arabi, islam i arabskiy xalifat v rannem srednevekove. - M.: Nauka, 1960. - 280 s.
93. Belyaev Ye.A. Musulmanskoe sektanstvo. - M.: Izdat. Vost. Lit., 1957. - 100 s.
94. Berezikov Ye. Svyatie islama. - Kazan, 1996. - 160 s.
95. Bertels Ye.E. Ocherki istorii persidskoy literaturi. - L.: LVI, 1928. - 204 s.
96. Bertels. Ye.E. Izbrannie trudi: Istoriya literaturi i kulturi Irana. - M.: Nauka, 1988. - 556 s.
97. Bertels Ye.E. Izbrannie trudi: Istoriya perrsidsko-tadjikskoy literaturi/ Otv. Red. I.S.Braginskiy - M.:Izd. Vost. Met., 1960, - 556 s.
98. Bertels Ye.E. Persidskaya poeziya v Buxare X v. - M.- L.: AnSSSR, 1935. - 57 s.
99. Bertels Ye. E. Sufizm i sufiyskaya literatura. M.1960.
100. Braginskiy I.S. Iz istorii persidsko-tadjikskoy literaturi. - M.: Nauka, 1972. - 524 s.
101. Braginskiy I. Kommisarov D. Persidskaya literatura : Kratkiy ocherk. - M.: Inostr. lit., 1963. - 213 s.
102. Braginskiy I.S., Semensov V.S. Problemi tradisiy, neatradisionnosti i tradisionalizma v literaturax Vostoka

//Xudojestvennie tradisii literatur Vostoka i sovremennosti. - M.: 1985. - 203 s.
103. Braginskiy I.S. Orientalistskoe literaturovodenie v Sovetskom Soyuze //Problemi Vostokovedeniya - M.: 1974, - 496 s.
104. Vvedenie v literaturovedenie: Ucheb. Posobie /Pod red. G.N.Pospelova. - M.: «Vissh. shkola.», 1976. - 422 s.
105. Vipper R.Yu. Vozniknovenie Xristianskoy literaturi. - M.-L.: 1946. - 287 s.
106. Vostochnaya poetika: Spesifika xudojestvenogo obraza. ZSB. Statey /otv. Red. P.A. Grinser. - M.: Nauka, 1983. - 261 s.
107. Gerasimova A., Girs G. Literatura Afganistana (kratkiy ocherk). - M.: Izd. Vost. Lit., 1965. - 194 s.
108. Girs G.F. Literatura nepokorennogo naroda: Ocherki obщestvenno-literaturnoy jizni pushtunov bivshey Britanskoy Indii. - M.: Nauka, 1966. - 196 s.
109. Golovechenko F.M. Vvedenie v literaturovedeniya. -M.: Vissh. shk., 1964. - 318 s.
110. Goldsier I. Islam / Per. pod red. N.Krachkovekogo. - Sankt-Peterburg - 1911. - 51 s.
111. Goldsier I. Kult. Svyatix v islame/ Muxammedanskie eskizi - M.: GAIZ, 1938, - 180 s.
112. Grigoryan S.N. Iz. Istorii filosofii Sredney Azii i Irana VII-XII vv./ S priloj.izbr.filos. proizvedeniy Farabi, Gazzali. M.: AN SSSR, 1960. - 330 s.
113. Grigoryan S.N. Srednevekovaya filosofiya narodov Blijnego i Srednego Vostoka. - M.: 1966. - 352s.
114. Grinser G.A. Dve epoxi romana. Genezis romana v literaturax Azii i Afriki. - M.: Vost. Lit., 1980. - 419 s.
115. Gryunebaum G.E. fon. Klassicheskiy Islam. Ocherk istorii (600-1258). - M.: Nauka, 1988. - 216 s.
116. Gorkiy A.M. O literature. - M.: Sov. Rossiya, 1980. - 479 s.
117. Gorkiy A.M. Materiali issledovaniya. T.1. - M.: Xud.lit., 1934. - 114 s.
118. Djavelidze E.D. U istokov tureskoy literaturi: Djelaleddin Rumi (voprosi mirovozzreniya). - Tbilisi, Mesnierba, 1979. - 302 s.
119. Djavelidze E.D. U istokov tureskoy literaturi: Yunus Emre. - Tbilisi: Mesnierba, 1985. - 299 s.

120. Djalalov S. O xudojestvennix osobennostyax «Baburname». - T.: 1961.-367 s.
121. Dmitriev L.A. Jitiynie povesti russkogo seaerv, kak payamtniki literaturi XIII-XVIII vv. - L.: 1973. - 251 s.
122. Dmitriev L.A. Janr severno russkix jitiy // TOFDRL. - M.-L.: - 1972. - T.27. - 182-202 s.
123. Dyakonov I.M. Ocherki iz istorii drevnego Irana, - M.: Nauka, 1961. - 117 s.
124. Jirmunskiy V.M. Sravnitelnoe literaturovedenie: Vostok i Zapad. - L.: 1979. - 493 s.
125. Zaridze X.N. Xudojestvennoe otobrajenie cheloveka v gruzinskoy agiografii: Avtoref.kand. diss. - Tbilisi.: 1980. - 24 s.
126. Zoxidov V.Z. Mir idey i obrazov A.Navoi. - T.: Fan. 1962. - 226 s.
127. Imnashvili V.I. Gruzinskaya rukopis XI v. «Jitiya otsov»: Avtoref., diss... - Tbilisi: 1977. - 24 s.
128. Ibragimov N. Arabskiy narodniy roman. - M.: Nauka, 1984. - 257 s.
129. Ibragimov N. Kult «svyatix» v islame po arabskim istochnikam XII-XIV vv. (Arabskaya narodnaya sira i «Puteshestvie Ibn Battuti») //Islam v istorii narodov Vostoka. - M.: 1981. - s.170-176 s.
130. Ibragimov N. Voprosi kompozisii arabskogo narodnogo romana (siri) // Sbornik nauchnix trudov TashGU. - 1981 - №5 - 46-50 s.
131. Idris Shax. Sufizm. - M.: Izd. «Kalashnikova, Komarova i K», 1994. - 446 s.
132. Inomxodjaev R. Tyurko-persidskoe dvuyaziche v literaturnoy jizni Indii XVI v. /Pod red. S. Azimdjanovoy. - T.: Fan, 1993. - 209 s.
133. Islam. Spravochnik. - T.: Uzbek. Sov.ens.., 1989. - 335 s.
134. Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. - M.: Nauka, 1991. - 480 s.
135. K voprosu o vzaimootnosheniyax mejdu vidayuщimisya sheyxami Nakshbandiya (I pol. XII v.) //Bartoldovskie chteniya. God 10-y: Tezisi dokl. i soobщ. . - M.: 1993. - s. 11-13.
136. Kak sozdavalis jitiya svyatix. - M.: Nauka, 1961. - 72 s.
137. Klyuchevskiy V.O. Drevnerusskie jitiya svyatix kak istoricheskiy istochnik. - M.: Nauka, 1989, - 465 s. (Reprintnoe izd-e).

138. Kratkaya istoriya literatur Irana, Afganistana, Tursii. Kurs leksiy/ Pod red.: A.N.Boldireva. - L.: LGU, 1971. - 119 s.
139. Kushev V.V. Afganskie poeticheskie proizvedeniya XVII-XVIII vv. i ix rukopisi kak istoricheskiy istochnik//Sovetskoe vostokovedenie (problemi i perspektivi). - M.: 1988 - 70-73 s.
140. Kushev V.V. Afganskaya literatura. - M.: 1992. - 192 s.
141. Koran./ Per. i komm. I.Krachkovskogo. - M.: Nauka, 1963. - 367 s.
142. Literatura Blijnego Vostoka i Sredney Azii// Istoriya vsemirnoy literaturi. - 1984. - T.2. - 205-277s.
143. Lixachev D.S. Izobrajenie lyudey v jitiynoy literature konsa XIV-XV vv.//TODRL. - M.L.: 1956. - T.12. - 105-115 s.
144. Lixachev D.S. Izobrajenie lyudey v letopisi XII-XIII vv.//TODRL. - M.L. - 1954. - T.10. - 7-43 s.
145. Lixachev D.S. Poetika drevnerusskoy literaturi. Izd. 2-e, dop. - L.: Xud.lit., 1971. - 414 s.
146. Lixachev D.S. Ravitie russkoy literaturi X-XII vv.. - L: Nauka, 1973. - 203 s.
147. Lixachev V.D. i Lixachev D.S. Xudojestvennoe nasledie drevney rusi i sovremennost. - L.: Nauka, 1971. - 121 s.
148. Mannonov A.M. U istokov afganskoy klassicheskoy literaturi. - T.: Fan, 1994. - 166 s.
149. Mannonov A.M. Voprosi panteizma v tvorchestve poeta-roshaniysa Mirza-xana Ansari//Vostokovedenie (literaturovedenie. Sb.nauchnix trudov TashGU - T.: 1970. - №343. - 32-35 s.
150. Mannonov A.M. «Xayr ul-bayan» Boyazida Ansari// Klassicheskaya literatura Vostoka. - M.: 1972. - 32-42 s.
151. Mannonov A.M. Bayazid Ansari, Mirza - Xan Ansari, Muxammad Totak //Osnovnie proizvedeniya inostrannoy Xudojestvennoy literaturi. - M., 1975. - 42-43 s.
152. Mannonov A.M. O divane Mulli Arzani // «Pashto» T.5. - Kabul, 1981. - №1 - 77-78s.
153. Mannonov A.M. K istori izucheniya «Xayr ul-bayana» Boyazida Ansari// «Pashto» T.4. Kabul. 1981. - № 3 - 94-114 s.
154. Mannonov A.M. K xarakteristike rannix pamyatnikov pushtunskoy literaturi // Trudi TashGU. Seriya «Vostokovedenien» - 1981. - №589. - 23-24 s.

155. Mannonov A.M. Ali Muxammad Muxlis i yego divan iz Britanskogo muzeya // «Pashto» T.7. - Kabul.: - 1983 - 1984 - №1 - 2 - s. 76-91.
156. Mannonov A.M. Osnovnie janri roshaniyskoy poezii //Vostokovedenie. Sb. Nauchnix trudov TashGU. - 1986. №564. - 3-15 s.
157. Mannonov A.M. Roshaniyskaya literaturnaya shkola na pushtu v XVI-XVII vv. (istochniki i problemi rekonstruksii): Avtoref., diss., .. - T.: 1996. - 53 s.
158. Masson V.M. Romodin V.A. Istoriya Afganistana, v dvux tomax T.2. Afganistan v novoe vremya. - M,: Nauka, 1965. - 551 s.
159. Masse E.A. Islam: Ocherki istorii per. s. frans./Pod red. I s predis. Ye.A.Belyayeva. - Izd. 2 - ye. - M.: Izd. Vost. Lit., 1963., - 229s.
160. Menabe D.L. Nekotorie voprosi vzaimootnosheniya gruzinskoy agiografii i istoricheskoy literaturi: Avtoref., diss... - Tbilisi.: - 1918. - 19 s.
161. Mes A. Musulmanskiy renessans /Per. s nemes., pod red., bibl. ukazatel D.B. Bertelsa. - Izd. 2-e. - M.: Nauka, 1973, - 473 s.
162. Muradov O.M., Polyakova Ye.A. Transformatsiya mifologicheskix i legendarnix obrazov v tadjiksko-peridskix xronikax XI-XV vv. - Dushanbe: Donish, 1986. - 220 s.
163. Muxammad ibn Abdal-Karim ash-Shaxristani. Kniga o religiyax i sektax. chast2. Islam/ Per. s arab., vved. I komm. S.M.Prozorova. - M.: Nauka, 1984. - 272 s.
164. Muxammadxodjaev A. Mirovozzrenie Farididdina Attara. - Dushanbe,:Donish, 1974. - 116 s.
165. Muxammadxodjaev A. Problemi sub'ekta i ob'ekta v teorii poznaniya sufizma// Metodologicheskie i mirovozrencheskie problemi istorii filosofii stran Vostoka. - M.: - 1986. - chast 1. - 19-21 s.
166. Muxammadxodjaev A.I. Odilov N.F. Mirovozzrenie Djalaliddina Rumi. - Dushanbe. Donish,: - 1974. - 219 s.
167. Muxammadxodjaev A. Ideologiya Nakshbandizma - Dushanbe: Donish, 1991. - 93 s.
168. Muxibova U. Prozaicheskiy janr «Varta» v literature na bradje XIII v. (na materiale «Chaurasi Vayshnavanki Varta» Gokulnatxa) ; Avtoref., diss. - T.: - 1995. - 22 s.

169. Muxtarov T.A., Sattiev L.I., Shamusarov Sh.G.. Ocherki srednevekovoy arabskoy prozi. - T.: Fan, 1992. - 219 s.
170. Ovsyannikov M.F. Istoriya esteticheskoy misli. - M.: Vissh.shk., 1984. - 325 s.
171. Nazarov B. Koranicheskie istoki obraza uchitelya (nastavnika) v sufiyskoy literature //Vostokovedenie (literaturovedenie) - T.: - 2000. - №1. - 66-70 s.
172. Osmanov M.N. Stil persidsko-tadjikskoy poezii IX-X vv. - M.: Nauka, 1974. - 263 s.
173. Petrushevskiy I.P. Islam v Irane v VII-XV vv. (Kratkiy kurs) . - L.: LGU, 1996. - 400 s.
174. Pospelov G.N. Teoriya literaturi M.: Vissh.shk., 1978. - 351 s.
175. Pospelov G.N. Problemi istoricheskogo razvitiya literaturi. - M.: Vissh.shk., 1974. - 271 s.
176. Pospelov G.N. Problemi literaturnogo stilya, - MGU., 1970. - 330 s.
177. Problemi vostokovedeniya: Aktualnie voprosi vostochnogo literatrovedeniya. - M.: Nauka, 1974. - 496 s.
178. Problemi janra i stilya literaturnogo proizvedeniya. - Vladivostok.: - 1988. - 195 s.
179. Radjabov M. Abduraxman Djami i tadjikskaya filosofiya XV veka. - Dushanbe.: Irfon, - 1968. - 318 s.
180. Ripka, Yan. Istoriya persidskoy i tadjikskoy literaturi. - M.: progress, - 1970. - 311s.
181. Rouzental F. Torjesvo znaniya: Konsepsiya znaniya v srednevekom islame. - M.: Nauka. - 372 s.
182. Rudakov A.P. Ocherki vizantiyskoy kulturi po dannim grecheskoy agiografii. - M.: 1977. - 235 s.
183. Rumi. Poema o skritom smisle. - M.: 1986. - 270 s.
184. Fish, Radiy. Djalaliddin Rumi. - 3-e izd. - M.: Nauka. - 1987. - 271 s.
185. Semantika obraza v literaturax Vostoka. - M: Vost.lit. RAN, - 1998. - 286 s.
186. Slovar literaturovedcheskix terminov (Red, - sost. L.I.Timofeyev i S.V.Turaev. - M.: Prosveщenie, - 1974. - 509 s.

187. Sobranie Vostochnix rukopisey Akademii Nauk Uzbekskoy SSR. T.3. /pod red. I predisya. A.A. Semenova. - T: izdat. An.UzSSR, - 1955, - 555 s.
188. Stepanyans M.P. Istoricheskie sudbi //Voprosi filosofii. - M.: - 1980. - №6. - 101-112 s.
189. Stepanyans M.P. Konsepsiya «Sovershennogo cheloveka» v tvorchestve Djalaliddina Rumi i Muxammada Ikbala// Tvorchestvo Muxammada Ikbala. - M.: - 1992. - 136-152 s.
190. Stori. U.A. Persidskaya literatura. Bio-bibliograficheskiy obzor, - M.: Nauka, - 1972. - 1884 s.
191. Sufizm v kontekste musulmanskoy kulturi [sb. statey]. - M.: Nauka, - 1989. - 337s.
192. Suxravardi., Shixab ad-din Yaxya. Vozzreniya filosofov /Predisl. i primech. Mamedova Z.D. - Baku.: ELM. - 1986. - 29 s.
193. Tillabaev R. Rasprostranenie Nakshbandizma v Indiyu. Andijan. - 1994. - 54 s.
194. Tillabaev A. Sredneaziatskie agiograficheskie sochineniya XV–XVI vv. kak istoricheskiy istochnik (Jitiya sheyxov Nakshbandiya): Avtoref., diss... - T: - 1994. - 53 s.
195. Timofeyev L.I. Osnovi teorii literaturi: Ucheb.posobie. izd. 5-e. - M.: Prosvещenie, 1976. - 548 s.
196. Ter-Davtyan-Arevshatyan. Armyanskaya jiteynaya literatura XI-XVvv.: Avtoref., diss,..- Yerevan.: - 1981. - 22 s.
197. Tolstoy A. O literature: Stati, vistupleniya, pisma [sost. Podgotovka tekstov i primech. Yu.A. Krestinskogo] - M.: - 1956. - 447 s.
198. Trimingem Dj. S. Sufiyskie ordeni v islame /Per. s angl. pod red. I predisl. O.F.Akimushkina. - M.: Nauka, 1989. - 326 s.
199. Usmanov M.A. Islam. Spravochnik. - T.: 1989. - 335 s.
200. Usmanov A. Geratskaya kulturnaya sreda XV v. i Xatakskaya klassicheskaya poeziya:Avtoref. Diss., T.: - 1992. - 45 s.
201. Fitrat M.S. Tvorchestvo Abduraxmana i Afganskiy sufizm. XVII.: Avtoref, diss... - M: 1970. - 22 s.
202. Xayrullaev M.M. Ob ideynix istokax srednevekovogo panteizma //Obщestvennie nauki v Uzbekistane. - 1966. - №2. - 30-35 s.
203. Xayrullaev M.M. Mirovozrenie Farabi i yego znachenie v istorii filosofii. - T.: Fan., 1967. - 355 s.

204. Xalidov A.B. Arabskie rukopisi i arabskaya rukopisnaya tradisiya. - M.: Nauka, - 1985. - 304 s.
205. Xalilov Sh.X. Yazik azerbaydjanskogo pismennogo pamyatnika XV v. «Asrarname». - Baku, - ELM, - 1974. - 176 s.
206. Shamusarov Sh.G. Makamat al-Xamadani, kak obrazes arabskoy prozi, - M.: Nauka, 1988. - 107 s.
207. Shiller F. Sobranie sochineniy. T.3. Prestupnik iz-za poteryannoy chesti. - M.: - 1956. - 497 s.
208. Kaxadze N.P. Siriyskaya, arabskaya i gurzinskaya versiya «Jitie svyatoy Nasimi»: Avtoref., diss... - Tbilisi., 1986. - 34 s.
209. Yandarev A.D. Sufizm i ideologiya nasionalno-osvoboditelnogo dvijeniya / Iz istorii razvitiya obщestvennix idey v checheno-ingushetii v 20-70-e godi XIV v.) - Alma-Ata.: 1975. - 177 s.
210. Yassaviya i Nakshbandiya v Maverannaxre: iz istorii vzaimootnosheniy (sr.XV-XVI vv.) //Ucheniya Yassavi - T. Turkistan,: 1996. - s.75-96.

## Tojik tilidagi adabiyotlar

211. Afsahzod A., Tahavvuli afkori Abdurahmon Jomiy.- Dushanbe: Irfon, 1981,- 326 sah.
212. Mirzazoda X., Torixi adabiyoti tochiki (asrhoyi XIII-XV).- Dushanbe: Maorif, 1977, - 488 sax.
213. Odilov N., Chahonbini Chaloliddin Rumi. - Dushanbe: Adib, - 1964. - 220 sax.
214. Olimov K.,Chahonbini Abdullohi Ansoriy. - Dushanbe: Maorif,-1964. 133 sax.
215. Xazratqulov M., Tasavvuf. - Dushanbe: Irfon, -1988.- 270 sax.
216. Qurbon Vose'. Oyini rindi maslakii Hofiz. -Dushanbe., -Irfon, 1991.
217. Qurbon Vose'. Nomai Chavonmardi. - Dushanbe., Irfon, - 1986.

## Ingliz tilidagi adabiyotlar

218. Alberry A.J. Sufism, An accout of Islam. London 1950.
219. Alberry A.S. Doctrine of Sufism? London, 1977.
220. Lejden J. On the Roshenian sect and its founder Bayazid Ansari.// «Asiatic Researches» - Vol. - London. 1862.

221. Rizvi S.F.F., Rawshaniya movement, // «Abr - Nahrain». - Vol. Leiden, 1967.
222. Rizvi S.A.A. Rawshaniya movement History of Muslim historiography - 1968.
223. Rousenthal F. A. History of Muslim historiography. - 1952.
224. Shafi M. Bayazid Ansary, // « The Encyclopaedial of Islam» Leiden, 1960.
225. Shimmel A.Mistical dimensions of Islam. Chappel Hill.1976.
226. Nicholson R.A.Mistics of Islam.,L.1976.
227. The Muslim magazine.USA.,vol.2 No.4.1999.

## Fors tilidagi adabiyotlar

**228.** ابن سيرين، تعبير خواب، تهران **137**

**229.** بهاء الدين حرم شاهي، حافظ نامه، تهران، **1996** (شرح الألفاظ، مفاهيم كليدي وابيات دشوار حافظ)

**230.** جلال الدين رومي، مثنوي معنوي، جابنبكسون، تهران، **1978**

**231.** جلال الدين همائي، مولوي نامه، جلد **1**، **2**، تهران، **1990**

**232.** حسين رزمجو انسان ارماني و كامل، تهران، **1989**

**233.** حسين عميد، فرهنگ فارسي، تهران، **1371**

**234.** ذبيخ الله صفا، تريخ ادبيات ايران، تهران، **1371**

**235.** سيد جهفر سجادي، فرهنگ لغات و اصطلاحات و تعبيرات عرفاني، تهران، **1991**

**236.** سيد عبد الجيد حيرت سجادي، كزبده أي از تاشيد قران به نظم فارسي، تهران، **1381**

**237.** عبد الحسين زرين كوب، بحر در كوزه (نقد و تفسير قصه ها و تمثيلات مثنوي) تهران، **1998**

**238.** بله بله تا ملاقات خدا، تهران، **1371**

**239.** عباسي كي منش، برتو عرفان (شرح اصظلاحات عرفاني حكايات شمس) تهران، **1997**

**240.** علي اكبر دهنحدا، لغت نامه، تهران، **1371**

**241.** محمد معين، فرهنگ فارسي، تهران، **1371**

**242.** غياث اللغات، بشاور

## Manbalar

243. صلاح بن مبارك البخاري، انيس الطالبين و عدة السالكين (مقامات حضرت خواجه نقشبند) – Inv. raqami 2520\II

244. صلاح بن مبارك البخاري، مقامات خواجه بهاء الدين نقشبند – Inv.r. 11594

245. خواجه محمد بارسا، مقامات خواجه بهاء الدين نقشبند – Inv.r. 2520

246. ابو الحسن محمد باقر بن محمد علي، مقامات حضرت خواجه بزرگ – Inv.r. 9519

247. خواجه محمد پارسا، مقامات خواجه علاء الدين عطار II\ Inv.r. 2520

248. شهاب الدين بن بنت امير حمزه بن امير كلان، مقامات سيد امير كلان – Inv.r. 7222

249.

250. ابو القاسم بن محمد بن مسعود البخاري، مناقب و شمائل حضرت خواجه علاء الدين عطار – Inv.r. 11399

251. مولانا كمال الدين عبد الواسع النظامي ولد مولانا جلال الدين مطهر البخاري، مقامات مولوي جامي – Inv.r. 1354

252. عبد الغفور لاري، مقامات عبد الر حمن جامي– Inv. raqami 2305\I

253. عبد القاضي بن برهان الدين بن خواجه محمد رضا، مقامات خواجه عبيد الله احرار – Inv.r. 8237

254. مناقب مولانا لطف الله، مولانا مير محمد امغتي طاشكندي – Inv.r. 5785

255. فخر الدين علي بن حسن الوائظ، رشحات عين الحياة – Inv.r. 1788

256. عليشير نوائي، نسائم المحبة من شمائم العنوة – Inv.r. 1728

257. عبد الرحمن جامي، نفحات الانس من حضرات القدس – Inv.r. 4409

258. خواجه محمد پارسا، رساله قدسيه – Inv.r. 2517

259. خواجه محمد پارسا سلسله طريق خواجگان – Inv.r. 12540

## MUNDARIJA

Muqaddima .....3
1bob. ISLOM AGIOGRAFIYaSI VA SO‘FIYoNA NASRIY ADABIYoT JANRLARI
1.1 Islom agiografiyasining tasnifi va tasavvuf adabiyotiga ta’siri .....11
1.2 So‘fiyona agiografik adabiyot janrlariga xos xususiyatlar .....18
1.3 Maqomotning boshqa agiografik asarlardan farqli jihatlari .....27
1.4 Naqshbandiya tariqatiga oid maqomotlar manbalari tahlili .....46
1.5 Naqshbandiya talimotining asoslari .....57
II bob. MAQOMOTLARNING TUZILIShIGA TA’SIR KO‘RSATGAN ASOSIY OMILLAR
2.1 Kompozisiya va g‘oya.....70
2.2 Maqomotlardagi hikoyat va rivoyatlarning syujeti hamda Kompozisiyasi .....100
III bob. MAQOMOTLARDA ShAYXLAR SIYMOSINING GAVDALANIShI
3.1 Maqomotlarda Bahouddin Naqshband siymosining tasviri .....115
3.2 Personajlar tasvirining o‘ziga xos jihatlari .....135
a) Bahouddin Naqshbandning pirlari tasviri
b) Xizr alayhissalom tasviri
v) Muridlar tasviri
IV bob. MAQOMOTLARNING BADIIY-USLUBIY XUSUSIYaTLARI
4.1 Maqomotlarning mushtarak (tipologik) xususiyatlari.....153
4.2 Maqomot mualliflariga xos bo‘lgan individual uslubiy xususiyatlarning tahlili va asosiy jihatlari.....173
4.3 Maqomotlarda qo‘llanilgan badiiy til vositalari va san’atlari.....182
4.4 Maqomotlardagi she’riy parchalar .....191
XULOSA .....202
ADABIYoTLAR RO‘YXATI.....212